

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ashur Nazarovich Normurodov

**JISMONIY TARBIYA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan Bakalavriyat ta'lif yo'nalish talabalari uchun o'quv  
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*

**«TAFAKKUR-BO'STONI»**

Toshkent - 2011 y

UDK: 796 (075)  
N79

**Jismoniy tarbiya, bakalavriyat ta'lim yo'naliish talabalarini uchun o'quv qo'llanma / A. Normurodov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: «TAFAKKUR-BO'STONI». 2011. 192 bet.**

**BBK 75ya73**

Jismoniy tarbiya O'zbekiston Respublikasi xalqlari milliy madaniyatining ajralmas qismi, jismoniy va ma'naviy kamolotining muhim vositasini bo'shib, respublika xalqlari o'rutasida do'stlikni mustahkamlash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot ishiga xizmat qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar tayyorlamaydigan oliy ta'lim muassasalarini uchun mo'ljalangan bo'shib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muvofiqlashtirilgan kengashining 2003 yil 29 martdagisi qarori bilan tasdiqlangan DTS va namunaviy dastur asosida tuzilgan. Qo'llanmada oliy o'quv yurti bakalavriyati talabalarining jismoniy tarbiya faniga oid o'zlashtirishlari zarur bo'lgan nazariy bilimlar hamda dars vaqtida va darsdan so'ng talabalarining bo'sh vaqtlarida mustaqil shug'ullanishlari uchun amaliy maslahatlar o'z aksini topgan. Shuningdek, olimpiada o'yinlari, harakati va olimpiada falsafasi, O'zbekiston Respublikasi hududida Jismoniy tarbiya fanining tarixi va rivoj topishi, O'zbekiston sportchilarining jahon, Osiyo championatlari birinchiliklari va xalqaro musobaqalardagi ishtiroki to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan.

### **Taqribchilar:**

**R.Matkarmov**, O'zDITI "Og'ir atletika" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**L.Morgunova**, ToshDSHI "Jismoniy tarbiya" kafedrasi mudiri,

**ISBN – 978-9943-362-31-4**

**№ 1511-6311**

**©«TAFAKKUR-BO'STONI»**

## **So‘z boshi**

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘sib kelayotgan avlodning sog‘lom bo‘lishiga bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida Vatanimizning kelajagi – farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma’ruzasida «Biz sog‘lom avlodni tarbiyalab yetkazishimiz kerak. Sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz», – deydi. “Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta’sis etilganligi, xalqaro xayriya jamg‘armasi tashkil qilinganligi ham kelgesida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalab yetkazishga xizmat qiladi.

Qo‘llanmada jismoniy tarbiya fanining nazariy va amaliy masalalari yoritib berilgan. Nazariy bo‘limda u yoki bu mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari, jismoniy tarbiya va sport tarixi respublikaning jug‘rofik iqlim sharoitiga moslab qurilgan mavjud sport inshootlari, yoshlarni milliy sport o‘yinlariga o‘rgatish hamda ularda zarur harakat ko‘nikmalarini hosil qilib borish masalalari bayon qilingan.

Qo‘llanmada nazariy ma‘lumotlar bilan birga issiq iqlim sharoitini inobatga olib, jismoniy tarbiya va sportning amaliy mashg‘ulotlarini, milliy sport turlarini, bayram marosimlarida qo‘llanishini ko‘rsatib o‘tishga urinib ko‘rdik.

Kitobning maqsadi jismoniy tarbiya va sportni davlat dasturi asosida yoshlarga jismonan tarbiya berish, talabalarda sport bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilishda yengillik berib, ularning sport mahoratini oshirish, shu bilan birga olgan bilim va ko‘nikmalarini tanlagan kasbi bo‘yicha keyingi ish faoliyatida qo‘llashga o‘rgatishdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil 14-yanvar, 2000-yil yangi tahririyati). O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini mamlakatimiz aholisi sog‘ligiga bo‘lgan g‘amxo‘rligidan va yoshlarimiz salomatligiga bo‘lgan e’tibordan dalolat beradi.

“O‘zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmon O‘zbekiston yoshlarini sog‘lomlashtirishga bo‘lgan g‘amxo‘rlikning yana bir namunasidir.

1993-yil 11-martda O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport institutida bo‘lib o‘tgan respublikadagi shu soha faoliarining yig‘ilishiда O‘zbekistonda mazkur sohaning ahvoli va uni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari ko‘rib chiqildi.

1993-yilning 14-15 mayida O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv muassasalarini rektorlari, o‘rta maxsus maktablarning direktori, jismoniy tarbiya kafedralari mudirlari, o‘qituvchilarini yig‘ilishib, talabalar hamda o‘quvchi yoshlar sog‘ligini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni yoshlar hayotiga singdirish, turli kasalliklarning oldini olish, yoshlarga sportning xohlagan turi bilan shug‘ullanishga sharoit yaratib berish masalalarini ko‘rib chiqishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yilning mayidagi 271-sonli “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori (yangi tahriri 2005-yilning mayidagi,), hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzlusiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2003-yil 3-iyunidagi 244-sonli Qarori, mamlakatda sog‘lomlashtirish va yuqori malakali sportni rivojlantirishga, o‘quv maskanlarida, korxonalarda, qishloqlarda va mahallalarda jismoniy tarbiya mashhg‘ulotlarini tashkillashtirishga e’tiborni yanada kuchaytirdi.

Mana shu va boshqa shunga o‘xshash amaliy tadbirlar “Sog‘lom avlod uchun” dasturini bajarishga xizmat qilmoqda.

Qo‘llanmaning davlat tilida nashr etilishi o‘zbek talaba yoshlari orasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar sonining ko‘payishiga, bu esa o‘z navbatida talabalar sog‘ligini mustahkamlab, mustaqil O‘zbekistonning farovonligini oshirishga hissa qo‘sadi deb umid qilamiz.

Muallif o‘quv qo‘llanmaning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha taklif va mulohazalarni mammuniyat bilan qabul qiladi.

## KIRISH

Jismoniy tarbiya O'zbekiston Respublikasi xalqlari milliy madaniyatining ajralmas qismi, jismoniy va ma'naviy kamolotning muhim vositasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining xalqiari o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot ishiga xizmat qiladi.

1991- yilning sentyabrida O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, yangi demokratik davlat sifatida butun dunyoga tanilgach, ta'lim bo'yicha o'quv muassasalarida ham keng miqo'sha iqtisodiy islohotlarni amalga oshinshga kirishildi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqariigan Farmonlar Respublika aholisini sog'lomlashтирish, xalq sog'ligini mustahkamlash uchun jismoniy tarbiya va sport katta vositaga aylanish qoldi.

1992- yilning 14- yanvarida O'zbekistonda "Jismoniy tarbiya va sport haqida"gi Qonun (yangi tahriri 2000- yilning 26- mayi) qabul qilindi.

Shunga asosan Milliy Olimpiada Qo'mitasi 1992- yilning 21- yanvarida tuzildi, va 1993- yil 17- sentyabrda Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi 101-sessiyasida tan oldi. Shundan so'ng respublika sport federatsiyalarini Osiyo va jahon federatsiyalari tan olib, o'z tarkibiga a'zo qilib oldi. Shundan so'ng O'zbekiston sportchilari Osiyo va jahon birinchiliklarida, Olimpiada o'yinlarida mustaqil ravishda O'zbekiston bayrog'i ostida qatnashish huquqiga ega bo'ldilar.

1993- yildan boshlab har yili aprel oyining uchinchi yakshanbasi jismoniy tarbiya va sport xodimlarining kasbiy bayram sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

O'zbekiston sportchilari jahon miqyosida bo'layotgan musobaqalarda yuqori natijalarga erishmoqda. Masalan, 1991- yil Manila (Filippin) shahrida shaxmat bo'yicha bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarida respublika shaxmat jamoasi a'zolari jahonda kuchli hisoblangan AQSh, Yugoslaviya, Angliya, Isroil jamoalarini ortda qoldirib, Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. 1993- yilning yanvarida Minsk (Belorus) shahrida sambochi-kurashchilarimiz jamoasi jahon birinchiligidagi faxrli uchinchi o'rinni egallashdi. 1993- yilning fevralida Praga (Chexiya) shahrida muz ustida raqs bo'yicha jahon championatida hamyurtlarimiz A.Stervadu va Yu.Razgulyaevlar faxrli

uchinchi o'rinni egallashdi. Shu yili Avstriyaning poytaxtida va Yaponiyada freystal bo'yicha jahon championatida Yelena Cheryazova oltin medal sovindori bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil fevralda chiqargan «Iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni tarbiyalash to'g'risida»gi farmoni sportchilarga ham taalluqlidir.

1993- yilning 19- martida e'lon qilingan “O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish to'g'risida”gi farmon davlatimiz rahbariyatining O'zbekiston yoshlarini sog'lomlashtirishga bo'lgan g'amxo'rlikning yana bir namunasidir.

1993- yilning 14–15- mayida O'zbekiston Respublikasi oliv o'quv muassasalari rektorlari, kollejlarning direktorlari, jismoniy tarbiya kafedra mudirlari va o'qituvchilari yig'ilishib talabalar hamda o'quvchi yoshlar sog'ligini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni yoshlar hayotiga singdirish, kasalliklarning oldini olish, yoshlarga sportning o'zлari xohlagan turi bilan shug'ullanishga sharoit yaratib berish masalalarini ko'rib chiqishdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 27- mayidagi “O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish to'g'risida” hamda 2003-yil 3- iyundagi “O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzuksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida”gi qarorlarida maktabgacha o'quv maskanlaridan boshlab mamlakat aholisining sog'ligini saqlash va mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish ta'kidlangan.

Yuqorida zikr etilgan va boshqa shunga o'xshash amaliy tadbirlar “Sog'lom avlod uchun” dasturini bajarishga xizmat qilib kelmoqda.

## I BOB. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixi

Jismoniy madaniyat va sport hamisha jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib kelgan. Bizgacha mavjud bo'lgan ijtimoiy jamoalar ham o'z rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat bergen. Jismoniy madaniyat va sport jamiyatdag'i hukmron sinflarning manfaatini ifodalashga xizmat qilib uni himoya qilgan va ularga yo'l ko'rsatgan. Quyidagi hujjatlar buning yorqin misolidir.

Abu Ubayd Abd al-Vohid ibn Muhammad al Jo'zjoniy qoldirgan manbalardan ma'lum bo'lishicha, Markaziy Osiyoning mashhur olimi, o'rta asr yuksalishning ishtirokchi laridan biri Abu Ali ibn Sino 1002 – 1011 - yillarda Xorazmshoh saroyida xizmat qilganida, Xorazmshohning vaziri Abdul Hasan Ahmad ibn Muhammad as-Sabahdan "Tozalik haqida risola" nomli kitob yozishga buyurtma olgan. U Abu Ali ibn Sinoning butun dunyoga mashhur "Tib qonunlari"ga asos bo'ldi. Olim o'z risolasini quyidagi beshta mustaqil boblarga bo'lган:

- |               |                      |
|---------------|----------------------|
| 1. Toza havo. | 4. Jismoniy harakat. |
| 2. Hammom.    | 5. Uyqu va tetiklik. |
| 3. Taom.      |                      |

Ibn Sino o'z risolasining to'rtinchı bobida: "Jismoniy tarbiy, mashqlari saviya va son jihatdan juda uzoq va kishini charchatadigan bo'lmasligi kerak. Ular juda tez bajarilishi ham kerak emas, aks holda ular qisqa davom etishiga qaramay, kishiga uzoq bo'lib tuyuladi, shuningdek, bu mashqlar o'ta yengil bo'lmasligi ham kerak, aks holda uzoq davom etadigan mashqlar, kishiga juda qisqa bo'lib tuyulmasin" – deydi.

Bundan ko'rindaniki, Abu Ali ibn Sino o'rta asrlardayoq jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining inson hayotida tutgan o'rni va mohiyatini nazariy asoslab bergen. Bu nazariy asoslarga tayanib sobiq ittifoq jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining nazariy asoschilari va pedagoglari P.F.Lesgaft, L.P.Matveyev, N.G.Ozolin, V.M.Zasiorskiy va boshqalar hozirgi zamon sport va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari nazariyasini ishlab chiqishdi va o'zlarining nazariy asoslarini ilgari surishdi.

"O'zbek milliy kurashi ko'p asrlik tarixga ega. Kurash haqidagi o'ta jonli manzaralar Alpomish (Hakimbek)ning qalmoq pahlovonlari bilan Barchinoy qo'ygan shartlaridan biri, kurashda ham o'z aksini

topgan. Agar "Alpomish"ning paydo bo'lganiga ming yildan oshganini hisobga olsak, kurash musobaqalari bundan bir qancha asrlar avval shakllanganligini guvohi bo'lamiz".

XIII-XIV asr o'zbek poeziyasining atoqli namoyandas, mashhur ruboiy navis shoir, otashin xalqparvar Pahlavon Mahmud (1247-1326) o'z davrining mashhur sportchisi bo'lgan. U milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqalarda qatnashib, hamma raqiblarining kuragini yerga tekkizganda, g'oliblik evaziga mukofotiar emas, balki musobaqa uyuşhtirgan mamlakatlarning hukmronlaridan Xorazmdan haydab keltirilgan qullar va asirlarini ozod etishni suragan. Bu esa o'sha davrda, sportning kurash turi Xorazm vohasida gurkirab rivojlangan hamda u xalq orasida juda ommabop bo'lganligidan darak beradi.

Jismoniy tarbiya va sportning keyingi taraqqiyoti temuriylar davriga to'g'ri keladi. Markaziy Osiyo hududida markazlashgan davlat tizimining barpo etilishi va o'sha davrning eng kuchli va yengilmas qo'shinlarini tuzgan Amir Temur o'z askarlarining jismoniy tayyorgarligiga katta e'tibor bergen. "Temurnoma"da yozilishicha, Temur o'spirinlik davrida tengdoshlari bilan o'zining ko'p vaqtini harbiy o'yinlarga ajratgan, pirovardida Temurning o'zi va shu o'yinlarning boshqa ishtirokchilari ham katta jismoniy va harbiy tayyorgarlikdan so'ng buyuk lashkarboshilar bo'lib yetishishgan. Ular temuriylar imperiyasining tashkil topishida, yuksalishida va mustahkamlashida katta rol o'yanaganlar.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning asarlarida jismoniy tarbiya va sport g'oyalari oldinga surilib, u o'z qahramonlarini jismonan kuchli, baquvvat va chiroyli insonlar sifatida ta'riflagan. Filologiya fanlar doktori, professor Ahmadjon Quronbekov Alisher Navoiy ijodi bo'yicha o'z izlanishidan quyidagilarni xabar qiladi.

Navoiy zamoniga kelib kurash tushadigan pahlovonlar saroyda va saroy a'yonlari oldida yuksak nufuzga ega bo'lgan. Bunga misol Amir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad Abu Said bilan do'stligini ko'rsatish mumkin.

Hazrati Alisher Navoiyni sportga va sporschilarga bo'lgan izzat va hurmatini, uming "Majolis un-nafois" asarining to'rtinchı majlisida Pahlovon Muhammad kushtigir (kurashchi demakdir) haqida shunday ma'lumot beradi; "Pahlovon Muhammad Qushtigir (kurashchi) ko'p fazoil bilan orastadurkim, kushti kurash fani bovujdiki ulkim, aning

andoq haq va mulkidurkim, ma'lum emaskim, hargiz bu fanda andeq paydo bo'lmish bo'lg'ay".

Navoiy hazratlari Pahlovon Muhammadning bundan boshqa ko'p fazilatlarini, ya'ni musiqashunoslikda va boshqa ko'p fanlarda har zamonasining tengi yo'q insonlaridan ekanligini xabar qiladi.

Navoiy hazratlari Pahlovon Muhammad haqida umtiring oxirida "Holot Pahlovon Muhammad" asarini yozib qoldiradi. Alloha Navoiyning kurash va kurashchi to'g'risida maxsus asar yaratishi, bir tomondan, Pahlovon Muhammadning mavqeい uning nazarida qanchalik yuksak ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan "Holot", "maqomat", "manoqib"lar zamonining mashhur pirlari va avliyolar haqida yozilganligini nazarda tutsak, Pahlovon Muhammadning pict murshid darajasiga ko'tarilgan shaxs ekanligidan darak beradi.

Navoiy hazratlari Pahlovon Muhammadning ko'p fazilatlaridan biri uning kuchli xotirasi ekanligini ta'kidlab, Pahlovon Muhammadning Navoiya qilgan hazil-mutoiblaridan birini shunday hikoya qiladi.

Navoiy yoshlilik davrida taqdir taqozosi bilan Mashhadga borib qoladi va bu haqda shunday hikoya qiladi: "Bu fiqirni ayni iflcs (kasalga uchrab sinish) va faloqat va sarnavish(taqdir) va ranjurish (dil xastalik) Mashhad sori tortib elti va anda yetgandin so'ngra mafosil (artrit) marazi toriy (yuzberdi) bo'lib, bir go'shada yiqildi".

Shu manzilda xizmat yuzasidan Mashhadga kelib qolgan Pahlovon Muhammad do'sti Alisherning betobligidan xabar topib, uni ko'rgani keladi. Pahlovon Muhammad tabiblikdan xabardor bo'lgani uchun Navoiyni mulojasiga o'zi kirishadi.

Bu voqeя Pahlovon Muhammadni nafaqat zamonasini tengsiz kurashchisi, balki yuksak ziyoli insonlardan ekanligiga guvohlik beradi.

Hazrat Alisher Navoiy va Husayin Bayqaro o'zlarining Pahlovon Muhammadga va milliy pahlovonlik an'analariga bo'lg'i ehtiromi ramzi sifatida Hirot shahrining Ne'matobod mavzesidan Pahlovon Muhammadga bir bog'ni sotib olib berishadi. Bu bog'da Pahlovon Muhammad yuzlab shogirdlarini tarbiyalaydi.

Pahlovon Muhammadning shogirdlari va ko'p sonli ixlosmandlarining xizmatlari yurt obro'sini himoya qilishda, temuriy podshohlar dovrug'ini dunyoga yoyishda va yurt tinchligini saqlashda o'ta muhim bo'lgan. "Sport" ma'nosidagi "varzish" so'zi tarixda birinchi marta Alisher Navoiyning ijodida uchraydi.

Yuqorida keltirilgan satrlardan ko'riniб turibdiki O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning tarixi chuqur ildizga ega. O'tmishda turli harakatlari o'yinlar, kurash (belbog'li, turon), yugurish, uloq va boshqa milliy o'yinlar qatorida nayzani uzoqqa uloqtirish va nishonga otish, mushtlashish, tosh ko'tarish kabi sport turlari hamda darbozlarning chiqishlari xalq orasida keng tarqalgan. Ular har xil tantana, navro'z, diniy bayram va to'ylarda musobaqalar sifatida o'tkazilgan. Bu urf-odatlar bugungi kungacha ham davom etib, taraqqiy etib kelmoqda.

Musobaqa g'oliblari aholi orasida qahramonlar qatoridan joy olib, xalqimiz tomonidan juda e'zozlangan. Jismoniy va sport mashqlari turlarining soni ko'payishi bilan birga, ularga qiziqish avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. U yoki bu sport turlarining texnikaviy asosi ham takomillashishda davom etmoqda.

Turkiston o'lkasi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin sport turlari va har xil musobaqalar o'tkazish sezilarli darajada joniana boshlandi. Turkiston o'lkasida endi yuzlab va minglab kishilar, asosan hokimiyat tepasida turganlar va ularning oila a'zolari sport bilan mutnazam shug'ullanadigan bo'ldilar. Bu yerda respublikamiz hududida jismoniy madaniyatni tiklanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, Rossiyaning markaziy shaharlaridan surgun qilingan siyosiy maxbuslarning o'rmini ta'kidlab o'tish lozim deb topamiz.

O'zbekiston hududida birinchi bor o'yingoh (stadion) Marg'ilon shahrida qurilgan. U 1885-yilda Maylisoy (hozirgi Oxunboboyev ko'chasi)da ishga tushirilgan edi.

1885-yilda Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Farg'ona va Toshkentda havaskor velosipedchilar, gimnastlar jamiyati tuzildi. Ular tez-tez musobaqalar o'tkazib, unda ishtirot etish uchun Rossiyaning markaziy shaharlaridan, hatto Yevropa mamlakatlaridan ham velosipedchi sportchilar taklif qilinari edi. 1907- yilda bo'lib o'tgan musobaqalardan birida avstriyalik - Yevropa championi E.Gobir qatnashgan ekan.

1904-yilda Toshkent shahrida gimnastika sportidan chor Rossiysi Olimpiya terma jamoasi tarkibiga saralash musobaqlari o'tkazilgan. 1910 yilda Samarqandda ovchilar jamiyati tashkil topdi. Farg'ona vodiysi shaharlarida esa u o'zining bir necha bo'limlarini ochdi. Sport jamiyati o'zining bir nechta sport inshootlariga ham ega edi. Gimnastika va qilichbozlik bo'yicha ham musobaqalar bo'lib turar

edi. O‘z navbatida, Toshkentlik qilichbozlar o‘scha yillarda kuchli jamoalardan biri edi.

1912-yilda Qo‘qonda bиринчи бор футбол бо‘yicha o‘li, championati o‘tkazilishi O‘zbekistonga sportning futbol turini kirit kelishidan xabar beradi.

Shu yillarda Toshkent, Samarqand, Andijon shaharlar jamoaları o‘rtasida futbol bo‘yicha dastlabki musobaqalar ham bo‘lib o‘tgan. 1912- yilda Samarqand va Buxoro shaharlarida «Lochin» deb nomlangan sportchilar uyushmasining bo‘limi ochildi. Bu yerdagi gimnastika ishqibozlari bo‘lib, ular o‘z faoliyatlarini Turkistonda maxsus gimnastika kurslarini ochishdan boshladilar. Bu kursning bitiruvchilari yosiliar bilan faqat gimnastika emas, balki yengil atletika va sportning boshqa turlari, sport o‘yinlari, jumladan futbol bo‘yicha ham mashg‘ulotlar olib borish huquqiga ega edilar.

Sobiq sho‘ro hokimiyati yillarda ham jismoniy tarbiya va sport harakatlariga alohida e’tibor berilgan. Maxsus sport maktablari, texnikumlari va oliv ta’lim muassasalari, yuqori saviyali sportchilar uchun esa sport oliy maktabi mavjud bo‘lgan. Faqat markazda jismoniy tarbiya va sport adabiyotlari chop etadigan nashriyotlar tashkil qilingan edi. Ammo ulardan asosan rus millatiga mansub sportchilar ko‘proq foydalanganlar.

1917- yildagi inqilobdan oldin O‘zbekiston hududida jismoniy madaniyat xodimlarini va murabbiylarini tayyorlaydigan biron-bir o‘quv muassasi bo‘lmagan. Gimnaziyalarda, bilim muassasalarida, kadet korpuslarida, harbiy bilim muassasalarida qoidaga muvofiq unter-ofiserlar va zahiradagi zobitrlardan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilar sifatida foydalilanigan. O‘scha davrda jismoniy tarbiya asosan qatilq intizomga asoslangan harbiy mashqlar va qurollardan foydalananish usullari kabi mashg‘ulotlardan iborat bo‘lib kelgan, xolos.

Ommaviy sport ishlaring bundan keyingi rivojlanishida Umumturkiston Olimpiada o‘yinlari juda katta rol o‘ynadi. Bunday sport anjumanlaridan biri 1920- yilda Toshkentda bo‘lib o‘tdi. Unda Turkistonning olti viloyatidan, O‘rta Osiyo hududining turli burchaklaridan 3000 dan ortiq sportchilar qatnashdi. Sportning yeng‘il atletika turi Olimpiada dasturidan kengroq o‘rin oldi.

1921- yilda Toshkent shahrida 1920- yilga nisbatan kengroq dastur bo‘yicha ikkinchi Umumturkiston Olimpiada o‘yinlari o‘tkazildi. Bu musobaqalar yoshlarda sportga qiziqish o‘yg‘otdi, jismoniy

tarbiyaning rivojlanishiga, ommaviylashuviga, juda ko'p sport to'garaklari va sport klublarining ochilishiga turtki bo'ldi. Ularning soni Toshkentning o'zida o'ntaga yetdi. 1923- yilda «Dinamo» ko'ngilli jamiyatini tuzidi.

1923-yilning 1-aprelida Turkistonda hammasi bo'lib 70 dan ortiq boshlangich sport tashkilotlari, jumladan 17 ta jismoniy tarbiya to'garagi, 24 ta sport klubi, 14 ta sport jamiyatini va unda 15 ta sport bo'limi bor edi. Bu tashkilotlarda hammasi bo'lib 12636 sportchi havaskorlar bo'lib, ulardan 1056 nafari ayol edi. 1924-yilda bu tashkilotlarning soni 296 taga yetdi va unda shug'ullanuvchilar soni ham bir necha barobar oshib ketdi.

Shu yillarda o'zbek ayollarini o'rtasida sport ishlarini olib borish uchun qizil burchaklar, ayollar klubini tashkil etila boshlandi. Ayollar o'rtasida jismoniy tarbiya, tibbiyot va maorif sohasida ishlagan dastlabki jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan A.Duranovskaya, P.Samoylenko, G.Garfung, B.Graminskaya, Ya.Valishayeva va I.Yolkina, boshqa ko'pgina rus sportchi-ayollarini juda katta ijobjiy targ'ibot ishlarini olib bordilar. Ular ayollar o'rtasida sport turlarining ommaviylashuvida, targ'ibot-tashviqot ishlarida ham samarali natijalarga erishdilar.

Bu yillarda kasaba uyushmalari ham sportning ommaviylashuvida samarali faoliyat ko'rsatdilar. Ular sport klublarini otaliqqa oldi. Afg'oniston terma jamoasi bilan 1924- yil o'zbekistonlik voleybolchilar birinchi xalqaro musobaqada ishtirok etdilar. Ushbu kundan voleybol musobaqalarini respublikada muntazam o'tkazilib kelmoqda.

1924-yilning 16-mayida Toshkent shahrida «Turkiston haqiqati» nomli birinchi o'lka o'yingohi ochildi.

1924-1928- yillarda respublikada viloyat Olimpiada o'yinlari o'tkaziladigan bo'ldi va shunday Olimpiadalardan biri Sirdaryo viloyatida ochilgan o'lka jismoniy tarbiya kengashi o'yingohida bo'lib o'tdi.

1925-yilning boshida kasaba uyushmalari tizimidagi 11 ta sport turi bo'yicha shug'ullanuvchilarining birinchi, 1928 yilda esa ikkinchi Spartakiadasi bo'lib o'tdi. Bu musobaqalar sobiq ittifoq Spartakiadasiga tayyorgarlik bo'lib, unda 650 kishi qatnashdi, ular orasida 23 ta o'zbek qizi ham bor edi.

1928- yilda O'zbekiston chavandozlik sporti ishqibozlari o'zlarining yuksak mahoratlarini ko'rsatdilar. Chavandozlar Axaltekin zotli otlarda Qo'ng'irotdan Moskvagacha bo'lgan yo'lni 86 kunda bosib oldilar.

1933- yilda Toshkentda bo'lib o'tgan ilmiy-uslubiy kengast O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sportning taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kengashda milliy sport turlarini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berildi. Ular O'rta Osiyo Spartakiadasi o'yinlariga tayyorgarlikni boshtadilar va unda ishtirot etgari sportchilarimiz sportning barcha turlari bo'yicha yaxshi natijalarga erishdilar. Shu yilning iyul-avgust oylarida Toshkent shahri va Respublika Spartakiadasi o'tkazilib, unda toshkentliklar birinchi o'rinni egalladilar.

1935- yilda Toshkentda ochilgan uch yillik jismoniy tarbiya texnikumi O'zbekistondagi dastlabki jismoniy tarbiya o'quv muassasi edi. Uning vazifasi umumita'lim maktablari uchun jismoniy tarbiya o'qituvchilari, jismoniy tarbiya va sport uyushmalarida ishlash uchun sport yo'riqchilar tayyorlashdan iborat edi.

1935-yildan boshlab, O'zbekistonda kasaba uyushmalarining ko'ngilli sport jamiyatini tuzila boshladi. Ana shunday jamiyatlardan biri 1936- yilning dekabrida tashkil etilgan temir yo'lcililar ko'ngilli sport jamiyatasi «Lokomotiv» edi, shu yili kasaba uyushmalari tomonidan «Spartak», «Pishchevik», «Start», «Stroitel», «Burevestnik», «Krasnoe znamya» va boshqa ko'pgina ko'ngilli sport jamiyatlari tashkil topdi. 1937- yilda esa ularning soni 18 taga yetdi.

1936-yilda ikkinchi Umumo'zbek Spartakiadasi o'tkazildi. Shu yili o'zbek sportchilari Butunittifoq o'yinlarida ham faol ishtirot etdilar. Ushbu musobaqalarni tashkillashtirish va o'tkazishdan birdan bir maqsad yoshlarimizni sog'iomlashtirish va ularning sportga bo'lgan qiziqishini oshirish edi.

O'zbekistonda Alpinizm sport federatsiyasi tashkil etildi va Alpinizm sportini rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratildi. 1936-1937- yillarda Respublikada 25 ta o'yingoh, 54 ta sportzallari va 600dan ortiq sport maydonlari mavjud edi.

Sobiq O'zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining va xalq kommisariatining 1938- yil 9- oktyabrda qabul qilgan "Respublikada jismoniy tarbiyani rivojlantirish to'g'risida"gi

qarorida respublika aholisini, ayniqsa, yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishi o‘sganligi ta’kidlab o‘tiladi.

Ikkinchı jahon urushi davrida “Dinamo” ko‘ngilli sport jamiyatining sportchi-yo‘riqchilari 2 mingdan ortiq harbiy chaqiriqa qabul qilingan askarlarni qo‘l jangi, snayperlik mahoratiga o‘rgatdilar. Bir nechta o‘zbekistonlik sportchilar: sobiq ittifoq qahramoni M.Stemikovskaya, M.Zokirov, M.Buglov, B.Filipov va boshqalar urushda nemis fashistlariga qarshi mardona jang qildilar.

1945-yilning 7-14- oktyabrida Frunze shahri (Qirg‘iziston)da o‘tkazilgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari spartakiadasida o‘zbekistonlik sportchilar yuqori natijalarni qo‘lga kiritib, sobiq Ittifoq sport qo‘mitasining “Qizil bayrog‘i” bilan taqdirlandilar.

1948- yilda respublikada Umumo‘zbekiston Spartakiadasini final bosqichida 982 nafar sportchilar ishtirot etgan. Shu yilning 10-15-oktyabrida Dushanbe (Tojikiston)da O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalarining V-spartakiadasida o‘zbekistonlik sportchilar sportning 8 turidan yuqori natijalarni qo‘lga kiritib, umumjamoa birinchiligidagi birinchi o‘rinni egalladilar.

1951- yil sobiq ittifoq sportchilari Xalqaro olimpiada qo‘mitasiga a’zolikka qabul qilindi. 1952- yil Finlandiyaning Xelsinki shahrida bo‘lib utgan Olimpiada o‘yinlarida sobiq ittifoq terma jamoasi tarkibida ikki nafar o‘zbekistonlik sportchilar gimnastika va yengil atletika sport turi bo‘yicha ishtirot etib, G. Shamray oltin medalni qo‘lga kiritgan va S. Popov to‘rtinchchi o‘rinni egallagan.

1956- yildan boshlab, mamlakatda katta sport anjumanini sobiq SSSR xalqlari spartakiadasi tashkil etildi. O‘zbekistonlik sportchilarning ushbu musobaqada ishtiroti to‘g‘risidagi ma’lumot 2- jadvalda ko‘rsatilgan.

1969- yilning 4- iyunida sobiq O‘zbekiston KPMQ va Ministrler Soveti “Respublikada jismoniy tarbiya va sportni hamda sport tashkilotlarining sport bazalarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qilgan. Shu yilda sobiq O‘zSSR Oliy Sovetining 5-chaqiriq 5-sovetida “Respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilingan.

1972-yilni 1- martidan yangi GTO kompleksining me‘yorlari qabul qilingan va muntazam ravishda korxona va tashkilotlarda shu dastur bo‘yicha bir qancha sport tadbirlari tashkil etilgan.

1974- yilda O'zbekiston KPMQning "Respublika Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida"gi qaror qabul qilingan.

1981- yil O'zbekiston hukumati "Ommaviy jismoniy tarbiya va sport harakatlarini yanada rivojlantirish to'g'risida" qarorni qabul qilgan. Ushbu qarorda nodavlat jamiyatlarni fuqarolar sog'ligini saqlashda yanada jonbozlik ko'rsatishi kerakligi ta'kidlab utilgan. Shu qaror bilan "Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasiga" Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasiga aylantirildi va bu o'z o'rniда mamlakatu e jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishiga omil bo'ldi.

1988- yilda kasaba uyushmalari tarkibidagi sport jamiyatlar tarqatilib, yagona kasaba uyushmasi sport jamiyatini tashkil etildi. Keyinchalik bu asossiz o'zgartirish noto'g'ri ekanligi isbotlandi.

1990- yilda O'zbekistonda "Sport hamma uchun" sport assotsiyasi tashkil qilingan. 1991- yilning iyul oyida Kievda sobiq ittifoq xalqlar spartakiadasi o'tkazildi. Ushbu spartakiadada o'zbekistonlik sportchilar umumjamoa birinchiligidagi V- o'rinni egallashdi. Shu musobaqa natijasida 17 nafar o'zbekistonlik sportchilar Barselona (Ispaniya) Olimpiada o'yinlariga yo'llanma oldilar.

1991- yil 1-sentabr kuni O'zbekiston aholisi uchun unutilmas kun bo'ldi. Shu kuni O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Shundan keyin kasaba uyushmadagi sport jamiyatini «O'zbekiston» nomli ko'ngilli sport jamiyatiga aylantirildi. Mamlakatda "Lochin" va «Yosh kuch» kabi sport jamiyatini tashkilotlari tashkil etildi.

1992 - yilning 14 - yanvarida O'zbekiston Oliy Kengashi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» (qonuning yangi tahriri 2000 yil 26 mayda)gi Qonuni qabul qilindi. 1992- yil 21 yanvarda O'zbekiston Milliy Olimpiada qo'mitasiga tashkil etildi, tashkiliy qo'mita Xalqaro Olimpiada Qo'mitasiga (shtabi Lozannada) xat yo'llab, O'zbekiston Milliy Olimpiada qo'mitasini ham bunday nufuzli xalqaro uyushmalarga a'zo qilib qabul etishni so'raldi. Taklif XOQ tomonidan qabul qilinib 1993- yilning 17- sentyabridan boshlab, O'zbekiston Milliy Olimpiada qo'mitasi Xalqaro Olimpiada qo'mitasiga a'zo bo'ldi.

1994- yilning yanvarigacha faqat respublikamiz poytaxtida 26 dan ortiq o'yingoh, 5 ta manej, sport saroylari va suv sporti saroyi, 58 ta suzish havzasasi, 36 ta futbol maydoni, 549 ta jismoniy tarbiya tashkiloti qayd qilingan bo'lsa, bugungi kunda respublikamiz hududida 85 da-

ortiq o'yingoh, 12 ta manej, 65 tadan ortiq sport va suv saroylari, 49 ta suzish havzasi, 68 ta futbol maydonlari va 560 ta birlamchi jismoniy tarbiya tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

2003- yil 3-iyundagi "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jallb qilishga qaratilgan uzuksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi qarorda maktabgacha o'quv maskanlaridan boshlab mamlakat aholisining sog'ligini saqlash va mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish ta'kidlangan.

Uzoq muddatga rejalashtirilgan uch bosqichli davlat sport dasturi asosida mamlakatimizda "Umid nihollari"(o'rta maktab o'quvchilari uchun), "Barkamol avlod" (o'rta maxsus ta'lim talabalari uchun) va "Universiada"(oliy ta'lim talabalari uchun) musobaqalar o'tkazilmoqda.

Mamlakatimiz talaba-yoshlar hayotida 2000- yilning 26- mayi unutilus kum bo'ldi, chunki shu kundan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarining talaba va aspirantlari o'rtasida Universiada musobaqalari boshlandi. Ushbu musobaqalar har uch yilda bir marta o'tkazilib kelmoqda.

Jismoniy tarbiya va sportni xalq orasida keng targ'ib qilish maqsadida respublika kasaba uyushmalarining «O'zbekiston» sport jamiyati barpo etilgan bo'lib, unda 107 ta tashkilot va korxonalarining jismoniy tarbiya jamoa a'zolari, 33 ta ixtisoslashgan sport maktablari, 63 ta oliy o'quv muassasida sport klub, o'rta maxsus ta'limi kollejlardida 70 dan ortiq sport klublar tashkil etilib, ularda o'quvchi-talabalardan 720 mingdan ziyod kishi o'z sog'ligini mustahkamlash va sport mahoratini oshirish uchun sport to'garaklarida foy qatnashmoqdalar.

«Mehnat zahiralari» sport jamiyati tashkilotining 58 ta maxsus o'rta ta'lim o'quv muassasida, 303 dan ortiq umumta'lim maktablarida o'z muxlislari bor. 30 ta ixtisoslashgan sport maktabida 660 mingdan ziyod o'quvchilar sportning barcha turlaridan ta'lim olib, o'z mahoratini oshirmoqda. Shu bilan bir qatorda, madaniyat va sport tuman bo'limlari, «Jismoniy tarbiya hamma uchun» assotsiatsiyasi, Xalq ta'lim vazirligi huzurida "Bolalar sporti" jamg'armasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligi, Markaziy sport klub, «Jismoniy tarbiya va salomatlik» birlashmasi, mudofaaga ko'makchi «Vatanparvar» tashkiloti, «Dinamo», «Lokomotiv» ko'ngilli sport jamiyati, O'zbekiston o'smirlarining «Yoshlik», «Mehr-shafqat»

salomatlik jamg'armasi OTM «Talaba» sport assotsiyatsisi va boshqa tashkilotlar ham faoliyat yuritmoqda.

Jahon sport jamoatchiligi, Osiyo va Xalqaro Olimpiada qo'mitalari va xalqaro sport federatsiyalari O'zbekiston sportchilaridan: shtangachi, sobiq jahon rekordchisi E. Karimov; bokschilar R. Rixsiev, M. Abdullaev, J. Matchonov, R. Chagaev, A. Grigoryan, E. Qutiboyev; dzyu-do kurashi bo'yicha sportchilarimiz A. Bogdasarov, A. Tangriev, R. Sobirov; yengil atletikachilar opa-singil Irina va Tamara Press, V. Ballod, S. Ulmasova, A. Normurodov, R. Gataulin, A. Kuchmurodov, Z. Zayseva-Axtyamova, M. Sayfullaev; qilichboz S. Ruziev, chavandozlar M. Ismoilov, Yu. Kovshov; kurashchilar S. Xodiev, R. Ablaev, R. Kazakov, A. Taymazov, K. Fatxulin; suv to'pi o'yinchisi E. Shagaev; basketbolchilar A. Jarmuxamedov, R. Salimova-Prokopenko; gimnastikachilar G. Shamray, S. Diamedov, E. Saadi, O. Chusovitina, A. Kabanova, A. Fokin, Ye Xilko; chang'ida uchish bo'yicha Olimpiada championi L. Cheryazova; shaxmat bo'yicha jahon championi R. Qosimjonov; akrobat aka-uka M. T. Tojievlar; velosipedchi J. Abdujabborov va boshqa juda ko'p sportchilarning faoliyatini yuqori baholadi.

Respublikamiz poytaxti Toshkent ko'pgina xalqaro musobaqa'lar o'tkaziladigan shaharga aylanib bormoqda. Bunga kurashning turli turlari bo'yicha jahon, Osiyo championatlari, boks bo'yicha jahon va Osiyo championatlari, tennis bo'yicha nufuzli xalqaro turnirlar, saralash musobaqalari, ilmiy-uslubiy seminarlar, konferensiylar misol bo'ladi.

1947 - yil Xalqaro Olimpiada qo'mitasi sobiq SSSR sport tashkilotlariga murojaat qilib, ularni 1948 - yil London shahrida bo'ladigan navbatdag'i Olimpiada o'yinlariga ilk bor taklif qilishgan edi (bungacha terma jamoa Olimpiada o'yinlarida ishtirop etmagan edi). Lekin bu taklif Olimpiada o'yinlariga oz vaqt qolgani uchun qabul qilinmadi. Chunki sovet sportchilari bu bellashuvga tayyorlanib ulgurmasdilar. 1951 - yil aprel oyida Milliy Olimpiada qo'mitasi tuzilib, u XOQga a'zo bo'lib kirdi. 1952 - yilda sobiq Ittifoq terma jamoasi Finlyandiya mamlakatining poytaxti Xelsinki shahrida bo'lgan Olimpiada o'yinlarida birinchi marta ishtirop etib, unda terma jamoa birinchi o'rinni egalladi. Terma jamoa tarkibida O'zbekistondan ikki nafar sportchi bor edi. Ulardan Galina Shamray jamoa tarkibida oltin medalga (gimnastika) sazovor bo'ldi. Oxirgi marta terma jamoa (MDH) 1992 - yil Ispaniyaning Barselona shahrida qatnashdi. Sobiq Ittifogda.

Milliy Olimpiada Qo'mitasi tuzilgandan so'ng, sport federatsiyalari va tashkilotlarini Yevropa, Jahon sport federatsiyalari va Olimpiada qo'mitasi tan oldi.

Olimpiada bellashuvlariga yaxshiroq tayyorgarlikni va sportchilar saralashini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida 1956 - yildan boshlab, har 4 yilda bir marta, Olimpiada bellashuvlaridan bir yil oldin sobiq SSSR xalqlari Spartakiadasini o'tkazishga qaror qilindi. Spartakiada o'yinlari asosan Moskva shahrida o'tkaziladigan bo'ldi. 1986 - yil Spartakiada O'zbekiston poytaxti Toshkentda o'tkazilgan. Oxirgi Spartakiada 1991 - yili Ukrainianing poytaxti Kiev shahrida bo'lib o'tgandi. O'zbekiston sportchilarining sobiq Ittifoq spartakiadasida qatnashgani to'g'risidagi ma'lumot 1-jadvalda berilgan.

### **Sinov savollari**

1. O'zbekiston allomalarining jismoniy tarbiya va sportning inson hayotidagi ahamiyati to'g'risidagi fikr-mulohazalari.
2. O'zbekistonda sobiq Ittifoq hokimiyati davrida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.
3. Alisher Navoiy ijodida jismoniy tarbiya va salomatlik haqidagi fikrlar.
4. Ikkinchи jahon urushidan keyingi davrda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarda qatnashganligi to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Sobiq Ittifoq xalqlari Spartakiadasi va Olimpiada o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilarining ishtiroki to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlantirish to'g'risidagi hukumat qarorlarini aytib bering.
8. Mahmud Pahlovon kim bo'lgan?
9. Temuriylar sultanati davrida jismoniy tarbiyaning o'rni.

**O'zbekiston sportchilarining sobiq Ittifoq spartakiadasida  
qatnashgani to'g'risidagi ma'lumot**

1-jadval

Ittifoq Spartakiadalar o'tkazilgan yillar	Terni jamoa a'zolarining umumiyy soni	Egallagan o'tni	Medallar		
			Oltin	Kumush	bronza
1956	334	11	3	1	2
1959	368	13	2	5	3
1963	464	11	6	6	8
1967	550	10	1	6	6
1971	356	11	2	2	2
1975	391	9	5	6	14
1979	558	7	7	25	7
1983	570	9	9	30	12
1986	534	9	11	10	11
1991	354	*	11	13	16

\* - aniqlanmagan

## **II BOB. Olimpiada o'yinlari**

Davrimizning eng ommaviy musobaqasi hisoblanmish Olimpiada olis tarixga ega. Yunon mualliflari dastlabki Olimpiya o'yinlarini eramizdan 1,5–2 ming (balki undan ham uzoqroq) oldin Gerakl o'tkazgani to'g'risida ma'lumot beradi, hatto Gerakl 600 zinapoyadan iborat yugurish musobaqasida qatnashib, g'olib chiqqani bayon etilgan.

Eramizdan 884 - yil avval Ellada shohi Ifit, Sparta hukmdori Likurt va Pize shahri vakili Kleosfen Olimpiya o'yinlari davrida tinchlikni saqlash to'g'risida bitim imzolashgan. Ular quyidagi so'zlarni ulkan lappakka yozib, Olimpiya shahrini ko'rinarli joyiga qo'yishgan: “**Olimpiya muqaddas joy, kimki unga quro'l bilan kirsa, xudobezori sifatida la'natalanadi. Kimki imkonni bo'la turib, shunday xudobezoridan qasos olmasa, ular ham xudo ixtiyoriga qarshi borgan hisoblanadi**”. Eramizdan 445 - yil avval Afina va Sparta Olimpiya tinchlik shartnomasiga imzo chekkan.

Ma'lumotlarga qaraganda, birinchi Olimpiada o'yinlari eramizdan oldingi 776 - yilda qadimiy Gresiya (Yunoniston) va Sparta mamlakatlari o'rtaida tuzilgan shartnomada bo'yicha «Ilohiy oyda» (iyun) Olimpiya shahrida bo'lib o'tigan. Olimpiya o'yinlarida ozod fuqarolar ishtirok etishgan. Ayollarning musobaqada qatnashish qat'i man qilingan. Bu musobaqalarda greklar kuch va chaqqonlikda bellashganlar. Birinchi Olimpiada o'yinlarida musobaqa faqat yugurish bo'yicha, ya'ni bir stadiyga (192 m) o'tkazilgan, navbatdagi Olimpiada o'yinlari esa oldingisidan 1417 kun o'tgandan so'ng o'tkazilgan. Jami - 293 Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan.

Birinchi Olimpiada o'yinlari eramizdan oldin 776 - yil Epofey vodiysidagi Olimpiya qo'rg'oni atrofida tashkil qilingan. Albatta, tomoshabinlar uchun maxsus o'rindiqlar bo'limgan. Odamlar musobaqalarni yalangliklarda o'tirishib kuzatishgan. Sportchilar dastlab yugurish bo'yicha musobaqalashganlar. Keyinchalik lappak uloqtirish, kurash va otli aravada poyga o'tkazish qo'shilgan. Vaqt o'tishi bilan sport turlari ko'paygan. Maxsus o'yingohlar qurilgan. Afinada 204 x 33,4 metr o'lchamli 50 ming tomoshabinga mo'ljallangan o'yingohni goldiqlari topilgan.

Olimpiada g'oliblari musobaqaning oxirgi kuni zaytun daraxtining novdalaridan yasalgan chambar bilan taqdirlanib, xudolar

o'tiradigan tomonga katta tantana bilan ko'zatib qo'yilgan. Ular sharafiga katta ziyofatlar berilgan. Musobaqa g'oliblari o'z vatanlarida qahramonlарdek kutib olingen. Ularga turli imtiyozlar (soliqlardan ozod qilingan, teatrga tekin kirish huquqiga ega bo'lgan) berilgan. Xullas. Olimpiya championlariga katta hurmat-ehtirom ko'rsatilgan. Aleksandr Makedonskiy Olimpiya championi bo'lgan Dionisadorni asirlikdan ozod qilgan.

Melodi 146 - yil Gresiya Rim ixtiyoriga o'tgan. Rimliklar Olimpiya o'yinlarini mensishmagan. Ular gladiatorlar jangini a'lle hisoblashgan. Shu bois 200 yil davomida Olimpiya o'yinlari past savyada uyushtirilgan va musobaqalar to'g'risida tarixiy hujjatlar deyarli saqlanmagan. 394 - yili Rim imperatori Feodosiy1 Olimpiya o'yinlarini bundan keyin o'tkazmaslik to'g'risida farmon chiqargan. 416 - yil Olimpiya qo'rg'oni buzib tashlangan.

Italiya tarixchisi Timey 1169 yillik davrni o'rganib, bu vaqt orasida 292 ta Olimpiya o'yinlari o'tkazilganini yozib qoldirgan. Bu raqamga yakuniy natija sifatida qaramasligimiz lozim. Olimpiya o'yinlari har 1425 kunda o'tkazilganini aniqlash tafsinga loyiqidir.

Eramizning 394 - yili Rim imperiyasida zo'ravonlik bilar xristianlik joriy etilgan va Olimpiada o'yinlarida majusiylik urf- odatlari mavjud deb hisoblagan Rim imperatori Fedosiy-1 o'zining maxsus farmoni bilan Olimpiada o'yinlarini taqiqlab qo'ygan.

O'zbekiston sportchilarining Olimpiada o'yinlarida qatnashishi haqida gapiradigan bo'lsak, u holda sobiq Ittifoq tarkibida Olimpiada o'yinlarida ishtirok etganini ko'rib chiqish lozim bo'ladi, 2-3-jadvallarga e'tibor bering. O'zbekiston sportchilarining mustaqillikkacha bo'lgan davrda Olimpiada o'yinlarida ishtirokini aks ettiruvchi jadvallarni keltiramiz.

2-jadval

Olimpiada o'yinlarining tarixi raqami	O'tkazibga joy va yillar	Jumma Ummumiy soni	medallar			Q'sezkiston sportchilari soni	medal		
			oltin	kumush	bronza		oltin	kumush	bronza
XV	Xelsinki 1952	295	22	30	19	71	2	1	0
XVI	Melburn 1956	283	37	29	32	98	1	0	0
XVII	Rim 1960	284	43	29	31	103	1	0	0
XVIII	Tokio 1964	384	30	31	35	96	3	0	1
XIX	Mexiko 1968	317	29	32	30	91	5	1	3
XX	Munxen 1972	418	50	27	22	99	5	4	4
XXI	Montreal 1976	409	49	41	35	125	3	1	1
XXII	Moskva 1980	530	82	69	46	197	14	4	5
XXIII	Los-Anjelos 1984	Sotsialistik mamlikatlar ishtirok etmadı							
XXIV	Seul 1988	511	55	51	41	127	9	2	2
XXV	Barcelona 1992	480	45	29	29	103	17	3	2
XXVI	Atlanta 1996	126		2	2		76	1	1
XXVII	Sidney 2000	127	1	1	1		77	1	1
XXVIII	Afina 2004	119	2	1	1		70	2	1
XXIX	Pekin 2008	115	1	2	3		58	1	2

3-jadval

Yil	Shaharlar	Soni	Ismi Familiyasi	Sport turi	Medallar
1952	Xelsinki	2	Galina Shamray	gimnastika	Oltin
			Sergey Popov	yengil atletika	4-o'rinn
1956	Melburn	1	Valentina Ballod	yengil atl. sakr	23-o'rinn
			Valentina Ballod	yengil atl. sakr	15-o'rinn
1960	Rim	1	Sergey Djamedov	gimnastika	Kumush
			Svetlana Babanova	suzish	2-bronza
			Natalya Ustinova	suzish	Bronza
1964	Tokio	3	Vera Duyunova	voleybol	Oltin
			Vera Duyunova	voleybol	Oltin
1968	Mexiko	5	Elvera Saadi	gimnastika	Oltin
			Rustem Kazakov	klass. Kurash	Oltin
			Ajjan Jarmuhamedov	basketbol	Oltin
1972	Myunxen	7	Rufat Risqiev	boks	Kumush
			Vladimir Fedorov	futbol	Bronza
1976	Monreal	4	Larisa Pavlova	voleybol	Oltin
			Erkin Shagaev	suv polosi	Oltin
			Yuriy Kovshov	ot sporti	Oltin,kum
			Olga Zubareva	go'l to'pi	Oltin
			Sobirjon Ruziev	qılıchbozlik	Kumush
			Aleksandr Panfilov	velosport	Kumush
			Rustam Yambulatov	miltiq otish	Kumush
			Natalya Butuzova	o'q yoy	Kumush
			Nelliya Gorbatkova	chimda xokkey	Bronza
			Leylya Axmedova	chimda xokkey	Bronza
			Alina Xam	chimda xokkey	Bronza
			Valentina Zazdravtinx	chimda xokkey	Bronza
			Muxarbek Xadarsev	erkin kurash	Oltin
			Arsen Fadzaev	erkin kurash	Oltin
1988	Seul	7	Nail Muxamedyarov	og'ir atletika	Kumush
			Radion Gatazin	yengil atletika	Kumush
			Sergey Zabolotnov	suzish	Bronza
			Marina Shmonina	yengil atletika	Oltin
			Oksana Chusovitina	gimnastika	Oltin
1992	Barselona	15	Rozaliya Galiyev	gimnastika	Oltin
			Sergey Sirsov	og'ir atletika	Oltin
			Anatoliy Asrabaev	miltiq otish	Kumush
			Valeriy Zaxarevich	qılıchbozlik	Bronza

Yevropa ma'rifatparvarlari Olimpiya o'yinlarini tiklash uchun ko'p urindilar. Fransuz shoiri va ma'rifatparvari Jan Jak Russo 1762 - yili o'z asarida Olimpiya o'yinlarining katta tarbiyaviy ahamiyatini qayd etgan. Nemis ma'rifatparvari Logann Bazedov bu fikrni rivojlantirgan. Ayniqsa greklar Olimpiya o'yinlarini tiklash borasida ibratli ishlarni

amalga oshirishgan. Gretsya ozodlik harakatining yo'lboshchisi Svangepos Zapias 1859 - yili birinchi umumgrek o'yinlarini tashkil etgan. Qatnashchilar 200, 400, 800 metrga yugurish, lappak va nayza uloqtrish, balandlikka, uzunlikka va langar cho'p bilan sakrashda musobaqaqlashishgan. Umumgrek o'yinlari 1889 - yilgacha uyushtirilgan.

XIX asr o'rtalarida Gretsiyada bir necha bor Olimpiada o'yinlarini tiklashga urinib ko'rildi. Gresiyaning poytaxti Afina shahrida, 1859, 1870, 1875 va 1889 - yillarda yugurish, sakrash, yadro uloqtrish, gimnastika va sportning boshqa bir necha turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, bu bellashuvda faqat yunioniston atletlari ishtirot etganlar.

XIX asr oxirida Yevropada iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi natijasida xalqaro musobaqalar soni ham ko'paydi. Birinchi xalqaro sport tashkilotlari tuzilib, yangi xalqaro musobaqalar tashkil etildi. Bu sharoitda fransuz jamiyat arbobi Per de Kuberten (1863 – 1937) Olimpiada o'yinlarini tiklashni tavsiya qildi, 1889 - yili Fransiya ta'lim vazirligi Per de Kubertenga o'sha vaqtning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan sport muammosini ko'rib chiqish uchun xalqaro kengash chaqirish taklifi bilan chiqishni topshirdi. Bu kengash 1894 - yil Parij shahrida bo'lib, unda 12 davlat sport tashkilotlarining vakillari ishtirot etishdi. Kubertenning ma'ruzasi Olimpiada harakatlari negizi to'g'risida bo'lib, u kengash ishtirotchilarini yana bir bor Olimpiada o'yinlarini tiklashga chorladi. Kengash Xalqaro Olimpiada qo'mitasini (XOQ) rahbariyatini sayladi hamda 1896 - yildan boshlab Olimpiada o'yinlarini tiklashga qaror qildi. XOQning birinchi prezidenti qilib taniqli grek shoiri Demetrius Vikelas, bosh kotib lavozimiga esa Per de Kuberten saylandi. Birinchi Olimpiada o'yinlari 1896 - yil Afina shahrida o'tkaziladigan bo'idi. 1925 - yilda XOQ prezidenti lavozimiga Per de Kuberten saylangan edi. 1896 - yilda Olimpiada o'yinlarining Gimni (madhiyasi) qabul qilinadi. Uning mazmuni quyidagicha:

– hafaskorlik – sportning asosi, negizi, jismoniyligini va ruhiy sifatlarni rivojlantirish;

– sport yordamida xalqlar bir-birlarini to'g'ri tushunishi, yoshlarni do'stona ruhda tarbiyalash, osoyishtalik va tinchlik urnatish;

– xalqlar orasida yaxshi niyatli Olimpiada g'oyalarini keng targ'ibot qilish.

Olimpiada to'rt yilda bir marta jahon sportchilarining katta sport anjumaniga taklif qiladi. Olimpiada o'yinlari 12 kundan ortiq davom etmasligi kerak. XOQning shtabi shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan.

Olimpiada o'yinlarining shiori: «Tezroq», «Balandroq», «Kuchliroq».

Yangi davr Olimpiya o'yinlarining tiklanishi fransuz ma'rifatchisi Per de Kuberten nomi bilan chambarchas bog'liqligini yana bir bor ta'kidlab o'tamiz. U bu o'yinlarni tiklash uchun ko'p harakat qilgan. Tarixiy manbalarni chuqur o'rganib, atrofiga hamfi t kishilarni to'plagan. Kuberten Fransiya ta'llim jamiyatni bosh kotibi qilingayinlangan. Endi uning harakatlari rasmiy tus oladi. 1883 - yili Fransiya maorif vazirligidan kongress chaqirishga ruxsat oladi. 1894 - yil 23 - iyul kuni Parijdagi Sarbonna universitetida 12 mamlakat – Angliya, Argentina, Belgiya, Vengriya, Gresiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Rossiya, AQSh, Fransiya, Chexiya, Shvesiya vakillari Olimpiya o'yinlarini tiklash, xalqaro Olimpiya qo'mitasini tuzish to'g'risida qarer qabul qilishdi va Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan Olimpiya madhiyasini tasdiqlashdi.

Dastlab birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini 1900 - yili Parijda o'tkazishga kelishilgan. Ammo Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining birinchi prezidenti grek shoiri Dmitrius Vikelos 1896 - yili Afinada Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish taklifini kiritadi. Kongress a'zolariga bu taklif ma'qul bo'ladi. Vikelos grek shahzodasi Konstantin bilan hamkorlikda Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga 300 ming droxim yig'ib, 1896 - yil 6 - aprelda 1 - Olimpiada o'yinlarini o'tkazadi.

1-Olimpiya o'yinlarida 13 ta mamlakatdan 311 nafar sportchi sportning 9 turi bo'yicha 43 komplekt medal uchun keskin kurash olib borgan bo'lsalar, 100 yildan so'ng, mamlakatlar (davlatlar) soni 197 ga, sportchilar 10700 ga, medallar soni 360 komplektga yetdi. XXR ni poytaxti Pekinda bo'lib o'tgan 29- Olimpiya o'yinlarida 204 mamlakatdan 10700 ortiq sportchilar ishtirot etdi.

4-nchi jadvalda yangi davr olimpiada o'yinlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

**Olimpiada o'yinlarining tartib raqami, o'tkazilgan shaharlar,  
mamlakatlar va sportchilar soni**

4-jadval

tartibi	Yillar	Shaharlar	Qatnashgan mamla katlar soni	Sportchilar soni
1	6-15.04. 1896y	Afina	13	311
2	20,5-28,10. 1900	Parij	22	1319
3	1,7-23,11. 1904	Sent-Luis	12	681
4	27,4-31,10. 1908	London	22	1999
5	5,5-22,7. 1912	Stokholm	28	2490
6	O'tkazilmagan.			
7	20,4-12,9. 1920	Antverpen	29	2668
8	4,5-27,7. 1924	Parij	44	2956
9	17,5-12,8. 1928	Amsterdam	46	2724
10	30,7-14,8. 1932	Los-Anjeles	37	1281
11	1,8-17,8. 1936	Berlin	49	3738
12	1940	O'tkazilmagan		
13	1944	O'tkazilmagan		
14	29,7-14,8. 1948	London	59	3714
15	19,7-3,8 1952	Xelsinki	69	4407
16	22,11-,12	Melburn	67	2813

	1956			
17	10,6-17,6	Rim	83	4738
	1960			
18	25,811,9.	Tokio	93	4457
	1964			
19	10-24,10	Mexiko	112	4750
	1968			
20	12-27,10	Myunxen	122	7123
	1972			
21	17,7-1,8	Montreal	88	6026
	1976			
22	19,7-3,8	Moskva	81	5217
	1980			
23	27,7-12,8	Los-Anjeles	140	6797
	1984			
24	17,9-2,10	Seul	159	8465
	1988			
25	19,7-4,8	Barcelona	70	9364
	1992			
26	19,7-4,8	Atlanta	197	10.700
	1996			
27	15,9-1,10	Sidney	199	11.141
	2000			
28	13-29,08	Afina	202	10.882
	2004			
29	8-24,08	Pekin	204	11.500
	2008			
30	2012	London		

Osiyo o'yinlariga har bir davlat xohlagancha sportchi olib borish huquqiga ega bo'lsa (har bir turga 3 nafardan ko'p emas), Olimpiadaga qatnashish uchun har bir sportchi o'z sport turi bo'yicha belgilangan xalqaro musobaqalarda XOQ tomonidan qo'yilgan mezonsfarni bajarishi shart. Bizning sportchilar uchun ana shunday musobaqalar – Osiyo o'yinlari, championatlari va yirik xalqaro turnirlar hisoblanadi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi 1992 - yilni 21 - yanvarda Toshkent shahrida tashkil topdi va u 1993 - yil 17 -sentyabrdan

Xalqaro Olimpiada qo'mitasi tarkibiga qabul qilindi. MOQning birinchi prezidenti lavozimiga Obid Nazyirov saylandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng 1994 - yil Norvegiyaning Lillexammer shahrida Lina Cheryazova mamlakatimizga birinchi Olimpiada oltin medalini keltirgan. Yozgi o'yinda birinchi Olimpiada kumush medalini Armen Bogdasarov (dzyu-do) qo'lga kiritgan.

### O'zbekistonlik sportchilarning mustaqillikdan keyingi davrda Olimpiada o'yinlaridagi ishtiroki

5-jadval

<b>o'yinlar №</b>	<b>O'tkazilgan shahar nomi</b>	<b>Ortakazil- gan yil</b>	<b>Sportchilar soni</b>	<b>G'olib va sovindrolar</b>	<b>Egalla- gan o'rni</b>	<b>Sport turi</b>
XXV	Barcelona	1992	17	Chusovitina Oksana	1	gimnastika
				Galiyev Rozaliya	1	gimnastika
				Shmonina Mariya	1	Yengil atletika
				Sirsov Sergey	2	og'ir atletika
				Asrabaev Anatoliy	2	Nishonga o'q otish
				Zaxarevich Valeriy	3	Qilich bozlik
XVII qishki	Lillexammer	1994	7	Cheryazova Lina	1	fristayl
XXVI	Atlanta	1996	76	Bagdasarov Armen	2	dzyu-do
				To'laganov Karim	3	boks
XVIII qishki	Nagano	1998	4	-	-	-
XXVII	Sidney	2000	77	Muhammadqodir Abdullaev	1	Boks
				Taymazov Artur	2	erkin kurash
				Mixailov Sergey	3	boks
				Saidov Rustam	3	boks
XXVIII	Afina	2004	76	Dokturashvili Aleksandr	1	Greko-rom kurashi
				Taymazov Artur	1	erkin kurash
				Ibragimov Magomed	3	erkin kurash

				Haydarov O'tkirbek	3	boks
				Taymazov Artur	1	Erkin kurash
				Tangriev Abdulla	2	Dzyu-do
				Tigiev Soslan	2	Erkin kurash
				Sobirov Rishod	3	Dzyu-do
				Fokin Anton	3	Ginnastika
				Xilko Yekaterina	3	Trampolin sakrash
XXIX	Pekin	2008	58	<b>jami 6 o'yinda sportning 10 ta turidan 23 medal</b>		

O'zbekistonlik sportchilar mustaqillikdan oldin 10- Olimpiada o'yinlarida 36 ta medallarni qo'lga kiritgan bo'lsalar, mustaqillikdan so'ng 6ta o'yinda 23ta medalga sazovor bo'lishgan (3-5- jadvallar)

#### Test savollari

1. O'zbekiston Milliy Olimpia qo'mitasi qachon tashkil topgan va XOQqa qachon a'zo bo'lgan?
2. Yangi davr Olimpiada o'yinlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Olimpiada o'yinlari qachon, qaerda, kim tomonidan qayta tiklangan?
4. XOQning birinchi prezidenti kimi bo'lgan?
5. Hozirgi zamon Olimpiada o'yinlari birinchi marta qaysi mamlakatda va qaysi shaharda o'tgan?
6. Olimpiada o'yinlari har necha yilda o'tkaziladi?
7. Qadimgi Olimpiada o'yinlari birinchi marta qaerda qachon o'tkazilgan?
8. Birinchi Olimpiada o'yinlarida sportning necha turidan musobaqalar bo'lgan?
9. Oliimpiada o'yinlari qachon va kim tomonidan taqiqlangan, nima sababli?
10. Stadiy so'zi nimani anglatadi?
11. Olimpiada o'yinlarida kimlar ishtirok etishgan?

### **III BOB. Oliy ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya**

Oliy ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya fanining mashg'ulot-darslari va sport to'garaklari talabalarni insonparvarlik ruhida, o'z mutaxassisligi bo'yicha zamona viy talablarga mos ravishda tayyorlashda ijtimoiy fanlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. U har bir talabaning o'z kasbini egallashga jismonan tayyorlanishiga, shaxs sifatida shakillanishida muhim bir vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga u sog'liqni mustahkamlash omili bo'lib talabaning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya oliy o'quv muassasalari dasturiga fan sifatida 1928-yilda kiritilgan. Ungacha mutaxassislar qisqa 3- oylik kurslarda tayyorlangan.

1921-yilda Farg'on'a va Toshkent shaharlarida jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashni ko'zda tutib, 3- oylik kurslar ochilgan, shu yili bu kurslarni 60 kishi tugatdi.

1926-yilda jismoniy tarbiya yo'riqchilarini (instruktor) tayyorlaydigan 3- oylik kurslar ochilib, o'sha yilning o'zida ularni 30 kishi bitirib chiqdi.

1929-yilning noyabr oyida O'rta Osiyoda xalq xo'jaligini tezda yuksaltirish va bu o'lkada mutaxassislar kamligini hisobga olib, mamlakatning sharqida bиринчи Oliy texnika o'quv muassasasi, O'rta Osiyo paxtachilik irrigatsiya-politexnika instituti, hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti tashkil etildi.

1933-yilda jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash uchun Samarqand shahrida bir yillik kurs ochildi.

1935-yilda Yo'ldosh Oxunboboyevning farmoniga muvofiq bиринчи jismoniy tarbiya texnikumi ochilib, shu yili bu o'quv maskaniga 100 kishi qabul qilindi.

1949-yilda Toshkent Davlat muallimlar tayyorlash instituti qoshida bиринчи marta oliy malakali jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash bo'limi ochildi.

1954-yilda Farg'on'a, Nukus va Andijon Davlat muallimlar oliygohida jismoniy tarbiya fakultetlari faoliyat ko'rsata boshladi.

1955-yilda O'zbekistonda (Toshkentda) jismoniy tarbiya texnikumi negizida O'rta Osiyoda yagona bo'lgan - O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti tashkil topdi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda 64 ta oliy o'quv muassasi bo'lib, shu jumladan, 20 ta universitet, 44 ta institut, 800 taqqa yaqin o'rta maxsus o'quv muassasalari bo'lib, ularning hammasida jismoniy tarbiya kafedrasi ishlab turganini qayd etish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport talabalarning kun tartibidan muhim o'rinni olgan, o'quv muassasalarida va talabalar turar joylarida sport to'garaklari ishlat turibdi. To'garaklarni yuqori malakali jismoniy tarbiya o'qituvchilar va sport ustozlari boshqarib borishadi. Bu o'quv muassasalarida talaba va o'quvchilar, o'qituvchi va sport ustozlari boshchiligidagi jismoniy tarbiya va sport bilan amaliy shug'ullanishdan tashqari ilmiy izlanish ishlari ham olib borishadi.

A.Normuradov, I.Morgunova va Ye.Suxovalar tomonidan ToshDShI talabalar bilan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, reyting-sinovlari topshirish (semestr) davrida talabaler organizmning funksional holati susayarkan, bu holatni tez va jada tiklash uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari katta yordan berishini ko'rdik (6-jadval). Oliy o'quv muassasalarida talabalar bilan semestr paytida ko'pincha jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkazilmaydi. Buning asosiy sababi ilmiy asoslangan tavsiyaning yo'qligidir.

Biz tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida uch guruh talabalar nazorat qilindi: 1- guruh kun tartibi rejasiz, erkin yashagan talabalar bo'lib, bunda faol jismoniy mashqlar belgilari kuzatilmadi; 2- guruhda jismoniy tarbiya mashqlari kun tartibi faoliyatni yaxshi rejalashtirilib, ammo uyqu, ovqatlanish, darsga (reyting-testlarga) tayyorlanish va ochiq havoda bo'lish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. 3- guruh talabalarining kun tartibi esa yuqori darajadagi rejalashtirilib, semestr davomida ham buzilmagan. 6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, aqliy faoliyatni jismoniy mashqlar ta'sirida nisbiy o'zgargani to'g'risidagi ma'lumotlar natijasi mazkur muammoni chuqurroq o'rganishni taqozo qiladi. Chunki 6-jadvaldagi 3- guruh talabalarining ish qobiliyati gradienti reyting-testlari topshirish ta'sirida susaygani ko'rinish turibdi. Talabalarning harakat faoliigli yuqori saviyada tashkil qilinib, agar kun tartibi, yashash sharoiti, sog'gom turmush tarzi bilan o'zaro bog'lanmasa, semestrlardan so'ng aqliy mehnat qobiliyati tez tiklanmas ekan.

## Talabalarni semestr davomida reyting-testlardan so'ng ish qobiliyatining tiklanish davri

6-jadval

Tekshiruv davri	Guruhi ( %-da )		
	1	2	3
Uchinchi reytingdan so'ng ertasiga	23,1 80,3	31,4 82,4	46,2 99,8
Hamma testlar tugagandan so'ng (4-reyting-testi)		78,9	89,4
Sesmestrdan bir hafta o'tganda	64,5 82,3	89,8	100,5

Ish qobiliyat gradienti- kayfiyatni ko'tarinkiligi, yurak urish davri, qon bosimini semestr dan oldingi holatga qaytishi va o'qishga bo'lgan ishtiyogi.

### Semestr davrida talabalarning aqliy ish faoliyatini o'zlashtirishda jismoniy tarbiya tadbirlarining ahamiyati

Institutlardagi ta'lif dasturi shaxsning o'quv jarayonida o'quv tarbiya, jamoat ishlari bilan birga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirmaydi. Talabalar o'qish davomida jismoniy tarbiya va sport faoliyati shakllari bilan tanishib chiqishadi. Talabalar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanganda, o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- o'z sog'ligini mustahkamlash, har tomonlama jismonan rivojlanish, jismoniy harakatlarni tarbiyalash, organizmining kasallikka bardoshligini, mehnat unumdarligini oshirish;
- aql-idrok faoliyatini faollashtirish va toliqishni yengishga qaratilgan vositalarni topish.

Kommunikativ tarbiyaning mazmuni talabaning o'z o'rtoqlari bilan muloqatda bo'lishi, o'quv guruhidagi do'stlari bilan aloqani mustahkamlashi, irodasini tarbiyalash, mehnatdan qochmaslikdir.

Pedagog-tashkilotchi, jamoatchi-yo'riqchi, tarbiyachilik, sport bo'yicha hakamlik, ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tashkilotchisi qobiliyatini, mataka va ko'nikmalarini tarbiyalab boradi.

**Pedagogik-tashkiliy maqsadga erishishda jismoniy tarbiya va sport shakllarining ahamiyati**

**7-jadval**

MAQSAD	Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining shakllari			
	O'quv mashg'ulot- lari %	O'qishdan tashqari taskil etilgan mashg'ulotlar %	Mustaqbil ravishda o'tkaziladi- gan mashg'ulot lar%	Jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug'ullan- mag'anlar %
Janoatchi yo'riqchilik, murabbiy malaka va kunik- malarini egallash	31,0	61,1	7,9	-
Sportning turlari bo'yicha hakamlik malakasini egallash	40,4	51,6	6,8	1,2
Omnaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini taskil qiluvchilar malakasini egallash	39,4	50,6	9,2	0,8
Tashviqot ishlarini olib boruvchilarni tayyorlash	34,2	57,1	4,2	4,5

**Talabalarning bo'sh vaqtlarida jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi tashkiliy sabablar**

8-jadval

S A B A B L A R	Kurslar (% hisobida)			
	1	2	3	4
Mashg'ulotlar uchun yomon sharoitlar	12,4	17,1	26,6	29,3
Tashkiliy tadbirlarning qoniqarsiz bajarilishi	13,8	18,6	20,9	21,7
O'qituvchi tomonidan qo'yilgan talab	18,1	17,8	21,9	22,2
Yo'lga ketgan vaqt	16,2	16,7	28,8	31,6
Bo'sh vaqtning yetishmasligi.	21,2	23,0	25,1	29,6
Murabbiylarni tez-tez almashib turishi	6,3	6,6	5,0	3,2
Mashg'ulotlarning bir xilligi (zerikarli o'tishi)	14,7	19,6	24,2	26,9
Mashg'ulotlar vaqtini cho'zilishi	20,2	21,4	17,5	16,0
Xohlagan sport turi bilan shug'ullanishga imkoniyat yo'qligi	6,7	5,3	6,8	3,6

ToshDSHI o'qituvchilarini tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma da (7 va 8-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar) Toshkent shahrida tahsil olayotgan 2 mingdan ortiq talabalar ishtiroy etishdi. Qayd qilingan ma'lumotlar Jismoniy tarbiya fanining maqsadga erishishda darsdan tashqari uyushtirilgan amaliy mashg'ulotlarini ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi.

**Jismoniy tarbiyaning asosiy tushunchalari**

Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon bo'lib, yosh avlodning sog'ligi, jismonan yetukligi, ijtimoiy faolligi, axloqan sog'lom o'suvchi avlodni shakllantirishni takomillashtirishga yo'naltirilgan bir tarbiyaviy vositalidir. Jismoniy tarbiya jarayonida organizm funksional va morfologik takomillashtiriladi, harakat ko'nikmalari, jismoniy harakat sifatlari: chaqqonlik, tezkorlik, chakqonlik, egiluvchanlik, chiddamkorlik maxsus bilim va ko'nikma bilan shakllanadi.

Jismoniy madaniyat – yangi jamiyat quruvchilarini, yetuk shaxslarni har tomonlama tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositalari bilan birga sport va madaniyatning maxsus vosita va uslublarini aniq

maqsadga yo'naltirish orqali insonni jismoniy takomillashtirishni o'z ichiga oladigan maxsus tadbirlar majmuasidir.

Jismoniy madaniyat – umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, uning rivoji jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga bog'liqdir.

Jismoniy taraqqiyot inson organizmining o'sishi bilan, uning shaklan o'zgarishi va davomiyligi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayondir.

Jismoniy taraqqiyot ob'ektiv biologik qonuniyatlarga bo'yusunadi. Bu qonunlardan asosiysi organizm va muhit taraqqiyotining birlik qonunidir.

Sport – madaniyatning bir shakli, jamiyat madaniy faoliyatining bir turi.

Sport jismoniy taraqqiyot va inson qobiliyati bilan bog'liq boshqa xususiyatlarni ham amalga oshiradi.

### **Jismoniy madaniyat va sportning asosiy maqsadi va vazifalari**

Jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama rivojlantirishi birmuncha murakkab va qiyin, ko'p qirrali vazifa bo'lib, jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rinn egallaydi.

Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir.

Sport musobaqalari, bellashuvlar paytida sportchida halollik, ulug'vorlik, raqibiga nisbatan hurmat va boshqa axloqiy fazilatlar tarbiyalanib boradi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanish aqliy rivojanishga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy mashqlar va sport mashg'ulotlari bilan aqliy mehnat aloqalari bir-biriga bevosita bog'liqdir.

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanish ma'lum miqdorda hissiyot organlari ko'nikmalarini takomillashtirishda, ayniqsa, mushaklar harakati, ko'rish, sezish, idrok qilishga yaxshi zamin yaratadi.

Mehnat tarbiyasi mehnat ko'nikmalarini egallash orqali, ya'ni mashg'ulotlarda o'z-o'ziga xizmat qilish, mashg'ulotlar o'tkazish uchun gigiena sharoitlarini yaratish, sport anjomlari va uskunalarini jihozlash, tozalash va joylashtirishda ishtiroy etish, sport maydonchalarini obodonlashtirish singari umumiy foydali mehnat jarayonida ta'minlanadi. O'quv mashg'ulotlari va o'quv mashqlari jarayonida

jismoniy tarbiya yoki sport bilan shug'ullanuvchilar jismoniy mashqlarni bir necha marotaba takrorlasa yoki uning alohida qismlarini yod olsa, o'zini mehnatsevar qilib tarbiyalaydi.

Jismoniy tarbiyatning har qanday maxsus vazifalarini hal etishda albatta sog'lomlashtirish afzalligiga e'tibor berish kerak. Jismoniy tarbiya vositalarini tanlash, jismoniy chiniqish tadbirdirlari sog'lomlashtirishga qaratilgan jarayon bilan birga qo'shib olib boriladi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishning asosiy shartlaridan biri shug'ullanuvchi sog'ligini jiddiy nazorat qilishdir. Bu ish o'qituvchi-shifokor tomonidan olib boriladi.

Jismoniy tarbiya va sport – xalqlar o'rtasida hamkorlik, tinchlik va do'stlikni mustahkamlaydigan vositadir.

Bizning mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportning milliy turlarini rivojlantirishda, mashg'ulotlarni o'z ona tilida o'tkazishda, milliy kadrlarni ko'plab tayyorlashda sportning milliy turlari hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kelajak avlodni ob'ektiv qonuniyatlar asosida jismoniy madaniyat usullari orqali baynalminal ruhda tarbiyalash – sportning milliy turlarini rivojlantirish yordamida amalga oshiriladi. Xalqaro sport aloqalari, boshqa millat vakillariga nisbatan hurmat, ularning urf-odatlari bilan yaqindan tanishish, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik his-tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat va sport kishilarni birlashtirish, tinchlikni mustahkamlash, xalqlar o'rtasida va o'zaro bir-birini tushunish vaziyatini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

### **Jismoniy tarbiya fanining shakllari**

Jismoniy tarbiya fani "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi"ning 1990-yil 31- avgustdaggi 183- sonli bo'yrug'iga, (1992-yil 14-yanvarda) O'zbekiston Respublikasining qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri 2000- yil 26- may) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yilning 26- mayidagi 271-sonli qarori (yangi tahriri 2005- yilning 26- mayi) asosan OTMlarda umumiylajmashg'ulot sifatida 1-2 kurslarda kamida 4-6 soatdan belgilangan.

Biroq hozirgi paytda OTV o'quv rejasida "Jismoniy tarbiya" faniga umumiylajmashg'ulot 234 soat (1-3 semestr), undan 120 soati amaliy

mashg'ulotlarga, 108 soati mustaqil ishlarga va 6 soati reyting testlar toshirishga ajratilgan, xolos. U yarim yillik (semestr) va o'quv yilining oxirida test sinovlari bilan yakunlanadi.

Oliy ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- o'quv mashg'ulotlarini (amaliy) oliy ta'lif muassasining o'quv rejasida asoslangan holda o'tkazish, bundan tashqari talabalarning xohishiga ko'ra sportning har xil turlari bilan sport to'garaklarida shug'ullanish;

- ommaviy sog'lomlashdirish, jismoniy tarbiya va sport anjumanlari va tadbirlarida qatnashish

- jismoniy tarbiyaning bunday xilma-xil shaklda olib borish yoshlar organizmining bir me'yorda ishlashi uchun ko'rilgan chora-tadbirlarga kiradi;

- talabalarda harakat faoliyatining davomiyligi haftada 12 – 16 soat bo'lishini taqozo qiladi.

2006 o'quv yilidan boshlab "Valeologiya asoslari"dan 32 soatlik nazariy, 4 soat seminar va 2 soat reyting mashg'ulotlari belgilangan.

### **O'quv materialarining nazariy mavzulari**

Amaliy o'quv-dars-mashg'ulotlari jismoniy tarbiya fanini asosiy shakli hisoblanadi o'quv rejasini hamma mutaxassisliklar bo'yicha kafedra o'qituvchilari tomonidan rejalashtirib olib boriladi.

Jismoniy tarbiyaning samarali natijasi talabalarning sog'lom hayot kechirishlari, o'qishi, kasb egallashi, mehnat jarayonida, omma orasida va o'z-o'zini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar har bir semestrda ikki marta reyting mezonnari va semestr oxirida sport turlaridan yakuniy test-sinov talablarini bajaradilar. Nazariy bilimlar quyidagi mavzular bo'yicha olib boriladi.

**1-mavzu.** O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixining rivojlanishi haqida.

**2-mavzu.** Olimpiada harakatlari .

**3-mavzu.** Oliy o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya fan sifatida.

**4-mavzu.** Jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslari.

**5-mavzu.** Sog'lom turmush tarzi.

**6-mavzu.** Ishchanlik va faollik tartibi.

**7-mavzu.** Jismoniy salomatlikning asosiy omillari.

**8-mavzu.** Mutaxassisliklar bo'yicha jismoniy tayyorgarlik.

**9-mavzu.** Ilmiy faoliyatda jismoniy tarbiya mashqlarining ahamiyati.

**10-mavzu.** O'zbekiston mintaqasining tabiat-iqlimi va unda jismoniy tarbiya - sport mashg'ulotlarini olib borish xususiyatlari.

**11-mavzu.** Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy mohiyati.

**12-mavzu.** O'zbek milliy o'yinlari va ulardan jismoniy tarbiya darsida foydalananish.

Jismoniy tarbiya fanidagi nazariy bilimlardan asosan kasalligi tufayli amaliy mashg'ulotlardan vaqtincha ozod qilinganlar tahsil oladilar.

**Jismoniy tarbiya darsida talabalarni o'quv gurublariga taqsimlash**

Oliy o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya darsini olib borish uchun o'tkazilgan tibbiy ko'rnikning natijasiga asosan talabalar:

asosiy, sport, maxsus tibbiyot (A va B), tayyorlov hamda amaliy mashg'ulotlardan vaqtincha ozod qilinganlar guruhrigina taqsimlanadi. Maxsus tibbiyot guruhi o'z o'rniда: tayyorlov, maxsus tibbiyot - A va B guruhlarga bo'linadi. Talabalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganda ularning jinsi, salomatligi, jismonan rivojlanganligi, jismoniy mashqlarni bajarish uchun tayyorlik, sog'lik holati va qobiliyati inobatga olinadi.

**Asosiy guruhg'a tibbiyot** ko'riganidan o'tganda o'ta sog', umumiy jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar qabul qilinadi. Jismonan kamolotga yetgan va yaxshi jismoniy tayyorlangan talabalarni UJT (umumiy jismoniy tayyorgarlik) va KAJT (kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik) guruhrigiga birlashtirish tavsiya etiladi.

Tayyorlov guruhg'a tibbiy nazoratdan o'tganda salomatligida, jismoniy rivojlanishida, anatomik tuzilishida (vaznini ko'p-kamligi) nuqson topilgan talabalar kiradi.

**Maxsus tibbiy(A, B)** guruhg'a kasalga chalinganligi to'g'risida tibbiyot guvohnomasiga ega bo'lgan yoki ko'rik jarayonida organizmida qandaydir nuqson topilgan talabalar qabul qilinadi. Guruhrar talabalarning funksional imkoniyatiga, jismoniy tarbiya shifokorlari yo'llanmalariga qarab tuziladi.

Tibbiyot xodimlarining tavsiyasiga asosan «Nuqsonli yoki zaif» talabalar "Jismoniy tarbiya" fanining amaliy mashg'ulotlaridan vaqtincha ozod qilinishi mumkin. Bunday talabalarga, operatsiyadan

yaqinda chiqqan, jarohatlangan, yuqumli(Botkin) kasallikiarga chalingan talabalar kiradi. Agar talaba bir semestrga yuqorida ko'rsatiб o'tilgan sabablar asosida ozod qilinsa, ular nazariy mashg'ulotlarda saboq olib referat tayyorlaydi va qoniqarli baholanib, reytin daftarchasiga «kasalligi tufayli ozod qilingan» deb qayd qilinadi.

Sport guruhiiga sport bilan shug'ullanigan, sport toifasiga ega bo'lган, sportning biron-bir turi bilan chuqur va muntazam mashg'ul boladigan, tibbiyot ko'rigan, sportni qonun-qoidalarini yaxshi anglaydigan, sport talabalarini bajara oladigan talabalar qabul qilinadi.

Bu guruhlar oliv o'quv yurtining sport inshooti, shtat imkoniyatlariiga, sport jihozlariga va oliv o'nvonli ustoz, o'qituvchilar mutaxassisligiga qarab taqsimlanadi. Albatta, bu guruhlar talabalarning sport turiga bo'lgan qiziqishiga qarab, sport turini ixtiyoriy tanlashiga e'tibor berish kerak.

O'quv guruhlariga taqsimlangan talabalarning biror- bir sport turi bo'yicha razryadi (toifasi) bo'lib, ularga qo'yilgan barcha talablarni a'lo darajada bajarsa, bunday talabalar alohida guruhga olinadi va amaliy mashg'ulotlardan ozod qilinadi. Sport guruhlarning ishchi jadvali bo'lishi bilan birga, bu guruh talabalari sinov mashqlarini o'z vaqtida kursdoshlari bilan birga topshirishlari shart.

Talaba u yoki bu guruhga o'z xohishi bilan ham o'tishi mumkin. Agar talaba taqsimlangan guruhga (asosiy va maxsus tibbiy guruh) kasalligi tufayli qatnasha olmasa, o'quv yili davomida kafedra qarori bilan boshqa guruhga o'tkazish mumkin.

### **Jismoniy tarbiya mashqlari bilan mustaqil shug'ullanish**

Har bir talaba pedagogning topshirig'iga muvofiq tanlagan sport turi bo'yicha, uni yuqori darajada egallash uchun mustaqil shug'ullanishi kerak. Bunday mashg'ulotlar talabaning jismoniy, sport tayyorgarligini va sog'ligini hisobga olib bajariladi. Sport guruhidagi talabalar uchun mustaqil mashqlar sportda yuqori natijalarga erishishlari uchun tayyorlanish mashqlari bo'lib qoladi. Qolgan talabalar o'quv dasturi bo'yicha saboq olishlari kerak.

O'qishdan tashqari vaqtida talabalar gigiyenik gimnastika va atletik mashqlar bilan shug'ullanishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularga yugurish, yurish va boshqa mashqlar kiradi. Gigiyenik gimnastika bilan sutkaning istagan vaq-tida, ovqatlanishdan 1-2 soatdan so'ng va uvlashdan 2-3 soat oldin shug'ullanish tavsiya etiladi.

O'zbekiston sharoitida gigiyenik gimnastika mashqlarni ochiq havoda o'tkazish ijobiy natijalar beradi.

Gigiyenik gimnastika mashqlarni tuzishda uning qancha vaqt davom etishini va ularning turini aniq tartibda belgilab olish lozim bo'ladi (Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot risolasiga amal qilib).

Gimnastika mashqlarini (10-12 mashqlar to'plami) bajarishdan oldin gantel, tosh, shtanga vazni shug'ullanuvchilar kuchiga qarab tanlanadi. Shu tariqa har bir mashg'ulot 8-10 marta takrorlanadi.

Mashqlarni 10-15 daqiqa gantel; 8-10 daqiqa amortizator; 8-10 daqiqa tosh ko'tarib, 5-7 daqiqa shtanga bilan mashq bajarish mumkin va mashg'ulotlar shu tartibda tuzilsa, kutilgan natijaga erishiladi. Yaxshiroq natjalarga erishish uchun bunday mashqlarning soni va vaqtini talaba o'qituvchilar bilan maslahat qilib va o'z imkoniyatiga qarab o'zgartirishi mumkin. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga qarab mashqlar turini o'zgartirish mumkin. Talabalar har kuni 20-40 daqiqa, imkoniyatidan kelib chiqqan holda ovqatlanishdan 1-1,5 soat keyin va uxlashdan 2-3 soat oldin shug'ullanishlari shart, bunda mashg'ulotlar 2-3 to'plamdan iborat qilib tuziladi. Mashqlar to'g'ri bajarilayotganini aniqlash uchun, uni oyna oldida bajarish tavsiya etiladi. Bir guruh mashqlarni bajarib bo'lgandan so'ng 1-2 daqiqa dam olish mumkin. Dam olish faol bo'lishi kerak, mushaklar bo'shashganda nafas chiqariladi, nafasning chiqarilishi maksimal kuch bilan har bir mashqga mos kelishi kerak. Mashg'ulotlar: yurish, nafas chiqarish kabi mashqlar bilan tugallanadi, so'ng mushaklarni bo'shashtirish va badanni ho'il sochiq bilan artish tavsiya etiladi.

Mashg'ulotdan so'ng kishi charchoqdan o'zini tetik sezishi kerak. Aks holda mashg'ulotlar og'irlik qilgan bo'lib, toliqishga va har xil kasalliklarga olib kelishi mumkin, buning uchun mashg'ulotlardagi mashqlar sonini kamaytirish yoki bajarish tezligini susaytirish lozim bo'ladi.

### **Mustaqil mashg'ulotlar**

- a) yengil bajariladigan mashqlar;
- b) o'rtacha qiyinlikda bajariladigan mashqlar;
- v) bajarilishi qiyinroq bo'lgan mashqlar.

### **Yengil bajariladigan mashqlar**

1. Qo'llarni oldinga cho'zib oxirigacha bukish va yoyish, qo'llarni tushirib tik turish, devorga suyanib turish.

2. Gavdani to'g'ri tutish, oyoq, yelka kengligida, qo'llar yoyilgan, oldinga engashib, boshni to'g'ri tutish, qo'llarni galma-gai oyoqlarga tegizish.

3. Tik turgan holatda, oyoqlarni oldinga yelka balandligiga ko'tarish, chap va o'ng tomonlarga oyoqni silkitish.

4. Oyoq yelka kengligida qo'yib, o'tirib turish.

#### **O'rtacha qiyinlikdag'i mashqlar**

1. Yerga yotgan holatda qo'llarni bukib-to'g'rakash, bunda qo'l tirsakdan to'liq bukilib-to'g'ri bo'lishi kerak.

2. O'tirgan holatdan (qo'l orqada, tiralgan holatda bo'ladi) oyoqlarni bukib to'g'rakash.

3. Oyoqlar o'z joyida, yelka kengligida turgan holatdan chuqur o'tirib turish.

4. Tik turgan holatda, oyoqlar yelka kengligida, gavdani chuqur oldinga egish.

#### **Bajarilishi qiyin bo'lgan mashqlar**

1. Yotgan holatda, oyoqlarni stulga qo'yib mashqlar bajarish.

2. O'tirgan holatda oyoqlarni har tomonga uzatish va yig'ish. tizzalarni ko'krakka bukib, oyoqlarni oldinga cho'zish.

3. Turgan holatda bir oyoqda o'tirib turish.

4. Turgan holatda gavdani har tomonga to'la burish, qo'llar yoyilgan bo'lib, gavda burilgan tomonga buriladi (oyoqlar bir joyda, oldinga qaragan holda bo'ladi), har bir mashq 10 martadan, har qaysi mashqlar to'plami uch marta takrorlanib bajariladi, har bir takror orasida 1 daqiqa dam olish mumkin, ko'p va tez bajariladigan mashqlar orasidagi tanaffus esa 1 daqiqadan oshmasligi kerak.

Mustaqil ravishda bajariladigan mashq'ulotlar har kun ertalab yoki kunning ikkinchi yarmida bajarilishi ko'proq foydalidir. Mashqlar soni mashq bajaruvchining kunlik yoki haftalik ahvoliga, yurak urishining osoyishtaligiga va mashq bajargandan so'nggi holati va kayfiyatiga qarab ko'paytiriladi yoki kamaytiriladi.

Yugurish mashqlarini bajarayotganda gavdaning og'irlik markazi butun a'zolari ustiga tushishi zarur, buning uchun sportchi yurish texnikasi bilan tanishib chiqishi zarur. Ular oyoqlarni to'g'ri qo'yishi va bosishi, gavda holati, boshni to'g'ri tutish va boshqalardir. Boshni egib yurish va yugurish odam gavdasining (skelet tuzilishining) o'zgarishiga olib keladi, nafas olish og'irlashadi. Boshni to'g'ri turishi, ko'zlar to'g'ri oldinga qarashi lozim. Tizzalarni yuqoriga ko'tarib,

oyoqni keng tashlash, xuddi zinapoyaga chiqayotganda oyoqlar qanday qo'yilsa, yugurganda ham oyoqlar shunday tushishi kerak, oyoqlarni kuch bilan tashlash mumkin emas. Oyoqlarni panja va tovonlari bilan (yerdan tovon 3-5 sm baland) qo'yish, qadamlarning orasini taxminan 40- 80 sm bo'lishi tavsiya etiladi.

### **Jismoniy tarbiya va sport tadbirlaridan maqsad**

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'z yo'nalishiga qarab tashviqot-targ'ibot, o'quv-tayyorgarlik mashg'ulotlari va sport musobaqalari ga bo'linadi.

Tashviqot-targ'ibot yo'nalishining maqsadi talaba, aspirant, o'qituvchi va institut ishchi-xodimlarini jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanishiga, jismoniy tarbiya malakalarini egallahsga qaratilgan.

O'quv-tayyorgarlik mashg'ulotlari maxsus tibbiy-sog'lomlashtirish guruh larida qatnashadigan talabalar bilan o'tkaziladi. Uning maqsadi talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini o'stirish. Bu yo'nalish dasturiga oddiy musobaqalar, ayrim milliy o'yin belgilari, soddalashtirilgan mashqlar va turli xil harakatli o'yindar kiradi.

Sport musobaqasi yo'nalishiga sport turlari qoidasi asosida o'tkaziladigan musobaqalar kirib, asosan talabaning sport faoliyatida yuqori natijaga erishish maqsad qilib qo'yiladi.

### **Jismoniy tarbiya va sportni talabalarning mehnat faoliyatida hamda dam olishidagi o'rni**

Talabaning o'qish davridagi faoliyati aqliy mehnat deb qaraladi, lekin bunda alohida hollar ham bo'lib turadi. Bularning barchasi aqliy mehnatga asoslangan bo'lib, markaziy asab tizimida o'z asoratini qoldiradi.

Talabaning ana shu asoratlardan holi bo'lishi uchun kun tartibiga umumiy gimnastika mashqlari bilan shug'ullanish uchun ham vaqt ajratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qish kunining dastlabki soatlarida (8-12, 17-19 gacha) talabaning aqliy faoliyati oliy darajada faol bo'ladi. Keyingi (12-16 gacha) soatda esa bu faollik sezilarli darajada pasayadi, uning asab, yurak urish va nafas olish a'zolar tarmog'i va boshqa a'zolari faoliyati susaya boradi. Shunday ekan, talaba va aspirantlar keyingi semestr yoki o'quv yiliga sog'lom kelishi,

o'qiydigan fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun, ulaming ta'til paytida dam olishlarini yaxshi yo'nga qo'yish lozim ekan.

Talabalarni dam olish tartibini yagona uslub va tamoyillari asosida olib borish va keyingi o'quv yiliga ularni sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini va yo'riqchilarining vazifasi bo'lib, ular ta'til davrida o'z mahoratini talabalarni o'qiydigan fanlarni o'zlashtirishda, organizmni tashqi muhitni ta'siriga chidamkorligida, o'quv jarayoni davomida kasallikka chalinmaslig'iда ko'rindi.

### **Ommaviy sog'lomlashtirishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni**

Ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport ishlari oliy o'quv muassasalarida o'qish davrida, o'qishdan tashqari vaqtarda, bayram va dam olish kunlarida, amaliy ishda, talabalar turar joyida ta'til kunlari, talabalarni yozdagagi ish faoliyatida ham muntazam olib boriladi. Ular gigiyenik, umumiy tayyorgarlik, sport va davolash kabi yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi mumkin.

Ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport ishlari, talabalar sport klublari tomonidan umumiy jismoniy tarbiya xodimlari, jismoniy tarbiya kafedra o'qituvchilar, yoshlar harakati ( kamolot), kasaba uyushunasi tashkilotlarining faol qatnashishlariga tayangan holda olib boriladi.

Bu ishlarni amalga oshirishda fakultet sport kengashi asosiy rol o'ynaydi. Kengash bu ishlarni rejalashtiribgina qolmay, balki oliy o'quv muassasida talabalarni shu ishga tayyorlaydi, tashkilotchilik ishlarini olib boradi, jamoa a'zolarini yig'ib, turli musobaqalarga tayyorlaydi va musobaqalar uyuşdıradi. Bundan tashqari sport-sog'lomlashtirishga, sog'lom turmush tarziga oid ma'ruzalar, suhabatlar, kechalar, ko'rgazmalar, devoriy gazetalar, rekordchilarning ro'yxati, guruh, kurs, fakultet, oliy o'quv muassasi va talabalarning yutuqlarini e'lon qilib borish ishlarini bajaradi.

Sport kengashining moliyaviy ishlarini, asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlashni fakultet kasaba uyushmasi qo'mitasi, sport klubni va dekanatlari o'z zimmasiga oladi.

### **Oliy ta'lim muassasalarida sport klubni faoliyati**

Oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarni, dars jadvali bo'yicha va darsdan tashqari

mashg'ulotlarni tashkil qilishda institut sport klubni va uning rahbariyati oldida katta tashkiliy vazifalar turadi.

Sport klublari oliy ta'lim muassasalarida ko'ngilli sportchilar uyushmasining birlamchi tashkiloti hisoblanadi. Uning faoliyati talabalar, aspirantlar, professor-o'qituvchilar, oliy o'quv muassasi ishchi-xodimlari va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish, sport to'garaklarida o'z sog'ligini mustahkamlas musobaqalarda ishtirot etish, sog'lom turmush tarzi bilan yashash, ijodiy faoliyatlarida hamijihatlik va jamoa oldida mas'uliyatni his etish kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Sport klub O'zbekiston Respublikasining «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport haqida»gi qonuniga, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligining qarorlariga muvofiq ish olib boradi.

Klub a'zolari faoliyatining maqsadi har tomonlama va yuksak darajadagi mutaxassislarini tayyorlash, o'quv ishlab chiqarish jarayonida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib etish, sog'lom turmush tarzlarini yaxshi yo'llar bilan olib borishni ta'minlashga yordam berishdan iboratdir.

### **Sport klubning vazifalari:**

- a) talaba yoshlarni, aspirantlarni, professor o'qituvchilarni, ishchi xodimlar va ularning oila a'zolarini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadirish va qiziqtirish;
- b) ularning sog'ligini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish, tashkilotlar a'zolarining doimiy ravishda sog'lom bo'lishini ta'minlash;
- v) rahbariyat bilan bog'langan holda kafedra, yoshlar qo'mitasi, kasaba uyushmasi va boshqa ijtimoiy tashkilotlar bilan birga talabalarning bilimlari, mahorati, ish qobiliyati, ko'nikmalari sifatini oshirish, fuqorolik burchilarini (harbiy xizmatni) bajarishlarini ta'minlash;
- g) ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbiralarini o'tkazish;
- d) sport turlari bo'yicha klublar, ma'ruzalar va jamoa birlashmalarini tashkil etish;
- ye) jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchilarni ommaviy ravishda oliy o'quv muassasalari siyosiy tadbirlarida qatnashishga jalb etish.

## **Sport klublari ishlaring mazmuni**

Sport klublari rektorat, jismoniy tarbiya kafedrasи, kasaba uyushmasiva kamolot yoshlari tashkiloti bilan birlgilikda quyidagi vazifalarini bajaradi:

a) jismoniy tarbiya va sportni o'quv va mehnat faoliyatini jarayonida amalga oshirish, talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlarni turmushi, dam olishlari, bilim va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish, shaxsiy va umumiy gigiyena, o'z-o'zini boshqarish, birinchi yordam ko'rsatish, zararli odatlarga qarshi kurashish va ularni sog'lom turmush tarzi to'g'risida targ'ibot ishlarini olib borish;

b) turli jismoniy tarbiya va sport o'yinlari, mashg'ulotlarini oly o'quv muassasining an'analariga bog'liq holda tashkilotchilik bilan tashkil etish, uning moddiy bazasini shakillantirish;

v) klub a'zolarini ommaviy sport, UJT (umumiy jismoniy tarbiya) talablariga tayyorlash ishlarini olib borish;

g) sog'ligi yomonligi sababli jismoniy tarbiya va sportga qatnashmaydigan talabalar bilan ishslash va ularni jismoniy tarbiya-tadbirlariga jalb etish;

d) sport to'garaklari rahbarlari, ustoz va yo'riqchilar, sport hakamlari, kurs va fakultet sport tashkiloti raislari, sportchilar, jismoniy tarbiya mutaxassislarining amaliy ishlarini yuqori saviyaga olib chiqishi, sport mashg'ulotlari, ommaviy jismoniy tarbiya, umumiy sog'lomlashtirish ishlarini imkonli boricha yahshi tashkil qilish va rivojlantirish;

ye) yozgi va qishki sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalarni tarqatish ishlarida bevosita ishtiroy etish; uyushtiriladigan musobaqalar rejasiga qarab klub, terma jamoa, guruh, sport to'garagi bo'limlarini tashkil qilish, yil davomida o'tkazilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar kunini belgilash va ularni xavf-xatarsiz o'tkazish yo'llarini ta'minlash;

i) sport ustasi va sport ustasiga nomzodlarni tayyorlash maqsadida sport to'garaklarida ularning o'quv-mashg'ulotlarini yo'liga qo'yish;

k) sportda erishilgan yutuqlarni, yuqori ko'rsatkichlarni hisobga olib, har bir sport turi bo'yicha terma jamoa tuzish va ularning musobaqalarda qatnashishlarini ta'minlash, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarida ishtiroy etish;

l) jismoniy tarbiya kafedralari va tibbiyot ko'rikлari orqali sport klublari to'garaklari, guruhlarida qatnashayotgan a'zolarining sog'liklari haqida g'amxo'rlik qilish;

m) fakultet, kurslar, kafedra va oliv o'quv muassasining boshqa tarmoqlari o'rtasida musobaqalar uyuştirish;

n) hozirgi va kelajakda bo'ladigan sog'lomlashtirish, ommaviy-sport, o'quv jarayonidagi ishlarni rejalashtirish va shu tadbirdarga ketadigan sarf-harajatlarini belgilash.

### **Sport klubning huquq va burchlari**

-spot klubi belgilangan tartibda a'zolarining foydalanishi uchun sport anjomlari, jihozlar sotib olish va ularni ijara berish;

- sportklub o'z muhri, bayrog'i, ramzi, sport kiyimi, shtat birligida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qaror qilish va uni tasdiqlash uchun muhrli qog'oziga ega;

- ommaviy musobaqalar, spartakiada, o'quv-mashg'ulot yig'ilishlari (universiadalar) o'tkazish hamda o'z jamoasi va alohida sportchilarni musobaqalarga safarga yuborish;

- kasaba uyushma qo'mitasi, kamolot, rektorat va shu kabilarga sog'lomlashtirish va sportning ommaviylashtirishda, targ'ibot-tashviqot ishlarni olib borishda tashabbus ko'rsatgan va faol ishtirot etgan o'qituvchi-murabbiylar safini kengaytirish, faxriy yorliqlar bilan mukofotlash, belgilangan tartibda mukofotlar va esdalik sovg'alarini taqdim etish uchun takliflar berish;

-birinchi, ikkinchi, uchinchi toifali hakamlik (sudya), jismoniy tarbiya faollariga esa maxsus seminarlarda ishtirot etganligini inobatga olib, nishonlar, guvohnomalar, xizmat ko'rsatgan tarbiyachilar, o'qituvchi-murabbiylar, boshqa ommaviy ishlarni olib borgan faollariga faxriy yorliqlar berish;

-oliy o'quv muassasi rektorati va boshqa ommaviy tashkilotlar jismoniy tarbiya va sport sohasida o'zidan yuqori to'rgan sport tashkilotlariga turli takliflar kiritish huquqiga ega.

Sport klubi kasaba uyushmalari qo'mitasi, oliv o'quv muassasining jamoasiga, viloyat, tuman, shahar o'lka KTS (kungilli talabalar sport jamoasi) ning uyushmalariga hisobot berib turishlari zarur. Zarur bo'lganda sport klubi yuridik shaxs huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda oliv o'quv muassasining kasaba uyushmasi qo'mitasida belgilangan tartibda hisob-raqamini ochishi va o'z hisob-raqamini davlat, shaxsiy banklarida ham ochishi mumkin.

Sport klubi a'zolari: talaba, aspirant, o'qituvchi, oliv o'quv muassasining xodimi va ularning oilasidagilarni har biri a'zo bo'lishi mumkin.

Sport klubi a'zolariga klub boshqarmasi va Jismoniy tarbiya fakulteti yoki kafedrasining tavsiyasi bilan qabul qilinadi. Kasaba uyushma talabaga sport klubiga qabul qilinganligi haqida a'zolik guvohnomasini beradi.

Sport klubi a'zolari quyidagi huquqlarga ega: sport klubining majlislari, konferensiylarida ishtirok etish, klub rahbar organlariga saylash va saylanishi, «Talabalar ko'ngilli sport jamiyatiga a'zo bo'lishi, o'quv guruhi, to'garaklarida, jamoalarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi, o'zi tanlagan sport turi bo'yicha malakasini oshirishi, musobaqalarda o'zining sport klubi nomidan chiqishi, jismoniy tarbiya, sog'lomlashdirish bayramlarida qatnashishi, kasaba uyushmalari maslahatlaridan, klubning mol-mulki va jihozlaridan foydalanishi mumkin.

### **Sport klubi a'zolarining burchi**

- klub ishlarida faol qatnashish, a'zolik badallarini o'z vaqtida to'lash va rahbar tashkilotlarning qarorlarini bajarish;
- sport jasorati va jismoniy tayyorlarlikni takomillashtirish, ishibab chiqarishda yuksak mehnat unumдорligiga erishish va o'z vatanini himoya qilishga tayyor bo'lish;
- sog'lom hayot kechirish, noma'qul odatlardan voz kechish, tashkilotchilik mashg'ulotlari musobaqalarida o'rnak bo'lish, turmush va mehnatda ommaviy tartibosizliklarni ctiqaruvchilar bilan kucashi olib borish, jamiyat va klubning ommaviy sport tadbirlarida faol ishtirok etish;
- sport ustozlarining talabalarni jismoniy tayyorlashga amaliy yordam ko'rsatish;
- sport klubining mol-mulkleri va jihozları, sport kiyimlarini asrab-avaylash;
- tibbiyot ko'rigidan muntazam o'tib turish, sportchilarning tana a'zolari holatini nazorat qilib turish, shaxsiy va umumiyy gigienaga amal qilish;
- mashg'ulotlar uchun o'zining shaxsiy sport ust-boshiga ega bo'lish.

## **Sport klubining boshqaruv tizimi**

Sport klubining oliv organi klubning umumiy yig'ilishi (konferensiisi) dir. U sport klub rahbariyati tomonidan 2-3 yilda saylov va hisobot berish muddatida chaqiriladi. Yig'ilish klub a'zolari (vakillari)ning kamida teng yarmi yig'ilgandagina o'tkaziladi.

Hisobot-saylov yig'ilishi (qonferensiisi) sport klubining boshqaruv va taftish komissiyasining hisobotini muhokama etadi, shu hisobot bo'yicha qaror qabul qiladi, klubning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kelgusi asosiy rejalarini belgilaydi, ochiq ovoz berish yo'li bilan 2 yilga mo'ljallab klub boshqaruvi va taftish komissiyasini saylaydi, shuningdek, bundan keyingi yuqori tashkilotlar majlisida ishtirok etish uchun o'z vakillarini ham saylaydi.

Boshqaruv (hay'at) kundalik rahbarlik ishlarini amalga oshiradi, bunda a'zolaridan rais, rais yordamchisi, kotiblar saylanadi va klubning boshqa a'zolari vazifalari belgilanadi, kundalik masalalar klub boshqaruvi tasdiqlagan reja asosida bajariladi.

Har qaysi fakultet (kursda), kafedra va oliv o'quv muassasining boshqa tarmoqlarida jismoniy tarbiya tashkiloti tuziladi, umumiy yig'ilishda saylangan a'zolar jismoniy tarbiya kengashini bir yil muddatga saylaydi. Bunda ushbu kengash ommaviy sport va jismoniy tarbiya kafedrasining sog'lomlashdirish ishlari bo'yicha mas'ul o'qituvchisi, tarmoqlar, fakultet kasaba uyushmasi kengashi rahbarligi ostida ish olib boradi.

Har bir kasaba uyushma guruhida jismoniy tarbiya kengashi rahbarligida ish olib boradigan tashkilotchi, yo'riqchi, rahbar saylanadi.

Sport klubi, fakultet (kurs), kafedra va boshqa jismoniy tarbiya tashkilotlarida biror sport turi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish kelishib olinadi, har bir sport to'garagida jamoa boshlig'i tayinlanadi va u sport klub boshqarmasi, kafedra, fakultet va jismoniy tarbiya kengashi rahbarligi ostida ish olib boradi.

Sport klubi sport klubi boshqaruvi va oliv ta'lim muassasi rahbari tasdiqlagan reja bo'yicha ishlaydi. Sport klub mablag'lari quyidagilardan tashkil topadi:

- talabalar, professor-o'qituvchilar, ishchi- xodimlarning a'zolik puli va kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan sport tadbirlari va buyumlariga ajratilgan mablag'lar, kasaba uyushmalariga tushgan a'zolik badallaridan sport-sog'lomlashdirish uchun ajratilgan qismi, rektorat va yoshlar tashkilotining sport tadbirlarini o'tkazish uchun

ajratgan mablag'i ; sport oqshomlari, bayramlar, sport lotoreyalari, boshqa chora-tadbirlardan va homiylardan tushgan mablag'lar;

- sport, jismoniy tarbiya ishlarini olib borgan talabalar, aspirantlar, professor-o'qituvchilar va oliv o'quv muassasining xodimlari jismoniy tarbiya kafedralari bilan birgalikda o'tkazgan chora-tadbirlardan tushgan hamda ma'muriyat ajratgan mablag' ;

- sport to'garaklari, guruhlari o'zining pullik sport to'garaklaridan tushgan mablag'dan keladigan kirimlar;

- boshqa joylardan tushadigan mablag'larni, sport klubini byudjetini sport klubni raisi taqsimlaydi. Kundalik pul mablag'larni klub boshqarmasi tasdiqlagan smeta asosida sarflanadi, byudjetlarni sport klub boshqarmasining raisi, agar u bo'lmasa, uning yordamchisi tasdiqlaydi. Jismoniy tarbiya kafedrasining katta o'qituvchisi sport klub raisi etib saylanadi;

- sport klubining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini oliv o'quv muassasining qo'shma kasaba uyushmasi qo'mitasi nazorat qilib boradi.

### Sog'lomlashtirish xonasini tashkit qilish

Inson o'z sog'ligini yoshlikdan, talabalik davridan saqlashga e'tibor qaratish kerak. Ammo yoshlar oddiy gigiena qonuni, ovqatlanishi tartibi, uyqiga e'tibor bermaydilar. Talabalarning turar-joyda yashaydiganlari orasida (A.Normuradov, I.Morgunova va I.Soliev) olib borilgan so'rovlarga qaraganda, ularning 37 foizi darsga nonushtasiz ketadi, natijada ularning ish qobiliyati 9 – 12 % pasayadi. 38% talaba bir kunda 2 marta issiq ovqat iste'mol qilar ekan. Olimlar (dietologlar) ning tavsiya qilishicha, talabalar bir kunda 4 marta ovqatlanishi shart. Talabalarning 87 foizi kechasi soat 1-2 da uxdelaydi. Buning natijasida ular tabiiyki uyquga to'ymaydilar, bu esa ularning aqliy ish faoliyatini uyquga to'yanlarga nisbatan 7– 18 foiziga pasaytiradi. Talabalarning 34 foizi kechasi uyquga to'ymaganlari tufayli kunduzi 1-3 soat uplashga majbur bo'lishadi. Talabalarning 59 foizi darsni soat 20 dan 24 gacha tayyorlaydi, bunda dars tayyorlash 2,5 –3,5 soatga uyqu hisobiga cho'ziladi. Bundan ko'rinish turibdiki, ko'pchilik talabalarning dars tayyorlash vaqtli juda kech bo'lib, bu esa o'z o'rnila asab zo'riqishiga sabab bo'ladi, uyqu sifatiga salbiy ta'sir qiladi va talaba organizmi immunitetini susaytiradi.

36 foizga yaqin talaba yakshanba kuni uzoq vaqt (5-6 soat) dars tayyorlaydi, vaholanki, bu kunda ular dam olib, kuchlarini yanagi haftaga tiklashlari kerak.

62 foizgacha talaba bir kunda 30 daqiqadan kam, 29 % talaba esa 1 soatdan kam ochiq havoda bo'ladi (gigiyena qoidasiga ko'ra kamida 2 soat ochiq havoda bo'lish tavsiya etiladi). Chiniqish muolajasi bilan faqat 2 % talaba shug'ullanadi. Buning oqibatida kuz va bahorda talabalarning 80 foizini har xil shamollash kasalliklariga chaliniib, dars qoldirishga majbur bo'ladilar. (Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining talabalar kun tartibiga qoniqarsiz joriy qilinganligi to'g'risidagi axborot 9-jadvalda berilgan).

Joyalarda jismoniy tarbiya va omma viy sport turlarini yo'lga quyishda hamda musobaqalar tashkil qilishda institut talabalar turar-joyalarida sog'lomlashdirish xonalarini barpo etish maqsadga muvofiqdir.

- kasaba uyushmasi va talabalar turar-joyia kengashining qarori bilan institut talabalar turar-joyalarida sog'lomlashdirish xonalarini tashkil qilinishi kerak. Talabalarning sog'lomlashdirish xonalarida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi tashkilotchi murabbiy yoki sport yo'rinchilari rahbarligi va nazorati ostida o'tadi;

- guruhlarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilish va yuushtirish, jismoniy tarbiya bilan mustaqil shug'ullanuvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish;

- mashg'ulotlar natijasida erishilgan ko'rsatkichlarni shu xonada bo'ladigan oddiy ko'riklarda namoyish qilib turish;

- faol dam olishni, sog'lom turmush tarzini, jismoniy kamolotni va sportdagi ilg'or tadqiqotlarni, targ'ib qilish;

- oddiy sport jihozlari, trenajyor, texnik o'quv vositalaridan guruhlarda, mustaqil ravishda shug'ullanishining uslubiy yo'llanmalaridan foydalanish.

Talabalar turar-joyalarida stol tennisi, boks, og'ir atletika, tosh ko'tarish, ritmik gimnastika bo'yicha sport to'garaklarida mashg'ulotlar va musobaqalar o'tkazish mumkin.

### **Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinov talablari**

Talabalar taqsimlangan har bir bo'limning barcha talablari (yarim yillik) sinovni o'quv rejasiga muvofiq ikki bo'limdan iborat bo'lgan reyting testlari asosida o'tkaziladi.

**Talabalarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga sarflaydigan vaqt (bir haftada), soatda.**

9-jadval

Mashg'ulotlarni tashkiliy shakli	O'quv bo'limlari		
	maxsus	asosiy	sport
Darsdagi o'quv mashg'ulotlari	1,20+0,04	1,20+0,001	1,20+0,63
Ertalabki mashg'ulotlar (ertalabki gig, gimnastika)	0,43+0,11	0,88+0,01	1,48+0,02
Mustaqil mashg'ulotlar	0,37+0,03	1,78+0,03	1,9+0,05
Sport shu'balaridagi mashg'ulotlar	-	1,30+30	7,09+0,15
Musobaqalarga qatnashish	-	0,67+0,01	5,42+0,06

**1- bo'lim. Sport texnikasi va jismoniy tarbiya fanini amaliy mashqlari bo'yicha testlar topshirish**

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining jismoniy tarbiya bo'yicha ilmiy-uslubiy kengashi har yarim yilda 10-15 ta, talabalarni salomatlik holati va jismoniy tayyoragarligini aniqlovchi testlari uchun rejalashtirishni tavsiya etadi. O'quv guruhlarida bunday testlarni jismoniy tarbiya kafedrasasi ishlab chiqadi va kafedra majlisida tasdiqlaydi. Sinovlar institutni o'quv bo'limi tomonidan belgilangan rejaga asosan musobaqa ko'rinishida o'tkaziladi, bunga o'quv yili davomida zamin tayyorlanadi.

Mashg'ulotlarni qoldirgan va maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan talabalar tegishli mashg'ulotlardan so'nggina test sinovlariga qo'yiladi. Agar talaba tomonidan darslar uzrli qoldirilgan bo'lsa, talabalar tegishli testlarni topshirishdan ozod qilinishlari mumkin. Vaqtincha mashg'ulotlardan ozod bo'lgan talabalar jismoniy tarbiya fanidan ushubiy va nazariy bilimlarni (referat) topshiradilar.

Alohibda hollarda uzrli sabablarga ko'ra ba'zi testlarni topshirmagan talabalar jismoniy tarbiya kafedrasining qaroriga muvofiq, mashg'ulotlarga muntazam qatnashganligi va sinov talabalarini asosiy bo'limlari bo'yicha topshirganligini inobatga olib sinovdan o'tkazilishi mumkin. Ba'zi bir maxsus o'quv bo'limlarining talabalarini sog'liq

holatini inobatga olib, talabalar butun o'qish jarayoni mobaynida yengillashtirilgan test-mezonlarini topshirishi mumkin va bunday talabalarga ijobiliy baho qo'yiladi. Ushbu test mezonlarini jismoniy tarbiya kafedrasi ishlab chiqadi va o'z majlisida tasdiqlaydi.

### **2-bo'lim. Kasbiy amaliy testlarning talablarini bajarish**

Talabalarga har yarim yillikda ko'pi bilan 15 ta testni topshirish tavsiya qilinadi.

Kasbiy amaliy jismoniy tarbiya testlarining aniq ro'yxatiga bo'lgan talab bitiruvchi mutaxassislar uchun kafedra tomonidan yuz balli tizim bo'yicha ishlab chiqiladi.

KAJT testlarining natijalari maxsus-o'quv bo'limlarida talabalarning sog'liqlariga qarab tuzilib, baholanadi.

### **3-bo'lim. Nazariy va uslubiy bilimlarni o'zlashtirish**

O'z-o'zini nazorat qilish uslubi bo'yicha malaka va amaliy mahoratni egallash.

Talabalarning reyting ballari ularning sog'lik holati, jismoniy tayyorgarligi, malakasi, amaliy,nazariy bilimlarni qanchalik egallaganini va o'zlashtirganiga qarab belgilanib, jismoniy tarbiya kafedrasi ishchi daftariga kiritib qo'yiladi.

#### **Yillik (yarim yillik) sinovlar**

Jismoniy tarbiya fanidan har bir semestrdaqi yakuniy ballar barcha reyting mezonlari bo'yicha to'plangan ballarning o'rtacha arifmetik asosida belgilanadi, to'plangan ballar ikki nusxada talabani sinov daftarchasiga, o'quv jurnaliga va dekanatdagi reytinglar qaydnomasiga qo'yiladi, bunda talaba 3 ta bo'lim bo'yicha sinov talablarini topshirgan bo'lishi kerak (ikki nusxaning biri talaba o'qiyotgan dekanatga beriladi, ikkinchisi kafedrada qoladi).

Agar talabani bahosi «qoniqar»lidan (55% va undan past) kam chiqsa, u holda unga yillik (yarim yillik) sinov muddatida qayta topshirishga imkon beriladi.

#### **Sinov savollari**

1. O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport tarixi haqida nimalar bilasiz?

2. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3. Jismoniy tarbiya jarayonining qanday shakllari bor?
4. Guruhlar bo'yicha o'quv materialining natijasi qanday bajariladi?
5. Talabalar o'quv guruqlariga nima asosida taqsimlanadi?
6. Jismoniy tarbiya va sportning mehnat va dam olishdagi o'rni nimalardan iborat?
7. Sport klubining vazifasi nimalardan iborat?
8. Oliy ta'llim muassasi va fakultet sport kengashi qanday vazifani bajaradi?
9. Yillik (yarim yillik) sinovlarning qanday talablari bor?
10. Jismoniy tarbiya bo'yicha reyting mezonlari talablarini bilasizmi?
11. Jismoniy tarbiya bu nima ?

#### **IV BOB. O'zbek milliy o'yinlari**

O'zbek milliy o'yinlarini o'quv muassalarida talaba-o'quvchilar bilan jismoniy tarbiya darslarida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ayrim sport turlarida sportchilarni ko'nikma va malakasini oshirish, mustahkamflash hamda takomillashtirish uchun foydalanishga tavsiya etamiz.

Sport va harakatli o'yinlarini milliy turlari o'zbek millatini qadimiy an'analar, madaniyati va qadriyatini chuqur ildizlaridan kelib chiqib yoshlarmizni etnik guruhini harakat olami tasnifini aks ettiradi. Sport va harakatli o'yinlarni milliy turlari asrlar davomida xalqimiz mehnat faoliyati belgilarida saqlanib qolgan. Shaxsni har tomonlama kamolatga yetkazish vositalariga aylanib, uni aniq faoliyat maydonida o'z mehnatining unumdarligini yuksaltirish uchun foydalaniłgan. Sport o'yinlarining milliy turlari malaka va mahoratni zaruriy harakatchanligini mukammallashtirish uchun foydalaniładi. Milliy an'analarida, jismoniy harakatchanlik, jismoniy sifat shaklida namoyon bo'lib ushbu o'yinlarda o'zini ifodasini topib millatimiz genafondini rivojlanishiga vosita sifatida qo'llanilgan.

Xalq ijodiyoti va arxeologik qazilma materiallarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'tmishda O'zbekiston hududida yashagan xalqlar jismoniy tarbiya va sport elementlari bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelgan.

Hozirgi paytda sportning milfiy turlari o'zining ijtimoiy va biologik faoliyatini yo'qotmagan va jismoniy tarbiya darslarini boshlang'ich ta'lim bosqichidan oliv ta'lim bosqichigacha qo'llanilib kelinib, o'qish jarayonida majburiy vosita bo'lib qolishi kerak.

Jismoniy tarbiya mashqlarini milliy turlaridagi barcha ko'rinishlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- shug'ullanuvchilarning yoshiga va jismoniy tayyorligiga mosligi, jinsiy hamda psixologik xususiyatlari;

- dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning holati, vazifasi va maqsadining mos kelishi;

- asosiy e'tiborni qulay harakatlarni shakllantirishga, psixofiziologik sifatlar, sotsial me'yor asoslariga qaratish,

- jismoniy mashqlarni xilma-xil yo'nalishda va o'z vaqtida almashtirish,

- psixologik-ruhiy tayyorgariukni mustankamiasn.

O'quv ishlarida, sportning milliy turlarini rejalashtirishda boshqa bo'limlar bo'yicha dastur materiallari o'rganiladi va jismoniy mashqlarning turlari hisobga olinadi. Shuningdek, ko'pgina milliy o'yinlar o'quvchi, talabalarda jismoniy harakat sifatlarini, u yoki bu ko'nikma va qobiliyatni rivojlantirish uchun foydalaniлади. Mashg'ulotning foydali bo'lishi o'quv jarayonida xalq o'yinlarining rag'batlanadirishiga bog'liq.

Masalan, o'zbek milliy o'yinlari «Bo'sh joy», «Qopqon», qoraqalpoq o'yinlaridan «Bo'ri va qo'chqorlar», «Quvlashmachoq» va boshqalar kiradi. Muvozanatni saqlash mashqlaridan «Dorboz», «Bir oyoqda» kabi o'zbek milliy o'yinlaridan foydalanish mumkin. Sakravchanlikka oid harakat elementlarini o'rganishda o'zbek milliy o'yinlaridan «Oqsoq qarg'a», «Oqsoq bo'ri va qo'ylar» va qoraqalpoq milliy o'yinlaridan «Qurbaqa va sudralish» kabi o'yinlar tavsiya qilinadi.

Koptok bilan mashq qilishni o'rganish uchun o'zbek xalq o'yinlaridan - «Oqsoq eshak», «Do'ppi tashlar», «Mitti», qoraqalpoq o'yinlaridan - «Chuqurdagi shar», «Koptokni tut», «Kim birinch koptok keltiradi». kabi o'yinlarni olish mumkin.

O'qish jarayonida xalq o'yinlarini muvaffaqiyatli tadbiq qilishi butun dastur materialini o'rgatishda nihoyat foydali asos yaratish mumkin. O'zbek xalq milliy o'yinlarining jismoniy tarbiya darslarida qu'llanilishi o'quvchi va talabalarning o'z milliy madaniyatiga bo'lgan qiziqishini juda kuchaytiradi hamda yosh avlodning o'z vatanini sevishga, uni ko'z qorachig'idek asrashga va mudofaa qilishga tayyorlaydi, shuningdek, harakatlari o'yinlar orqali respublikamiz hududidagi xalqlarni jismoniy madaniyat tarixiga qiziqishini kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati bilan xalq milliy sport turlari (milliy kurashlar, turon) o'quv va tarbiya muassasalarini dasturidan keng joy olishi, o'zbek xonadoniga jismoniy tarbiya va sportni kirib borishi yoshlarning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotida benihoya katta foya keltiradi. Milliy o'yinlarning kamshitilishi va yo'qotilishi unutilgan qadriyat va ma'naviyatlarimiz qatorida tarbiya ishida, aholining salomatligini saqlash sohasida ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasi, insonni sog'lomlashtirish, jismoniy va aqliy kamolotga yetkazishdan iborat ekan, o'yinlar bilan

shug'ullanganda maydoncha va zallar ozoda bo'lmosi zarur. Yashaydigan mehnat qiladigan, dam oladigan va o'yinaydigan joylar toza, bahavo bo'lishi zarur.

Ob-havo qanday bo'lishidan qat'i nazar, jismoniy mashqlar, milliy harakat va sport o'yinlari bilan ochiq havoda ko'proq shug'ullanish maqsadga muvofiqdir. Faqat yomg'ir, qor yog'ib turgan paytdagina o'yinlar usti berk maydonlarda o'tkazilishi mumkin. O'yin davomida oziq-ovqatlarni iste'mol qilishdan saqlaning. O'yinlardan so'ng, kiyimlarni almashtirishga, dushga tushib yuvinishga, paypoqlarni almashtirishga talabalarni o'rgating. Milliy o'yinlar o'z o'mida barcha sport turlari: basketbolchilarini, voleybol, gimnastlarni, yengil atletikachilarini kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Quyida milliy o'yin namunalaridan keltiramiz.

### Oq terakmi-ko'k terak?

Maydonchadagi o'yinchilar ikki guruha bo'linib, bir- birlaridan 15 – 20 m masofa narida bir-birlarining qo'llarini mahkam ushlagan holda saflanadilar. Qur'a tashlab o'yin boshlovchi aniqlanadi: "Oq terakmi-ko'k terak? Bizdan sizga kim kerak?" - deydi. Qarshi tornondagi jamoa esa bironqa o'yinchining nomini aytib chaqiradi. Tanlangan o'yinchi yugurib borib, xohlagan ikki o'yinchining qo'llari orasidagi «zanjir»ni uzib o'tishga harakat qiladi. Agar o'yinchi bunga erishsa, u g'alaba qilgan hisoblanadi. Raqib o'yinchilarining birini «asir» qilib olib ketadi. Agar u o'yinchilarning orasidagi «zanjirni» uza olmasa, u holda o'zi ularga «asir» bo'lib qoladi. So'ng ikkinchi jamoa o'yinchisining nomi aytib chaqiriladi, o'yin shu tariqada davom etadi.

O'yin belgilangan vaqt tugaguncha yoki hamma o'yinchilar chaqirilguncha davom ettiriladi.

O'yin qoidasi:

1. «Zanjir»ning bir yeridan ikki marta uzish taqiqlanadi.
2. «Zanjir» faqat birlashtirilgan ikki qo'llardan tashkil topgan bo'lishi shart.
3. «Zanjir»ni uzishdan oldin raqiblarni chalg'ituvchi harakatlar qilish mumkin.

Bu o'yin o'quvchi va talabalarda tezkorlik, chidamkorlikni va chaqqonlikni tarbiyalaydi, sportda esa yengil atletikachilarini turli masofaga yugurishda tezkorlik jismoniy sifatni tarbiyalashda qo'llanilishi mumkin.

## **Gardishni mo'ljalga olish**

Bu o'yinda bir necha kishi qatnashadi. Bolalardan biri devor, taxta yoki bino burchagi orqasiga yashirinib, taxtadan yoki plastilindasi yasalgan kichik elak kattaligidagi gardishni (to'rtburchak shaklidagi bo'lса ham bo'ladi) chirpirak qilib tepaga ketma-ket otib turadi. Merganlar chirpirak bo'lib uchayotgan gardishni mo'ljalga olib katta tennis koptogini otadilar. Kim gardishga ko'proq koptok tekkizsa, u yutgan hisoblanadi.

Bu o'yin asosan merganlikni tarbiyalashi bilan birga, yengil atletikaning nayza uloqtirishda ham qo'shimcha mashq o'mida qo'llanilishi mumkin.

## **Kim chaqqon**

O'yin maydonchada o'tkaziladi. Maydonchaga chizilgan doiraning o'chами o'yinchilarning soniga (4-5 nafar) bog'liq bo'ladi.

Boshlovchi maydon o'rtaida turadi, o'yinchilar esa o'z doirasini chizig'i tashqarisiga o'tiradilar. Boshlovchi va o'yinchilar oldindan signallar turiga qarab kim-kimning o'rnini egallashini kelishib oladilar. Kelishilgan signallar turi quyidagicha bo'lishi kerak: chapak chalish, hushtak chaish, boshlovchining turli xil harakat qilishi. Boshlovchi o'yin boshlanishiga signal beradi. Shundan keyin o'yinchilar o'zaro kelishilgan signallarga muvofiq joylarini almashtiradilar. Boshlovchi shu paytda bironta o'yinchining joyini egallab olishga intiladi. Joysiz qolgan o'yinchi boshlovchi bo'lib qoladi. O'yin davom ettiladidi. Biror marta ham joysiz qolmagan talaba yoki epchil talaba chaqqon va g'olib deb e'lon qilinadi.

Bu o'yin talabalarda chaqqonlik jismoniy sifatini tarbiyalaydi. Sport mashg'ulotlarida bu o'yin basketbol, qo'l to'pi, futbol o'yinchilarining mahoratini oshirishda yaxshi yordam beradi.

## **Koptok o'yini**

Bu o'yin qiz bolalar o'rtaida keng tarqalgan. O'ynovchi koptokni yerga urib o'z o'qi atrofida bir aylanib, gavda muvozanatini saqlab borishi shart, bunda o'yinchi har bir aylanib koptokni yerga urganda koptok o'yinchining bo'yi balandligiga ko'tarilishi kerak. Shu tarzda ishtirokchi o'z o'qi atrofida aylanib koptokni to'xtatmasdan bir me'yorda yerga urib o'ynaydi. Koptokni eng ko'p yerga urgan qiz bola o'yinda yutib chiqqan hisoblanadi.

Ushbu milliy o'yinimiz hozirgi zamон badiiy gimnastikaning koptok bilan mashq bajarish belgisi hisoblanadi. Bu o'yin yosh qizlarda muvozanat saqlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

### Dugish (Tuqish) o'yini

O'zbek xalqining jangovar musobaqalaridan biri o'tmishda shunday nomlangan. Musobaqa, ko'pgina bayram va sayillar, to'ylar tugashi arafasida uyushtirilgan. Unda asosan o'n sakkiz- yigirma besh yoshlar atrofidagi yigitlar ishtirot etishgan. Qishloq yigitlarining jangovarligi, dovyurakligi, chidamliligi va chaqqonligini sinab ko'rish maqsadida oqsoqollar ikki qishloq, mahalla yoki ko'cha bolalarini bir joyga to'plab «qishloq bilan qishloq dugish» deb e'lon qilgan. Shundan keyin ikki taraf yigitlari bir-birlariga qarshi «jang» boshlaydilar. Bu «jang» musobaqalari hozirgi zamон Olimpiada o'yinlarini eslatib, har xil sport turlaridan iborat musobaqaning o'ziga xos shartlari bor. Unga amal qilish barcha ishtirokchilar uchun majburiydir. O'yinning asosiy sharti shundan iboratki, «jang»da o'z raqiblarning nozik joylariga urish qat'iananadi.

Ikki jamoa (qishloq) o'rtasidagi daryo, ko'cha, tepalik ular uchun chegara hisoblanadi. O'yinning hakamlari bo'ladi, ular har ikkala jamoa vakillarini o'zaro kelishuvli bilan saylanib, musobaqalarni olib boradilar. O'yinda «jangchi»lar qo'lga quro'l olishi yoki boshqa vositalardan foydalanishi mumkin emas. Musobaqada g'irromlik qilgan va qoidani buzgan ishtirokchilarni hakamlar o'yindan chetlashtiradilar. O'yinlar sharoit va imkoniyatga ko'ra 3- 4 soat davom etadi. Har bir qishloqning eng kuchli bahodiri o'z yigitlariga sardorlik qiladi. Dugish o'yini qatnashuvchilari jangovar sharq yakka kurashi sirlarining barcha usullarini nihoyat yuqori darajada yaxshi o'zlashtirganligi hozirgi kunda ham ei og'zidan tushmay keladi. O'zbek xalqi orasida bu musobaqaning ko'p hududlarda bir qancha turlari uchraydi (Turon, farg'onacha, buxorocha kurash usullari). Bu o'yin asosan hayotiy ko'nikma va sport elementlarining mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Ayrim paytlarda vosita, yordamchi vosita sifatida ham foydalanishi mumkin. Jismoniy tarbiya darsida oldingi darslarda o'rgatilgan harakatlarni ushbu o'yin orqali mustahkamlanadi.

### «Pirr» etdi

Bu o'yinda ishtirokchilar soni cheklanmaydi hamma qatnashuvchilar bir joyga to'planishib, o'z saflaridan chaqqonroq bolani o'yinboshi qilib saylashadi. O'yinboshi qushlarning nomini aytganda

bolalar «Pirr etdi, pirr etdi» so'zlarini takrorlab turishlari va qo'llarini yuqoriga ko'tarishlari kerak. O'yin quyidagicha boshlanadi:

«Chumchuq – pirr etdi, pirr etdi», «G'oz pirr etdi, pirr etdi». o'yinboshi yuqoridagi so'zlar orasida: «Daraxt pirr etdi, stol pirr etdi yoki eshik pirr etdi» va hokazolarni aytishi ham mumkin. Bu so'zla shunchalik tez aytildiki, uni takrorlayotganlar shoshib qolib, gaplaridan adashib, stol pirr etdi, daraxt pirr etdi, bino pirr etdi, deb qo'llarini yuqoriga ko'taradilar. So'zidan adashib ketgan (e'tiborsiz o'yinchisi) stol, daraxt, bino so'zları aytiganda «pirr etdi, pirr etdi» deb qo'lini yuqoriga ko'targan o'yinchisi yutqazgan hisoblanadi. Yutqazgan o'yinchisi esa o'z hamrohlari tomonidan berilgan xilma-xil topshiriqlarni bajarishi shart.

Bu o'yin talabalarda hozirjavoblik, tez fikrlash, diqqat-e'tibor ko'nikmalarini shakllantiradi.

### Supur-supur

O'yinda asosan qizlar ikki guruhga (4–10 nafar) bo'linib ishtirok etadilar. Ular orasidagi masofa 8–10 m bo'lishi kerak, o'yinchilar qo'llarini uzatganda qo'l tegmay o'tishlari lozim. Har bir guruhning onaboshisi o'z jamoasi a'zolarini qulog'iga shivirlab yangi «nom» qo'yib chiqadi. Bu ishni tez bajargan onaboshi o'yinni boshlash huquqiga ega bo'ladi. U boshqa jamoa a'zolaridan xohlagan bolaning yoki qizning ko'zlarini ro'molcha bilan bog'lab berkitadi va «Supur-supurni» boshlang deb buyruq beradi. Har ikki jamoa qizlari qo'llarini oldinga uzatgan holda ularni goho o'ng, goho chap tomoniga qarab tebratib «Supur-supurni» boshlang deb turadilar. Boshlovchi jamoaning onaboshisi o'z jamoasidagi qizlardan birini yashirin nomi bilan chaqiradi. U qiz kelib, ko'zi bog'langan o'yinchining peshonasiga sekingga chertadi va o'z joyiga borib o'tirib, «Supur-supur»ni aytib o'rtoqlari qatori qo'llarini tebrata boshlaydi. Onaboshi ko'zlarini berkitib turgan qizga «Chertkanri top» deb buyuradi va uning ko'zini yechib yuboradi. Agar u chertgan bolani topa olmasa yutqazgan bo'ladi va yutuqni qo'lga kiritgan guruh tomonida qoladi, chertgan o'rtoqini topsa, o'yinni davom ettirish navbatli qarshi tomoniga o'tadi. Natijada tomonlarning birida yolg'iz bir o'yinchisi qolsa (onaboshi hisobga kirmaydi), o'yin tugagan hisoblanadi. Yutqazgan tomonning qizlari o'yin o'ynalgan joyni suv sepib supurib chiqadilar.

Bu o'yin talabalarda jismoniy, ruhiy va irodaviy qobiliyatlarini tarbiyalaydi.

## To'p tepish

Bu o'yindan 4 tadan 20 tagacha katta yoshdagi o'g'il bolalar qatnashadi. Maydonga diametri 4-6 m ga teng doira chiziladi. Qatnashuvchilar boshlovchi tanlashadi. U doira markazidagi to'pni qo'riqlashi lozim. Qolgan o'yinchilar doira tashqarisiga joylashadilar.

Rahbarning signali bilan o'yinchilar doiraga yugurib kiradilar va to'pni tepib (turtib) doiradan chiqarishga harakat qiladilar. Boshlovchi esa to'pni tepishga harakat qilgan o'yinchini tutishga intiladi. Tutilgan o'yinchi o'yindan chiqadi. To'pni doiraning tashqarisiga tepib chiqargan o'yinchi boshlovchi bo'lib qoladi va o'yin uning signali bilan qayta boshlanadi. O'yin ishtirokchilari o'yinni xohlagan vaqtgacha davom ettirishlari mumkin. Eng ko'p marta va uzoq vaqt boshlovchi bo'lib to'rgan o'yinchi g'olib deb topiladi.

O'yin qoidasi:

1. Boshlovchi yoki o'yinchilar to'pni qo'llari bilan turtishlari mumkin emas.

2. Tutilgan o'yinchi chetga chiqib turadi va boshlovchi almashgandan keyingina qayta o'yinga tushishga haqli.

3. O'yinchilardan biri boshlovchining orqasiga sakrab minib olishi va sakrab qochib ketishi mumkin. Faqat o'yinchini boshlovchi qo'li bilan ushlamasligi shart.

Bu o'yin o'smirlarda chaqqonlik, chaqqonlik, kuch, tezkorlik va chidamkorlik jismoniy sifatlarni tarbiyalaydi, uni sport o'yinlari (futbol, basketbol, regbi, qo'l to'pi) uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalashda yordamchi mashg'ulot sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

## To'p chuqurchaga

O'yinda katta yoshdagi o'g'il bolalar qatnashadi. O'yinchilar ikki jamoaga bo'linib, shaylanish chizig'ida ikki qator bo'lib saflanadilar. Bunda o'yinchilar kuchlari va vaznlari bo'yicha taxminan teng bo'lgan holda juft-juft bo'lib turishlari lozim. Qarshi tomonga 8 - 10 m masofada ikkinchi chiziq chizilib, uning orqasiga to'pning kattaligiga teng chuqurchalar kovlanadi. Chuqurchalarning soni o'yinda qatnashayotgan juft o'yinchilarning soniga teng bo'lishi, oralig'i esa 0,5 m dan oshmasligi kerak. Maydon o'rtasida ham shunday bitta chuqurcha kovlanadi.

O'yinni boshlovchi, raqib jamoa o'yinchilaridan birining yelkasiga chiqib oladi va uning ko'zini bog'laydi. Ko'zi bog'langan

o'yinchisi to'pni oyoqlari bilan dumalatib qarhisidagi chuqurchaga tushirmoqchi bo'ladi. Agar to'p chuqurchaga tushsa, o'yinchilar rollarini almashadilar. To'p chuqurchaga tushmasa, ustidagi o'yinchini, orqasiga (shaylanish chizig'iga) opichib olib keladi. Shundan keyingina o'yinchilar rollarini almashadilar.

O'yinchi to'pni markazdag'i chuqurchaga tushirganda shu jamoa o'yinchilarining hammasi qarshi jamoa o'yinchalarining yekasida markazdan shaylanish chizig'igacha kelish huquqiga ega bo'ladilar. Shundan so'ng jamoalar rollarini almashadilar va o'yin davom etadi. Chuqurchalarga to'plarni ko'proq tushirgan jamoa g'olib chiqadi. Chuqurchalarga bir nechta o'yinchi yoki jamoaning hamma a'zolari to'plarni bir paytda dumalatishlari ham mumkin. Bunday paytlarda o'yinchilar ko'zlarini bog'lashlari shart emas. Bunda to'plarni chuqurchalarga tezroq tushirgan jamoa g'olib chiqadi.

O'yin qoidasi:

1. Chuqurchadan chiqib ketgan to'p hisobga olinmaydi.
2. Har bir o'yinchi to'pni chuqurchaga tushirishga ikki marta urinib ko'rishi mumkin.

### **Doiraga tort**

Yerga yoki polga o'yin ishtirokchilarining soniga qarab doira chiziladi. O'yinchilar bir-birlarini qo'llaridan ushlagan holda doira atrofida chizilgan chiziq tashqarisida qo'l ushlashib turadilar. Boshqaruvchining buyrug'i bilan o'yinchilar bir-birlarini doiraga tortib kiritishga harakat qiladilar. Doira chizig'idan ichkariga qadam qo'yishga majbur bo'lgan o'yinchi o'yindan chiqadi, o'yin davom etadi.

O'yinchilar kamaygan sari doira ham kichikroq bo'lib boradi. Hammadan keyin qolgan o'yinchi kuchli va epchil deb tanlanadi.

Ushbu o'yin regbi, basketbol, voleybol, qo'l to'pi va tennis o'yinchilarida chaqqonlik va chaqqonlikni jismoniy sifatlarini tarbiyalashda katta foyda beradi.

### **Yigirmaga yetkaz**

Maydonning bir tomoniga diametri 8 m ga teng katta doira chiziladi. Uning ichiga burchaklarini doiraga tekizib katta to'g'ri to'rtburchak chiziladi, katta to'g'ri to'rtburchakning ichida undan 30 sm masofada yana bitta (kichik) to'g'ri to'rtburchak, uning ichiga uchburchak, uchburchakning ichiga esa kichik doira chiziladi. Katta

doiradan 10–15m masofada otish chizig'i chiziladi. Qatnashuvchilar jamoaga bo'linib chiziq orqasiga saflanadilar.

O'yinchilarning hammasi navbat bilan kichik doirani mo'ljallab to'p otadi. Agar otilgan to'p kichik doira ichiga tushsa-5, uchbuchakka tushsa-4, kichik to'g'ri to'rtburchakka tushsa – 3, katta to'g'ri to'rtburchakka tushsa-2 katta doira ichiga tushsa 1 ochko beriladi. To'p otilgandan so'ng o'yinchi to'pni olib navbatdagi sheriiga otadi. To'pni otgandan so'ng o'z sheriklari turgan qator ortiga borib turadi. Yig'ilgan ochkolar soni 20 tadan oshgan yoki ko'proq ochkolar to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi.

O'yin qoidasi: to'p otishda o'yinchi chiziqni bosib yuborsa, ochkosi hisoblanmaydi.

«Yigirmaga yetkaz» o'yini yoshlarni mohirlikka o'rgatadi. Merganlik sportida nishonga olish, yengil atletikada nayza uloqtirish, futbol o'yinida esa koptokni nishonga tepish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

### Qilichbozlik

O'zbekistonda va sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bu jangovar o'yin va himoya vositasi bir necha ming yillik tarixga ega. Shuning uchun qilichbozlik o'yini san'atiga ilgari davlat miqyosida jangchi askarlar tayyorlash uchun katta e'tibor berilgan. Bu sport turi kuchni, chaqqonlikni, quroq ishlatalishda mohirlikni talab qilib, g'alaba sportchiga hurmat va shuhrat keltirgan.

Bolalar kichik yoshidan boshlab qilichbozlikka o'rgatilgan, uning bir necha usullari bo'lgan:

1. Ikki kishi tayoq bilan qurollanib, bir-birlari bilan tayoq urishtirish tayoqni raqibi qo'lidan tushirib yuborishga urinishadi. Bola tayoq bilan faqat raqib tayog'iga uradi, uni o'ziga hech qanday shikast yetkazmaydi.

2. Har ikki kishi ikkitadan tayoq bilan qurollanib (o'ng va chap, qo'lda) bir-birlarining tayoqlariga har xil holatda uradilar. Tayoqlardan birini qo'lidan tushirib yuborgan bola yutqazgan hisoblanadi.

Qilichbozlik hozirgi zamон Olimpiada o'yinlaridan o'rин olgan bo'lib, sportchida chaqqonlik, mohirlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, harakat sifatlarini tarbiyalaydi.

## **Qarmoqcha**

«Qarmoqcha» –xalqimizning qadimiy o‘yinlaridan bo‘lib, un ochiq havoda yoki bino ichida, jismoniy tarbiya darslariда hamda tanaffus vaqtlarida o‘tkazish mumkin. O‘yin uchun 3-4 metrli arqonchi kerak bo‘ladi. Arqonchaning bir uchiga kichik xaltachada qum yok, qipi bog‘lab qo‘yiladi. Hamma bolalar doira hosil qilib turadilar. Boshlovchi doira o‘rtasida turib, arqonchani o‘z atrofida aylantira boshlaydi. Arqonni aylantirganda xaltacha yerdan baland ko‘tarilmasligi lozim. O‘yinchilar oyoqlariga xaltacha tegib ketmasligi uchun sakrat turadilar. Arqon uchiga bog‘langan xaltacha o‘yinchining oyog iiga tegsa, u qarmoqqa ilingen hisoblanadi va doira markaziga chiqadi. Endi bu o‘yinchi boshlovchi sifatida arqonni aylantira boshlaydi. O‘yin nihoyatda oddiy va qiziqarli be‘lgani uchun talaba-o‘smlar, unda o‘z mahoratlarini namoyish qiladilar. Kim chaqqon va hushyor bo‘lmasa, qarmoqqa ilinaveradi. O‘rtaga tushgan o‘yinchilar o‘z o‘rinlarida uzoq turib qolmasliklari uchun o‘yinchilarni tezroq qarmoqni ilintirib olishga harakat qilinadi, ya’ni arqonni aylanish tezligini oshiradi yoki pasaytiradi. O‘yin qiziqroq o‘tishi o‘qituvchiga bog‘liq. O‘yinni murakkablashdirish, ya’ni o‘yinchilar qo‘liga koptoq berib, ular o‘yin davomida koptoqni bir-birlariga uzatib turishlari mumkin.

Bu o‘yin, o‘smlarni hushyorlik va chaqqonlikka o‘rgatadi, oyoq mushaklari kuchini oshirishga, miya vestibulyar apparatini rivojlantirishga, chaqqonlik qobiliyatini mustahkamlash va oshirishga xizmat qiladi. Bu o‘yindan basketbol, voleybol, badiiy gimnastika, yengil atletika, og‘ir atletika, qo‘l to‘pi, futbol murabbiylari o‘z mashg‘ulotlarida foydalanishlari mumkin.

### **“Qo‘lingni ber !”**

O‘yin maydonchasi har tomondan to‘g‘ri chiziqlar bilan chegaralariniadi. Bir o‘yinchi quvlovchi qilib tayinlanadi. U maydoncha o‘rtasida turadi qolgan o‘yinchilar uning atrofida to‘planadilar.

Quvlovchi «Men quvlovchiman!» deganda hamma o‘yinchilar har tomonga yugurib ketadilar. quvlovchi ularni ushslash payiga tushadi. Orqasidan quvlovchi kelayotganini sezgan o‘yinchi «qo‘lingni ber» deb o‘rtog‘ini yordamga chaqirishi mumkin. Qo‘l ushlashib turgan just o‘yinchilarni ushslash mumkin emas. Agar quvlovchi o‘yinchilarni biri ikkinchisining qo‘lini ushlamasdan oldinroq uni ushlab olsa, ushlangan o‘yinchi bilan joy almashadi, ya’ni ushlangan o‘yinchi quvlovchi

bo' ladi. Agar quvlovchi uzoq vaqtga hech kimni tuta olmasa, o'qituvchi uning o'tniga boshqa quvlovchini tayinlaydi. O'yin bolalarda o'z o'rtog'ini xatarli paytda qutqarib, unga yordam berish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashda yordam beradi.

Bu o'yindan murabbiylar futbol, basketbol, qo'l to'pi, yengil atletika mashg'ulotlarida foydalanishi mumkun.

### Ko'z bog'lash

O'yin ishtirokchilar bir-birlari bilan qo'l ushlashib, doira hosil qilib turadilar. O'yin rahbari o'yinchilardan ikkitasini davra o'rtasiga chaqiradi. Ularning ko'zlarini toza ro'molcha bilan bog'lab, birining qo'liga qo'ng'iroq yoki ikki kichkina tosh berib qo'yadi. Keyin ikkala o'yinchini ikki tomonga olib borib qo'yiladi.

O'qituvchi o'yin boshlashga buyruq berishi bilan qo'lida hech narsa bo'limgan o'yinchi ko'zi bog'langan o'rtog'ining otini aytib chaqiradi. Nomi chaqirilgan o'yinchi javob o'tniga qo'ng'iroqni cha'ladi yoki toshlarni bir- biriga uradi. Tutuvchi talaba tovush chiqqan tomonga qarab yuradi va o'z o'rtog'ini ushlashga harakat qiladi. Qochuvchi ham o'z navbatida ovoz chiqarib qochadi, ammo uzoqga qocha olmaydi, chunki doira hosil qilib turgan bolalar harakat chegarasini saqlab turadilar.

Agar qo'ng'iroq ushlagan o'yinchi raqibining qo'liga tushsa, rollarini almashtiradilar va qochuvchi ushlangunga qadar o'yin davom ettiriladi. Undan keyin rahbar ko'z bog'lash uchun yangi ikki o'yinchini tayinlaydi. O'yin shu tarzda davom ettiriladi. Barcha ishtirokchilar ko'zi bog'langan o'yinchilar maydoncha chegarasidan uzoqlashib keta olmaydigan qilib davraga tizilib turadilar.

### Burgut va burgutchacha

Ishtirokchilar «Burgut» va «Burgutchacha»ni tanlaydilar. Maydon o'rtasiga kichik doira «Burgutchacha»ga o'y chiziladi. Doiraning o'rtasiga to'p qo'yiladi. Undan 1metr narida kvadratda «Burgut» joylashadi. Maydonning bir tomonidan «u,y», ikkinchi tomonidan yo'lakcha ajratiladi. O'yinchilar – kichik qushchalar «u,y» ichiga joylashadilar.

O'qituvchi: Boshladik, – deb buyurishi bilan «Qushchalar» «Burgutchacha»ning «u,y»iga tomon yuguradilar va u qo'riqlab turgan to'pni olib qochmoqchi bo'ladi. «Burgutchacha» esa doiradan chiqmasdan ularni tutishga harakat qiladi (buning uchun u qo'lli bilan

«Qushcha»larga tegsa bas. «Burgut» esa butun maydon bo'yishga qushcha larni tutib «Burgutchaga»ga yordam beradi. Tutilgan «Qushcha»lar qarama-qarshi tomondagi yo'lakchaga borib turadilar. «Qushcha»larning birontasi «Burgut» va «Burgutchaga»ga tutilmasdan to'pni «u.y» tomonga olib qochishga erishsa, unda o'yin to'xtatilib yangi «Burgut» va «Burgutchaga» tanlanadi. Hamma «Qushchalar tutili» qolgan paytda esa boshlovchilar o'z o'rinalarida qoladilar va o'yin qayta takrorlanadi.

#### O'yin qoidasi.

1. «Qushcha»lar ham, «Burgutchaga» ham doira chizigini bosib o'ta olmaydilar. Bu qoida **buzilganda**, to'p joyiga qo'yiladi.

2. Agarda «Qushcha» yo'lakcha yoki uy chiziqlariga to'pni olib borguncha «Burgutchaga» yoki «Burgut» tomonidan tutilmasa, u talaba g'alaba qilgan hisoblanadi.

3. «Burgut» maydondagi hamma (to'p bilan to'psiz) o'yinchilarni tutishi mumkin.

4. «Qushcha»lar to'pni bir-birlariga uzatib, olib qochishlari mumkin.

Ushbu o'yin talabalarda chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalaydi. Shu bilan birga o'yinda basketbol, qo'l to'pi, voleybol va regbi o'yinlarining belgilari bor. «Burgut» va «Burgutchaga» o'yinidan yuqorida ko'rsatilgan sport turlari bo'yicha tayyorlanish mashq'ulotlarida foydalanish mumkin.

### Podachi

Diametri 3–4 m kattalikdagagi doira chiziladi va ohak, bo'r bilan belgilanadi. Doira ichida uchta o'yinchi qo'lida chim xokkey anjorniga o'xshatib yasalgan tayoqni ushlab turadi. Doira tashqarisida ham hujumchilar uch joyda joylashib turadilar. Doiraning o'rtasida yog'ochdan yasalgan (balandligi 5-6 sm) nishonlar 10-15sm oraliqda, doira shaklida qo'yilgan bo'ladi. O'yin boshlangach, doira tashqarisida 1 metr uzoqlikda turgan hujumchilar kichik to'pni bir-biriga tez oshirib, qulay fursat topib, doira ichidagi o'yinchilarni chalg'itib, nishonlarni birin-ketin urib yiqitishga kirishadi.

Doira chetidagi chiziqqa koptok qo'yib, o'rtadagi nishonni urib yiqitishga bir marta ruxsat beriladi. So'ngra o'ynovchilar doira chizigiga koptokni qo'yib, zarb bilan tashqariga, uzoqroqqa urib chiqaradi. Nishonni koptok bilan urib yiqitgan jamoaga 2 ochko

beriladi. O'yin bir necha bor qaytarilgandan keyin himoyachilar hujumchilar bilan joylarini almashadilar. O'yinda ko'proq ochko to'plagan jamoa g'olib chiqadi.

O'yin qoidalari:

1. O'yin vaqtida doira ichidagi himoyachilarining doira chizig'idan chiqib ketishlari man qilinadi.
2. Himoyadagi o'yinchilarning tayog'i hujumchilarga tegsa yoki doira chizig'idan tashqariga chiqib ketsa, jarima ochko beriladi.
3. O'yin vaqtida hujumchilar tayog'ini baland ko'tarsa, xavfli harakat hisoblanadi.
4. Xavfli harakat tez-tez takrorlansa, o'yinchi bir necha daqiqaga o'yindan chiqariladi.

### Sinov savollari.

1. O'zbek va qoraqalpoq milliy o'yinlarining kelib chiqish tarixini bilasizmi?
2. Milliy o'yinlarning umumta'lim maskanida tutgan o'rni qanday?
3. Jamoa o'yinlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Chaqqonlikni tarbiyalovchi o'yinlarni bilasizmi?
5. Tezkorlikni tarbiyalovchi o'yinlar haqida gapirib bering?
6. Egiluvchanlikni tarbiyalovchi o'yinlar xususida nima deya olasiz?
7. Kuchni tarbiyalovchi o'yinlarni bilasizmi?
8. Chidamlitlikni tarbiyalovchi o'yinlar to'grisida so'zlab bering?
9. Hozirgi zamон Spartakiada va Olimpiada o'yinlariga o'xshagan qanday milliy o'yinlar bo'lgan?

## V BOB. Jismoniy tarbiya fanining ilmiy-tabiyy asoslari

Jismoniy tarbiya fani tibbiyot, fizika, biologiya, kimyo, valeologiya, anatomiya, fiziologiya, sport fiziologiyasi va boshqa tabiiy fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib ular bilan birga rivojlanadi.

Jismoniy tarbiya fanini ilmiy asosda tashkil etish inson organizmining rivojlanishini, uni tashqi muhit bilan bog'liqligini, yoshining turli bosqichlarda potensial va moslashuvchanlik imkoniyatlarini bilishni taqozo etadi.

Uyg'onish davri olimlarining buyuk namoyondalaridan biri Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida odam yoshini to'rt bosqichga bo'ladi:

1. O'sish davri, Bunga o'smirlikdan 30 yoshgacha bo'lgan davr kiradi.

2. O'sishdan to'xtash davri, bu 30 dan 40 yoshgacha bo'lgan davr.

3. Cho'kish davri, u o'rtacha yoshdag'i odamlarga mansub bo'lib, 60 yoshgacha davom etadi.

4. Kuchsizlanish davri: bu umrni oxirigacha cho'ziladigan qariyalarning yoshidir.

Ibn Sino odamlar yoshini to'rt qismga bo'lish bilan qanoatlanmay, shu yosh uchun badan tarbiya mashqlarining tasnifini (klassifikatsiya) yozib qoldirgan.

Muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish orqali organizmda sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi bu bilim sport mashqlari va uslublaridan to'g'ri foydalanish imkonini beradi.

Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanganda va ularni odam organizmiga bo'lган ta'siridan har doim unumli foydalanish, OAT(oliy asab tizimi)tarmog'ini takomillashtirish va asab jarayonining faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

### Inson organizmi biologik tarmoq sifatida

Tabiiy fanlar jismoniy tarbiya fanining asosi bo'lib, tibbiy-biologik fanlarning to'plami: birinchi navbatda anatomiya, fiziologiya, morfologiya, biologiya, gigiyenani o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya nazariyasining uslublari va sport mashg'ulotlari shu fanlar erishgan yutuqlarga bog'liqdir.

Inson organizmidagi barcha a'zolar doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq holda harakatda bo'ladi, organizm faoliyati har xil sharoitdagi atrof-muhit bilan vegetativ aloqaga kirishadi.

Tashqi tabiat va ijtimoiy-sotsial sharoitlar inson organizmiga har doim o'zining foydali yoki zararli ta'sirini ko'rsatadi. Insonning o'ziga xos fazilatlarni, onglliiikni o'stirib, sog'liqni mustahkamlaydi, aqliy va jismoniy mehnatga chidamlilikni oshiradi.

Keyingi paytlarda odam fiziologiyasini o'rganish sohasida, shuningdek organizmga jismoniy tarbiyaning turli iqlim sharoitidagi ta'siri haqidagi amaliy ishlar tufayli, boy ma'lumotlar to'plandi, iqlim fiziologiyasi degan yangi fanga asos solindi. Bu sohada to'plangan ma'lumotlar fiziologiyaga oid bo'lib, bular organizmnинг issiq iqlim sharoitidagi ho'lati faoliyatini tahlil etadi. Iqlim fiziologiyasi fanining birdan-bir katta yutug'i bu odam organizmiga issiq iqlimning ta'sirini o'rganilganidir.

O'zbekiston sharoitida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan sportchilar organizmida bo'ladigan o'zgarishlarni O'zbekiston sport fiziologiyasi fani olimlaridan A.Shatalina, A.Yarotskiy, M.Frank, R.Pozorenko, D.Xudoiberdiev, A.Koltunov, A.Koveli, R.Axmedov, I.Azimov va boshqalar o'z ilmiy ishlarida ifodalab bergenlar. Iqlimni belgilovchi mavjud elementlardan biri havoning harakatidir.

Olib borilgan kuzatishlarga qaraganda, O'zbekistonda quyosh gorizontdan yuqqori turadi va ochiq kun bo'lib, ochiq havo harorati boshqa hududlar haroratiga qaraganda ancha farq qiladi.

O'zbekistonda bir yillik quyoshli kunlar 2900-3100 soatni tashkil qiladi. Yevropaning o'rta chizig'idagi quyoshli kurnarning yillik miqdoridan taxminan ikki yarim barobar ko'pdir. Masalan, Toshkentda bir yilda 314 kun havo ochiq bo'ladi.

Oxirgi 5-7 yil davomida respublikamizda ob- havo va iqlim sharoitining o'zgarib ketishi natijasida havoning nisbiy namligi kamayib ketdi, u mahalliy sharoitga ham taalluqlidir. Absolyut namlik (havodagi suv bug'larining simob ustuni bo'yicha millimetrlar hisobida ifodalaniishi) o'rtacha bir yilda simob ustunining 6-7 mmni tashkil qilgan bo'lsa, oxirgi 3 yilda bu ko'rsatkich simob ustunining 8-10mm ni tashkil qiladigan bo'ladi.

Nisbiy namlik ko'pincha 60–70% atrofida bo'ladi. Ayrim kunnarda 10%, hatto 5% pasayadigan bo'lsa, hozirgi vaqtida namlikning nisbiy qiymati may-iyun oylarida 60–80 % chegarasida bo'lmoqda.

O'zbekistondagi tashqi muhitning hamma omillari, hech shubhasiz inson organizmi faoliyatiga katta ta'sir qiladi.

Respublikada ob-havo va iqlimning tubdan o'zgarishi tufayli yurak va qon-tomir kasalliklariga chalingan kishilar soni tobora ortmoqda. Ekologiyani buzilishi esa turli xil yuqumli kassaliklarni ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Inson organizmning kasalliklarga bardoshliligini oshirish uchun muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanib, organizmni chiniqtirish kerakligini buyuk olim Ibn Sino o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan.

Inson organizmi doimo tashqi muhit bilan aloqada bo'ladi, unda modda va energiya almashinuvi beto'xtov sodir bo'lib turadi. Kislorodsiz va oziqlanishsiz hech bir hujayra o'zining hayotiy faoliyatini normal holda saqlay olmaydi.

Doimiy ravishda modda va energiya almashinuvi assimilyatsiya jarayonlarining bir tomoni bilan ifodalanadi. Energiyaning imkoniyari uning organizmda yig'ilishi bilan kislorod va oziqlanuvchi moddalarning organizmda harakatlanib, o'zlashtirilishi bilan, dissimilyatsiya jarayonlari, ya'ni bioelektrik, mexanik kimyoviy energiyaning ajralib chiqishi hamda moddalarning murakkab ravishda o'zlashtirilishi bilan ifodalanadi.

### Tana haroratinining boshqarilishi

Organizmda haroratni doimiyligi bir necha mexanizmlar yordamida boshqarilib, issiqlikning hosil bo'lishi va tashqariga chiqarilishi markaziy asab tarmog'i tomonidan boshqariladi. Ushbu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan jarayon kimyoviy va fizikaviy issiqlik almashinuvi deb nomlanib, markaziy asab tarmog'ini faoliyati bilan bog'liqidir.

Issiqlik, organizmda ovqat moddalaring oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi. Bu jarayon moddalar almashinuvining qay darajada kechishiga bog'liq. Moddalar almashinuvi qancha shiddatli bo'lsa, ya'ni organizmda ovqat moddalari qancha ko'p oksidlansa, shuncha ko'p issiqlik hosil bo'ladi.

Organizmda issiqlik asosan mushaklarda vujudga keladi. Odam tinch turganda ham mushaklarda issiqlik hosil bo'laveradi. Yurganda

esa organizmda tinch holatdagiga nisbatan issiqlik 60–80 foizdan ko'proq hosil bo'ladi. Mushaklarni ishi jarayonida issiqliknini hosil bo'lishi 4-5 martaga oshadi. Issiqlik asosan mushaklarda hosil bo'ladi Issiqlik mushaklardan tashqari jigar, buyrak va boshqa ichki ayiruv a'zolarda ham hosil bo'ladi.

Organizmda hosil bo'lgan issiqlik doimo tashqariga(nafas otish, terlash) chiqarib turiladi, hech bir ovqat organizmda uzoq vaqt yig'ilib qola olmaydi. Issiqlikning organizmda hosil bo'lishi va tashqariga chiqarilib turilishi **termoregulyatsiya** deyiladi va bu jarayon murakkab mexanizmlar orqali sodir bo'ladi. Odam tanasi uchun normal harorat 36,6–37,0°C hisoblanadi. Energiyaning bir sutkada umumiy sarflanishi asosiy modda almashinuvidan olinadi.

Asosiy modda almashinuvi, ichki a'zolarning, nafas yo'llarining ish faoliyatiga, skelet mushaklari tonusining saqlanishiga yordam beruvchi to'xtovsiz modda almashinuv faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamон ma'lumotlarining ko'rsatishicha, bu o'rinda skelet mushaklari asosiy rol o'yinaydi.

Asosiy almashinuvning katta-kichikligi bir qancha omillarga, eng avvalo, tananing og'irligi va uning tuzilishiga bog'liq.Tananing og'irlashib borishi bilan issiqlik ajralib chiqishi, binobarin, ovqatga bo'lgan talab ham oshadi, ovqatlanishga bo'lgan talabni tana vaznining og'irligi bilan belgilanadi.

### Oziqlanish

Ovqat hazm qilish jarayoni munosabati bilan ovqat qabul qilishda qatnashadigan mushaklarning ishi tufayli energiya almashinuvini oshirishga olib keladi. Oksidlanish jarayonlari oqsilli ovqatlar iste'mol qilganda ko'proq kuchayadi (30 – 40 %), yengli ovqatlar; iste'mol qilganda almashinuv 4 – 14 foiz, uglevodlar esa 4 – 7 % kuchayadi.

Ilmiy izlanishlardan ma'lumki oziqa bilan organizmga tushgan

1 gr oqsil – 4,1 kkal

1 gr uglevod – 4,1 kkal

1 gr yog' – 9,3 kkal energiya beradi.

Jismoniy ish va sport mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lgan mehnat faoliyati sutkalik energiya sarfini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi: aqliy mehnatda esa juda ham katta energiya sarflanadi. Energiyaning umumiy almashinuvi skelet mushaklari orqali 45 % , asab orqali 2–5 %, qolganlari esa ichki a'zolar orqali sodir bo'lishi

aniqlangan. Hatto o'tirish kabi biroz mushak harakatida ham modda almashinuvini yurishga nisbatan 12 – 15%, tik turganda 20 %, sekin yurishda 80 – 100 %, yugurishda 400 % oshadi. Shiddatli, sport mashqlarini jadal bajarganda energiya sarflanishi tinch holatga nisbatan 10 – 20 marta oshadi.

Jismoniy zo'riqish paytida modda almashinuvining oshishi harakat qilayotgan mushaklarda oksidlanishning kuchayishi bilan bog'liq. Bu faoliyat paytida butun organizm, bu ishga aralashmaydigan ichki organlar va mushaklar ham jalb qilinadi. Shartli ko'zg'atuvchilar ta'sirida skelet mushaklarining tinch holatiga nisbatan ham almashinuv oshishi mumkin. Masalan, musobaqada qatnashish oldidan ruhiy hola paytida.

### **Energiya sarflanishi**

Sog'lom kishi bir kunda o'rtacha 1700-2200 katta kaloriya energiya sarflaydi. Ish bajarilganda esa energiya sarflanish tezlashadi: mushak ishlari qancha og'ir kechsa, odam organizmi shuncha ko'p energiya sarflaydi.

Ish bajarishni mehnat faoliyatiga sarflangan energiya foydali koefisientini hisoblab, aniqlab chiqishga ahamiyat berish odam turmushi uchun o'rinni deb topamiz. Olimlarni izlanishiga ko'ra, odam faoliyatini foydali koefisenti o'rtacha 20%; muntazam mashg'ulotlar natijasida 25-30% ortishi mumkin ekan.

Odamlarni kasbiy faoliyati jarayonida sarflanadigan energiyaga e'tiboran bir necha guruhg'a taqsimlash mumkin.

**Birinchi guruh.** Katta mushak faoliyatini talab qilmaydiganlar – o'tirib ishlaydiganlar: devonxona xizmatchilari, litograflar va h.k., – 2200-2400 gacha katta kaloriya.

10-jadval

### **Turli kasb egalarining bir sutkada sarflaydigan energiyasi**

Kasb egallari	bir sutkada sarflanadigan energiya katta kaloriyada
Tokar va instrumentalshiklar	3300
Temirchilar	3700-4000
Prokat sexi ishchilar-liteychiklar	3500-4100
Duradgorlar	4000-4500

G'isht toshuvchilar	5400
G'isht teruvchilar	5000
Traktor haydovchilar	3000
Yer haydovchilar	4700-5000
O't o'ruchilar: o'roqda	7200
Traktorda	3600
Talabalar	2800-3000
Maktab bolalari 8-11 yoshdagilar	1900
12-16 yoshdagilar	2400
Yuqori toifali sportchilar	7000-10 000

**Ikkinchchi guruh.** O'tirib ishlaydiganlar: tikuvchilar va h.z.-2600-2800 kk gacha.

**Uchiuchi guruh.** O'rtacha mushak ishlari: etikdo'zlar, pochta xizmatchilari, shifokorlar, laboratoriya xizmatchilari - 3000 kkdan ortiq.

**To'rtinchi guruh.** Yuqori darajada zo'riqish mushak ishlari: metall bilan ishlovchilar, pardozchilar, duradgorlar - 3400-3600 kk gacha.

**Beshinchi guruh** Og'ir mehnat bilan shug'ullanuvchilar—4000 kkdan ortiq.

**Oltinchi guruh.** O'ta og'ir mehnat kasbi bilan shug'ullanuvchilar—5000kkdan ortiq .

Aqliy mehnatda juda ko'p energiya sarflanmaydi, biroq harakat va mushak zo'riqishi bilan bog'liq bo'lgan aqliy mehnatda energiya sarflanishi ortadi, masalan, artistlar, ma'ruzachilar.Ushbu ma'lumot 10-jadvalda berilgan.

#### **Mushaklar fiziologiyasi**

Mushaklar tananing ko'p qismini tashkil etgan maxsus a'zolar bo'lib, qisqaruvchanlik xususiyatiga ega. Mushak asablardan keladigan impulslar ta'sirida refleks yo'li bilan qisqaradi. Mushakning qisqarishi, birinchi qarashda, mustaqil bo'lib ko'rinsa ham, haqiqatda asab tarmog'iga, moddalar almashinuviga, qon aylanishiga, nafas olish va nafas chiqarishga va boshqa bir qancha kimyoviy jarayoniarga bog'liq, mushaklar yordamida hayvon va odam organizmining barcha harakatlari vujudga keladi.

Organizmdagi barcha mushaklarni ikki guruhga bo'lish mumkin: tekis tolali va ko'ndalang-targ'il tolali mushaklar.

**Tekis tolali mushaklar.** Tekis tolali mushaklar tekis mushak xujayralari- dan tuzilgan.

**Ko'ndalang targ'il tolali mushaklar.** Ko'ndalang targ'il mushaklar uzun va ko'p yadroli tolalardan tuzilgan. Bu tolalarning shakli har xil bo'lib, bir uchi o'tkir, ikkinchi uchi o'tmas bo'ladi. O'tmas mushak tolalari payga aylanib ketadi.

Ko'pchilik mushaklar patsimon yoki duksimon tuzilishda bo'ladi. Mushaklarning shakti va ularning tuzilishi fiziologik ahamiyatga ega. Mushakning ko'ndalang kesimi qanchalik katta bo'lsa, u shunchalik kuchli bo'ladi.

### **Mushaklarning asosiy xususiyatlari**

Mushakning asosiy xususiyati uning qisqarishidir, har bir tirik to'qima singari mushak ham qo'zg'aluvchanlik qobiliyatiga ega, mushak ta'sirida javoban ko'zg'aladi, ya'ni qisqaradi. Mushakning qisqarishi natijasida turli jarayonlar vujudga keladi. Masalan, yurak mushagining qisqarishi natijasida tomirlarga qon chiqarib turiladi va shu yusinda organ va to'qimalar qon bilan ta'minlanadilar ovqat-hazm organlarining mushaklarini qisqarishi natijasida ularda bo'lgan oziqa yaxshi aralashadi va hazm bo'ladi, ichakning bir joyidan ikkinchi joyiga o'tadi, ya'ni ovqatning hazm qilinishi va qonga surilishi ta'minlanadi. Skelet mushaklarining qisqarishi natijasida turli harakatlar vujudga kelib, juda murakkab ishlar bajariladi. Mushakning turiga qarab ularning qisqarishi ham har xil bo'ladi. Tekis tolali mushaklar aksarisi avtomatik holda, asab hamda gumoral mexanizmlarning uzlusiz ta'siriga ritmik qisqarish bilan javob beradi. Birinchi qarashda bu mushaklarning qisqarishi o'z holicha asab tarmog'ining ishtirotkisiz vujudga kelgandek bo'lib tuyulsa ham, aslida markaziy asab tarmog'i xususan, vegetativ asab tarmog'i ta'sirida sodir bo'ladi.

Ko'ndalang-targ'il mushaklarning xususiyati butunlay boshqacha. Ko'ndalang-targ'il mushaklar normal sharoitda harakatlanuvchi asablar orqali keladigan impulslar ta'siridagina qisqaradi. Tekis tolali mushaklar sekin va uzoq qisqarsa, ko'ndalang-targ'il mushaklar tez qisqarib, tez bo'shashadi. Mushakning bir uchiga yuk osib, uni cho'zishga harakat qilinsa, mushak bunga qarshilik ko'rsatadi agar osilgan yukning og'irligini ko'paytirib mushakni qancha ko'p cho'zishga harakat qilsak, uning qarshilik ko'rsatishi shuncha ortadi, ya'ni osilgan yukning og'irligiga javoban mushak ham cho'ziladi. Bu mushakning egiluvchanligini ko'rsatadi.

## Mushaklarda energiya almashinuvi

Mushaklarning taxminan 80 foizini suv tashkil qiladi. Mushaklardagi suvning miqdori odamning yoshiga qarab o'zgaradi, insonni yoshi ulg'aygan sari mushaklarda suvning miqdori kamayib boradi. Tekis tolali mushaklarda ko'ndalang-targ'il mushaklarga qaraganda suv ko'proq bo'ladi. Mushak tarkibiga kiradigan qoldiq moddalarning ko'p qismi (90%) oqsillardan iborat bo'ladi. Mushak tarkibiga oqsillardan tashqari ekstraktiv moddalar – karnozin, anzerin va karnitin ham kiradi. Mushakda yog' ham bor. Mushaklardagi yog', zahira ovqat moddasi hisoblanadi, kaliy tuzlarining miqdori ko'proq bo'lsa, natriy tuzlarining miqdori unga nisbatan birmuncha kamadir. Mushaklarning faol ishlashida kaliy va magniy tuzlarini organizmda muvozanatda bo'lishi katta ro'i o'yaydi, ular asosan uch guruhga bo'linadi:

1. Eriydigan globulyar oqsillar;
2. Erimaydigan holdagi fibrilyar oqsillar, ya'ni mushakni qisqartiruvchi elementlari – miofibrillar oqsili;
3. Juda qiyinchilik bilan eriydigan oqsillar.

Birinchi guruhdagagi oqsillarga turli fermentlar kiradi va ular mushak ishi uchun energiya manbai vazifasini o'taydigan biokimeviy o'zgaruvchanlikni vujudga keltiradi. Bu oqsillarning ko'pini kristall shaklida ajratib olish mumkin. Bunday oqsillar qatoriga miogen kiradi.

Ikkinchi guruhdagagi oqsillarga miozin va aktin kiradi, ular mushak qisqarganda kimeviy energiyani mexanik ishga aylantiruvchi asosiy manba hisoblanadi.

Uchinchi guruhga kiradigan oqsillar hozirgacha yaxshi o'r ganilmagan, ular mushak to'qimasining asosini va mushak tolasining po'stini hosil qiladi.

Mushak qisqarganda sodir bo'ladigan kimeviy jarayonlar, asosan ikki bosqichda: kislorodsiz – anaerob rejimda va kislorodli aerob rejimda o'tadi. Bu ikkala rejimda ham mushaklarda bir qancha kimeviy o'zgarishlar vujudga keladi.

Mushaklarning qisqarishi uchun kislorodning bo'lishi shart emas, kislorod bo'limaganda ham mushak qisqara olar ekan. Lekin mushak kislorodsiz sharoitda uzoq vaqt qisqarib tura olmaydi, tezda charchab qoladi. Mushaklarning uzoq vaqt qisqarib turishi uchun kislorod bo'lishi shart. Odamni toliqishi ,uning ish unimdonligini susayishi mushaklarni kislorod bilan ta'minlanishiga bog'liq ekan,

bundan xulosa chiqaradigan bo'lsak, odam organizmi qanchalik jismonan chiniqqa bo'lsa, u shuncha uzoq va unumli faoliyat ko'rsatadi.

### **Anaerob rejim (kislorodsziz)**

Mushaklarning qisqarishi uchun kerak bo'lgan energiya anaerob rejimda hosil bo'ladi. Sport mashg'ulotlarida va musobaqlarda bajarilgan ishda mushaklar kislorodsziz, ya'ni qarzga ishlashiga- anaerob rejim deyiladi. Bu rejimda mushaktar tarkibida bo'lgan fosfor birikmalar parchalanib sut kislotasiga aylanadi. Bunday fosfor birikmalariga adenozintrifosfat kislota (ATF), kreatin fosfat kislota va geksozofosfat kiradi. Yuqorida keltirilgan birinchi ikki birikma fosfat kislotaming adenozin va kreatin bilan bo'lgan birikmalaridan iborat. Adenozin va kreatin esa oqsillarning parchalanishi natijasida hosil bo'ladi. Geksomonofosfat, glikogen va fosfat kislotadan hosil bo'lgan birikmalardan iboratdir.

### **Aerob rejim**

Ish bajarganda mushaklar faoliyatida kislorodni to'liq ta'minlanishi-aerob rejim deyiladi. Kislorod ishtirokida glikogenning parchalanishi tufayli hosil bo'lgan sut kislota parchalanadi. Buning natijasida suv va karbonat angidrid hosil bo'ladi. Sut kislotasining parchalanishi natijasida ham energiya paydo bo'ladi. Biroq hamma sut kislotasi suv va karbonad angidridiga parchalanmay, faqat uning uchdan bir qismigina parchalanadi. Bu jarayon ham energiya hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi, sut kislotasining qolgan uchdan ikki qismi glikogenga aylanar ekan. Mushaklarni ish bajarish uchun kerak bo'lgan maksimal energiyasi 30 % ni tashkil qilar ekan, ular kimyoviy reaksiya natijasida hosil bo'ladi.

### **Ish bajarish vaqtida organizmda sodir bo'ladigan o'zgarishlar**

Jismoniy ish bajaradigan organizmda faqat mushaklar ishidagina emas, balki boshqa bir qancha organlarning ishida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mushak ishi vaqtida qon aylanish, yurak urish, nafas olish va chiqarish, buyrak ter bezlari va ba'zi ichki sekresiya bezlarining ishlari ham o'zgaradi. Mushaklarni qisqarib cho'zilishi, ya'ni ishlashi natijasida ularning qon bilan ta'minlanishi shiddatliroq bo'ladi, ya'ni bu vaqtida boshqa organlarga qaraganda ishlab turgan mushaklar qon bilan ko'proq ta'minlanib turishi kerak. Ishlab turgan mushaklarni yetarli miqdorda qon bilan ta'minlash uchun ulardagi kapillyarlar kengayib, o'zidan ko'proq miqdorda qon o'tkazadi, shu bilan birga yurak urishi

tezlashadi, yurakning sistolik hajmi kengayadi va buning natijasida yurakning daqiqali hajmi ham oshib ketadi:

Mushaklar shiddatli ish bajarayotgan vaqtida oksidlanish jarayonlari ham shiddati o'tadi va kislorodga bo'lgan talab ancha oshadi. Ishlab turgan mushakni yetarli miqdorda kislorod bilan ta'minlash uchun nafas tezlash ishi kerak, nafas olishning tezlashishi faqat ishlab turgan mushaklarga kislorod yetkazib berish uchungina kerak bo'lmay, balki oksidlanish jarayoni natijasida ko'p miqdorda hosil bo'ladigan karbonat angidridni chiqarib yuborish uchun zarurdir.

Qonda karbonad angidridning ko'payishi natijasida nafas olish markazi ta'sirlanib, mushaklarda mashq bajarish natijasida nafas olish va chiqarish tez va chuqur bo'ladi. Bu esa o'pka ventilyatsiyasini tezlashtirishga olib keladi. Agar tinch holatda o'pka ventilyatsiyasi bir daqiqada taxminan 7 litr bo'lsa, mushaklar qisqarishi ta'siri ostida, sport bilan shug'ullananganda va mushaklar ishi vaqtida o'pkadagi kislorod 60 – 70 litrga yetadi.

Mushaklar ishlab turgan vaqtida buyrak va ter bezlarining ishi ham kuchayadi. Buyrakda siyidik hosil bo'lishi tezlashadi va ko'payadi. Buning natijasida organizm faoliyati uchun zararli bo'lgan moddalar siyidik orqali tashqariga chiqarilib yuboriladi. Bundan tashqari ter bezlari tana haroratining turg'un bo'lishida ham ishtitok etadi.

Mushaklar ishi vaqtida ichki organlar ishining o'zgarishi markaziy asab tarmog'i tomonidan boshqarilib turiladi. Markaziy asab tarmog'i, xususan, bosh miya yarim sharlari po'stlog'idan keladigan impulstar faqat mushak ishi vaqtidagina ichki organlar faoliyatini o'zgartirib qolmay, balki bajariladigan ish oldidan organizmni tayyorlaydi.

Ko'pincha odam og'ir ishga kirishmasdan oldin, uning organizmida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ladi: yurak urishi kuchayadi, qon tomirlari kengayadi, nafas olish tezlashadi, shunday qilib, organizm og'ir ish qilishga oldindan tayyorlanib boriladi.

### **Mashq bajarish va uning organizmga ta'siri**

Mushaklarning ish bajarishi organizm va mushaklarning o'zi uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Organizmning chidamli va chiniqqan bo'lishi hamda taraqqiy etishida jismoniy mehnat va jismoniy tarbiya mashhg'ulotlari katta rol o'ynaydi. Jismoniy mehnat va jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug'ullanuvchi kishilarning mushaklari yaxshi taraqqiy etgan, pishiq va puxta bo'ladi. Bunday odam og'ir ishni

charchamasdan uzoq vaqt bajara oladi. Aksincha, jismoniy mehnat va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmaydigan kishilarning mushakler kuchsiz bo'ladi. Bunday kishilar ozgina jismoniy mehnat qilishi bilan tez charchab qoladi va organizmning tiklanish davri jismoniy tarbiya mashqlari yoki jismoniy mehnat bilan doim shug'ullanib turga kishilarga nisbatan uzoq davom etmaydi.

Mushaklarning rivojlanishiiga va organizmning chidamli bo'lishiga muntazam mashq bajarish bilan erishish mumkin. Doimo mashqlar bajarish natijasida ish bajarish qobiliyati oshadi. Mashq bajarib o'rgangan kishi, mashq qilmagan kishiga nisbatan uzoq va samarali mehnat qilishi mumkin. Jismoniy mashqlar bajarish natijasida mushaklarning hajmi va kuchi oshadi, nafas olish osoyishtalanadi va chuqur bo'ladi, o'pkaning tiriklik sig'imi ortadi. Mushaklar ish faoliyatini vaqtida o'pkadagi qon aylanish hajmi bir daqiqada 120 litrga yetishi mumkin. Mashq bajarish jarayonida kishilarda o'pkada havc ventilyatsiyasining ko'payishi nafas olishning chuqurlashishi hisobiga jismoniy harakat bilan shug'ullanmagan kishilarda esa nafas olishning tezlashishi hisobiga namoyon bo'ladi. Doimiy jismoniy mashq bajarish natijasida qon aylanish organlari ishida ham o'zgarish yuz beradi. Badantarbiya bilan shug'ullangan kishilarda, shug'ullanmagan kishilardagiga qaraganda yurak urishi (tinch holatda 30-60 marta) sekin bo'ladi, bir daqiqada chiqarilgan qon hajmi 5600 ml bo'ladi. Jismoniy mashqlar bilan doimiy shug'ulanib turadigan kishilarda yurak urishi sekin bo'lsa ham yurakning sistolik va daqiqalik hajmi ko'payadi, chunki bunday odamlarda yurak mushaklari taraqiy etgan va kuchli bo'ladi.

Doimo jismoniy mashqlar bilan shug'ullanib kelgan kishilarda yurakning daqiqalik hajmi, sistolik hajmining oshishi hisobiga ko'payadi, bunda yurakning urish tezligi ortiqcha o'zgarmaydi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmagan kishilarda esa yurakning daqiqalik hajmi yurak urishining tezlashishi hisobiga bo'ladi. Bunda sistolik hajmi ortiqcha o'zgarmaydi.

Organizmning tabiatda sodir bo'ladigan turli o'zgarishlarga chidamli bo'lishiga, har xil kasalliklarga qarshilik ko'rsata olishi (immuniteti) va chiniqishiga jismoniy mashqlar bajarish orqali erishish mumkin.

## **Qon**

Katta yoshdagি odamlarda qonning hajmi, uning vazniga nisbatan o'rtacha 7-8 %, ya'ni 5-6 literni, chaqaloqlarda 15 %, 1 yoshdagilarda 11 foizni tashkil qildi. Tinch holatda qonning bir qismi qon depolarida (jigar, taloq, o'pka, yurak va teri) saqlanadi. Odam shiddatli harakat qilganda depodagi qonlar chiqib qon tomirlarida aylanadigan qon hajmini to'ldiradi.

### **Qonning elementlari**

Qonning shaklli elementlariga qizil qon tanachalari yoki eritrotsitlar ayollarda  $1\text{mm}^3$ da 4000000-4500000, erkaklarda esa 4500000-5000000 (eritros-qizil demakdir), eritrotsitlar soni doimiy bo'lmasdan, mushak zo'riqishida, baland tog'liklarda va ayrim kasalliklarga chalinganda o'zgarib turadi.

Oq qon tanachalari – leykotsitlar (leykotsit – rangsiz)  $1\text{mm}^3$ da 6000-8000 ta, ularni soni ovqatlanganda mehnat qilganda va ayrim kasalliklarga chalinganda ko'payish xususiyatiga ega. Ular ilikda limfa to'qimalarda va taloqda hosil bo'ladi.

Qon plastinkalariga-trombotsitlar kiradi.

### **Eritrotsitlar**

Odamda eritrotsitlar yadosiz, ikki tomoni botiq, qo'lcha simon shaklda bo'ladi. Ular ilik to'qimasi hujayralarida hosil bo'lib, dastlab yadroli bo'ladi va keyinchalik yadrolarini yo'qotib, yadosiz shaklga kiradi. Eritrotsitlar rangsiz qism – stroma va rangli qism – gemoglobindan tuzilgan bo'lib, tarkibida 60% suv va 40% quruq modda bo'ladi. Quruq moddaning 90% ini gemoglobin, qolgan 10% ini oqsil, lipoid, uglevod va mineral tuzlar tashkil etadi.  $1\text{ mm}^3$  qondagi eritrotsitlar soni: erkaklarda 5 million bo'lsa, ayollarda 4,5 million bo'ladi. Agar eritrotsitlar bittadan ketma-ket tizilsa, ular 187.000 km gacha cho'ziladi, ustma-ust qilib taxlansa, balandligi esa 62.000 km ga yetadi. Odam organizmidagi qonning umumiy miqdori 5 litr bo'lsa, eritrotsitlar soni 25 million chamasida bo'ladi.

**Eritrotsitlarning vazifasi.** Eritrotsitlar organizmda katta ahamiyatga ega. Birinidan, eritrotsitlar o'pkada kislorod bilan birikib, uni to'qimalarga olib boradi va to'qimalarda hosil bo'lgan karbonad angidridni olib, o'pkaga keltirib beradi. Eritrotsitlarning kislorod tashish faoliyatini ulardagи gemoglobin bajaradi. Ikkinchidan, eritrotsitlar qonda bufer, ya'ni himoyachi vazifasini bajarib qon reaksiyasini turg'un qilib

turishda qatnashadi. Uchinchidan organizmda suv almashinuvida ishtirok etadi.

Arteriya qonidagi eritrotsitlarga qaraganda vena qonidagi eritrotsitlar o'zlariga ko'proq suv va ionlarii tortib oladi, ancha bo'riadi va ularning hajmi kengayadi. Normal sharoitda arteriyadagi qon eritrotsitlarining hajmi bilan venadagi qon eritrotsitlarining hajmi orasidagi farq taxminan 10% chamasida bo'ladi.

Gemoglobinning kislorod bilan puxta birikmasi katta biologik ahamiyatga ega. Organizmni kislorod bilan ta'minlash gemoglobinning ana shu xususiyatiga asoslangan. Qon kislorodga boy bo'lgan o'pka kapillyarlaridan o'tayotganda gemoglobin o'ziga kislorodni biriktirib oladi, kislorod kam bo'lgan to'qima kapillyardan o'tayotganda esa gemoglobin o'zidagi kislorodni to'qimaga beradi. 100 ml qonda 13 – 16 mg gemoglobin bo'ladi.

### Leykotsitlar - oq qon tanachalari

Leykotsitlar ma'lum shakliga ega emas, har xil yadrol, xujayralardan iborat bo'lib 1 mm qonda 6000 – 8000 dona leykotsit bo'ladi.

Leykotsitlar tuzilishiga, rangiga va yadrolarining shakliga qarab bir necha turga bo'linadi. Ularni asosan donasiz leykotsitlar yoki agronulotsitlarga va donador leykotsitlar – granulotsitlarga bo'lish mumkin.

Leykotsitlar organizmga tushgan mikrob va yod moddalarni yutishdan tashqari, turli-tuman fiziologik jarayonlarda ham ishtirok etadi. Masalan, ovqat hazrn qilish va ovqat so'rish vaqtida leykotsitlarning soni ko'payadi (40% oshib ketadi). Bu hol ovqatlanish leykotsitozi deyiladi. Leykotsitlar miqdori mushaklar ishi vaqtida ham ko'payib ketadi.

**Qon plastinkalari** – trombotsitlar qon elementlarining shakli jihatdan eng kichigidir. Ularning shakli turlicha: dumaloq, duksimon bo'ladi. Qon plastinkalari ilikdagi gigant xujayralardan-megakoriotitsitlardan hosil bo'ladi. Ularni soni 1 mm 3 300 000 dan 400 000 gacha bo'ladi. Trombotsitlar qon ivishida ishtirok etadi. Qon oqishini to'xtatish va ivishini ta'minlashda trombotsitlarni 12 omili bor bo'lib, tarkibidagi serotonin orqali to'xtatadi. Trombotsitlarning soni mushak ishida bir necha bor ko'payadi

Trombotsitlarning tarkibida temir, mis va nafas olish fermentlari topilgan. Balki trombotsitlar ham organizmga kislorod tashishi mumkin. Qon elementlari asosan taloqda va jigarda parchalanadi.

Qon bilan limfa organizmning ichki muhitini tashkil etadi. Qon organizmda juda murakkab vazifalarni bajaradi, ulardan eng muhimmi quyidagilar:

1. Ovqat moddalari ichaklarda hazm bo'lib, qonga o'tadi, qon esa ovqatni hazm bo'lishi natijasida sodir bo'lgan moddalarni to'qima va hujayralarga yetkazib beradi.

2. To'qima va hujayralarda yuz beradigan modda almashinuvu natijasida karbonad angidrid, sut kislotasi va boshqa tashlandiq moddalar hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan moddalar qonga o'tadi va qon orqali chiqaruv organlariga olib boriladi. Chiqaruv organlari esa bu moddalarni tashqariga chiqarib yuboradi.

3. Qon o'pkada kislorodga to'yinib uni hujayralarga tarqatadi (eritrotsetlar orqali).

4. Ichki sekresiya bezlarida ishlab chiqiladigan garmonlar qonga o'tib, qon orqali turli organlarga boradi va shu tariqa organlarning bir-biriga ta'sir etishi ta'minlanadi.

5. Qon elementlari organizmga tushgan yod va zararli moddalarga, yuqumli mikroblarga qarshi kurash olib boradigan (leykotsitlar). Qonni organizmni bunday himoya qilish faoliyatini organizmda ishlab chiqiladigan maxsus oqsil moddalarga ham bog'liqidir, lar organizmga tushgan yod moddalarni, mikrob viruslarini parchalash va o'ldirish xususiyatiga ega.

6. Qondagi (eritrotsitlar) oziqa moddalar, cho'nonchi kislorod, suv, tuz va boshqa moddalar hujayra hamda to'qimalarning ishlashi uchun muvofiq sharoit yaratib beradi.

7. Qon tana haroratini turg'un qilib tutishda ham katta rol o'ynaydi. Qon tomirlarida aylanib yuradigan qon teri orqali issiqlikni tashqariga chiqarib turadi va shu yo'l bilan tana harorati muvozanatini ta'minlaydi.

### **Qon aylanish doirasi**

Uzoq davrlardan buyon ulug' allomalarini, shifokorlarni qon aylanish tizimi qiziqtirib kelgan. Tibbiyot fanlarining otasi-Gippokratning Aristotelning va buyuk Rim shifokori Galenning qon aylanishi borasida izlanishlari bu to'g'risida aniqlik kirta olmagan.

VII asrning boshlarida ingliz olimi V.Garvey o‘zining “Hayvonlarda yurak va qon aylanish to‘g‘risida anatomik ma‘lumot” ilmiy asarida birinchi marta qon aylanish to‘g‘risida xabar bergan. Garvey ushbu asarda vena va arteriya qon tomirlarini mustaqil emasligini, balki ular bir-birlari bilan bevosita bog‘liqligini ya’ni yagona tarmoqni tashkil qilishini isbot qilib bergan.

**Qon aylanish yo‘li ikki doiraga bo‘linadi:** katta va kichik qon aylanish doiralari.

**Katta qon aylanish doiralari deb.** Yurak qisqarganda uning chap qorinchasidan aortaga, aortadan arteriyalarga o‘tadigan, arteriyadan mushaklarga, keyin kapillyarlarga, kapillyarlar bir-birlari bilan qo‘silib mayda venalar, ular esa o‘z navbatida, katta venalar hosil qilib, qonni yurakning o‘ng bo‘lmachasiga olib kelgan yo‘liga aytildi.

**Kichik qon aylanish doirasи-** yurakning o‘ng qorinchasidan boshlanib, o‘pka arteriyasidan o‘pka kappilyarlariga va undan o‘pka venalari orqali chap bo‘lmachagacha bo‘lgan qon yo‘lidir.

#### Nafas olish organlari

Nafas olganda havo: **burun, burun bo‘shlig‘i, tomoq, traxeya, bronx va alveola** orqali o‘pkaga boradi. Odam tinch holatda asosan burun bilan nafas oladi, shamollab qolganda, jismoniy mashqla bajarganda og‘iz bilan nafas olishga majburdir. Odam organizmi uchun burun bilan nafas olish katta ahamiyat kasb etadi, chunki burun ichida joylashgan shilliq qatlam, mayda qon tomirlari havoni isitib o‘tkazadi, bundan tashqari burun bo‘shlig‘ida changlar ushlanib qolinadi. Bu degani tashqaridan istemol qilingan havo o‘pkaga tozalanib kiritiladi. Nafas olganda o‘pkadagi havo almashinishi o‘pka ventilatsiyasi deyiladi, bir daqiqali hajm esa o‘pka sig‘imi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

O‘pkaning daqiqali hajmi deb, undan bir daqiqada o‘tgan havo hajmiga aytildi.

Katta yoshdagи kishilar tinch holatda bir daqiqada nafas olishi 12-18arta nafas oladi, muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanganlar 6-8 marta, ya’ni 2 marta kam nafas oladi.

Nafas olish soni yosh bilan ham bog‘liqdir, misol uchun, bir daqiqada **chaqaloqlar - 60 marta, 5-yoshli bolalar-25 marta, 15-16 yoshdagilar - 12-18 marta nafas oladilar**

Jismoniy mashq bajarganda nafas olish 2-3 marta tezlashadi. Sport mashg‘ulotlarida hatto 40-45 martagacha va undan ortiq bo‘ladi.o‘pkaning bir daqiqali hajmi 5-6 litirni tashkil qiladi.

O'pkaning tirklik sig'imi deb chuqur nafas olib chiqarilgandagi havo miqdoriga aytildi, UTS spirometr bilan o'lchanadi. Bir daqiqada odam o'rtacha 3500 ml havoni chiqarib, olishi mumkin. UTS odamning jinsi, yoshi va uning jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullaniganligiga ham bog'liq, sport bilan muntazam shug'ullanarlarda shug'ullanmaganlarnikiga, erkaklarniki ayollar-nikiga nisbatan UTS yuqori bo'ladi. 18-19 yoshgacha UTS ortib boradi, 18-35 yoshgacha bir darajada saqlanadi. 50 yoshdan so'ng pasayadi.

Odamni tug'ilishida olgan birinchi nafasidagi havoga qoldiq havo deyiladi, u odam hayotini oxirigacha saqlanib turib 1000-1500 ml ni tashkil qiladi.

### **Oliy asab tarmog'ining faoliyati**

Oliy asab faoliyati organizmning tashqi va ichki muhit o'zgarishlariga o'ziga xos moslashishini ta'minlaydi. I.M.Schenov birinchi bor o'zining «Bosh miya reflekslari» nomli kitobida insonning ruhiy jarayonlari ixtiyoriy harakat, fikrlash qobiliyatini o'z nabvatiga ko'ra reflektor ravishda bo'ladi, degan edi.

I.P.Pavlov asosiy reflekslarni o'r ganish mobaynida I.Schenovning materialistik tushunchalarini tasdiqladi va bu g'oyaning yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. I.Pavlov barcha reflekslarni ikki guruhga, shartli va shartsiz reflekslarga ajratdi.

**Shartli reflekslar** bu hayot davomida orttirilgan reflekslardir. Ular organizmning tashqi muhit bilan munosabati davomida vujudga keladi. Ular unchalik turg'un bo'limganligi bilan shartsiz reflekslardan farq qilib, hayot davomida yo'qolib ketishi mumkin, shartli reflekslarning eng muhim tomoni shundaki, ular organizmga biron-bir ta'sir bo'lganga qadar, bu ta'sirotlarni berilish extimolligi signal tarmoqlari orqali yetib kelgach, organizmda asab tizimiga bo'layotgan ta'sirga o'zining adekvat javobini tayyorlaydi.

Oliy asab faoliyati fiziologiyasining jismoniy tarbiya uchun ahamiyati katta. Mashg'ulotlarni tashkil qilish va olib borishning muvaffaqiyatli bo'lishi, vegetativ organlar va mushaklar ish faoliyatini tartibga soluvchi vaqtlar aloqasi qonuniyatini hisobga olishga bog'liqdir.

**Shartsiz reflekslarga** tug'ma reflekslar kiradi. Shartsiz reflekslar organizmning tashqi va ichki o'zgarishlarga nisbatan birinchi moslashishidir. Yangi tug'ilgan bola organizmi tashqi nafas olish,

so'rish kabi shartsiz reflekslar yordamida moslashib keladi. Shartsiz reflekslar turg'unligi bilan ajralib turadi.

**Jismoniy tarbiya** va sport bilan shug'ullanish suyak to'qimalarining mustahkamligini oshiradi, paylarning suyaklarga mustahkam birikishini ta'minlaydi, umurtqa pog'onasini mustahkamlab, ko'krak qafasini kengay-tiradi. To'qimalarning asosiy vazifasi – harakatni ta'minlash, shu bilan birga ular deformatsiyalovchi, o'ziga xos tormozlovchi, harakat energiyasi susaytiruvchi va tez harakat vaqtida birdan to'xtash imkoniyatini beruvchi hamdir. Jismoniy tarbiya bilan doimiy shug'ullanish natijasida bo'g'implarning cho'ziluvchanligi, paylar bilan bog'lanishi ortadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida mushaklar alohida kuch to'playdi. Bu kuchni o'chash mumkin. Bu kuch mushak tolalari miqdoriga va mushaklarning uzunligi va cho'ziluvchanligiga bog'liq. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan doimiy shug'ullanish natijasida mushaklar tolasining miqdori ortadi. yiriklashadi va shuning hisobiga mushaklarning kuchi ortadi. Odamdag'i barcha mushaklarning umumiy soni 300 million toladan ko'proqlig'aniqlangan.

Agar odam tanasidagi hamma mushaklar tolasining istfaoliyatini bir tomonga yo'naltira olsak edi, ularning bir vaqtida qisqarganda hosil bo'lgan uzunligi 25000 km ga teng bo'lardi.

### Sinov savollari

1. Odam organizmi nima uchun yagona biologik tizim deyiladi?
2. Organizmda issiqlik qayerda hosil bo'ladi?
3. Asosiy moddalar almashinuvi qanday kechadi?
4. Mushaklar fiziologiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Mushaklarda energiya almashinuvi (aerob, anaerob, rejimlar) haqida nimalarni bilasiz?
6. Ish bajarganda organizmda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
7. Qon, qon tarkibi, yurak to'g'risida nimalar bilasiz?
8. Qon shakllariga nimalar kiradi?
9. Qon aylanish tarmoqlarini bilasizmi?
10. Oliy asab tarmoqlari to'g'risida tushuncha bering.
11. Harakat-tayanch apparatlariga nimalar kiradi?
12. Paylar va ularning vazifasi nimalardan iborat?
13. Nafas olish organlari xususida ma'lumot bering.
14. Ovqat hazm qilish organlari haqida nimalarni bilasiz ?

## **VI BOB. Sog'lom avlod – davlatimiz boyligi**

Bugungi kunda oliy ta'llim muassasalari oldida o'quv tarbiyaviy jarayonni shakllantirib, yangi pedagogika texnologiyasi qo'llash natijasida yuqori saviyali barkamol mutaxassislarni tarbiyalash, ular kelajakda, ilmiy izlanishda yoki amaliyotda olgan bilim va malakasini qo'llay bilishini ta'minlashni vazifa qilib qo'yilgan. Biroq kasbiy bilim va malakadan to'liq foydalanish uchun yosh mutaxassislar sog'lik va yuqori darajali ishlash qobiliyatini maxsus tashkilashtirilgan, doimiy jismoniy tarbiya hamda sport mashg'ulotlarida egallashlari mumkin.

Sog'lioni saqlashning asosiy tadbiri bu badan tarbiyadir. Sog'lom turmush tarzi (STT) va sog'lioni saqlashda Abu Ali ibn Sino asosan yetti narsaga e'tiborni kuchaytirish zarurligini uqtirib o'tadi;

mijozni mo'tadil qilish,  
yeylimadigan va ichiladigan ovqatlarni tanlash,  
gavdani chiqindidan tozalash,  
to'g'ri tuzilishni saqlash,  
'burun orqali olinadigan havoni yetarli va yaxshi olish,  
kiyimga e'tibor berish,  
jismoniy va ruhiy harakatlarni tartibga solish (shu harakat jumlasiga uyqu va tetiklik ham kiradi).

Mijoz elementlarning eng mayda bo'laklaridagi qarama-qarshi kuchlarning bir-biriga ta'siri ma'lum bir chegaraga yetganda paydo bo'lgan kayfiyatdir.

Yuqorida aytib o'tilgan elementlarning dastlabkilari to'rtga bo'linadi: issiqlik, sovuqlik, ho'llik quruqlik. Umuman olganda, mijoz ikki xil bo'ladi. Birinchisi: haqiqiy motadil mijoz (shartsiz refleks), bunda mijoz egasidagi qarama-qarshi kayfiyatlarining miqdorlari teng bo'ladi. Ikkinchisida (shartli refleks) qarama-qarshi kayfiyatlar orasida mijoz mutlaqo o'rtada bo'lmay, ikki tomonning biriga, ya'ni sovuqlik yoki issiqlikka, ho'lllik, quruqlikka, yoki har ikkalasiga moyilroq bo'ladi.

Olimlarning odam umrini uzaytirish, kasallikka duchor bo'lishining oldini olish va sog'lomlashdir uchun olib borgan izlanishlari yuqorida aytilgan elementlardan foydalanish yaxshi natija bergen edi. Afsuski, odamlar asta-sekin mijoz va boshqa tushunchalarni unuta boshladilar.

Mamlakatimizda erkaklarning o‘rtacha umri 75 yosh, ayollarni esa 77 yoshga tushib ketgan bir vaqtida, bu ko‘rsatkich AQShda 83-87 yoshni, Yaponiyada esa 85 va 89 yoshni tashkil etadi. Erkaklarning barvaqt hayotdan ko‘z yumishlariga asosiy sabab. keyingi paytda ular orasida yurak qon tomiri kasalligining nisbatan ko‘payganligidir.

Aholi o‘rtasida tushuntirish ishlaringning yuqori saviyada olib borilishi, STTga e’tiborni kuchaytirish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yurak xastaliklari bilan og‘rish ko‘rsatkichini ancha pasaytirdi. Amerika olimi K.Kuper tomonidan ishlab chiqilgan jismoniy mashqlar to‘plami – aerobika va sheyping ko‘p mamlakatlarda katta muvaffaqiyat bilan qo‘llanib, ko‘pgina odamlarning sog‘ligini mustahkamladi va yurak xastaliklari kasalliklarining oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilyapti.

Inson ham aqlan, ham jismonan baquvvat, chiniqqan bo‘lmog‘i lozim.

### **Sog‘lom turmush tarzi va uning mazmuni**

Sog‘lom turmush tarzi (STT) insonning madaniy, jismoniy rivojlanishi, mehnat unumдорлиги va ijodiy faoliyatini oshirishni o‘z ichiga oladi.

STTning asosiy tarkibiy qismlari – samarali ish faoliyati, shaxsiy gigiyena, gigiyena talablariga qat’ian rioxaya qilish, zararli odatlardan voz kechish, belgilangan bir vaqtida to‘g‘ri ovqatlanish, jismonan va ruhan chiniqish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanib turish.

STT – kasallikkarning oldini olishda asosiy tadbirdardandir. STT – ma’lum miqdorda ruhiy va jismoniy talablarni qoniqarli darajada amalga oshirishga imkon beradi.

Kun sayin sog‘lomlashtirish uslubining turlari oshib bormoqda. Jismoniy mashqlar, ovqatlanish me’yori, uyqu, hammomdan foydalanish va boshqalar harakat faoliyatini oshirib boradi. Hamma narsa bir maqsadga, odamlar sog‘ligini mustahkamlashga qaratilishi kerak.

Ayrim mualliflar «sog‘liq» tushunchasini insonning tashqi muhit ta’siriga ko‘nikishi bilan bog‘lasalar (I.Muravov), boshqa bir qator mualliflar esa bu tushuncha ostida kasal bo‘lmaslikni yoki jismoniy kamchilikning yo‘qligini tushunishadi (N.Amosov). Birinchi fikr mualliflari ma’lum darajada haqlidir, chunki ular sog‘liqni

harakatda, o'zgarish va rivojlanishda deb qaraydilar. «Sog'liq» tushunchasi inson organizmining faoliyati, uning anatomik, fiziologik, biokimiyoviy va ruhiy qanday salbiy jarayonlar kechayotgatidan bexabar bo'ladi. Tamaki tutunidagi zaharli moddalar, insonni ko'p a'zolarining kushandasidir. Chekilgan bir quti sigareta oqibatida organizmda, o'pkada 50-60 mg zaharli gaz to'planadi, natijada toza havo yetishmasligi yuz beradi. Oqibatda miya faoliyati zarar ko'radi, bosh og'rishi va toliqish kabi illatlar sodir bo'ladi. Olib borilgan ta'diqotlarni ko'rsatishicha, har bir chekilgan sigaretadan so'ng 5-10 daqiqa mushaklar faoliyati 15 % pasayadi. Tamaki tutuni yurak qisqarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. U yurak qisqarishini bir daqiqada 15-18 marta ko'paytiradi. Bu hol inson umriga zavol bo'ladi.

Kashandalar ko'pincha yurak kasalliklari – stenokardiya va infarkt-miokardi bilan og'riydar.

Alkogoitning inson organizmi uchun zarari juda ham kuchli. Bir marta spirtli ichimlik iste'mol qilish odam jigarining faoliyatini bir necha soatga ishdan chiqaradi. Organizmga alkogol kirishi tufayli yurak qis-qarishi kamayadi, qon bosimi pasayadi, nafas olish markazi faoliyati o'zgaradi, teri orqali kislorod yutish va chiqarish qisqaradi. Organizm 15-20 kundan so'ng alkogoldan to'la tozaalanadi, shundan so'ng ham alkogol illatlari o'pka va miyada saqlanib qolish kuzatilgan.

Odam organizmi salomatligining eng ashaddiy kushandası – giyohvandlikdir. Narkotik moddalarga va shunga o'xhash ko'knori, marixuna va boshqalar kiradi. Uni doimiy ravishda iste'mol qilish nashavandlikni keltirib chiqaradi. Iste'moldan so'ng eyforiya, ya'ni kayf paydo bo'ladi. Bu holda insonda o'z-o'zini boshqarish jarayoni ishdan chiqadi, natijada u jinoyatga qo'l urishi mumkin. Asta-sekin odam har qanday yo'l bilan doimo chekishga harakat qiladi. Bu hol uni vaqtinchacha bo'lsa ham og'riqlar va ruhiy qiynalishlardan qutqargandek bo'ladi, lekin shu bilan birga uni narkotik moddaga yanada qattiqroq bog'lanishga majbur qiladi, natijada insonning bu falokat iskanjasidan qutulishi ancha qiyin kechadigan bo'ladi.

### Ovqatlanish va ovqat hazm qilish organlari

Oziq-ovqat inson hayoti uchun zarurdir. Ovqatlanish haqida aniq va to'g'ri tasavvurga ega bo'lish har bir zamонави inson uchun shartdir. Qadimgi yunon va rimiliklar sog'lom tanda – sog' aql, degan edilar (Aristotel). Buni hozirgi sharoitga moslab aytadigan bo'lsak,

keyfiyatimiz mehnat faoliyatimiz – to'g'ri dam olish va ovqatlanishimizga bog'liq.

Og'iz bo'shlig'ida maydalangan ovqat qizilungachdan o'tib oshqozonga tushadi. Bu yerda ovqat 6-8 soatgacha turishi mumkin. Ovqat oshqozondan ingichka ichakka va ingichka ichakdan yo'g'on ichakka o'tadi. Og'iz bo'shlig'ida ovqat 15-18 soniyagacha turadi. Bu yerda fizik o'zgarish sodir bo'ladi (so'lak bilan ho'llash va chaynash), kimyoviy fermentlar ta'sirida qayta ishlanadi. Og'izda ovqat shilliq pardada joylashgan ta'm bilish, taktil va harorat reseptorlarini qo'zg'atadi. Ovqat organizmga tushganda so'lak birinchi ta'sir qiluvchi ovqat hazm qilish suyuqligini ishlab chiqaradi. Inson so'lagida neystrol (ishqoriy) tabiatda o'ta kuchli bo'lgan ferment bor. Fermentlar ovqat bilan oshqozondagi kislotali muhitga tushgach, o'z kuchini yo'qotadi. Og'iz bo'shlig'idan oshqozongacha bo'lgan masofani ovqat luqmasining quyig'i 8-9 soniyada, suyug'i esa 1-2 soniyada o'tadi. Oshqozondagi silliq to'qimalar yordamida ovqat aralashadi, suv va suyuqliklar tezda devor orqali surilib boshqa organlarga jo'natiladi. Bu jarayon 6-10 soat davom etadi. Oshqozonda parchalangan ovqat ayri bo'laklari bilan 12 barmoqli ichakka o'tadi. Ovqat bo'laklari bu yerda oshqozon osti bezi, ichak bezlari, o't bezlari chiqargan so'laklar ta'siriga uchraydi. 12 barmoqli ichakning uzunligi uncha katta emas. shuning uchun ovqat, ovqat qoldiqlari bu yerda uzoq ushlanib turmaydi shu sababdan bu yerda ajralib chiqayotgan shirali ovqat luqmasi ingichka ichakka o'tib hazm bo'ladi va suriladi. Yo'g'on ichakda, hazm bo'limgan (oqsilning) va surilmagan oqsilning qo'shimcha qismi parchalanadi. Doimiy jismoniy mashqlar, chiniqish, modda va energiya almashinuvini oshirib, organizmning oziqa va moddalarga bo'lgan talabini kuchaytiradi, hazm shiralarining ajralishini kuchaytiradi, lekin mushaklar ishi ovqatning hazm qilinishiga doimo ijobjiy ta'sir qilavermaydi. Mushaklar tinimsiz istlaganda: masalan, markaziy asab tarmog'ida ovqat hazm qilish markazi tormozlanishi mumkin, oqibatda ovqat hazm qilish organlarining va bezlarining qon bilan ta'minlanishi qonning harakatdagi mushaklarga oqishi hisobiga kamayadi. Bu ovqat hazm qilish organlarining ishini susaytiradi.

Uyda to'g'ri ovqatlanish muhim jarayondir va u shu sohada ma'lum darajada bilim va madaniyatni talab qiladi. Ma'lumki, erkak kishining normal og'irligi bo'yining uzunligidan 100 smni olib tashlangandan qolgan miqdorga teng bo'lishi kerak. Yosh ayolning

vazni ancha yengilroq bo'lishi kerak: bo'yi 160 sm bo'lganda, og'irligi 57,7 kg, 165 sm da 61 kg va k.k. Chirolyi qomatga ega bo'lish qiyin. Hammaning shunga intilishiga qaramay, bu narsa sog'lik hisobiga hal bo'lmasligi kerak. «Men ovqatlanish uchun yashamayman, balki yashash uchun ovqatlanaman» (I.Kant),— degan gapni biz doimo yodda tutishimiz kerak. Agar ozishni istasangiz ushbu oddiy qoidalarni yodda tuting va unga rioya qiling:

1. Har doim bir vaqtida va tez-tez ovqatlaning.

2.Ovqatlanish oralig'ida tamaddi qilib olmang, shirinliklarga o'ch bo'lman.

3.Ovqatri shoshmasdan, yaxshilab chaynab yeng.

4. So'nggi marta uyqudan 2,5–3 soat oldin ovqatlangan ma'qul. Uxlashdan oldin aslo tamaddi qilmang.

I.P.Pavlovning «Ovqatlanishga o'ch bo'lma, lekin unga yetarlicha e'tibor ber»—degan so'zlarini esdan chiqarmaslik zarur. Ovqatlanish haqida so'z borar ekan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanganda kerak bo'ladigan oqilona oziq-ovqat haqida unutmamasligingiz lozim. Oddiy ovqatlanish qoidalarining buzilishi natijasida sog'lig'imizga zarar yetadi.

Ma'lumki, oqsillar tananing «sinch-g'ishti» hisoblanadi. Chunki faqat ular organizmda to'qima va hujayralar hosil qilish manbaidir. Ular oqsillar, fermentlar va garmonlar tarkibiga kirib, hayotning asosiy faoliyatida qatnashadi. Bundan tashqari ular qisqarish va qo'zg'alish, o'sish va ko'payish xususiyatiga ega bo'lib, modda almashinuvni va fikr yuritishda katta ahamiyatga egadir.

Insonga bir sutkada qancha oqsil kerak? degan savolga, akademik A.A.Pokrovskiy 70 kg vazndagi kishiga, har kunda eng kamida 80–100g oqsil kerak bo'ladi- deb javob beradi. Xom narsalar iste'mol qiladiganlarga esa 25–30 gramm yetarli deb hisoblaydi.

Yog'larni ko'p hollarda «kuch-quvvat» manbai deb hisoblashadi. Bu albatta, to'g'ri. Chunki 1 kg yog'ning erishida 9,3 kkal, uglevod va oqsildan esa 4,1 kkal energiya ajralib chiqadi. Shu bilan birga yog' organizmdagi ba'zi vitaminlarni singdirishda, oqsilni tozalashda, kasallikning oldini olishda, kasalliklarga qarshi kurashda va tashqi muhitning tasirlariga qarshi turishda zarurdir. Keyingi vaqtarda uglevodlar haqida jiddiy fikrlar aytildi.

Olimlarning fikricha, shakarni ko'p iste'mol qilish organizmda ortiqcha yog'ning ko'payishiga sabab bo'ladi. Boshqa nuqtai nazarda

esa qand-shakar glikogenning manbaidir (yurak, mushak, jigarni oziqlantiradi). Bundan qanday xulosaga kelish mumkin? Shakar organizm uchun «oq zahar»mi yoki aksincha, zarur ozuqami? Hamma narsa uni iste'mol qilish miqdoriga bog'liq.

Biz bu o'rinda meva va sabzavotlardan olingan uglevodning qanchalik ko'p bo'lmasin, organizm uchun zarar emas, balki foydaliligini unutmasligimiz lozim.

O'simlik ozuqalari tarkibida ortiqcha moddalar uchraydi va odatda ular uglevodlardan ajramagan holda o'rganiladi. Ular organizmda qiyin hazm bo'ladi, lekin organizm uchun muhim rol o'ynab, ichaklar ish faoliyatiga ijobiy tasir ko'rsatadi, miya faoliyati va qon bilan ta'minlash ishlarini yaxshilaydi. Fiziologlar va dietologlarni fikricha, inson uchun bir kunda 5–15g tuz yetarlidir. Ba'zilar esa tuzni faqat bug'doy mahsulotlari va sabzavotlardan olish mumkin va bu odam organizmini faoliyati uchun yetarli (2 g) deydilar.

Iste'mol qilingan ovqatning quvvati kuchli bo'lishi kerak. U hamisha me'yorida iste'mol qilinishi kerak. Aks holda, ovqat hazm qiladigan a'zolarni ishi qiyinlashadi, natijada ovqat yaxshi hazm bo'lmaydi, kishini uyqu bosib, ish faoliyati susayadi, ba'zan miyada tormozlanish hollari ro'y beradi. Shuning uchun bir kunda kamida 3 – 4 marotaba ovqatlanish kerak.

Suv ham tirik organizmda biokimyoiy jarayonlarni amalga oshirish uchun muhim rol o'ynaydi. Suvsiz hayot bo'lmaydi, deylilshining boisi ham shundadir.

O'zbekiston hududida iqlimning juda issiq bo'lgani sababli O'zbekiston xalqlari kun bo'yи suv ichadilar, ishtahalari yaxshi bo'lmaydi. Salqin tushgach esa, ishtaha paydo bo'lib, ular kuchli va to'yimli ovqat iste'mol qiladilar. Ta'diqodlar shumi ko'rsatadiki, O'zbekiston xalqlarining kechki taomi kuchli bo'lishiga qaramasdan u yaxshi hazm bo'ladi, ularning uyqulari yaxshi, o'zlarini sog'lom his qiladilar.

Hazm bo'lмаган ovqat odamga zarardir. Bu haqda o'rta asrlarda yashab o'tgan suriyalik tabib Abul Faroj fikrini eslab o'tmoq o'rinni: «Hazm bo'lmay qolgan ovqat, uni yegan odamni yeydi». Mutaxassislar sabzavotlarni xom iste'mol qilish, uni qovurib yoki qaynatib yeyishdan ko'ra foydaliroqdir, deb hisoblaydilar.

Ovqatlanishdan oldin qo'ini yuvish ko'pgina kasalliklarning oldini oladi. Ovqatlanish madaniyati kayfiyatni yaxshilaydi, ish

faoliyatini kuchaytiradi. Ma'lumki, meva va barcha sabzavot turlari organizmida ishqorlarni ko'paytiradi. Go'sht, tuxum, sut mahsulotlari, qora non esa kislotani oshiradi. Ba'zi olimlar u ozuqa mahsulotlarini bir va bir necha marta ist'emol qilishni (kun va haftada) tavsiya etishadi. O'tkazilgan tadqiqotlar go'sht va sabzavot qaynatmasi foydadan holi emasligini va organizmda yaxshi hazm bo'lishini ko'rsatdi.

Keyingi vaqtida odamlar ochlik bilan davolanishga ko'p e'tibor bermoqdalar. Ushbu jarayon mutaxassis nazoratida bo'lishi kerak. Ochlik bilan davolashga o'rta asrlarda Gippokrat ham e'tibor bergan: «Tozalanmagan tana a'zolarini qancha oziqlantirmagin, unga shuncha ko'p zarar yetkazasan», – degan. Yoshi katta kishilar ro'za tutish vaqtida o'zlarini tetik his qiladilar, o'rta yoshdagilar qiynaladilar, yosh bolalar esa juda ham qiynaladilar. Bu ularning ish faoliyatiga va tinimsiz harakatiga bog'liqidir.

Ming yillar davomida hindistonlik yoglar va ruhoniyalar tog' havosidan nafas olishni bir maromga yo'naltirish va organizmni och qoldirib davolash usularidan keng foydalanib kelganlar. Bu ularga odam organizmining kuch-quvvati va uning ichki imkoniyatlarini takomillashtirishga yordam bergan. Odamning million yillar davomida shakllangan biologik tabiatni o'zining ijtimoiy faolligiga uzviy-garmonik bog'liq bo'lsa, uning sog'ligiga foydadir.

Ajdodlarimiz o'z o'ljarinizi izlaganlar, tutish uchun uni quvlaganlar o'zlarini himoya qilish uchun esa kurashganlar, qochganlar, yashiringanlar, daraxtlarga chiqa bilganlar. E'tibor bering, har ikki holda ham ular doimo harakatda bo'lishgan. Fan va texnikaning rivojlanishi tufayli esa biz yanada ko'proq inson tabiatiga zid bo'lgan kam harakatlikka duchor bo'imodamiz. Lekin inson murakkab ruhiy va fikrlash qobiliyatiga ega jonzotdir. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanib borish asab tizimini, odam ruhiyatini ortiqcha «yuk»dan xalos qiladi, umuman organizmning faoliyatini yaxshilash, ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mehnatdan keyingi toliqishni qisman bo'lsa ham yengillatish, oila va do'stlar orasida muomalani saqlash, yangi va sodiq do'stlar topish uchun ham zaruriat tug'diradi.

### Vitaminlar

XIX asrning boshlarida rus olimi N.I.Lunin sichqon va kalamushlarni ikki guruhga ajratib, birinchi guruhdagilarni sun'iy, ikkinchisini tabiiy ozuqlardan tayyorlangan taomlar bilan boqqan.

Natijada birinchi guruhdagi sichqonlar kasallikka chalinib o'la boshilagan, ularni kasallikka chalinganlariga tabiiy ozuqalar ya'ni tabity sut berganda sog'ayib ketgan. N.Lunin o'z tajribasida ozuqalar tarkibida qandaydir modda borki, ular organizm tirkiligini saqlashini isbot qilgan.

1911-1912 yillarda polyak olimi Kazimir Funk sholi poxolida organizm uchun katta foydali modda borligini aniqlab, bu qo'shimcha organik moddaga v i t a m i n deb nom bergan. Vitamin so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "vita"-hayot, "amin"- hayot uchun zarur degan ma'noni bildiradi.

Keyingi tadqiqodlar shuni ko'rsatdiki, vitaminni organizmda yetishmasligidan nafaqat teri kasalligi, balki singa, pellagra, raxit, kasalliklari hamda ko'rish qobiliyatini yo'qotish, qon ivishini buzilishi va boshqa kasalliklarga olib kelar ekan.

Organizmda vitaminlarni yetishmasligi natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar A V I T A M I N O Z deyiladi. Avitaminozni oldini olish uchun bir kunda bir milligramm, hatto o'n yuzdan bir qisqa milligramm vitamin kifoya qiladi.

Ilmiy izlanishlar natijasida bugungi kunda 20 dan ortiq vitaminlarning turlari aniqlangan. Vitaminlar suvda yoki yog'da eriydigan ikki guruhgaga bo'linadi.

Yog'da eriydigan vitaminlar A, D, Ye va K, suvda eriydiganlar V guruhi va S vitamini. Hayotda ko'p uchraydigan vitaminlar: A, V, S, D, Ye, K, R, RR, N va boshqalar.

### A Vitaminini

A vitaminini o'sish vitamini ham deyiladi. A vitamini oksidlanish-tiklanish jarayoni, moddalar almashinuvni (xolestirin) buyrak usi va jinsiy bezlarni sintezida ishtiroy etadi.

A vitaminoz organizmni yuqumli kasalliklarga bo'lgan qarshiligi (immunitet) ni susaytiradi.

Normal hayot kechirishda bir kunda 3-5 mg, bolalar va horiladorlar uchun biroz ko'proq A vitamini zarur.

Hayvonlar yog'i tarkibida, yog' bor moddalar baliq yog'i, sariq yog', tuxumni sarig'i, sut A vitaminiga boy bo'ladi. A vitaminini ortiqchasi jigar va buyrakda (depodp) saqlanadilar. Meva va poliz o'simliklari o'rrik, sabzi, pomidor va qizil garimdonida ko'p miqdorda bo'ladi.

## V vitaminlari

V guruhidagi vitaminlar V1 dan V14 gacha bo'ldi.

**V1 (tiamin) vitamini** asabni qo'zg'atishda ishtirok etib, markaziy asab tizimiiga ta'sir ko'rsatadi va bosh miya qobig'i faoliyatini normallashtiradi. U modda almashinuvi, oqsillar almashinuviida ishtirok etadi. Yaponiya, Xitoy, Hindi-xitoy, Tinch okeani orollarida ko'p tarqalgan teri kasalligini bartaraf etishda ahamiyati katta. V1ning avitaminoziga, gipervitaminoziga organizmni turli kasalliklarga, ayniqsa yuqumli kasalliklarga bo'lgan qarshiligini tez susaytiradi.

Inson uchun bir kunda 2 mg V1 vitamini iste'mol qilish yetarli bo'ldi.

V1 vitamini pivo xamir turushida, sholida, bug'doy po'stlog'ida, yong'oqlarda, sigir jigarida, tuxumni sarig'ida, do'kkaklarda ko'proq bo'ldi.

## V2 (riboflavin) vitamini

V2 markaziy asab tizimi faoliyati, moddalar almashinuvi va qon hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega. Riboflavin odam organizmiga kam bo'lishi yoki yo'qligi bo'y o'sishi va vaznni pasayishiga olib keladi. Bir kunda normal hayot kechirish uchun 2 mg V2 kifoyadir. Riboflavin pivo xamir turushida, bug'doy po'stida, jigar va yurakda, sut pishlog'ida, tuxum, pomidor, gulli karamnda bo'ldi.

## V6 vitamini (pirodiksin)

V6 vitamini organizmda aminokislota almashinuvi va sintezida qatnashib arteriya qon tomirlari devorida xolestirinni hosil bo'lishini kamaytiradi, markaziy asab tizimida moddalar almashinuvi faoliyatini yaxshilaydi.

V6 pirodiksin jigarda, buyrakda, miyada, tuxum sarig'ida, xamir turushda, dukkaklarda ko'proq bo'ldi. Bir kunlik me'yori 1,5-2 mg, homilador va emizuvchi ayollarni bir kunlik V6 ehtiyoji 2-3 mg ni tashkil etish kerak.

## V12 vitamini

V12 vitamini anemiyaga qarshi kuchli bo'lgan omil bo'lib xizmat qiladi. Odam organizmda kamiliyi yoki yo'qligi eritrotsitlarda va trombotsitlarni hosil bo'lishini to'xtatadi. Markaziy asab tizimida

moddalar almashinuviga ta'sir ko'rsatadi. V12 vitamini mol go'shtida, hayvonlar jigarida (eng ko'p buzoqda), laqqa, treska va sudak baliqlarining jigarida hamda qora va qizil ikrada ko'p bo'ladi. Bir kunlik iste'mol me'yori 10-15 mg (mikrogramm) bo'lishini talab etadi.

### **V15 vitamini (pangamat kislotasi)**

V15 vitamini lipid almashinuvini yaxshilaydi, organizm to'qimalarida kislorodni yuqori darajada iste'mol qilishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga organizmda alkogolni parchalanishiغا yordam beradi. Bu vitamin o'simliklarning danagida ko'proq bo'ladi.

Ateroskleroz, yurak va o'pka kasalliklariga qarshi yaxshi omil bo'lib, kasalliklarning oldini olish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

### **RR vitamini(nikotin kislotasi)**

RR vitaminidan Organizm to'qimalarini kislorod bilan ta'minlanishini buyrak usti garmonlarini hosil bo'lishida, qonda xolestirinni kamayishida, qon tomirlarini kengayishida va yurakni urishini tezlashtiriishda foydalaniлади. Organizmda RR kamligi pellagra kasalligini olib keladi. Pellagrani uchta D bilan ifodlash mumkin: dermatit (teri toshmasi), diapeya (ich kerish) va demensiya (kalta faxmlik). Pivo xamirturushi, guruch, bug'doy, arpa, yong'oqlar, dukkaklar, sut, jigar, buyrak va yurak RR vitaminlariga boydir. RR vitaminiga bir kunlik ehtiyoj 15 mg, og'ir mehnat bilan shug'ullanuvchilarda 20 mg, homilador va sut emizuvchi ayollarda 20-23 mg ni tashkil etisht kerak.

### **S vitamini(askorbin kislotasi)**

S vitaminining odam organizmida kamligi singa (skorbut) kasalligiga olib kelishi mumkin S vitaminining yetishmasligidan bo'g'lnlarda og'riq paydo bo'ladi, suyaklar mo'rt bo'ladi, kam qonlik kasalliklariga chidamlilik susayadi. Organizmda S vitaminining yetishmasligi natijasida odam yuqumli (infeksiya) kasalliklardan va xolsizlikdan halok bo'lishi mumkin. Bir kunlik ehtiyoj o'rtacha 50 mg ni tashkil qiladi. Kasalga chalinganda yoki jismoniyl ish bajarganda organizmda askorbin kislotasiga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi. Na'matak, limon, apelsin, pomidor, qora smorodina, karam, garimdori, ukrob, piyoz, sabzi, lavlagi askorbin kislotasiga boy bo'ladi.

## D vitamini

D vitamini kalsiy va fosforni organizmida almashinuvida katta rol o'ynaydi. D vitaminozida raxit kasalligi hosil bo'ladi. Raxit bilan asosan yosh bolalar kasallananadilar. D vitaminiga bir kunga bo'lgan ehtiyoj bolalarga 0,1-0,02 mg, kattalar uchun 0,003 mg bo'lishni talab etadi. Asosan quyoshdagi ultra binafsha nurlarini odam terisiga ta'siri ostida organizm D vitaminini ishlab chiqaradi, shu bilan birga baliq yog'i va tuxumda ko'proq uchraydi.

## Chiniqish

Bu muammoga Ibn Sino o'z asarlarida katta ahamiyat bergen. Chiniqish insonga qadim zamonlardan ma'lumdir. Bizning maqsadimiz chiniqtiruvchi omillar va ulardan ko'proq foydalana olishni tushuntirishdan iboratdir.

Agar tanani qisqa muddatga bo'lsa ham chiniqtirish lozim bo'tlib qolsa (uzoq sovuq o'lkaga sayohatdan oldin), bunda qisqa muddatli sovuq ta'sirlanuvchi bir necha jadal mashig'uilotlardan foydalanish kifoya. To'g'ri, bu hol umuman shamollamaslik (gripp) ning oldini oladi deb ayta olmaymiz. Lekin tanada chiniqishga moyillik asta-sekin kuchayib boradi. Chiniqishning mohiyati bilan tanishar ekanmiz, uning tabiat tomonidan in'om etilgan suv, quyosh, havo kabi omillarini sanab o'tish lozimdir. Sovuqda, issiqda (suv, havo) chiniqish tanani tinchlantiradi. Chiniqish jarayonida shuni unutmaslik kerakki, suv qanchalik sovuq (muzdek) bo'lsa, uning ta'siri ham 3-5 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda har bir organizmning o'ziga xos tomonlari hisobga olinishi kerak.

**Quyosh nurlari-** kuch, hayot va sog'liq manbaidir. Quyosh vannasining qabul qilganda ehtiyojkorlik bilan ish tutish kerak. Aks holda ostob urishi asab tolalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Quyosh nurining salbiy ta'siri: bosh og'rish, holsizlanish, yomon uyqu, ishtahaning sustligi, ish faoliyatining pasayishi, tana terisining kuyib qolishida namoyon bo'ladi. Quyoshda chiniqish asosan quyosh tarkibidagi ultrabinafsha nurlari ta'siri ostida o'tadi. Ultrabinafsha nurlarini odam terisiga ta'siri ostida organizm "D" vitamini ishlab chiqadi "D" vitamini o'z o'rnida raxit kasalligini oldini oladi. Shuning uchun quyoshda toblanish payti ertalab quyosh chiqishidan (soat 10dan-11gacha; soat 17dan quyosh botguncha) tavsiya etiladi.

Ultrabinafsha nurlari ta'sirida odam organizmi "D" vitaminini ishlab chiqadi. Bizga ma'lumki "D" vitamini suyakni mustahkamlaydi va skolioz kasalligidan asraydi.

**Havo vannasi** – organizmda modda almashinuvi jarayonini kuchaytiradi, asab tizimini mustahkamlaydi. Miya va yurak faoliyatini tananing umumiyligi holatini yaxshilaydi. Chiniqishdan kerakli foyda olishi uchun har bir organizmning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish ayni muddao bo‘ladi. Sovuqqa chidamsiz va chiniqmaganchalarga qattiq sovuqda ko‘p vaqt bo‘lish, yupun kiyinish man etiladi. Havo vannes: shamol esmaydigan istirohat bog‘lari, mevazor bog‘lar va ko‘kalamzorlarda qabul qilinadi. Bunda kiyimga katta e’tibor berish shart.

Suvda chiniqishga daryolar, suv havzasi, dush va mahaliy holatda chiniqish (tog‘orada oyoqni solib), ochiq hovuzlarda cho‘milishlar kiradi.

Suvda chiniqish suv harorati 26-28 gradusdan boshlab asta-sekin pasaytirib boriladi (10-12 gradusgacha).

Oyoq vannasidan foydalaning yana bir turi: chiniqtirish bir tog‘oraga issiq va ikkinchi tog‘oraga sovuq suv qo‘yiladi (kontrast vanna). Oyoqlar oldin issiq suvda 1 – 2 daqiqa, so‘ngra esa sovuq suvda 20—30soniya tutib turiladi, bu hol 3–4 marotaba takrorlanadi. Chiniqishning bunday turidan odatda yotish oldidan foydalilanadi. Uning ijobiliy ta’siri insonning psixologik kayfiyatiga bog‘liq, odam o‘zini qanchalik shu muolajaga ishontirsa, u shunchalik tez ijobiliy natijaga erishadi. Chiniqish sog‘lom turmush tarzining bir qismiga aylanishi muhimdir.

**Jismoniy mashqlar** bilan chiniqish: jismoniy mashqlar ertalabki gigienik mashqlar, jismoniy tarbiya va sport bilan mustaqqil shug‘ullanish, sport shu’balarida shug‘ullanishlar kiradi.

Kun tartibiga rioxha qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, faol harakatdagi hayot va chiniqish – bularning hammasi insonning yoshi va sog‘lomligidan qat’i nazar u uchun eng ishonchli himoya vositasidir.

### **Yosh avlodda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish**

Sog‘lom turmush tarzi har, tomonlama, garmonik yetuk, faol shaxsni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzi, eng avvalo, ishlarni oqilona uyushtirishni, hordiq chiqarishni,

ovqatlanishni, jismoniy faollikni, shaxsiy gigiyena qoidasini, oila ahilligini va zararli odatlarga barham berishni taqozo etadi.

Nazariy va amaliy mehnat jarayonida STT (Sog'lom turmush tarzi) katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yoshlarda sog'lom turmush tarzi shakllanishining ahamiyati yana ham oshib bormoqda. Yosh avlod har xil ta'sirlarga o'ta beriluvchan bo'ldi. Ikkinchisi tomondan olganda, bu davrda sog'lom turmush tarzini ta'minlashda zarur ongli shaxsiy faoliyat mukammallashadi. Bu sohadagi faoliyat kelgusida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kasallikni va zararli odatlarning oldini olish imkoniyatini beradi. Yosh avlod sog'lom turmush tarzining shakllanishida buyuk rol o'yнaydigan shaxsdir.

Mamlakatimizning kelajagi bugungi kunlarda o'z fuqarolari uchun olib borayotgan va ularning jismoniy faoliyatini kuchaytirish, ish unumtdorligini oshirish, chiniqtirish va atrof muhitning oddiy va ekstrimal ta'siriga moslashishini ta'minlashga qaratilgan tadbir va choralarining samaradorligiga bog'liqdir. Inson sog'ligi va me'yoriy jismoniy rivoji jamiyat hayot kechirishining eng zarur shartidir va insонning o'zi uchun zarur sifatdir. Sihat-salomatlilik insonga uning o'z ishini a'lo darajada bajarishiga; uzoq umr ko'rishiga, hayotiy zarur organlarning (qon aylanish, ovqat hazm qilish, tayanch-harakat tarmoqlarining, asab tizimlarining) faoliyatini yaxshilashga sabab bo'ldi. Har bir talaba faollik va sihat-salomatlilik eksalikda kasallik va sust hayot kechirishdan, xushchaqchaq bo'lib yurish – bo'zrayib yurishdan afzalligiga ishonchi komil bo'lishi kerak. Sihat-salomatlilikning zarur shartlaridan biri inson harakat faoliyatini rivojlanganligidir. «Sihat-salomatlilik» va «barakat» tushunchalari uзвiydir. Shuning uchun ham qadimdan «kuchli bo'lay desang – yugur, aqli bo'lay desang – yugur, chirolyi bo'lay desang – yugur, sog'lom bo'laman desang yugur» degan Aristotelni so'zlari Rim imperiyasi senatini baland joyiga, hamma ko'radigan joyga yozib qo'yilgan ekan.

Har kim o'zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy tarbiya va sportning zarurligini tushunib yetishi va qunt bilan o'ziga yoqqan ma'lum bir jismoniy mashg'ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak. Buyuk nemis faylasufi I.Kant o'zining «Kasallikni ruhan yengish qobiliyati, faqat xohish kuchiga bog'liq» degan asarida o'z-o'zini tarbiyalash dasturini bayon qiladi. Uning nuqtai nazariga

ko‘ra odam o‘z tabiatini ustidan hukmronlik qilsa, u sening ustingdan hukmronlik qilmaydi. I. Kantning bolalik va yoshlik davrlarida sog‘ligi yaxshi emas edi. Shunga qaramasdan o‘z ustida ishlagani uchun, ya’ni o‘z organizmiga mos mashqlar topib, 40 yoshga kelib uning salomatligi mustahkamlandi va umrining oxirigacha (Kant 80 yoshida vafot etgan) hech qanaqa kasallikka duchor bo‘lmay, yuqori darajada ishchanlik qobiliyatini saqladi.

Inson o‘zini jismonan tarbiyalash zarurligini anglab o‘z organizmiga va sog‘ligiga e’tibor berishi, o‘zining imkoniyatiga mos mashqlar to‘plamlarini tanlashi kerak. Mashq to‘plamlari gavda tuzilishiga, u yoki bu jismoniy mashqlarga qiziqishiga, mijoziga bog‘liq holda tanlanadi. Toliqish holati odatda kunning oxirida seziladi, buning sababi esa bosh miya qobig‘iga kelayotgan impulsarning, qonda qand muddasining, kislorodning kamayishi va niroyat organizmda muddalar almashinuvni qoldiqlarining to‘planishi oqibatidadir. Toliqish holatini bartaraf qilish usullari turlichadir. Birinchisi uzoq vaqt sust dam olish afsuski ko‘pchilik shu yo‘lni tanlaydi. Ikkinchisi, maxsus medikamentorilar iste’mol qilish, ular bosh miya xujayralari faoliyatiga ta’sir qili, uni zaiflantiradi.

Uchinchi yo‘l eng samarali va xavfsiz – jismoniy zo‘riqisi: yugurish, suvda suzish, turli xildagi gimnastika mashqlarini bajarish.

Mashqlar to‘plamini tanlashda mehnat faoliyati turiga e’tibor berish kerak. Ish faoliyatida ham harakatda bo‘ladigan organlar ishini hisobga olib, mashqlarda ularning harakatini yo kuchaytirish yoki susaytirish kerak. Madaniy dam olishni yaxshi tashkil qilmaslik ham sog‘liqqa salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Muddatdan oldin keksayish, semirib ketish, asab kasalliklariga chalinish insonni sog‘ligiga e’tiborsizlik oqibatidir.

Talabalar jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlaridan foydalaniib o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilishi yoki uni bajarish uchun rejalar tuzishi, ularning sog‘liqqa ta’sirini nazorat qilib borishi kerak. Faqat shu yo‘l bilan jismoniy tarbiya va sportni odat tusiga kiritib odamga sihat-salomatlilik keltirishini tushunish kerak.

Sport bilan muntazam shug‘ullanib, musobaqalarda qatnashuvchi sportchilar, qaddi-qomatining kelishganligini namoyish qilib, o‘zgalarda havas xislarini uyg‘otadi. Bu ma’noda sport insonni faqat jismonan emas, balki estetik jihatdan ham tarbiyalaydi deb aytma olamiz.

Yosh mutaxassis jismoniy tarbiya va sportning foydasi va hayotda zarurligini ommaga yetkazishi kerak. Shunday qilib, mashq qilgan, mushaklari kuchli rivojlangan kishilar o'zlarining tana tuzilishi bilan boshqalardan ajralib turadilar, ham charchamaydilar. Aqliy yoki og'ir jismoniy mehnatdan keyin o'zlarining ish qobiliyatlarini tezda tiklaydigan bo'ladiilar. Bunga esa yoshlar doim intilganlar va intiladiilar.

Bir qaraganda, jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug'ullanishdan oson ish yo'qqa o'xshaydi. Biroq «ishni ertaga qoldirish» odati kuchga kiradi: ertadan boshlab vaqtliroq turaman, arzimagan narsaga asabimni buzmayman. Ertadan boshlab tonggi mashg'ulotni boshlayman, har kuni sayr qilaman, «yuguraman» deymiz. Lekin «ertangi kunlar» o'taveradi.

Sog'lom turmush tarzini o'y-joy gigiyenasisz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talabalarning yashash joylaridagi qoniqarsiz sharoitlar har xil kasalliklarga olib kelishi mumkin. Uxlash oldidan xonani shamollatish katta ahamiyatga ega, shaxsiy gigiyenaga alohida e'tibor berish lozim. Shaxsiy gigiyenada badan terisiga e'tibor berishning ahamiyati katta. **Odam terisi murakkab tuzilgan bo'lib;** ko'p vazifalarni bajaradi. Badan terisi organizmni kimeviy-mexanik, issiq, sovuq ta'sirlaridan, jarohatlanishdan saqlaydi, organizmga mikroblarning kirishiga to'sqinlik qiladi.

U boshqa a'zolar va tana bilan uzviy bog'langan. Odamning tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqligi, markaziy asab tarmog'inining yuqori bo'limi orqali, ya'ni bosh miya qobig'i ostida joylashgan ko'pdan-ko'p asab tolati tasirini qabul qilishi orqali amaliga oshadi.

Badan terisining tozaligi, nozikligi; sog'lom rangi, ajin tushmasligi faqatgina oddiy teri gigiyenasisiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki to'g'ri ovqatlanishga, oshqozon va ichak holatiga, kun tartibiga rioya qilishga, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga sof havoda sayr qilishga bog'liqdir. Kiyim yengil, qulay bo'lib, harakatni siqmasligi, qon aylanishiga va nafas olishga halaqit bermasligi kerak. Oyoq kiyimi ham o'rnatilgan gigiyena qoidalariga mos bo'lib, oyoq panjalarining tabiiy harakatini cheklamastigi, siqmasligi, iqlim sharoitiga, yil mavsumiga, turmush va ish xususiyatiga mos kelishi kerak.

## **O‘quv-mehnat jarayonida gigiyena, o‘qishdan tashqari vaqtda jismoni tarbiya va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish**

Talabalar mehnati aqliy faoliyat bo‘lib, bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini hosil qilishga, fan va texnika, ishlab chiqarishning tuti sohalarida ishlashni o‘rganishga qaratilgan. Har qanday mehnatdagi singari o‘qishda ham sog‘liqni saqlab turish, yuqori darajada ishchanlik va boshqa sifatlar har tomonlama rivojlanishi uchun hech narsa to‘sinqilik qilmastigi kerak. **Talabalar mehnatini ilmiy tashkil qilish (MITK)** ni baholashda mutaxassislarning fikricha, o‘qishga sarf qilinadigan vaqtning bo‘sh vaqtga nisbatining ahamiyati muhimdir. O‘quv mashg‘ulotlarining yil sayin oshishi talabalarning mehnatini tashkil qilishni takomillashtirishni taqozo etadi.

MITK talabalar faoliyatini o‘qituvchilar faoliyati bilan o‘zaro bog‘lash orqali amalga oshiriladi. Nazariy bilimlarni, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan holda, an‘anaviy o‘qitish usuli eng unumli va tejamli usul bo‘lib qolmoqda. Ma’ruza, suhbat yoki namoyish paytida talabalar o‘qituvchilardan qisqa vaqt ichida batafsil axborot oladilar. Talabalar mehnatini shunday tashkil qilish usuli ularda xotirani, miyaning analitik muntazam faoliyatini rivojlantiradi. Biroq bunda biliro umumlashtirish, takroriy fikrlash darajasida rivojlanadi, bu esa ijodiy fikr yuritishning bilimning va mehnat qilishning yangi holatlari haqida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

O‘qitishning an‘anaviy auditoriya usullari ishlab chiqarishdan ajralib qolganligi, oliy o‘quv muassasalarining akademik va ilmiy tarmoq, muassasalarini orasidagi aloqaning bo‘shligi ko‘pchilik yosh mutaxassislarning texnika va texnologiyaning yangi turlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishga tayyor emasligiga olib keldi. Ular zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini, ilmiy tajribalarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalaniib tatbiq qilishga tayyor emas ekanlar.

Aqliy mehnatni faollashtirishning muhim omillaridan biri - xotiradir. Talabalarda fikrlash jarayonlarini jondorishda o‘qituvchining roli katta bo‘lsa, xotirasini har kim o‘zi mustaqil tarbiyalashi va mustahkamlashi kerak. Xotirada saqlab qolish jarayonining samaradorligini oshirishni xohlovchilar uchun mutaxassislarning bir nechta maslahatlarini keltirib o‘tamiz:

1. Eslab qolishni istash zarur, chunki erkin ravishda xohish bilan eslab qolish, to‘satdan eslab qolishga nisbatan ancha samarali bo‘ladi.

2. Agar siz o'quv materiallariga oid bayon-reja tuzsangiz yoki uni tuzilish tamoillarini yaxshilab o'ylab, ayrim qismlari orasida mantiqiy o'zaro bog'lanishni anglasangiz, o'quv materialini yaxshi eslab qolasiz.

3. Xotirangizda saqlab qolishning yana bir g'oyat ahamiyatlari usuli – «matnni o'z tilingizga tarjima qilish», deb aytish mumkin. Hammaga ma'lumki, kerakli darajada materialni yaxshi tushunmaslik uni o'z tilimizda yaxshi ifodalab bera olmasligimizga olib keladi.

4. Xotirada saqlab qolishda rasmlarning roli ham kattadir. Samaradorlikni aniqlashning an'anaviy usuli o'qtish bo'lsa, bunda bilimni o'zlashtirish usuli juda katta ro'l oynaydi. Odatda bir xil savollarga yozma ravishda berilgan javoblarga qo'yilgan baholar og'zaki javoblarga qaraganda pastroq bo'ladi. Shuning uchun ham talabalar mustaqil ish bajarishdan, ayniqsa qo'shimcha adabiyot yordamida referatlar, ma'ruza matnlari yozishdan, Olimpiadalarda ishtirok etishdan, yozma nazoratli ishlardan bo'yin tovlamasliklari lozim, chunki yuqorida qayd qilib o'tilgan tadbirlar talabalarda o'z fikrlarini mantiqiy ifodalash ko'nikmasini hosil qilishga va uni rivojlantirishga yordam beradi. Semestrlarni muvaffaqiyatli topshirish talabalarning shaxsiy va ruhiy-fiziologik sifatlariga bog'liqdir. Bular ichida organizmning stressga olib keladigan omillarga bardoshliligi katta ahamiyatga ega. Shu bois ko'pchilik talabalar uchun semestr stressga olib keltiruvchi omil desak yanglishmaymiz.

Tadqiqotchilarining fikricha, jismoni tarbiya bilan shug'ullanish aqliy mehnatni uyuştirishning ta'sirli vositalaridan biridir. Harakatchan faoliyat o'zlashtirishning o'sishiga, semestrlar paytida asabning mustahkamlashishiiga yordam beradi. Ma'ruza oldidan besh daqiqa miyani psixologik gimnastika qilish, asabiy hayajonlanishni kamaytiradi. Toliqishni va asabiy tanglikni suvda suzish bilan yo'qtган talabalarda aqliy mehnat bilan shug'ullanishdan zarur kayfiyat, funksional holat vujudga kelishi isbotlangan.

Kun tartibida o'quv mashg'ulotlarini qo'shib olib boradigan talaba-sportchilarining miyasi yaxshi ishlashi uchun qulay sharoit yaratiladi. Chunki bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o'tishda ijobjiy hayajonlanish manbalari hosil bo'ladi. Dominant markaz baland ko'tarilgan hayajonlanish bilan ifodalanadi. Bu hol boshqa markazlarni oz yoki ko'p darajada tormozlanishga olib keladi. Shu tufayli faol ish uchun, miya dam olishi uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Butun ish kuni

davomida dominantlarning almashinuvi sportchi-talabalar o'quv materiallarini dars paytida faol o'zlashtirishiga imkon beradi. Buning natijasida o'zi uchun sevimli sport turi bilan shug'ullanishga bajonidii vaqt ajrata oladi.

Bir faoliyatdan boshqa faoliyatga o'tish, asosiy ishga ijodiy yondashish va sport bilan do'stlashish har bir ishda muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Ijobiy-hissiyotni vujudga kelishiga, bosh miyaning to'adam olishiga olib keladi. A'lochi talabalar boshqa talabalarдан o'zlarining g'ayrati, butun o'quv yili davomida qiladigan mehnatini rejalashtirishlari bilan ajralib turadi. Ya'ni a'lochi talabalar o'z kasbini yaxshi egallagan usta va ishchan bo'lish bilan bir qatorda, ularda o'ziga xos ish uslubi va usuli shakllanadi. Bu esa ularning mehnatini unumli qiladi. Bir me'yorda har kuni bajarilgan ish, onda-sonda zo'riqib qilingan ishdan kora odamni kamroq charchatadi. Mamlakatimizdagi o'quv muassasalarida odad tusiga kirib qolgan 80 daqiqalik dars va bes-daqiqalik tanaffusni mustaqil mashg'ulotlarda ham saqlab qolishi maqsadga muvofiqdir. A'lochi talabalar bo'sh vaqtlarini oqilene taqsimlashni yaxshi bilishadi. Ularning vaqtı jamoat ishlari va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan ham shug'ullanishga yetadi.

Har xil sohada MITK mutaxassislarining asosiy vazifasi o'quv darslarining hozirgi zamon taraqiyoti bilan odam miyasining qabul qilish qobiliyati orasidagi nomutanosiblikni tugatish, talabalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning salomatligini, yuqori ish qobiliyatini saqlashdan iborat. Mutaxassis-o'qituvchilar, psixologlar va fiziologlar o'z fikrlarida, tavsiyalarida quyidagilarni qayd qiladilar: **birinchidan**, oly o'quv muassasalarida talabalar o'qishining dastlabki kunidan boshlab o'zlarining faolligini oshirishlari kerak; **ikkinchidan**, kungartibida o'quv mashg'ulotlari va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ketma-ket almashinib turishi kerak, faoliyat turining almashib turishi, ularni to'g'ri tashkil qilish, miyaning har bir qismining navbatma-navbat dam olishiga imkoniyat yaratadi. Bu es bo'lajak mutaxassislarning har tomonlama rivojlanishiga olib keladi. Odam organizmi rivojlanishining hamma bosqichlarida harakat va o'sish funksiyalarida mushak faoliyati zarur shardir. Odam biologiyasi va fiziologiyasi, mushaklar faoliyatining ahamiyati juda katta, uni hayotning bosh belgisi deb baholaydilar.

Maxsus tadqiqotlarning ko'rsatishicha, past darajadagi jismoniy faoliyk paytida aqliy faoliyatning samaradorligi 50 % kamayadi, bu

paytda biror narsaga diqqatni qaratish keskin kamayib, asabiylashish hollari ko'payadi, tez toliqish hollari ro'y beradi, o'zi bajarayotgan ishga nisbatan qiziqish kamayib, odam badjahal bo'lib qoladi. Demak, harakat-har qanday mushaklar faoliyati uchun, eng muhim miyaning uzoq va barqaror ishlashi uchun zarur shart ekan.

### **Talabalarning ish faoliyatini tiklash va mehnat unumdarligini oshirishning qo'shimcha vositalari**

Bugungi kunda organizmda sodir bo'ladigan tiklanish yuqori toifali sportchilarni tayyorlash tizimining uzviy qismidir, ularni band qilish uchun qulay yo'l topishning ahamiyati ham katta. Doimiy mashq bajarish, musobaqaqlar tiklanish bilan uzviy bog'liq bo'lib, yuqori toifali sportchilar tayyorlashning asosini tashkil etadi. Tiklanish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar faqatgina sport turi, bo'limi, mashq'ulotlarning uslubi va tartibi, shug'ullanuvchining o'ziga xos xususiyatlari (yoshi, sog'ligi, tasnifi, mashq qilish darajasi va h.k.) bilan yaqin aloqada olib borilganda amaliy natija berishi mumkin.

Tiklanish vositalaridan to'g'ri foydalananish ko'proq mashq qilish madaniyati bilan asoslanadi. Zamonaviy murabbiy tiklanish va toliqish jarayonlarini boshqara bilishi, shu sohadagi fanlardan kerakli bilimlarni egallashi kerak (tiklanish vositalari va usullari har bir sportchiga mos bo'lganda mashqlar samara berishi mumkin, jismoniy yuklanish organizmda charchoqni keltirib chiqaruvchi ba'zi bir funksional va tuzilish o'zgarishiga olib keladi. Toliqtirmaydigan mashqlar bo'lmaydi. Tiklanish organizm faoliyatining ish boshlashdan oldindi holatiga qaytish va undan yuqori darajaga ko'tarilishidir. Toliqish va tiklanishning birligi mashqlar fiziologiyasining asosidir. Toliqish, mashqlarning bajarilishiga qarab har xil bo'ladi: *dastlabki* (bevosita vazifadan keyingi kislorod yetishmaslik oqibati), *so'nggi* (ortiqcha anabolizmga olib keluvchi energetik zahiralarning tiklanishi, (asosiy) faoliyati va ish qobiliyatining o'sishi). Bu bilan bog'liq bo'lgan uchta pog'ona: toliqish (funksiya va ish qobiliyatining pasayishi), tiklanish va superkompensatsiya, bu vaqtida organizm katta samarali ish bajara olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Organizmning tiklanish qobiliyatini jadallashtirish mumkin, shuning uchun ham tiklanish tezligi-yuklanishni oldindan belgilab beradigan va mashq bajarish darajasini aniqlab beradigan ko'rsatkichlardan biridir.

Tiklanish vositalari shoshilinch ravishda (mashg'ulotlar orasida doimiy va metabolik jarayonlarga tezda ta'sir ko'rsatish), odatdagidek, har kuni sport faoliyati jarayonida (davom etuvchi) organizmning o'ziga xos bo'lmagan barqarorligini oshirish va qattiq toliqishning oldini olish bo'ladi. Tiklanish vositalari 3 ta asosiy guruhga bo'linadi: **pedagogik, psixologik va tibbiy**.

Pedagogik vosita-yuklanishning va dam olishning oqilona birligi hamda mashg'ulot davrini hisobga olib, tez tiklanishga imkon yaratib beradi.

Tiklanish vositalarini o'z vaqtida qo'llaganda ularning samaradorligini ta'minlovchi quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

a) har tomonlama, ya'ni organizmni asosiy funksional bo'limlari harakat qiluvchi doiraga (sferaga), asabiy jarayonlarga, energiya va modda almashinuviga ferment va immunitet statuslariga har xil vositalarni jami bilan bir vaqtida ta'sir qilish;

b) foydalananadigan vositalarning o'zaro mosligi va birligi ularning kompleks qo'llanishini asosiy shartidir;

v) organizmning tiklanish jarayonlarini tez shakllanishida ba'zi bir tiklash vositalariga bo'lgan sezgirlikda o'z aksini topgan kishiga xususiyatlarini hisobga olish;

g) qo'llanilayotgan farmokologik va boshqa vositalarning foydasi, ham zatarligi, ularda keskin qo'zg'atuvchi, keskin tormoz qiluvchi ta'sirning yo'qligi, qo'shimcha ta'sir qiluvchi metabolik faoliyning yo'qligi to'g'risida to'liq ishonch bo'lishi lozim;

d) tiklanish vositalari sport turiga, mashg'ulotning vazifasi va yo'lliga (etapiga), bajarilayotgan va bajarilishi kerak bo'lgan yuklamalar (nagruckalar) xarakteriga mos bo'lishi;

ye) kuchli ta'sir ko'rsatuvchi tiklanish vositalarini muntazam ishlatalish mumkin emas, chunki ular salbiy natijalarga olib keladi. Organizmning bu vositalar ko'p bo'lsa odamda asta-sekin mashg'ulotlarning samaradorligini kamaytiradi, yuklanishga ko'nikish oqibatida mashq qilish qobiliyatini pasayadi.

Inson organizmining tiklanishga bo'lgan tabiiy qobiliyatining pasayishi oqibatida tiklanishning maxsus vositalarini bekor qilish yoki uzoqqa cho'zish mumkin.

Qo'shimcha ta'sirlarning kuchayishi, bu yerda tiklanishning pedagogik, psiko-pedagogik va gigiena vositalari – sportchilarni

tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, ular har xil yoshdagи sportchilarни tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Inson quyosh, havo, suv, yer, elektr va boshqa tabiiy yoki insон tomonidan tabiatning boshqa turga aylantirilgan sun'iy ne'matlari ahamiyatini allaqachonlar tushunib olib, ulardan davolash va kasallikning oldini olish maqsadida foydalanib kelmoqda.

Tiklanishning dush, vanna, hammom, uqalash (massaj), tibbiy vositalaridan hozirgi zamон sportchilarни foydalanishlari bizga ma'lum. Tabiiy omillardan tashqari ultrabinafsha nuri, kislorod, havo bosimi tasiri, turli xil haroratli issiqlik, elektr va termokameralar ham keng qo'llaniladi. Shubhasiz, sportchining turmushi gigienik sharoitlarga, kun tartibiga, ovqatlanishga bo'lgan gigiena talablariga, fiziologik tamoyilarga asoslanib tashkil qilinishi, muntazam mashg'ulot o'tkazish, sport bilan shug'ullanishda qobiliyatni oshirish va tiklanish uchun muhim shardir, organizm uchun zararsiz bo'lgan qo'shimcha tiklanish vositalaridan foydalanish fiziologik jihatdan ma'qul va mumkin hisoblanadi.

Tiklanish vositalaridan foydalanish vaqtida tayyorgarlik davriga va sportning turiga bog'liq holda ularni tabaqlashtirish (differensiyalash) kerak. Fizik ta'sirning samaradorligi, qo'llanilayotgan omillarning miqdoriga bog'liq. Ta'sir qilish darajasiga qarab hamma fizik omillarni shartli ravishda umumiyligi ta'siri (vanna, dush, hammom, umumiyligi uqalash, ultrabinafsha nurlari), boshlang'ich havo bosimi ta'siri, mahalliy vannalar kabi davolash tadbirlariga bo'lish mumkin.

Biz o'tkazgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, katta yuklama (nagruzka)lardan keyin mashg'ulotlar orasidagi vaqtarda organizmning ayrim qismlariga ta'sir qiluvchi mashqlardan foydalanish kerak.

Fizioterapevtik davolash tadbirlari (muolajalar); tinchlantiruvchi ta'sir (misol uchun ultrabinafsha nuri ta'siri, xvoyli hamda uyg'otuvchi-qo'zg'atuvchi, har xil ta'sir ko'rsatuvchi (kontrast), har xil bosimdagи davolash tadbirlari, qo'zg'atuvchi dush va h. k.). Shuning uchun ham tiklanish samaradorligi ko'pincha sportchining asab tizimiga, toliqish tabiatiga, har bir mo'ayan aniq holda qo'zg'alish va tormozlanish omiliga bog'liqdir.

Vositani tayinlash paytining ham ahamiyati katta, misol uchun: tezda tiklanish uchun davolash muolajasini mashg'ulot va musobaqalardan keyin tezda (15-20 daqiqa) tayinlash samarali bo'ladi, so'ng tiklanish tadbirlarini 4-8 kundan keyin tayinlash kerak.

Darhaqiqat, har bir davolash muolajasi organizm uchun ma'lum darajada qo'shimcha ta'sir bo'lgani sababli uning ta'sir kuchini me'yoridan oshirib yubormaslik katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham uning mosligini hisobga olib haftada 3- 4 marta (Bunga gigienik davolash tadbirlari kirmaydi) dam olishdan oldin 20-40 daqiqa qabut qilish kerak. Asosiy vositalardan uzoq vaqt davomida foydalanilsa, organizmda ularga ko'nikish hosil bo'lib, ular ta'sirining samaradorligi asta-sekin kamayadi, bu esa tayinlangan vositalarning o'rni almashtirishni taqozo etadi. Tiklanish vositalari ichida uqalash (massa), ning o'rni sport amaliyotida ancha katta, undan har xil kasalliliklarga qarshi foydalanish zarurligini o'z davrida Gippokrat ham yozgan edi.

Hozirgi paytda o'z-o'zini uqalash ham zarur, chunki uqalashni xohlovchilarning hammasi ham uqalashni risoladagiday eplayolmaydilar.

Shunday qilib, har kimning salomatligi o'z qo'lida. Salomatlik uchun esa kurashish kerak, baxtli hayot kechirish uchun mehnat qilish kerak. Buning uchun odam o'zini ruhan ishortira olishi zarur.

### **Sinov uchun savollari**

1. O'zbekiston iqlimini qisqacha taysiflang.
2. Sog'lom turmush tarzini siz qanday tushunasiz?
3. To'g'ri ovqatlanish nimaligini tushuntiring.
4. Bioritmlar nima va ular insonning hayot faoliyati bilan o'zaro qanday bog'langan?
5. Salomatlik va bemorlik to'g'risidagi tushunchalarни izohlang.
6. Zararli odatlar: chekish, alkogollı ichimliklarni iste'mol qilish va giyohvandlikning salomatlikka salbiy ta'siri. to'g'risida gapirib bering.
7. Chiniqishning qanday shakl va usullarini bilasiz ?
8. Sog'lom turmush tarzining shakllanishi haqida gapiring.
9. Talabalar turmushi va o'qishining gigiyenik xususiyatlari.
- 10.Jismoniylar yuklanishiarning odam organizmiga ta'siri.
11. O'z-o'zini tarbiyalash va sog'lom turmush tarzi.
12. Vitaminlar to'g'risida nimalarni bilasiz ?

## VII BOB. Odam organizmiga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining ta'siri

### Jismoniy harakat faoliyoti

Talabalarga hos sog'lom turmush tarzining tarkibiy qismini harakat faoliyati tashkil qiladi. O'quv yili davomida talabalarida dars vaqtidagi dinamik harakat faoliyati statik harakat faoliyatiga nisbatan 1:3, o'qishdan (darsdan) Keyingisi 1:8 bo'ladi. Bu esa harakat faoliyatining cheklanganligini ko'rsatadi. Gigiena qoidasiga ko'ra har bir kishinngi harakat faoliyati bir kunda kamida 1,3-1,8 soatni tashkil qilishi kerak.

11-jadvaldagi ko'rsatkichlardan talabalar harakat faoliyatining aqliy faoliyatga ta'siri yaqqol ko'rinish turibdi. To'g'ri va muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan talabalar barcha fanlarni, shug'ullanmaganlarga nisbatan yaxshi o'zlashtiradilar.

### Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ta'sirida talabalarining aqliy ish faoliyati darajasining o'zgarishi

11-jadval

Jismoniy faoliyot darajasi	Bir kundagi harakat faoliyati (ming qadam bilan ifodalanadi)	Jismoniy yuklanishdan so'ng 24 soat o'tgach, aqliy ish qobiliyatini 100% tiklanishi
yuqori o'rtacha qoniqarli	Talaba sportchilar 28-31 18-22 13-16	92,1+1,1 103,2+0,7 99,3+0,3
yuqori o'rtacha qoniqarli	Asosiy o'quv bo'limi talababari 18-23 14-16 8-10	93,1+0,7 102,6+0,6 100,1+0,4

Jismoniy mashg'ulotlar davomida organizmda uning funksional quvvatini, tarmoqlar va ularning o'zaro aloqalarining ma'lum darajada kengayishini, boshqarish mexanizmlarining takomillashishini, kompensator-moslashuv o'zgaruvchanlik chegarasining yuqori ko'tarilishini ta'minlaydigan morfologik va funksional jarayon yuz

beradi. Natijada organizminning oddiy va o'ta chidamliligi uning tashqi muhitdagi xilma-xil zararli omillar ta'siriga qarshilik ko'rsatish qobiliyati ortadi, mashqlarga chidamlilik ham oshib boradi. Bajariladigan jismoniy mashqlar tarmog'i ta'siri ostida kishi organizmida sodir bo'ladijan o'zgarishlar mushak harakatlarining o'ziga xosligiga, mashqlarning me'yori va uslubiga, sog'liq, yosh, jins holatiga, tayyorgarlik natijasiga bog'liq bo'ladi. Ma'lum darajadagi o'zgarish bilan kishi organizmining qarshiligi kuchayadi.

Jismoniy mashqlar bilan doimiy shug'ullanish natijasida mashqlarga bardosh berishning rivojlanish negizi asab faoliyatini va boshqarish mexanizmning takomillashuvidan. Asab hujayralarining o'zgaruvchanligi va qo'zg'aluvchanligi asosida asab jarayonlari va ularning harakatchanlik kuchi yetadi. Shartli reflekslarning paydo bo'lishi va ularning barqarorligi tezlashadi, modda almashinuv faoliyatini ma'lum darajada jadallahadi. Murakkab o'rta tarmoqni boshqarish mexanizmlari mukammallashadi.

Qondagi gemoglobin tarkibi va eritrotsitlar sonining ko'payishi qonda kislorod hajmining oshishiga imkon beradi, limfotsitlar soni o'rtacha ko'tariladi, ishqorliklilik ortadi. Mushaklarda, bosh miyada, yurak mushaklarida energetik moddalar zaxirasi ko'payadi. To'qimalarni kislorod bilan ta'minlaydigan ferment tarmoqlari faoliytni oshiradi. Nafas olish apparatinining ma'lum miqdorda funksional quvvati ortib, qondagi kislorod hajmining ko'payishi jismoniy harakat vaqtida kislorod yutilishining o'sishini ta'minlab, organizmning ishga bo'lgan qobiliyatini ko'tarish imkoniyatini ta'minlaydi. Uglevod zaxiralari ko'payadi, yog' miqdori kamayadi energiyaning sarf bo'lishi bir necha bor past bo'ladi, lekin talabga javob berish uchun yana birdan o'sishi mumkin.

Mashq'ulotlar jarayonida xilma-xil ko'zg'atuvchilarining katta miqdori vujudga kelib sharoit yaratgan analizatorlar funksiyasi takomillashadi.

Talabalarda uchun sog'lom turmush tarzini tashkil qilish – harakat faoliyining tarkibiy qismidir.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, katta jismoniy ish bajarilgach, 24 soatdan so'ng ham aqliy ish qobiliyati oldingi darajada tiklanmas ekan, o'rtacha me'yordagidan keyin esa aqliy ish qobiliyati tiklanishi oldingidan ham yaxshi (100 % olingan) me'yorda bajarilganda oldingiga yaqin holatda tiklanadi.

Organizmdagi o'zgarish ifodasi, asosan, analizator faoliyatida sodir bo'ladi, propioresepsiyalarning mushaklarda takomillashuvni mushaklarda bir me'yorda hosil bo'lgan sezuvchanlikning kuchayishi harakat natijasida bajarilishining aniqligi va ravonligi ortadi. Vestibulyar barqarorlik o'sadi, vestibulyar apparatning qo'zg'alishi bilan bog'liq faoliyat va maxsus sinovdagi vegetativ harakatlar va harakat darajasi pasayadi. Ko'rish analizatori faoliyatining takomillashuvni ko'rish maydonining kengayishida, ko'z harakati apparatinig o'sishi, yorug'likni sezish, ko'rish asabining o'zgaruvchanligi va qo'zg'aluvchanligining ko'tarilishida hosil bo'ladi.

Suyak to'qimasining gipertrofiysi – paysimon suyak defuziyasining ko'ndalang o'sishi, qobiq qatlamining yo'g'onlashuvida yuz beradi. Suyak apparatining gipertrofiysi katta jismoniy mashqlar bajarilishi uchun juda muhim bo'lib, suyak mexanik mustahkamligining o'sishiga imkoniyat yaratadi.

Mushak gipertrofiyaga duch kelib, uning vazni va hajmi o'sayotganda birinchi navbatda, oqsillar tuzilishi o'zgarib, miqdori ortadi, mushaklarning qon bilan ta'minlanishi kuchayadi.

Sezilarli darajada kapillyarlar kengayadi, morfologik tadqiqotlarga hayvonlarda o'tkazilgan tajribalarga muvofiq ularning soni 40–50 % ko'tariladi. Quvvat potensiallari zaxirasi sezilarli darajada o'sadi. Biokimyoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ATF resipitezasi va mushaklar ishlashidagi glikogen ko'tarilishiga mos keladigan mioglobin, miazin, kreatinfosfatlar soni sezilarli darajada o'sadi va kaliy tarkibiga kiruvchi bir necha moddalar: temir, natriy, kalsiy, magniy ko'payadi. Mushaklar jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmagan kishi uchun tana og'irligining 35–40 foizini, ba'zan 50 foiz va undan ko'proq qismini tashkil etadi.

Suyak, mushak tarmoqlarining o'zgarishi jismoniy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari yaxshilanganidan darak beradi. Bo'g'inlar va umurtqa pog'onadagi harakatchanlikning oshishi kishining tashqi qiyofasining va qomatining takomillashishidan dalolat beradi. Organizmdagi ortiqcha, yog' va suvlarning yo'qolishi natijasida tananing solishtirma og'irligi oshadi. Mashg'ulotlarning boshida tana vazni kamayadi, keyinchalik oldingi holatiga keladi. Ayrim hollarda bo'yning o'sishi va tananing shakllanishi tugallanmagan bo'lsa, mushaklarning o'sishi hisobiga tana vazni ortadi. Shu bilan birga mushaklarning gipertrofiyanishi va energetik resurslarining ko'payishi

natijasida mushaklarning funksional holati yaxshilanadi. Mushaklarning zo'riqishi va bo'shashish qobiliyatları ortadi, amplitudasi oshadi, mushak kuchi o'sadi, mushak totalarining qo'zg'aluvchanligi takomillashadi.

Nafas olish va chiqarish apparatida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Nafas olish mushaklari rivojlanadi, o'pkaning nafas olish sig'imi kattalashadi, ko'krak qafasi harakatchan bo'ladi. O'pkaning sig'imi ayollarda 4-5l, erkaklarda 5-7 litrga yetib, lozim bo'lgan miqdordan 15-20 %ga oshadi. O'pkaning daqiqaviy maksimal ventilyatsiyasi (almashimuvii) 100-200 litrga yetadi, sport bilan shug'ullanmaydiganlarda esa u 60-120 litrni tashkil etadi. Nafas olishning daqiqaviy hajmi 4-10 litrgacha oshadi. Nafas olish kamayadi (1 daqiqada 10-16ta nafas harakatlari,ayrim holda 6-20ta) va chuqurlashadi (0,7-11, sport bilan shug'ullanmaganlarda 0,3-0,5lni tashkil qiladi), nafas chiqarish cho'ziladi (6-3s, sport bilan shug'ullanmaganlarda 1,8-2 s). Maksimal kislorod iste'mol qilish qobiliyati o'sadi.

### **Yurak faoliyati**

Odam yuragi to'rt kamerali bo'lib, ikki bo'lma va ikki qorinchadan iborat. Sog'lom odamda (ayollarda 200-300 gr) (erkaklarda 250-350 gr.) vaznni 0,4-0,5 %ni tashkil qiladi. Sport bilan shug'ullanganlarda 500 gr va undan ortiq bo'ladi. Sog'lom kishida bir daqiqada yurak urishi o'rtacha 70 marta (60-92 m), sport bilan muntazam shug'ullanganlarda 33-60 martagacha. Musobaqalarda yurakning bir daqiqada 250 martagacha urishi nazorat qilingan. Yurak urishining davri:

**1 yoshgacha 100-140ta;**

**10 yoshliklarda 90ta;**

**20 yosh va kattalarda 60-80ta;**

**va qariyalarda 80-90tagacha bo'ladi.**

Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanganlarda yurak urishi yaxshilanadi, tinch hollarda yurak qisqarish soni 42-60 ta, ayrim hollarda 36-42 tagacha kamayadi, yurakning qisqarish kuchi oshadi. Sport bilan shug'ullangan odamlar yuraginiq daqiqalik hajmi ko'pincha 3,5-6 litrni tashkil qiladi.

Yurak qisqarishining sekinlashuviga sabab odam organizmida sodir bo'ladigan funksional o'zgarishlar, adashgan asab tonusining oshishi va uning avtomatizm funksiyalariga ta'siri natijasida qon-

aylanishning sekinlashishi, diastolalik cho'zilishi, kislorod utilizatsiyasining yaxshilanishi, miokarddag'i biokimyoviy va bioenergetik oqimlar jarayonlari bilan bog'liq.

Sistolik hajmning oshishi va yurak qisqarishining kuchli bo'lishi yurak mushaklarining gipertrofiyalanishi (hajmining kattalanishi) va yurak bir marta qisqarganda o'zidan chiqarib tashlaydigan qoldiq va qon hajmining ko'payishi bilan asoslanadi. Yurakning bunday diastolası uzun bo'ladi, qon haydash vazifasining qisqarishi sababli sistola ham biroz qisqaradi.

Yurak mushaklarining gipertrofiyalanishi, ayniqsa yurakning tovushi kengayishi natijasida uning hajmi ko'pincha kattalashadi, bu organizm katta jismoniy zo'riqishga fiziologik moslashganligidan dalolat beradi. Lekin ko'p hollarda sportchining yuragi kengaymasa ham yurak mushaklarining gipertrofiya elementlari mavjud bo'ladi. Yuqori malakali sportchilarda o'tkazilgan rengenologik tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, faqat 4,9–7 % hollardagina sportchilar yuragida gipertrofiya beigilari yoki tovush kengayishi bo'lmaydi (sport turiga qarab). Anatomik tekshirishlar hamma sportchilar yuragini vaznini oshishini va ikkala qorincha devorlarining yo'g'onlashganligini ko'rsatadi.

30 yoshgacha bo'lgan sog'lom odam yuragini o'rttacha og'irligi 270 g. Sport bilan shug'ullanган odamlarda yurakning vazni 300 – 500 g gacha yetadi. Sportchilar yuragini kattalashishiga qaramay (1100 – 1200 sm), uning vazni hech vaqt 500 g dan oshmagan.

Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha (A. Markosyan), sport bilan shug'ullananganlarda yurakning kattalashishi, uning bo'laklarining bir xil o'sishi tufayli bo'ladi. Sport bilan shug'ullanangan odamlar yuragini kattalashishiga yurak mushagining gipertrofiyalanishi va bo'shlqlarning kengayishi sabab bo'ladi. Gipertrofiyalanish va kengayish darajasi ayrim hollarda turlicha bo'lishi mumkin, lekin bunda yurak mushaklarining vazni va hajmi orasidagi mo'tanosiblik saqlanib qoladi.

Ingliz olimlari yurak hajmi va uning jismoniy ish bajarish qobiliyatini orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlagan. Sport bilan shug'ullanuvchilarning yuragi kengayganda jismoniy ish bajarish qobiliyatiningyuqori bo'lishi, qisqarish qobiliyatining yaxshi bo'lishini olimlar ko'p yillik tekshirishlarda kuzatganlar.

Kengaygan «sportchi» yurakning ritmi sekinligi sinxron va izometrik qisqarish hisobiga zo'riqishdan uning cho'zilishi,

qorinchalarining tez to'lishi, qisqarish tezligining kamayishi, qorincha ichidagi bosimning ortishi, qon haydash davrining davom etish vaqt: kamayishi bilan ifodalananadi.

### **Shifokor nazoratining maqsadi, vazifasi va shakllari**

O'zbekiston oliy o'quv muassasalarining talabalariga jismoniy tarbiya berishda ularni tibbiyat xizmati bilan ta'minlash tizimi mavjud. Bu tizim har bir talabani eng qulay sharoitda jismonan tarbiyalashga va axloqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Tibbiyt pedagogik kuzatish-jismoniy tarbiya mashg'uloti paytida shifokor o'qituvchi, murabbiy bilan hamkorlikda talabalar nazorat qilinadi. "Mashg'ulotlar olib borishning sharoitlari qanday?", "Xavfsizlik qoidalariga rioya qilinganmi?", "Tozalik-gigiyena me'yori talablarga javob beradimi?"— degan savollarga javob berish kerak.

"Mashg'ulotlar olib borish sharoiti" deganda talabaning jismoniy tayyorgarligining zo'riqish darajasi va uning jadalligi nazarda tutiladi. Bu esa shikastlanishning oldini oladi. Talabalar tomonidan kiyim va poyabzallarning toza tutish, gigiyenik qoidalarining bajarilishi o'z-o'zini nazorat qilish kundaligini tutish, sport o'yinlari va mashg'ulotlari o'tkaziladigan joylarning sharoiti va shu joylarning tozalik-gigiyena nazorati ishlari tozalik-epidemiologiya bo'lim xodimlari, jismoniy tarbiya-davolash dispanserlari shifokorlari, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tomonidan olib boriladi. Sport inshootlari tozaligiga, gigiyena qoidasi va me'yoriga rioya qilinadi uskuna va jithoziarning holatini, sport bilan shug'ullanuvchilarning kiyimni va poyabzalining tozaligi tekshiriladi. Bunda jismoniy mashqlarning turiga, mashg'ulotlar o'tkazish sharoitiga e'tibor beriladi. Yopiq sport inshootlari uchun (zal, manej, suzish basseyni) kiyim yechadigan va kiyinadigan xonalar, sportchilar uchun xizmat xonalari aniq bir qatorda ketma-ket turishiga rioya qilinishi shart. Binoning ichki qismi ho'il lattalar bilan tez-tez artib turilishi lozim. Issiqlik beradigan radiatorlar himoya taxtachalari bilan berkitilgan bo'lishi lozim. Eshiklar yaxshi yopiladigan bo'lishi kerak.

Mikroiqlim harorati: 15°S, nisbiy namligi 50–60 %, havo harakati tezligi 0,5 m/s dan oshmasligi kerak, stol tenmisi va kurash zallarida 0,25 m/s dan, yuvinadigan, yechinadigan va uqalash xonalarida 0,15 m/s, bir tomoshabin uchun havo almashinish 80 m/s.

Ochiq sport inshootlari uchun ko‘zda to‘tilgan gigienik talablar (yuqori sifatli qoplamlar, to‘shamalar, tekislik, mexanik ta’sir va ob-havoga chidamlilik), ichish uchun suv jo‘mraklarnilari borligi, hojatxonalarda yoritish tarmoqlarini oldindan tekshirib qo‘yish kerak.

Shifokor nazoratining oliv o‘quv muassasidagi asosiy maqsadi har bir talabaning jismoniy holatini hisobga olib, unga yordam ko‘rsatishdan iborat. Buni amalga oshirish uchun har bir talabaning sog‘ligi, uning har tomonlama jismoniy tayyorgarlik holati, jismoniy rivojlanishi o‘rganiladi. Har bir organizmning ma’lum holda va ketma-ketligidagi mashqlarga qarshi o‘zgaruvchanligi nazorat qilinadi.

Shifokor nazoratining aniq vazifasi: talabalar organizmini mustahkamlash va har bir talaba uchun jismoniy mashqlar hajmi va ketma-ketligini aniqlashdan iborat.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi talabalarga tibbiyot xizmati maxsus shifokor tomonidan jismoniy tarbiya dispanseri va tibbiyot xonalariда ko‘rsatiladi;

O‘quv muassasalarida shifokor nazorati maqsad va vazifalariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

- talabalarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi;
- pedagog-shifokor kuzatuvi;
- jismoniy tarbiya va ommaviy jismoniy tarbiya-sport tadbirlarida tibbiy xizmat ko‘rsatish;
- sport shikastlanishi va kasalligining oldining olinishi;
- mashg‘ulot va musobaqlar o‘tkazish joyining tozalik – gigienik sharoitining nazorat qilinishi;
- jismoniy tarbiya va sport targ‘iboti, tozalik hamda gigienik ishlari.

### Talabalarni tibbiy tekshirishdan o‘tkazish

Doimiy tibbiy tekshirish – talabalarni jismonan tarbiyalashda shifokor nazoratining asosiy shaklidir. Ular 3 turda bo‘ladi: **dastlabki, takroriy va qo‘srimcha nazoratlar**.

Hamma talabalar tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart. Tibbiy tekshirishlar ovqatlanishdan 1,5 soat keyin, jismoniy mashg‘ulotlardan 2 soat keyin amalga oshirilishi lozim.

Talabalar dastlabki tibbiy ko‘rikdan 1-kursda o‘tkaziladi. Ko‘rik alohida tartib asosida o‘tkaziladi. Unda umumiyo ko‘rsatkichlari, ilgari chalingan kasalliklari, (shikastlanishlar, operatsiyalar va botkin kasalliklari), zararli odatlari, yashash sharoiti qayd qilinadi.

Ertalabki mashqlarning doimiy bajarilishiga, sport to'garaklariga, sport musobaqalarida qatnashganlikka alohida e'tibor beriladi.

Sport bilan shug'ullanuvchilarining mashg'ulot o'tkazishda jismoniy yuklanishi va mashg'ulolardan keyingi holati o'r ganiladi.

Keyin tashqi tekshiruv o'tkazish; tanani uning a'zolarining o'lchamlari, organizmning asosiy fiziologik tarmog'i (asab, yurak-tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish, tayanch harakat apparatlari) tekshiriladi. Dastlabki kuzatishning oxirgi bosqichida yurak-tomir, nafas olish va asab tarmog'ining faol holati jismoniy yuklanish yo'lli bilan aniqlanadi V.Litunov tajribasi (joyida 10 sek. yugurish, 20 marta o'tirib turish, 3 daqiqa yugurish) bajariladi.

Talaba dastlabki tibbiy ko'rikning natijalariga ko'ra, 3 ta o'quv guruhidan (asosiy, sport, tayyorlov va maxsus tibbiy A,B) biriga kiritiladi.

Takroriy tibbiy ko'rik talabaning sog'ligiga va sport malakasiga qarab o'tkaziladi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan o'quv dasturi bo'yicha shug'ullanayotgan talabalar (asosiy guruh) bir yilda 1 marta, maxsus guruhdagilar semestrda 1 marta sportchi talabalar bir yilda 2-3 marta tekshiruvdan o'tadi (har bir musobaqadan oldin).

Takroriy tibbiy ko'rik natijalari talaba organizmning jismoniy tarbiya va sport mashqlari ta'sirida uning rivojlanishini ko'rsatadi. Shu ko'rsatkichlarga muvofiq o'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil qilinganligi va mashg'ulotlardan olingen natija aniqlanib, baholanadi, zarur bo'lgan holda o'qitish uslubiga va mashqlar hajmiga o'zgartirishlar kiritiladi. Agar talabaning sog'liq holatini istagan vaqtida aniqlash zarur bo'lsa, u tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Bu ko'rik har bir musobaqadan oldin talabada kasallik alomatlari paydo bo'lishi bilan, shuningdek kutilmagan baxtsiz hodisalar sezilganda o'tkazilishi zarur. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining (yoki murabbiylar) yo'llanmasi bilan ham qo'shimcha ko'rikdan o'tkazish mumkin. Qo'shimcha ko'rikdan o'tish muddati musobaqa o'tkaziladigan sport turiga bog'liq: bokschi va kurashchilar musobaqa o'tkaziladigan kuni, marafonchilar, velosipedchilar bir kun oldin, sport o'yini ishtirokchilar, o'yin boshlanishidan oldin qo'shimcha ko'rikdan o'tadilar. Dispanser kuzatuvi shifokor nazoratining murakkab turidir. U maxsus tibbiy muassasalarda o'tkaziladi. Bunday joylarda sog'liqni saqlash,

kasalliklarning oldini olish tadbirdari ham o'tkaziladi. Sog'liq-salomatligida katta o'zgarish sezilgan sportchi-talabalar malakali shifokor nazoratida dispanserda kuzatuvdan o'tkaziladi. Yuqori malakali sportchilar (sport ustalari) viloyat, respublika dispanseri ko'rígiga yuboriladi.

### **Jismoniy rivojlanishni baholash**

Insonning jismoniy rivojlanishi organizmning tashqi tuzilishida ko'rindi. 1-kurs talabalari jismoniy jihatdan har xil rivojlangan bo'ladi.

Talabalarning jismoniy rivojlanishini takroriy baholash uchun dastlabki tibbiy ko'rik o'tkaziladi. Takroriy tibbiy tekshiruvlar talabaning har tomonlama (jismoniy) rivojlanishini aniqlab olish uchun o'tkaziladi.

Jismoniy rivojlanishni baholashning asosiy uslubi tashqi ko'rik va odam tanasi va a'zolarini o'lchashdir. Tashqi ko'rik bo'yicha: 1) organizm asosiy to'qimalarining rivojlanish darajasi; 2) ayrim a'zolar shakli; 3) murakkab badamtarbiya turlari aniqlanadi. Odam tanasi va a'zolarini antropometriya yordamida o'lchash bo'yicha: 1) tana va uning alohida bo'limlari hajmini; 2) talabaning yoshi va jinsiga qarab jismoniy rivojlanish darajasi; 3) organizm fiziologik tarmoqlarining asosiy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### **Tashqi kuzatish**

Tashqi kuzatishlarda asosan inson terisi holati, suyak skeleti, mushakka va yog' qatlami o'lchab baholanadi.

Sog'liq odam terisi tekis, toza va muloyim bo'ladi. Insondagi mushaklar rivojlanishi 3 xil – ya'ni yaxshi, o'rtacha, salbiy rivojlanishda bo'ladi. Yaxshi rivojlangan mushaklar hajmi muloyimligi va relefining ochiq namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Mushaklarning zaif shakllanishi relefslarga ega bo'imasligi, teri muloyimligining buzilishi bilan izohlanadi.

Gavdada yog' to'planishi darajasi teriosti yog' qatlamiga qarab "oz", "o'rtacha", "ko'p" deb ajratiladi.

Yog' qatlami oz bo'lgan kishilarning bel, yelka suyagining relesi ochiq namoyon bo'lmaydi, qovurg'asi chiqqan bo'lmaydi.

Yog' qatlami qalin rivojlangan kishilarni badani doira kontur shaklida bo'lib, qoringa va uning atroflarida yog' to'plangan bo'ladi.

To‘qima rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichi organizmning ba’zi bo‘laklari (ko‘krak qafasi, gavda tuzilishi, qorin, oyoq va kaft)ning shakllariga qarab baholanadi.

Odam gavdasining orqa qismi, belini shakli, umurtqa pog‘onasining fiziologik bukilganligiga bog‘liq. Odam umurtqasi 5 qismga bo‘linadi: bo‘yin, ko‘krak, bel, dumg‘aza va dum. Bo‘yin va be‘ qismlarida umurtqa pog‘onasi oldinga bukilgan (lordoz), ko‘krak va dumg‘aza qismlarida esa orqaga bukilgan (kifoz). Agar odamning umurtqa pog‘onasi shunday tuzilgan bo‘lsa, yurganda va yugurganda, shu umurtka pog‘onasiga tushadigan og‘irliq kamayadi va zARBalarni yumshatadi. Umurtqa pog‘onasidagi bukilishlar 4 sm dan oshmasa (vertikal o‘qqa nisbatan), odamning orqasi to‘g‘ri hisoblanadi. Orqa yassi bo‘lsa, bu umurtqa pog‘onasidagi fiziologik bukilishlarning silliqligidan dalolat beradi. Natijada ko‘krak qafasi oldinga chiqib, qorin ichkariga kirib ketadi. Agar ko‘krak qafasi qismida kifoz 4 sm dan ortiq bo‘lsa, orqa aylanma shaklda bo‘ladi. Bunda ko‘krak qafasi ichkariga kirgan, yelkalar oldinga chiqib pasaygan, ko‘kraklar esa ko‘krak qafasidan orqada qolgan holda bo‘ladi.

Umurtqa pog‘onasida ko‘krak qafasining orqaga bukilib (kifoz) va bel qismining oldinga bukilishi (lordoz) natijasida orqa egar shaklida ko‘rinadi.

Ayrim hollarda umurtqa pog‘onasining shakli buzilib, u yonga bukilishi mumkin. Masalan, umurtqa pog‘onasi tez o‘sayotgan bolalar 5-15 yoshlarida mushak-bo‘g‘im apparatining bo‘shashishiga qaramay, noto‘g‘ri holatda uzoq vaqt bir xil jismoniy ish bajarishi natijasida umurtka pog‘onasi yonga bukiladi. Ular “skolioz” deb ataladi, turli xil ko‘rinishda bo‘ladi (chap tomonlama, o‘ng tomonlama, lotin harfidagi S shaklida, ko‘krakda va belda). Skolioz qaddi-qomatga, yurish-turishga va yurak, o‘pkaning ish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qorin mushaklarining jismoniy chiniqqanligiga, yog‘ qatlamlari va ichki organlarning hajmiga qarab qorinning shakli o‘zgaradi. Me'yordagi qorinning shakli, mushaklari va yog‘ qatlamlari o‘rtacha bo‘lib, qorin devorlari ko‘krak qafasining ostki chegarasidan o‘tuvchi vertikal o‘qdan chiqmagan bo‘ladi. Qorin mushaklari bo‘sh bo‘lib, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vertikal o‘tgan bo‘lsa, qorin osilib qoladi. Natijada qorin hajmi kattalashadi va ayrim ichki organlarning oshqozon, ichaklarning joylashishi o‘zgarib, ularning faoliyati buzilishi mumkin. Muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan

shug'ullanuvchilarning qorni ixcham, qorin mo'shamgi rivojlangan va yog' qatlamlari kam bo'ladi.

Oyoqlarning shakli son va boldirning ko'ndalang o'qi hamda tizza va tovon bo'g'irlarining ichki yuzasining munosabatiga bog'liq bo'lib, odam tik turganda aniqlanadi. To'g'ri shaklli oyoqlarda son va boldirning o'qlari mos keladi, bo'g'im o'qlarining ichki yuzasi bir-biriga tegib turadi. «O» shaklidagi oyoqlarning faqat tovon bo'g'implari bir-biriga tegib turadi, tizza bo'g'implari esa bir-biridan qochib turadi. Son va boldir o'qlari ichkariga ochilgan burchak hosil qiladi. «X» shaklidagi oyoqlarda buning teskarisi bo'lib, tizza bo'g'implari bir-biriga tegib, tovon bo'g'implarining orasi ochiq bo'ladi. Oyoqning bu shakli yurish va yugurishda tana harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oyoq kaftining shakli uning ko'ndalang va egrilik holatiga bog'liq. Bu egriliklar bir-biri bilan bog'langan kaft suyaklaridan tashkil topgan bo'ladi. Jismonan yaxshi rivojlangan kishilarda kaft harakat-tayanch apparati ham yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ularning kafti to'g'ri bo'lib, ko'ndalang yoki egriliklari ko'zga tashlanib turadi.

Yassiyoqning ko'ndalang va egriliklari, balandligi kichik bo'lib, harakat-tayanch, mushak apparati juda sust bo'lgan kishilarda uchraydi. Bunda oyoq kafti qismi orasidagi chegara ko'rinnmaydi.

Oyoq kafti – odam turganda va harakatlanganda tayanch a'zosini hisoblanadi. Oyoq kaftining egriligi ressor funksiyasini bajaradi. Ko'ndalang va egrilik yaxshi rivojlangan bo'lsa, ressor vazifasini to'liq bajara oladi.

Agar bu egrilikning balandligi kichrayib ketsa, oyoq kafti tayanchiga hamma qismi bilan tegib turadi. Shuning uchun ko'p yurganda boldir mushaklarida toliqish va og'riq paydo bo'ladi. Undan tashqari, yurganda, yugurganda va sakraganda ichki a'zolar, bosh va orqa miyaning tebranish amplitudasi ortadi. Ko'z bilan tekshirish (tashqinazorat)ning asosiy vazifasi odam tanasining tuzilishini aniqlashdan iborat. Odam tanasining tuzilishi morfologik, fiziologik va psixologik atomatlarda namoyon bo'ladi. Tibbiy amaliyotda V.Chernoruskiyning tasnifi qo'llaniladi. Ular uch turga bo'linadi: **normastinik, astepik va giperstepik**.

Odamning tuzilishi tanasining uzunligiga va enining mutanosibligiga, suyak va mushaklarning qanday rivojlanganligiga bog'liq.

**Normastinik** turdag'i odam tanasining tuzilishi, tananing uzunlik va ko'ndalang o'lchamlari va qismlarining bir-biriga to'g'ri kelishi, tananing asosiy a'zolari: suyak, mushak va yog'ning me'yorida bo'lishiga aytildi. **Astepik** turdag'i odamlarda tananing uzunligi eniga nisbatan ancha uzunroq va a'zolari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. **Giperstepik** turdag'i odamlar tanasining eni bo'yiga nisbatan uzoq bo'lib, suyak va mushak tolalari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Tananing tuzilishi va fiziologik funksiyalari orasidagi bog'liqlikni hamda odamning xulqi va kasaliklarini aniqlash maqsadida odam tanasining tuzilishi va uning mijozni aniqlanadi.

### Antropometriya

Antropometriya – odam tanasini maxsus asboblar bilan o'lchashdir. Bu o'lchovlarda quyidagi asosiy antropometrik ko'rsatkichlar aniqlanadi: tananing uzunligi va vazni, ko'krak qafasining doirasi uzunligi, o'pkaning havo sig'imi, qo'l mushaklarining kuchi, jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan organizmning o'sishi va shakllanishi hamda hayotiy faoliyatining o'ziga xosligi.

O'quv muassasalarida tibbiy nazorat jarayonida har bir talabaning sog'ligini nazorat qilish maqsadida «jismoniy rivojlanish» atamasi qo'llaniladi. Biroq katta yoshdag'i odamlar uchun «jismoniy rivojlanish» tushunchasi rivojlanish mezoni bo'laolmaydi, balki ayni paytda organizmning mustahkam va jismoniy kuch zaxirasining mezoni bo'lib xizmat qiladi. Bunda «jismoniy adolat» atamasini ishlatish to'g'riroq hisoblanadi. Chunki jismoniy sifatlar (kuch, chidamlilik, egiuvchanslik, chaqqonslik, tezkorslik va abjirslig) va jismoniy tayyorgarlikni o'rGANISH maqsadida antropometriya hajmi kengaytiriladi.

Antropometriya yordamida olingan me'yorlar bir yoki bir necha uslublar yordamida jismoniy rivojlanishni baholash maqsadida qo'llaniladi. Ular standart va korrelyatsiya uslublaridir (12-jadvalga qarang).

**18 yoshli o'smirlariig jismoniy rivojlanishini antropometrik standartlar usuli bilan aniqlash**

Antropometrik alomat	Alomatning xususiy belgisi	Standart alomatning qiymati	X-M	Rivojlanish belgisini baholash
1.Tik to'rgan holatdagi gavdaning uzunligi	182sm	173,3-5,5sm	1,56	Yuqori
2.Tananing vazni.	65kg	66,08-7,32sm	0,14	O'rtacha
3.Ko'krak qafasining ulchami.	84sm	89,5 -4,46sm	-1,2	Past
4.O'pkaning havo sig'imi.	4600ml	4522—660	-0,02	O'rtacha
5.O'ng qo'l kuchi.	52kg	48,01-5,97kg	-0,67	O'rtachadan Past
6.Kuchlanish kuchi	100kg	112,8-19,3kg	-0,66	O'rtachadan past

Organizm funksional tarmoqlarining holati (nafas olish, yurak-tomirining urishi, moddalar almashinushi, markaziy asab tarmog'i) nafas olishni tekshirish yordamida aniqlanadi. Quyidagi tajribalar bunga misol bo'ladı.

**Shtange tajribasi:** talaba o'tirgan holatda 5 daqiqa dam oladi, keyin chuqur nafas olib, nafas chiqaradi, nafasni to'xtatadi va yana nafas oladi (80–90 % maksimal me'yordan), nafasni ushlab turiladi, nafas ushlab turish 30–50 daqiqani tashkil qiladi (shug'ullanadigan sportchilarda esa 60–150 daqiqa).

**Genchi tajribasi:** talaba to'la nafas chiqarib, nafas olgandan so'ng, yana chuqur nafas chiqarib va nafas olmay, nafas olishdan o'zini ushlab turadi. Me'yorda (nafas chiqarish) sog'lom, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmaydiganlar uchun nafasni ushlab turish vaqt 20 – 30 daqiqa, nafas olishni ushlab turish organizm kislorodga to'yinmaganda qarshilik qobiliyatiga va anaerob mahsuldarlik qay darajada ekaniga

bog'liq. Shuningdek, nafas olishni uzoq ushlab turish irodani o'stirishga yordam beradi.

Fiziologik o'zgarishning (reaksiya) jismoniy zo'riqishga ta'siri aniqlash uchun standart testlardan foydalaniladi. Yuqori darajali jismoniy kuchlanishda bir jismoniy ishni aniq belgilangan tartibda yuqori darajali jismoniy kuchlanishda (statik, dinamik, aralash) bajarish qobiliyatiga **jismoniy ish qobiliyati** deyiladi.

Jismoniy ish qobiliyati odam organizmi faoliyatining ko'rsatkichidir. U harakat faoliyatining hamma tarmog'ini boshqarishga qatnashadigan faoliikkha bog'liq.

Shifokor nazorati tajribasidan ma'lumki, jismoniy ishlari yurakning qisqarish tezligi bilan moslashtiriladi. Jismoniy ishning kattakichikligi aerob rejimida ishlab chiqarishning energiya almashinuvida muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

**Garvard step-testi:** qizilar uchun 45 sm, yigitlar uchun 50 sm balandlikdagi zinapoyaga talaba chiqib tushadi. Chiqib tushish tezligi metronom (1 daqiqada 30 davr) bilan o'chanadi. Har bir davr 4 qadamdan iborat. Bajariladigan ish vaqtini yigitlar uchun 5 daqiqa, qizilar uchun 4 daqiqa. Ish bajarish tugagandan so'ng talaba stulda o'tirib pulsini hisoblaydi (birinchi X-O daqiqa) 2-, 3-, 4-daqiqada tiklanish.

Garvard step-testi ushbu formula bilan hisoblanadi:

x100

chiqib tushish vaqtini (s)

GSTI  $G_2 + G_3 + G_4/h$  2G<sub>2</sub>, G<sub>3</sub>, G<sub>4</sub> – 30 s. Puls

Ushbu mezon bilan jismoniy tayyorgarlik baholanadi.

13-jadval

#### Garvard step-testi me'zonlari

Garvard step-testining indeksi	Jismoniy tayyorgarlikni baholash
kam	zaif
55-64	o'rtachadan past
65-79	o'rta
80-89	yaxshi
Ko'p 80-	a'lo

Misol: 18 yoshli o'smir 5 daqiqa davomida 50 sm balandlikdagi zinapoyaga chiqib-tushdi. Pulsni sanaganda:  $300 \times 100$  = 91

$$G_2=60, G_3=55, G_4=50 \text{ urgan. GSTI} = (60+55+50) \times 2$$

Ko'rsatib o'tilgan mezonga asosan bu talaba o'z yoshiga munosib jismoniy tayyorgarlikka ega. Garvard step-test mezoni 13-jadvalda keltirilgan.

Agar Garvard step-testini bajarganda talabada toliqish alomatlari paydo bo'lsa, test bajarilishi to'xtatilib, ish bajarilgan vaqt daqiqada hisobga olinib, GSTI ko'rsatilgan formula bo'yicha hisoblanadi.

### Sportda shikastlanish va kasalliklar oldini olish

Sportda shikastlanishlar (travmatizm)ning bir nechta sabablari bo'ladi: talabalar jismoniy tayyorgarligining pastligi; sog'iom holatinig buzilishi; intizomsizligi, mashqlarni bajarishda ma'suliyatsizlik; mashg'ulotlarning yetarli sport jihozлari bilan ta'minlanmagaligi; mashg'ulotlarni tashkil qilishda va o'tkazishda uslubiy xatolar; ob-havo sharoitlari.

Sportda shikastlanishning oldini olish uchun ushbu qonun-qoidalarga e'tibor berish kerak:

1) jismoniy tarbiya mashg'ulotida talaba o'z gavdasining holatini nazorat qila bilishi, xavfli harakatda, turg'un holda o'zini saqlay olishi zarur;

2) talaba o'z xavfsizligini ta'minlash usulini va o'z-o'zining xavfsizligini ta'minlashni bilib olishi kerak;

3) qo'l va oyoq bo'g'imlarini mustahkamlaydigan maxsus mashg'ulotlarni doimiy ravishda bajarishda lozim;

4) kiyim-kechak va oyoq kiyimlari, sport jihozлari sanitар (tozalik), gigiyena talabiga va me'yoriga javob berishi kerak;

5) himoya uskunalaridan foydalana bilishi lozim;

6) yilning, yoz va qish fasllarida shaxsiy gigiyena talabalariga qat'iy rivoja qilishi kerak;

7) suvda o'tkaziladigan mashg'ulotlar asosan talabalar guruhi bilan, maxsus ajratilgan joyda o'tkazilishi kerak.

Jismoniy tarbiya-sport ommaviy tadbirlarida tibbiyot xodimlarining xizmatidan foydalananish. Bu tadbirlarni olib borishda kasalliklarning oldini olish va davolash idoralarining tibbiyot xodimlari ishtirok etishlari kerak. Shifokor xodimlar hakamlar hay'atining a'zosi hisoblanadi. Shifokor bosz hakamning tibbiyot bo'yicha muovini

bo'ladi. U sportchilarning musobaqaga qatnashishiga ruxsat beradi yoki chetlatadi. Musobaqa va mashg'ulot o'tadigan joyni tozalik va gigiyena talablariga javob berishini nazorat qiladi, shikastlanishning oldini olishni nazorat qiladi. Sog'iomlashtirish sport oromgohlarida talabalarning sog'ligini, jismoniy tayyorgarligini va unga taalluqli bo'lgan barcha ishlarni nazorat qiladi.

### **Jismoniy tarbiya jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish**

Talaba o'z sog'ligini va jismoniy mashqlarning o'ziga ta'siri ni intensiv kuzatib borishiga "o'z-o'zini nazorat qilish" deyiladi. Talabaning jismoniy rivojlanishini takomillashtirish, uning jismoniy ishl qobiliyatini va aqliy qobiliyatini ongli ravishda oshirish – tarbiyalashning asosiy sharti. Maxsus uslub va ko'nikmalar yordamida o'z-o'zini nazorat ("Jismoniy tarbiyaning ilmiy-tabiyy asoslari") qilish, jismoniy tarbiya fanining nazariy bilimlari asosida olib boriladi.

Talaba o'ziga xos ma'lumotlarni va ob'ektiv ko'rsatkichlarni, organizmning asosiy fiziologik tarmog'inining faoliyatini o'rganadi. Sog'liqning muhim alomati talabaning kayfiyatini, hol-ahvolini, uyqusining sifatining, o'zgarish xususiyatiga xizmat qiladi va toliqishning boshlang'ich bosqichi (aqliy yoki jismoniy) ushbu alomatlarning o'zgarishiga olib keladi.

Ob'ektiv ko'rsatkichlar jarayoni o'z-o'zini nazorat qilish – bu yurak qisqarishining takrorlanishi (puls), tana vazni va sport natijalaridir. Pulsni hisobga olishning uch xil yo'li bor: tinch holatdagi soni, intensiv ish bajarish faoliyatidagi miqdori va mashg'ulotlardan so'nggi tiklanish davridagi muddati. Tinch holatdagi puls organizmning vegetativ asab tarmog'ini va jismoniy tayyorgarlik holati to'g'risida ma'lumot beradi. Talabaning jismoniy tayyorgarligi qancha yuqori bo'lsa, tinch holatda uning puls urish soni shuncha ham bo'ladi. Yurak urishining jismoniy ishga sezgirligi organizmni shu jismoniy ishni bajarishga tayyortigini va fiziologik tarmog'inining chidamliliginini ko'rsatadi. O'quv mashg'ulotlarida jismoniy ish bajarishning qiymati berilib, tomir urishi har daqiqada 130-150 marta deb olinadi. Agarda ish bajarilganda pulsning sezgirligi biroz yuqori bo'lsa, bu talabaning jismoniy tayyorgarligi pastligini ko'rsatadi. Pulsning boshlang'ich holati 15-30 daqiqadan so'ng tiklanadi. Tiklanish davrining cho'zilib ketishi murabbiy va shifokorlarning e'tiborini jaib qilishi kerak.

Jismoniy mashqlar moddalar almashinuviga, energetik muvozanatga katta ta'sir qiladi, talaba vaznni nazorat qilib borish, organizmni ish bajarishga moslashtirishdan aniq dalolat beradi. Sport mashg'ulotlarining boshlang'ich bosqichida tana vazni tushib ketadi. Organizmnning mashg'ulotlar tartibiga to'la moslashuvi vaznning aniq bir saviyada saqlanib turishiga olib keladi. Sport natijalarining o'sishini kuzatib borish mashg'ulot ustubining to'g'riligini baholab, jismoniy chiniqish, qo'shimcha zaxiralarni ochib, talabaning sport mohiyatini aniqlab beradi. O'z ustidan nazorat qilish jarayonidan olingan ma'lumotlar talabalarning maxsus kundaligida qayd qilinadi.

### **Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida fiziologik holatlar**

Bu holat jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va musobaqalar oldidan shartli refleks mexanizmi asosida kechadi. Asab tarmog'inining o'yg'onishi va jo'shqinlik tonusini kuchayishi, ichki organlar faoliyati organizmni bo'lajak mashqlarga tayyorgarligini oshiradi.

**Start sarosimasi** (lixoradka) jismoniy va psixologik tayyorligi past bo'lgan sportchi talabalarda bo'ladi. Bu holat jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va mashqlari oldidan shartli refleks asosida kechadi. Haddan tashqari hayajonlanish keyinchalik markaziy asab tarmog'inining tormozlanish jarayoni bilan almashadi. Bu ichki organlarning faoliyatini pasaytirishga olib keladi, oqibatda sport natijalari tezda yomonlashadi.

**Start loqaydligi** musobaqalar oldidan asab tarmoqlari uyg'onishi va jo'shqinlik tonusining pasayib ketishi bilan ifodalanadi. Bu holat talabaning jismoniy imkoniyatini amalga oshishiga to'sqinlik qiladi.

**Toliqish.** Uzoq vaqt davom etgan ishdan, energetik manbaning kamayishidan, ovqatlar moddasi almashinuviga va asab jarayonlarining dinamik buzilishi tufayli kelib chiqadi. Toliqish holatining qaytarilib turishi, mehnat va dam olish tartibining buzilishi, toliqish qoldig'inining odam organizmida saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Jismoniy mashqlar bilan noto'g'ri shug'ullangandagi toliqish – bu toliqishning saqlanib qolish holati bo'lib, mashg'ulot jarayonlarini, kun tartiblarini buzish natijasida paydo bo'ladi.

**Turish (o'lik, jonsiz) nuqtasi.** Qattiq toliqishning bir shakli. Sport bilan kam shug'ullangan odam jismoniy ishlarni bajarganda sodir bo'ladigan holat. Bu – ishni bajarishga odam hali tayyor emasligini

ko'rsatadi. Bu holatning asosiy belgilari – harakat koordinatsiyasining buzilishi, pulsning va nafas olishning tezlashishi, bosh aylanishi, nafas qisilishi, ishni to'xtatishga xohishining paydo bo'lishi.

**Qo'shimcha kuch** deb turish holatidan so'ng katta iroda kuchi tufayli sportchi bajarayotgan ishini davom ettirishiga aytildi. Burda asta-sekin jo'shqinlik dinamikasi, markaziy asab tizimi, ter biler ovqatlar modda almashinuvi o'z joyiga tushadi va sportchi o'zini yaxshi his qila boshlaydi.

### **Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida kasallik holati va birinchi yordam ko'rsatish**

Mashg'ulotlar uslubining va tozalik-gigiyena qoidalarining buzilishi kasallik holatining rivojlanishiga olib keladi.

**Gravitatsiyaga oid xastalik** – bu sportchi yurib, yugurib borayotib birdan to'xtab qolgan vaziyat. Buning sababi – miyaga qonai kerakli darajada yetib kelmagani (qon ta'minotining kamligi), kamqonliqdir. Mushaklar qon nasosini to'xtabit qo'yishi tufayli tananing uzoq joylashgan qismlarida va oyoq mushaklarida qonai ushlanib qolishi yuz beradi. Bu holatning belgilari: yuzdag'i rang o'chib, tananing bo'shashishi, bosh aylanishi, kungil aynishi, pulsning yo'q bo'lib ketishi, hushdan ketish va shu kabilar.

**Birinchi yordam:** sportchini chalqancha yotqizish, belini boshdan yuqori ko'tarish (yurakka va miyaga qon oqishini kuchaytiradi). Nashatir spirti singdirilgan paxta hidlatish (nafas olish markazini uyg'otadi).

Sportchilar ko'p vaqt bir joyda turib qolganda ortostatik kollaps paydo bo'ladi (ommaviy chiqishlarda, harbiylarning bir joyda uzoq vaqt harakatsiz turishi, namoyish). Sabab – qon (qattiq) quyilishi, jumladan, miyada ham qon quyilishi. Bu vena qon tomirlarida qisqarish kuchining tezlik bilan susayib ketishi bilan ifodalanadi. Belgisi va birinchi yordam xuddi gravitasion xastalikdagidek. Oldini olish (profilaktika) nafas olish mushagini yuqori va past qismlar mushaklarini goh-gohida (qisqartirish) kuchlanirib turish.

**Hushsizlik holati** – to'satdan kuchli hayajonlanishdan, o'pkada giperventilisiya holati, ya'ni haddan tashqari zo'riqish ortib ketishidan kelib chiqadi. Sababi miyada qon quyilishi bilan izohlanadi. Hayajonlanganda mexanizmi har xil vena qon tomiri qisqarishining kuchayishi yoki arterial qon tomirlarining qisilib qolishidir.

To'satdan qon tarkibida SO<sub>2</sub>ning kamayishi natijasida nafas olish va oliy asab markazi harakat tomirlari faolligining susayishi, ko'proq nafas olish harakatini to'xtatilishi va kuchli zo'riqishi natijasida bo'yin qon tomirlarining asosiy mushaklari guruhining qisilib qolishi (shtanga ko'taradiganlarda). Birinchi yordam xuddi gravitasion xastalik va ortostatik hollatdagidek. Hushsizlik holatining oldini olib, o'z-o'zini nazorat qilish va ruhiy hamda jismoniy holatni boshqarishda shtangani ko'tarishdan oldin 3–4 marotaba chuqur nafas olib chiqarib yuborish, uni ko'targan paytda engakni ko'krakka qismaslik kerak.

**Gipoglikemik holat** yoki gipoglik xastalik. Uzoq vaqtida kuchli ish bajarish natijasida qon tarkibida qand moddasining tez kamayib ketishi.

**Birinchi yordam.** Ko'p miqdorda uglevod, shirinliklar iste'mol qilishlari kerak, juda og'ir holda tibbiy yordamga murojaat qilinadi.

**Oldini olish:** uzoq muddatli ish jarayonida sportchilar shakar, shirinliklar va glyukoza iste'mol qilishlari kerak.

**Quyosh va issiq urishi.** Ochiq bosh va tanaga quyosh nurlarining harorati yuqori bo'lganda organizmning haddan tashqari qizib ketishi ta'siri ostida sodir bo'ladi.

**Belgilari:** bosh og'rishi, holsizlik, ko'ngil aynishi, qulquning g'uvillashi, yurak urish faoliyati va nafas olishning buzilishi (hushdan ketish ham mumkin).

**Birinchi yordam:** oftob urganchini soyaga olib o'tish, boshiga va yurak atrofiga sovuq ho'l latta yoki muz qo'yish, ko'p suv ichirish. Agar zarurat topilsa, sun'iy nafas oldirish va tibbiy muassasaga olib borish.

**Oldini olish:** yozning issiq sharoitida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishning gigiyenik, qoidalariga qat'iy rioya qilib, mashg'ulotlar ertalab soat 10 gacha, kechqurun esa soat 18-00 dan so'ng o'tkazilishi lozim.

### Sinov savollari

1. "Tibbiy-pedagogik kuzatish" deb nimaga aytildi? U qachon o'tkaziladi va qanday masalalarni hal qiladi?

2. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilinganda talabalarda o'pkaning havo sig'imi va mushaklarning dinamik kuchi qanday bo'lishi kerak?

3. Tozalik-gigiena nazorati qaysi vazifalarni bajaradi?

4. Qaysi chora-tadbirlar yordamida sportchilar shikastlanishi va turli kasalliklarning oldini olishi mumkin?
5. Suv havzalarida mashg'ulot o'tkazganda qanday ehtiyoj choralarini ko'rinishi kerak?
6. Musobaqada xizmat qiladigan shifokorning burchi vazifasi va huquqlari nimalardan iborat?
7. Antrometriya uslubi yordamida jismoniy rivojlanish qanday aniqlanadi?
8. Tibbiy-pedagogik kuzatish va o'z-o'zini nazorat qilishning toliqish belgilarni aniqlashdagi o'rnini gapirib bering.
9. Quyosh va issiq urish belgilari hamda birinchi yordam ko'rsatish haqida nimalarni bilasiz?
10. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan shaxslarda o'z-o'zini nazorat qilish va uning maqsadi nimalardan iborat?
11. Yurak faoliyati to'g'risida gapirib bering.
12. Tibbiy ko'rik to'g'risida tushuncha bering.

## VIII BOB. Jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligi asoslari

Sport harakati tarixidan bizga ma'lumki, har bir davlat sportchilarining jahon miqyosidagi birinchiliklar Osiyo va Olimpiada o'yinlaridagi yutuqlari shu mamlakat murabbiylari, olimlari va sport sohasida ishlayotgan shifokorlari va sportchilarning sportda erishgan yuksak yutug'i bo'lib, bu natijalar keyinchalik shu mamlakat sport tayyorgarligi tizimi doirasida o'rganiladi.

Sport – bu odam faoliyatining keng ma'nodagi tushunchasidir. U jamiyatning uzoq tarixidan ma'lum bo'lib, jamoalar, guruhlar o'rtaсидаги bellashuvlarda shakllanib, odam organizmi faoliyatining, qobiliyatining eng yuqori pog'onasini namoyon qilish bilan ifodalanadi.

Bugungi kunda ham sport jamiyatimizda katta g'oyaviy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega sohadir.

Sportchilarni tayyorlash haqida gapirganda biz amerikacha sport tayyorgarligi mashg'ulotlari, Angliya va Finlyandiya, Olmoniya va Avstraliya hamda boshqa tizimdagi tayyorgarlik mashg'ulotlarini nazarda tutamiz. Bu sport tayyorgarliklarining hammasi o'z vaqtida ijobjiy natija bergen, ushbu darslikda esa gap O'zbekiston Respublikasida sport, jismoniy tarbiya harakatida o'zlashtirilgan va qo'llanilib kelingan sport-tayyorgarlik mashg'ulotlari haqida gap boradi.

Tayyorgarlik mashg'ulotlarining o'zi nima? Bu sportchilarni xilma-xil sport turlariga, musobaqalarga tayyorlash, qanday musobaqa bo'lishidan qat'i nazar, bu musobaqalarda yaxshi natijalarga erishish uchun odam organizmi mashqlarni boshqalarga nisbatan tez, ixcham, chiroyli bajara olishi shart.

Tayyorgarlik mashg'ulotlari yagona pedagogik jarayon sifatida ikki xil turga bo'linadi: umumiylar va maxsus jismoniy tayyorgarlik.

Umumiylar jismoniy tayyorgarlikda sportchilarning hamma jismoniy sifatlarini (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik va chidamlilik) har tomonlarma tarbiyalashga qaratiladi.

Jismoniy tayyorgarlik va sport musobaqalari tayyorgarligi asoslari quyidagi mashg'ulotlarga bo'linadi:

### Nazariy tayyorgarlik

Barcha sport turlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, musobaqa qoidalarini bilishdan iborat. Shaxmat, shashka, aviamodellashtirish kabi sport turlarida bu tayyorgarlik eng muhim hisoblanadi. Shaxmat va

shashka bilan shug'ullanadigan sportchilar juda ko'p uslubiy **adabiyot** o'qishadi, bu keyinchalik musobaqa paytida oldingi turli bosqichdagi musobaqalarda o'ynalgan partiyalarning eng qiziqlarini esda turish, raqibning fikr yuritishini avvaldan ko'ra bilish va unga o'zinining kombinatsiyalari bilan qarshi turishga yordam beradi.

Modellashtirish bilan bog'liq bo'lgan sport turlarida nazariy bilimlar tanlangan model turiga, motor va boshqa qismiarni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Kemasozlik tarixini bilish sportchiga modelni to'g'ri bajarishga, samolyotsozlik tarixini bilish esa modelni yengil, tezkor qilib qurishga ko'maklashadi.

### **Texnik tayyorgarlik**

Bu turdag'i mashq'ulotlar ikki xil bo'ladi:

Birinchisi – mashqlarni yoki alohida bir harakatni texnik jihatdan to'g'ri bajarish kabi dinamik sport turlariga bog'liq bo'lgan texnik usul va ko'nikmalardir. Dinamik sport turlarining hammasida texnik tayyorgarlikka katta e'tibor beriladi, texnik to'g'ri ijro etilgan harakatlar tomoshabinlarning olqishlariga sazovor bo'ladi. Masalan, argentinalik futbol yulduzlarining to'p surishi, S.Bubkaning langar cho'p bilan balandlikka sakrashidagi ajoyib texnik ijro, o'rta masofaga yugurishda jahon rekordchisi marokashlik S.Auitaning musobaqalarda ko'rsatgan mahoratini aytib o'tish mumkin.

Texnik tayyorgarlikning ikkinchi turi haqida gapirganimizda biz texnik sport turlarini nazarda tutamiz. Masalan: kema modelchisi o'z modelini yasash va musobaqalarga tayyorlash uchun bir nechta kasbi bilishi lozim. Model korpusini yengil materialdan yasash uchun yog'ochdan sinchkash yasash kerak – buning uchun duradgorlik kasbini yaxshi egallash zarur. Modelni yaxshi bo'yash uchun – bo'yoqchilikdan xabardor bo'lish lozim. Palubaning ustki qurilmalarini yasash uchun esa (ular mis, temirdan yasaladi) – tokarlik va chilangarlikni bilish kerak.

### **Taktik tayyorgarlik**

Sportchilarning qobiliyati, jismoniy, psixologik tayyorgarligi bilan birga shu sport turining qaysi sharoitda bajarilishi bilan chambarchas bog'liq. Taktik tayyorgarlik odam harakatini o'rGANISH bilan ifodalanib qolmay, balki sportchilarning yuksak natijalarga erishishini ham ta'minlaydi. Sportchilar o'z raqiblari ustidan g'alabaga erishish uchun o'zlarida turli sifatlarni tarbiyalashlari shart. Bu jismoniy

sifat sportning o'yin turlarida va yakka kurash turlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Texnik vositalarning bugungi kun sport turlarida keng qo'llanilishi sportchilarga uchrashuv oldidan raqibini ekranda yoki videomagnitofonda ko'rishga imkon beradi.

Murabbiy yordamida raqibning texnik va taktik jihatdan kuchli tomonlari aniqlanadi va unga qarshi o'yin taktikasi ishlab chiqiladi.

To'g'ri tanlangan taktika gohida kuchsizroq jamoaning g'alaba qozonishiga ham sabab bo'ladi va bu texnik tayyorgarlikning muhim omillaridan biridir.

### **Psixologik tayyorgarlik**

Bu hamma sport turlaridagina emas, balki inson hayotida ham muhim o'rinn tutadi. Yuksak natijalarga intilish kuch-quvvat va ruhiy kuch talab qiladi. Boshqa faoliyat turlariga qaraganda sportda shunday ekstremal holattar ko'proq yuzaga keladiki, undan inson faqat ruhan yaxshi tayyor bo'lgan holdagini chiqib keta olishi mumkin. Sportchilarni juda qiyin sharoitlarga qo'yganda ham, ular bu qiyinchiliklarni yengib chiqib ketganliklariga ko'p misol keltirish mumkin. Ruhiy fazilatlar o'rganish va tayyorlanishlar davomida shakllanadi. Har xil darajadagi musobaqalar va ular oldidan murabbiyining bir-ikki og'iz iliq so'zi, zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalaydi. Keyinchalik o'quv-tayyorgarlik jarayonini shakllantirishdagi pedagogik nuqtai nazarlar haqida gapirayotganimizda biz ruhiy tayyorgarlik mavzusiga yana qaytamiz.

### **Jismoniy tayyorgarlik**

Sportning eng muhim tayyorgarlik turidir.

Jismoniy tayyorgarlik deb u yoki bu sport turiga mansub bo'lgan asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalashga aytildi. Ular asosan 5 xil bo'ladi:

- a) chaqqonlik;
- b) egiluvchanlik;
- v) kuch;
- g) chidamlilik;
- d) tezkorlik.

Bulardan ba'zilari sport turi uchun ahamiyati katta bo'lsa, ba'zilariniki ma'lum darajada kichik, lekin bularning tarbiyalashda hammasi ham o'z me'yoriga yetkazilishi kerak. Sportchilarning

jismoniy tarbiyasi haqida gapirganda uni shartli ravishda 2 ga bo'lish mumkin: umumiy va maxsus. Agar suzuvchi tayyorgarlik vaqtida sport o'yinlari bilan, masalan, yengil atletika bilan shug'ullansa, bu umumiylaytayyorgarlikdir. Lekin u suvda muayyan mashqlarni bajarsa, bu endi maxsus jismoniy tarbiya tayyorgarlik turiga kiradi. Pedagogik nuqtai nazardan maxsus va umumiylaytayyorgarlik bir-biriga bog'liqdir.

Sportchining jismoniy sifatlari turlicha uslub va vositalalar bilan tarbiyalanadi va quyida har bir jismoniy sifatni alohida ko'rib chiqayotganda biz albatta uslub va vositalalar haqida gapiramiz.

### Jismoniy sifatlari

#### Kuch

Biz ko'radigan jismoniy tarbiya sifati kuch deb odam organizmining tashqi qarshiliklarni yenga olish va unga mushaklar yordamida qarshi tura olish qobiliyatiga aytildi. Kuchni tarbiyalash vositalariga gimnastika mashqlarini turli shaklda bajarish kiradi.

Kuch deyarli hamma sport turlarida ishlataladi va ikki xil ifodalanishi mumkin: statik kuch va dinamik kuch. Harakatsiz bajaritadigan kuch mashqlari – (geometrik) statik holat, har qanday kuchning harakatda ifodalanishi – dinamik holat deyiladi. Sportda bularning ikkalasidan ham foydalaniladi.

Masalan, akrobatikada saltolar, aylanishlar dinamik holat; burchak ushlab turish, qo'lda tayangan holda tanani ushlab turish va boshqalar statik holatdir.

Organizmning kuch qobiliyatini tarbiyalashda turli xil vosita va uslublar qo'llaniladi. Kuchni rivojlantirish vositalariga quyidagilar kiradi:

1) shtanga va uning komponentlari (o'zagi, toshlari va boshqalar);

2) turli xil og'irliliklar (toshlar, gantellar, espanterlar va qo'l ostidagi jihozlar);

3) o'z tana vazni;

4) kuchni oshirish uchun mo'ljallangan maxsus texnik moslama va uskunalar (turli xil trenajyorlar).

O'z holicha jismoniy mashqlarni bajarayotganda kuchni oshirish uchun ishlataladigan vositalarni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Shu sababli bunday vositalar bilan keyinroq tanishamiz:

a) shtanga eng keng qo'llaniladigan sport jihozlaridan biri bo'lib, yengil atletikachilar uni butunligicha ishlatishadí, suzuvchilar 15–20 kg og'irlikdagi toshlarni ko'tarishni afzal ko'rishadi va hokazo;

b) ko'pincha murabbiy va sportchilar o'z holicha mashqlarda yoki qisman tayyorgarlik mashg'ulotlarida kuchni oshirish maqsadida turli xil og'irlashtiruvchi vositalardan: espander va gantellardan foydalananadilar. Sport to'garaklarida toshlar va rezinali bintlardan foydalaniladi, kuchni rivojlantirish uslublarini to'g'ri tanlash ijobiy natija beradi;

v) o'z tanasi og'irligi bilan odatda tayyorgarlik jarayonlarining hamma turlarida foydalaniadi, bu har xil tortilishlar, cho'zilishlar va boshqa turli-tuman mashqlardir;

g) keyingi yillarda ko'pchilik korxonalarda, maktablarda, kollej va institutlarda maxsus jihozlangan kichkina sport zallari qurilayapti, buning uchun ular mushaklarni rivojlantiradigan turli xil trenajerlar sotib olayaptilar. Ko'pchilik murabbiylar qo'l ostidagi sport jihozlaridan o'zları trenajyorlar yasaydilar. Bunday zallar hozirgi paytda kuchni tarbiyalashda eng faol bo'lib, undan tashqari talabalar va sport bilan shug'ullanayotgan yoshtlar ustidan nazorat qilishga va o'z vaqtida uslubiy yordam ko'rsatishga imkon beradi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi u yoki bu jismoniy xususiyatni tarbiyalash uchun bir vositadan foydalanishning o'zi kifoya emasligini, balki shug'ullanish uchun to'g'ri uslubni tanlash muhim rol o'yashini ko'rsatadi. Quyida kuchni tarbiyalashning bir necha uslublatini taklif qilamiz:

a) mushaklar ishlayotganda kimyoviy energiya mexanik energiyaga aylanadi. Bu bir energiya turining ikkinchi bir energiya turiga aylanishining nisbati bo'lib kuch, sig'imlilik, chidamlilik, samaradorlik bilan belgilanadi.

Quvvat – yuqori darajali miqdordagi energiya bo'lib, u "vatt" yoki kg/min. da o'chanadi. Hajm ma'lum bir kimyoviy energiya manbai hisobiga bajariladigan umumiy ish miqdoridir.

Samaradorlik – mushaklar faoliyati bo'lib, u ish paytida kimeviy energiyaning mexanik energiyaga aylangan miqdori bilan o'chanadi;

b) mushak (ishining) faoliyatini 3 xil kimyoviy jarayon ta'minlaydi. Kreotin-fosfat va glikogenning parchalanishi kislorod yo'q bo'lган sharoitda sodir bo'ladi. Shuning uchun u "anaerob" deb ataladi. Biroq energiyaning asosiy qismi kislorod ishtirokidagi aerob jarayon

davomida yuzaga keladi. Bu jarayonlar bir-biridan murakkabligi va unda ishtirok etadigan kimyoviy moddalar bilan farq qiladi. Lekin bularning ikkalasidan ham mushaklar qisqarishida bevosita iste'mol qilinadigan adenozintrni fosfatning boy molekulasi albatta hosil bo'ladi. Jismoniy tayyorgarliklar andreofosfat hosil bo'lishning uchala jarayonini ham keskinlashtiradi. Tezkorlikni tarbiyalovchi mashqlar bajarilayotganda energiya hosil qilishning kreatinfosfat mexanizmi kuchayadi. Chidamiliblikni rivojlantiradigan tayyorgarlik mashg'ulotlari asosan aerob jarayonlari tomonidan keskinlashtiriladi;

v) harakat mashqlari bilan shug'ullanmagan insonda tinch holatda uning skelet mushaklarida oz miqdorda kreatininfosfat bo'ladi. Bu faqat 10 – 15 minutga yetadi. Glikogenning aerob parchalanishi 50 s dan so'ng yuqori darajaga yetadi. 60 – 70 s dan so'ng kislorodning mushaklarga ko'p miqdorda yetib borishi sababli aerob jarayonla energiyaning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

### Tezkorlik

– organizmning ma'lum bir harakatni maksimal qisqa vaq ichida bajara olish qobiliyati. Harakatlar asosida miyaning hayajonlanish holatidan tormozlanishga o'tishi va aksincha holatlar yuz berishiga aytildi. Tezlikni rivojlantirishda quyidagi vositalarni ajratish ko'rsatish mumkin:

a) maksimal yoki submaksimal tezlikda bajariladigan maxsus tayyorgarlik mashqlari;

b) tezlik-kuch mashqlari – maksimal tezlikda qo'shimcha og'irliliklar (qumli belbog'lar, yuklar va boshq.) bilan bajariladigan tayyorgarlik yoki musobaqa xarakteridagi mashqlar;

v) harakatchan sport o'yinlari, estafetalar, ya'ni harakatchanlik bilan bajariladigan, musobaqa va raqobat ruhi bor bo'lgan mashqlar.

### Chaqqonlik

Chaqqonlikni tarbiyalash organizm murakkab koordinasion harakatlarni tez o'zlashtira olish va sharoitga qarab harakat faoliyatini tuzish qobiliyatidir. Chaqqonlik ayniqsa sportning o'yin turlarida va kurashlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun uchta murakkab masala hal qilinishi lozim:

a) murakkab muvofiqlashtiruvchi harakatlarni o'zlashtira olish qobiliyatini o'stirish;

- b) sharoit o'zgarib qolganda bir harakat faoliyatidan ikkinchi harakat faoliyatiga tez o'ta olish qobiliyatini rivojlantirish;
- v) aytilgan mashqlarni aniq, aynan shundoq qilib ko'p marotaba qaytarish qobiliyatini oshirish.

Biz navbatda ko'rib chiqadigan sifat – egiluvchanlikdir.

### **Egiluvchanlik**

Organizmning mashq yoki harakatni maksimal amplituda bilan bajara olishidir. Egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalash uslublari quyidagilarga bo'linadi: dinamik (harakatda bajariladigan), statik (tana tinch holatini saqlagan holda bajariladigan), statik faol (o'z kuchi hisobiga bajariladigan) va sust (tashqi kuch, og'irlik, boshqa shaxs tomonidan yordam tariqasida bajariladigan).

Egiluvchanlikni oshirish uchun mushak to'qimalari, pay va bo'g'imlarning cho'zilishini oshiradigan mashqlar bajariladi. Bu har xil egilish va bukilishlar, cho'zilishlar, oyoq-qo'l silkitishlardan iborat.

Bu mashqlar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab mashqlar og'ir yuk yordami bilan bajariladi. Quyidagi sport turlarida egiluvchanlik yetakchi ahamiyatga ega: gimnastika, badiiy gimnastika, akrobatika, suvga sakrash, sinxron suzish, konki uchish, sport raqslari va kurashning hamma turlari.

Keyingi jismoniy sifat bu chidarlilikdir.

### **Chidamlilik**

**Tarbiyalash** – jismoniy harakat sifatida organizmning charchoqni yenga olish qobiliyatidir. Bu markaziy asab tarmog'i xususiyatlariga va energetik almashinuvga bog'liq. Chidamlilik shunday fazilatki, u qiyinchilik bilan tarbiyalanadi, yo'qtish esa oson. Chidamlilikni tarbiyalayotgan organizminda o'tayotgan bir necha jarayonni ajratish mumkin:

Chidamlilik jismoniy harakat sifati bo'lib, odam organizmining uzoq vaqt davomida mushaklar ishini faol bajarilishida toliqishni yengish qobiliyatidir.

Chidamlilik sifati ikki xil bo'ladi, umumiy va maxsus.

Umumiy chidamlilik – organizmning uzoq vaqt davomida har qanday mushaklarning ish bajarganida charchoqni yengish qobiliyatiga aytiladi.

Maxsus chidamlilik – jismoniy mashqlar yoki sport turlarining biriga xos bo'lgan mushaklar ishi uzoq vaqt davomida bajarilganda charchoqni yengish bilan belgilanadi.

Maxsus chidamlilik umumiy chidamlilik asosida rivojlanib, tezkorlik, kuch va chidamlilik mashqlarini aniq va puxta bajarish jarayonidan kelib chiqadi.

Chidamlilikni tarbiyalash darajasi avvalambor yurak tomirlari, nafas olish, mushak va asab tarmoqlari, buyrakda qonning glikogeni tez va foydali parchalanishi, funksional imkoniyatining oshishi bilan ifodalanadi.

Organizmning yaxshi funksional holatga yetishishi uchun chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning hammasini ishlatish lozim.

Energiya almashinuvi ko'rsatkichlari sportchingin berilgan jismoniy tayyorgarlik hajmi va me'yorida uning funksional holatini baholash uchun zarurdir. Buni aniqlashda asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlar ishlatiladi;

g) aerob bardoshlilikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir: o'pkaning maksimal havo almashinishi qonning kislorod bilan to'yinish hajmi, qonning minutli hajmi, kislorod bo'yicha arteriavinoz farqiga teng;

d) anaerob chidamlilikning asosiy ko'rsatkichi – bu organizmni maksimal kislorodga to'yintirish vazifasidir, ya'nii organizmda og'ir jismoniy mashqlardan so'ng yig'ilib qoladigan moddalar almashinuvining hamma mahsulining oksidlanishiga va ularni zarur bo'lgan yuqori darajali miqdorida organizmdan chiqarib yuborish. Maksimal darajada kislorodga to'yintirish vazifasining bir qismi, ya'nii anaerob glikogenning asosiy mahsuli sut kislotasi oksidlanishiga ketadigan qismi "laktat fraksiyaning maksimal kislorod vazifikasi" deb ataladi.

Anaerob chidamlilikning qo'shimcha ko'rsatkichi sifatiga muvofiq fermentatin tizimining faoliik darajasi, adenazatrifosfatning anaerob resitezi uchun ishlatiladigan moddalarning umumiy zaxirasi, shuningdek, turli to'qima va organlardagi mostlashuv va kompensasion o'zgaruvchanlikning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mungkin;

ye) jismoniy tayyorgarlikning turlari o'z parametrlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi (mushak sonining hajmi, mushak kuchlanishining turi, bajarilayotgan mashqning rejasi, quvvati). Tayyorgarlikning har bir

asosiy parametriga, ish bajarishda mushakning alohida bir ish turi muvofiq keladi. Masalan, shunday bir jismoniy mashq tanlash mumkinki, unda mushak ishi o'z faoliyati bo'yicha mahalliy, ushlab qoluvchiga teng, maksimal bo'lishi mumkin.

Aerob va anaerob rejimda chidamlilikning rivojlanishi aniq bir mushak ish turi bajarilishi yordamida amalga oshiriladi. Bunda organizmda fiziologik va biokimyoeviy almashinuvlar rivojlanadi. Bu o'zgaruvchanliklarning hajmi jismoniy mashqlarning organizm tayyorgarligi darajasiga mosligini nazorat qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, odam organizmidagi o'zgaruvchanlik masalalarining qanday hal qilinishi, u sohadagi muvaffaqiyat va bardoshlilikning oshishi baholanadi. Chidamlilikni tarbiyalashda uning tarbiya uslublarini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Bir tekis yoki bir xil tezlikdagi uslub kichik va o'rta quvvatdagi bir tekis ish bilan ta'riflanadi. Anaerob jarayonlarni tarbiyalashda va takomillashtirishda katta rol o'ynaydi. Bu usulni qo'llash boshlang'ich davrda va tayyorgarlik bosqichlarida tavsija etiladi, eng oson va foydali uslub sifatida boshlovchi sportchilar uchun shartdir.

**Qaytarish uslubi** – yuklanishlarning asosiy uch parametri bilan ifodalanadi: davomiylilik, tezlik (shiddat), takrorlash muddatining qisqaligi va dam olishning 2 ta parametri davomiylilik va tezlik.

Masalan, sprinter 100 m ga yugurishni tezlik bilan 10 marotaba yugurib o'tadi: dam olish oraliq'i 10 daqqa, dam olish – sust. Bu uslub asosan yuqori malakali sportchilar tomonidan qo'llaniladi, ya'ni asosiy musobaqa oldidan yakuniy tayyorgarliklarda qo'llaniladi.

**Almashinuv uslubi** – u ham zo'riqishning uch bosqichi bilan (davomiylilik, shiddat, takrorlash oraliq'ining qisqaligi) va bir dam olish parametri davomiylilik bilan ifodalanadi. Masalan: 2000 m masofaga almashinuv uslubi bilan yuguriladi, undan 50 m tez, 50 m sekin. Bu usulda har bir masofaning keyingi tez yugurish qismining qaytarilishi organizmni to'liq tiklanmagan holida bo'ladi. Bu usul yosh shug'ullanuvchilardan to razryadli sportchilargacha bo'lgan sportchilar tomonidan qo'llaniladi. Tez yugurish qismining, shuningdek sekin yugurish qismining uzunligini o'zgartirish. Bu usul erishilgan natijani saqlashda kerak bo'ladi va uni takomillashtirishda samarali qo'llanishi mumkin.

Interval qaytarish murakkablashtirish uslubining 4 ta parametri bilan ifodalanadi: davomiylilik (seriyalarning qaytarilish soni, seriyalar

soni) va 4 ta dam olish parametri (seriya ichidagi dam olish intervali, seriyalar orasidagi dam olish intervali va bu dam olish intervalining xarakteri bilan ifodalanadi).

**Masalan:** 4 seriya yugurish 50x60 m, kuchni 3/4iga, seriya orasida dam olish oraliq 1 daqiqa, seriyalar orasida 5 daqiqa, seriya orasidagi dam olish oraliq ifodasi sust, seriyalar orasida aralash (birinchi daqiqada sust, Keyingi 3 daqiqa – tez-sekin yuguriladi oxirgi daqiqa – sust). Interval qaytarish usulda mashqlarni ko‘p variant bilan bajarish mumkin, shuning uchun uning qo‘llanilishi juda keng, buni chidamlilikni tarbiyalashda asosiy uslub deb hisoblash mumkin:

a) maksimal kuch sarflash uslubi – shug‘ullanuvchiga iloji boricha og‘ir yuklanish (nagruzka) beriladi yoki o‘ta murakkab mashq bajartiriladi, bunda mashqlar kam bajariladi, ko‘pi bilan 1 – 2 marta takrorlanadi. Agar vaqt o‘tishi bilan mashg‘ulotlarda bu mashqlarni ko‘rsatilganidan ko‘proq bajarishga imkon yaratilsa, unda uslub mazmunini saqlash maqsadida zo‘riqishni og‘irlashtirish, mashqni esa murakkablashtirish kerak;

b) qayta urinish metodi – avvalgiga nisbatan bir muncube yengilroq mashqlarni bajarish yoki yuqori darajadan, 30–60 mg‘bo‘lgan mashqlar bajariladi, bunda mashqlar iloji boricha ko‘p marotaba takrorlanadi;

v) interval-qaytarish uslubi – o‘ncha og‘ir bo‘limgan yuk bilan yoki o‘z tanasi og‘irligidan foydalanib seriyalab bajariladi va mashqni bajarish vaqtiga:

- qaytarishlar va seriyalar orasidagi dam olish vaqtiga;
- tayyorgarlik mashg‘ulotida seriyalarning soni;
- eng muhimmi, har bir mashqni bajarish tezligi aniq chegaralanadi.

Keyinchalik intervalqaytarish uslubidan “doiraviy tayyorgarlik” iborasi kelib chiqdi, hozirgacha bu uslub organizmda kuch qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

5. Organizmning chaqqonlik (tezlik) sifatini rivojlantirish uslublari haqida gapirar ekanmiz, chidamlilikni rivojlantirishdagi uslublarga o‘xshash, lekin quyidagi shartlar bo‘lgan uslublarni aytib o‘tamiz:

a) har qanday mashq yoki uni takrorlash maksimal tezlik bilan bajarilishi kerak;

- b) mashqlarni bajarish vaqtı toliqish holati boshlanguncha yuqori darajadagi jadallikda bajarilishi kerak;
- v) takroriy mashqlar orasidagi dam olishlar organizmni o'z holiga kelishiga imkon berishi kerak;
- g) dam olishning vaqtı sport malakasiga erishish bosqichlariga bog'liq.

Jismoniy sifatlar haqida shuni aytib o'tish kerakki, hech qachon sportchida qandaydir birligina sifat emas, balki hamma sifatlar ham tarbiyalanadi. Masalan, 25 metrli basseynda quyidagi interval-qaytarish uslubida mashqlar bajariladi: 2 marotaba (4h25 m), 2h (25+Zh25+4h25 m+Zh25+2h25+25 m), bunda shiddatlilik 75 sekund, seriya ichida dam olish 45 sekund, takrorlash orasidagi dam olish 3 min. davom etadi.

Bunda:

- a) tezlik qisqa masofalarga suzishda rivojlanadi;
- b) chidamlilik – butun mashqlarni takrorlash seriyasini bajarishda;
- v) kuch – masofalarga suzishda;
- g) egiluvchanlik – har qanday harakatda;
- d) chaqqonlik – burilishlarni bajarishda ortadi hamma sifatlarning tarbiyalanishi ayniksa davriy mashqlarda namoyon bo'ladi.

### **Sport tayyorgartigini rejalashtirish**

Sport tayyorgarlik mashqlarini rejalashtirish masalasiغا kirishishdan avval uning vazifa va maqsadlarini aniqlab olish zarur.

Sport tayyorgarlik mashqlarining asosiy maqsadi – yuqori malakali sportchilarini yetishtirishdir. Ular samarali mehnatga, o'z Vatanini himoya qilishga tayyor bo'lishlari kerak.

Bu asosiy masalani hal qilish uchun o'quv tayyorgarlikda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1. Tarbiyaviy masala. Sportchining tarbiyalanishi quyidagi bosqichlarda o'tadi:
  - a) axloq – sportchida dunyoqarash, qiziqish, o'ziga, atrofdagilarga, mehnatga munosabatni shakllantirishga qaratilgan;
  - b) intellektual – shaxsnинг ijodiy va bilimdonlik qobiliyatini tarbiyalashni ta'minlaydi;
  - v) estetik – atrof muhit, mehnatga sport faoliyatidagi go'zallikni qabul qila olishni tarbiyalaydi;

g) iroda sportchida o‘zi oldiga maqsad qo‘yish va uni hal qilish uchun intilish qobiliyatini tarbiyalashga qaratilgan.

2. Sog‘lomlashtirish - shaxsni har tomonlama jismoniy tarbiyalash yo‘li bilan hal qilinadi. Jismoniy takomillashish yo‘li bilan sog‘liq mustahkamlanishining jismoniy sifatlarini va tananing shakllanishini oldindan ko‘ra bilishimiz kerak.

3. Ta’lim-pedagogik jarayon bo‘lib, maqsad texnik, taktik va nazariy tayyorgarlik orqali amalga oshiriladi.

Sport tayyorgarligi mashqlari rejasи o‘z maxsus vazifa va maqsadlariga ega bo‘lgan turli muddatli tarbiyaviy tayyorgarlik jarayonlari uchun tuziladi. Eng ko‘p tarqalgan rejalashtirish turlari quyidagilar:

1. Uzoq muddat(istiqbol)ga mo‘ljallangan rejalashtirish – odatda 4 yil muddatga rejalashtiriladi. Bu bir Olimpiadadan ikkinchisigacha yoki bir Spartakiadadan ikkinchisigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu rejalash oliy o‘quv muassasida qobiliyatli sportchilarni Olimpiadaga tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib quyadi. Ushbu rejalashtirish musobaqalarga nisbatan tartibli va bir maromda tayyorlashga imkon beradi.

Uzoq muddatga mo‘ljallangan rejalashtirishning asosiy 3 maqsadi – sportchida maxsus va umumiy sifatni tarbiyalab, sport cho‘qqilariga ko‘tarishdir.

2. Ko‘pchilik jismoniy tarbiya mutaxassislariniig fikricha, sport tayyorgarligini yillik rejalashtirish asosiy ahamiyatga ega. Sportcha tayyorgarlik sportchi oldiga bir yilga qo‘yilgan vazifa va maqsadlar, shuningdek sport tayyorgarligi darajasiga qarab, yillik rejalashtirish quyidagicha bo‘ladi:

a) sport tayyorgarligi mashqlarining bir davrli rejalanishi. Bunday rejalashtirish bitta tayyorgarlik, bitta musobaqali va bitta davr (yil) oxiridagi o‘tish davriga ega. Bunday rejalashtirish yiliga 1–2 musobaqada qatnashishni mo‘ljallagan sportchilar uchun tuziladi, lekin ular musobaqa o‘tagidan oygacha bo‘lgan qisqa muddat ichida o‘tkaziladi.

Bir davrli rejalashtirish o‘z afzalliklariga ega, xususan tayyorgarlik muddati uzoq, har bir jismoniy sifatni alohida mufassal rivojlantirishga imkon beradi. Bunda har bir sifatni tarbiyalashga ko‘p vaqt ajratilib, ularni takomillashtirishga hamma vosita va uslub ishlataladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek bir davrli rejalashtirish asosan

shug'ullanishni endi boshlovchi sportchilar uchun tuziladi va ayrim iste'dodli yosh sportchilarning uzoq muddatdan so'nggina namoyon bo'ladigan ba'zi qobiliyatlarini ham "o'tkazib yubormaslikka" imkon beradi;

b) ikki davrli rejalashtirish va "ikkilantirilgan davr"ga rejalashtirish.

Bu ikki sport tayyorgarligini rejalashtirish orasidagi farq uncha katta emas: ikki davrli rejalashtirishda har bir davrning oxirida o'tish davri bo'ladi. U rejalashtirish musobaqlar orasida (taqvimga muvofiq) 2 va undan ortiq muddat bor bo'lganda ishlatalidi, "bir davrli reja" esa yilning oxirida bitta bo'ladi.

#### 14-jadval

### **Sport tayyorgarligining namunaviy rejalashtirish turlari**

#### **Bir davrli rejalashtirish**

Tayyorlov	Musobaqa
a) IX X XI XII I II III IV V VI VII VIII IX	

#### **Ikki davrli rejalashtirish**

1-tayyorlov	2-musobaqa	2-tayyorlov	2-musobaqa
b) IX X XI XIII I	I-II	IV V VI VII	VIII IX

#### **Rejalashtirish va ikkilanma davr**

1-tayyorlov	1-musobaqa	2-tayyorlov	2-musobaqa
v) IX X XI XII	I II III IV V VI	VII VIII IX	

#### **Ko'p davrli rejalashtirish**

1-tayyorlov	2-tayyorlov	3-tayyorlov	4-tayyorlov
Musobaqa	Musobaqa	musobaqa	Musobaqa
g) IX X XI XII	I-II	III IV V VI	VII VIII IX

Bunday rejalashtirish uslubining afzalligi shundaki, agar birinchi davrda rejalashtirilgan natijalarga erishilmasa, ikkinchi davrda vosita va uslublarni o'zgartirish orqali bunga erishish mumkin.

Ayni chog'da sport tayyorgarlik 1- yil davri orasida organizmga dam berish natijasida ikkinchi davrga ancha samaraliroq tayyorlanishga imkon beradi;

v) ko'p davrli rejalarshirish.

Bu rejalarshirish bir yilda 3 yoki undan ortiq musobaqa o'tkaziladigan hollarda ishlataladi, startlar orasidagi muddat 1 oydan ortiq bo'lishi kerak. Ko'p davrli rejalarshirish uslubini qo'llash har bir musobaqa jarayoniga samaraliroq tayyorlanishga, shuningdek musobaqa jarayoni muddatini qisqartirishga imkon beradi.

3. Kichik davr – tayyorgarlik jarayoni birliliklarining asosiyalaridandir. Kichik davr muddati 4 kundan 1 kungacha bo'lishi mumkin.

Kichik davr rejalarshirish uslubining asosiy o'zagi toliqish va kuch-quvvatga to'lish qonunlaridir.

**Kichik davr 5 ga bo'linadi:**

a) dastlabki davr organizmni og'ir mashqlarga tayyorlaydi. Ularning jamlangan umumiy hajmi odatda katta emas;

b) zarbdor – hajmi bo'yicha katta mashqlar to'plamiga moslashuv jarayonlarini rag'batlantiradigan davr;

v) mukamallashtiruvchi davr – sportchining bevosita musobaqaga tayyorgarligini mukamallashtiradi, maksimal va submaksimal ish quvvati bilan ajralib turadi;

g) musobaqali davr – musobaqa dasturiga muvofiq tuziladi;

d) tiklovchi davr – organizmning ishlash qobiliyatini oddiy tiklash, ya'ni uni ish bajarish uchun yaroqli muvozanat holatiga keltiruvchi qisqaroq bir davr.

4. Sportcha tayyorgarlik mashg'uloti (darsi). Mashg'ulotlarning bir hafta davomidagi soni sportchining tayyorgarlik darajasiga qarab belgilanadi (3 kundan 20 – 21 kungacha). Har qanday mashg'ulot uch qismga bo'linadi:

a) tayyorlanish qismi–bajariladigan butun mashqning 20–22 kungacha egallaydi.

Asosiy masala – bajariladigan ishg'a, mashg'uilotga tayyorlanayotgan organizm mushaklarini qizihib tayyorlash. Bu mashg'uilotlar oldiga qo'yilgan maqsadlarga qarab, umum rivojlanish mashqlari tuziladi. Mashg'uotni tayyorlash qismining muhim masalalaridan biri tashkiliy masalalardir;

b) darsning asosiy qismi – davomiyligi bo'yicha 60-65 % vaqtini oladi.

Odatda mashg'ulotda jismoniy mashq bajarish masalalarini qisman hal qilishga qaratilgan maxsus mashqlardan boshlanadi. Tayyorgarlik mashg'uloti asosiy qismining vazifasi turli vosita va uslub yordamida hal qilinadigan o'qitish, rivojlantirish yoki takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin;

v) darsning yakunlovchi qismi – vaqtning 10–12 %ini egallaydi, u asosiy masala – shug'ullanuvchining organizmini tiklash, mashg'ulot natijalarini ko'rib chiqish va, kerak bo'lsa, mustaqil shug'ullanish uchun uyga vazifa beriladi.

O'zbekistonning issiq iqlimi sharoitida sport tayyorgarlik mashqlarini ertalab issiq tushmasidan yoki kechqurun o'tkazish ma'qil. Shu sababdan yozning issiq kunlarida ko'p miqdorda mashqlarni rejalashtirmastikni tavsiya etamiz. Agar zarur bo'lsa, tayyorgarlik mashqlarini salqinroq joyda o'tkazish mumkin. Oliy o'quv muassasalari talabalari uchun sport mashg'ulotlarini semestr davomida to'la o'tkazish maqsadga muvofiq emas, chunki bu davrda talabalar qattiq (aqliy) zo'riqishlar ostida bo'ladilar. Shuning uchun sport mashg'ulotlarini rejalashtirganda bunga katta e'tibor berish lozim.

### **Sport tayyorgarligi mashg'ulotlarini pedagogik jarayon sifatida olib borish**

Sport tayyorgarligi mashqlari – bu avvalo shaxsni har tomonlama jismoniy kamolotga yetkazishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Sport mashg'ulotlariga tayyorgarlik jarayonining mazmuni va uslublari sportchining yoshi, jinsi va tayyorgarlik darajasiga muvofiq bo'lishi, shuningdek, iqlim, o'ziga xos iqlim xususiyati, joyi, sharoiti inobatga olinishi kerak. Bularga amal qilmaslik sport bilan shug'ullanadigan talabalar organizmi funksional tarmoqlarining o'ta toliqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sport mashg'ulotlariga tayyorgarlik dasturi asta-sekin murakkablashishi, mashqlar miqdori bo'yicha ham, quvvati bo'yicha ham birdan oshmasdan, bir me'yorda ko'payib yoki takomillashib borishi kerak.

O'quv vositasi, tayyorlash uslublari va shakllarini har bir sportchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash kerak.

Yangi o'zlashtirilgan bilimlar va harakat ko'nikmalari faqat yo'g' o'nligi (mustahkamlik tamoyili) bilan emas, balki o'zgaruvchan sharoitlarda o'zgarib turish imkoniyati bilan ham ajralib turishi kerak. Bu usullar bilan mashq bajargan talabalar sport mashqlarini bajarganda o'zining maxsus nuqtai nazariga ega bo'lib, o'zi uchun zarur mashqini tanlab oladi va uni yengil, ixcham bajarish yo'llarini aniqlaydi.

### Oly sport mahoratiga yo'naltirish

a) Ushbu talab talaba – sportchining sportga va uning yutuqlariga, ayniqsa rekordga intilishga o'rgatadi. Sport mashqlarini tuzish, darsni tashkil qilish vositalari va uslublari aynan shu maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Chunki murabbiylar sport bilan shug'ullanuvchi talabalarning yashash, oilaviy sharoiti va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda o'quv yili boshidan ular uchun mashq'ulotlarni rejalashtiradilar.

b) umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning ajralmasligi – sportchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari ajralmasdir. Sportchini mashq'ulotga tayyorgarligini sport natijalari ko'rsatkichiga ko'ra aniqlash mumkin. Umuman sportning bir turi bilan shug'ullanishning dastlabki bosqichlarida umumiy va maxsus tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega.

Sport bilan muntazam shug'ullanishdan maqsad sog'liqni mustahkamlash, organizmni funksional imkoniyatlari darajasini ko'tarishdir. Bir yillik rejalashtirishda tayyorgarlik davrining dastlabki bosqichlarida, ish hajmining bir me'yorda ko'payishida avval umumiy jismoniy tayyorgarlik, so'ngra ish hajmi oshirilgan taqdirda ham, maxsus jismoniy tayyorgarlik yetakchi o'rinda turadi;

v) sport tayyorgarlik jarayonining uzlusizligi. Samarali sport faoliyatiga erishish uchun jismoniy mashqlar bilan doim shug'ullanish kerak. Mashqlarni asossiz to'xtatilishi o'quv mashq'uloti jarayonida jismoniy sifatlarning pasayib ketishiga olib keladi (bu chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlariga taalluqlidir);

g) eng ko'p hajmli ish bajarishga intilish. Hozirgi zamon sport ko'rsatkichi asta-sekin yuqori yuklanishlarning bajarilishini ko'zda tutadi. Bunda asosiy shart organizmning moslashishga bo'lgan funksional imkoniyatini saqlab qolish, bir kunda bir martalik mashq'ulotlardan 2 – 3 martalik mashq'ulotlarga o'tish ham asta-sekin amalgalashishi kerak.

d) To'lqinsimon dinamik ish bajarish. Bu ish jismoniy mashg'ulotlardan keyingi toliqish va tiklanishga asoslangan. Shuning uchun hamma mashg'ulotlar jarayoni (mashg'ulotning o'zi yoki uning bir qismi) to'lqinsimon tezlikda ish bajarishga asosan tuzilishi kerak.

### **Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ahamiyati**

Sport mashg'ulotlari katta ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishda albatta sport musobaqlarini bo'lishi kerak. Musobaqaning o'z ixtisosini bo'yicha har xil darajalari bo'lishi mumkin. Har holda sport bilan shug'ullanuvchi talaba o'zining bajargan mashqlari natijasini ko'rishga qiziqadi. Ommaviy yugurishlar, suzishlar, velosiped poygalari va shu kabilarni o'tkazishda talaba-yoshlar ishtiroki faollahshadi. Musobaqalar da ishtirok etish jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga turki beradi, ommaviy musobaqalarning gazeta-jurnallarda yoritilishi, radio va televidenie orqali olib berilishi ommaviy jismoniy tarbiya harakatini keng targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega. Sharqda bayram va sayillar dorbozlarning chiqishisiz o'tmagan, har xil milliy o'yinlar va musobaqalar bilan polvonlarning chiqishlari, tosh ko'tarish o'yinlari bo'lgan.

Jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturida (o'quv muassasalarida, maktablarda) sinov-test mezonlari topshirilishi ko'zda to'tilgan, bu esa ma'lum vaqt davomida ish samaradorligini o'stirish maqsadida o'tkaziladi.

Sport to'garaklarida ma'lum kundalik dastur bo'lib, unda musobaqalar o'tkazilishi va hisobot olib borilishi va eng asosiyi bellashuvlar natijalarini taqqoslab tekshirish ko'zda to'tilgan bo'ladi. Sportchilarni tanlashni bir necha xilga bo'lish mumkin:

a) guruqli – bu sinov-test mezonlari asosida sportning har xil turlari bo'yicha o'quv mashqlari guruhlarda o'tkaziladi. Topshiriqning asosiy maqsadi – sportchilardan eng iqtidorlilarini saralash, ma'lum davrdagi faoliyat natijalarini tekshirish, sport turlariga qabul qilish uchun tekshirishdan o'tkazish.

b) o'quv muassasasi ichida – Spartakiada dasturi asosida, fakultetlararo musobaqalar o'tkaziladi. Asosiy maqsad – OO'M terma jamoasiga a'zolar saralashdir.

v) o'quv muassasalari bo'yicha – shahar oliv o'quv muassasalari o'rtaida, mintaqaga yoki mustaqil davlatlar doirasida o'tkaziladi. Asosiy

maqsad xalqaro musobaqalarda ishtirok etish uchun eng iste'dodli sportchilarni saralash.

g) xalqaro – har xil bo'lishi mumkin (jumladan, Osiyo birinchiligi yoki championati, Yevropa, Jahon, Olimpiada o'yintari, Universiada). Bu musobaqalar bir yilda bir marta, ikki-uch-to'rt yilda bir marta bo'lishi mumkin. Olimpiada o'yinlari yozda va qishda 4 yilda bir marta o'tkaziladi.

Asosiy vazifa qit'a yoki jahon sportchilaridan kuchlilarini rekord o'rnatish va uni ro'yxatga olish hamda sport turlarining maqsadi va vazifasini aniqlashdir. Sport mashqlari uslublaridan biri – musobaqaqtি deb nomlanadi. Haqiqatdan ham sport mashqlarida musobaqaning roli ulkandir. Birinchi navbatda, bunday mashq qilish jarayonida to'g'ritlik, halollik sinaladi va tegishli tarzda baholanadi.

### **Talabalar turar joylarida jismoniy tarbiya mashq'ulotlarini yo'lga qo'yish**

Ko'p asrlardan ma'lumki, odamlar o'z tanasini chiroyli va baquvvat qilib tarbiyalashga intilganlar. Chiroyli tana bu sog'lic elementlaridan biri. "Sog'lom tanada – sog'lom aql" deb behuda gapirishmaydi. O'quv muassasalari talabalarining ko'pchiligi (30 – 50 %) talabalar turar joyiada yashaydilar. Talabalar turar joylarida jismoniy tarbiya ishlarini olib borishi zarur va shartdir. Bu murakkab ishni bir tarafdan rektorat, dekanat, talabalar turar joyi ma'muriyati va jismoniy tarbiya kafedrasi, ikkinchi tarafdan sportklub, fakultetlar, sport kengashi, talabalar kengashi va talabalar turar joyi kengashi birqalikda olib borishi kerak.

Oliy o'quv muassasalarida mutaxassislarning shakllanish jarayonini ilmiy asoslash uchun, talabalarning o'qish davomida talabalar turar joyidagi turmushini, ish faoliyatini chuqur o'rganish lozim. Talabalar ertangi kunda qanday mutaxassis bo'lib yetishishi uchun faqat yaxshi o'qish kifoya qilmaydi, balki o'zini bugungi qiyinchiliklarni yengadigan, kelajakda yaxshi tadbirkor, qiyinchiliklardan qo'rqlaydigan mutaxassis qilib tarbiyalashimiz kerak bo'ladi.

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari oliy o'quv muassasalari hayotida katta o'rinn egallaydi. Birinchidan, talabalar, aspirantlar, o'qituvchilar va institut xodimlarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirib, foydali ko'nikma va malakalarini tarbiyalab, ularning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishiga zamin

yaratiladi. Ikkinchidan, talabalarning jismoniy tayyorgarligi va sport turiga bo‘lgan qiziqishini hisobga olib, bellashuvlar sharoitini tug‘diradi. Har xil tayyorgarlikdagi sport musobaqasi qatnashuvchilarning musobaqa qoidalarini bajarib ballar, ochkolar to‘plashi institutda jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o‘zining yo‘nalishiga qarab, o‘quv mashg‘ulot, tashviqot va targ‘ibotchi sport musobaqalariga bo‘linadi.

Sport musobaqalari katta foyda beruvchi tashkiliy-ommaviy, sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlaridan biridir.

Badanttarbiya elementlari belgilari o‘zga tadbirlar bilan birga to‘g‘ri ishlatsa, talabalar o‘z sog‘ligini mustahkamlaydi, umrini uzaytiradi va kayfiyatini yaxshilaydi;

Ibn Sino qayd qilib o‘tgan badanttarbiya turlariga o‘zaro tortishish (arqon tortish), musht bilan turtishish (boks), kamondan o‘q otish, tez yurish (sportcha yurish), nayza otish, irg‘ib osilish (gimnastika, uskumalarda osilish mashqlari), bir oyoqda sakrash, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, ikki qo‘lini silkitish (umumiyligda mashqlari), bir vaqtida oyoq uchlarida turib qo‘llarini oldiga va orqaga cho‘zib tez harakat qilish mashqlari kiradi.

Ko‘rib turibsizki, buyuk olim Ibn Sino tavsiya qilgan badanttarbiya mashqlarining turlari bugun bizgacha yetib kelibgina qolmay, balki shu turlardan xalqaro musobaqalar o‘tkazilib kelinayapti. Ushbu harakat o‘yinlari Osiyo va Olimpiada o‘yinlari dasturidan ham o‘rin olgan.

### **Sinov savollari**

1. Sport mashg‘uloti haqidagi asosiy tushunchaga nimalar kiradi?
2. Sportchining jismoniy sifati va ularni o‘zaro aloqasi to‘g‘risida nimalar bilasiz?
3. Chaqqonlikni aniqlash uslublari va tarbiyalash vositasiga haqida-chi?
4. Egiluvchanlikni aniqlash uslublari va tarbiyalash vositasiga nimalar kiradi?
5. Kuchni aniqlash, tatbiq qilish, tarbiyalash vositasi to‘g‘risida nima bilasiz?

6. Chidamlilikni aniqlash, tatbiq qilish, tarbiyalash vositasi to‘g‘risidachi nima bilasiz?
7. Tezlikni aniqlash, tatbiq qilish, tarbiyalash uslubi haqida-chi?
8. Jismoniy sifatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi, ularning tarbiyalash jarayonida nima namoyon bo‘ladi?
9. Musobaqalarni tashkil qilishning qanday usullari bor?
10. Uzoq muddatga mo‘ljallangan rejalashtirishning maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
11. Bir davrli rejalashtirish nimalardan iborat? Ikki davrli rejalashtirish va ko‘p davrli rejalashtirish maqsadi, vazifalari nimalardan iborat?
12. Dars – jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazishning asosiy shakli ekanligi nimalarda ko‘rinadi?
13. Darsning tayyorlarlik, asosiy va yakuniy qismlari haqida nimalar bilasiz?
14. Sportchining tayyorligi, sport musobaqasi, sportchilar tayyorlash uslubi va vositalari haqida nimalar bilasiz?
15. Bu ushublarining farqi nimada?
16. “Ketma-ket mashg‘ulot – insonga xos kuchni tarbiyalash vositasi” deganda nimani tushunasiz?
17. Har qanday jismoniy sifatni tarbiyalash uchun mustaqi mashg‘ulotlar tuzish uslubini bilasizmi?
18. Jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar tuzishning pedagogik asoslari nimalardan iborat?
19. Sport tayyorlarligining vazifasi va maqsadi, umumiy jismoniy tayyorlarlikda sport natijalarining ahamiyati nimada?
20. Talabalar turar joylarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari qanday tashkil etiladi?
21. Ommaviy sport deganda nimalarni tushunasiz?

## **IX BOB. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish**

### **Jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdag'i ijtimoiy ahamiyati**

Jahon hamjamiyatida tobora mustahkam o'r'in egallay boshlagan respublikamizda boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e'tibor berilmoqda. Qadim-qadimdan mamlakatimiz jahonga mashhur polvonlari, barchani loi qoldirgan chavandozlari, sheryurak yigit-qizlari bilan dong taratib kelgan. Ular haqida ulug' bobomiz Alisher Navoiydan tortib, barcha adibu shoirlarimiz, olimu faylasuflarimiz ajoyib va o'lmas asarlar yaratganlar, she'ru dostonlar bitganlar, qo'shiqlar kuylaganlar. – Alisher Navoiyning jahon adabiyoti xazinasidan o'r'in olgan beqiyos kuch-qudratga ega Farhod timsolining o'zini eslash kifoya. Yana xalq og'zaki ijodi durdonalarining qaxramonlari Go'ro'g'li, Alpomish, Avazxon, Sheralilarni eslashning o'ziyoq Turonzamin qadimdan sherbilak va sheryuraklar mamlakati bo'lib kelganligini bildirib turadi.

Respublikamiz ilk bor mustaqillik maqomiga ega bo'lgan tarixiy kundan boshlab jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblangan jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor berila boshlandi. Respublikamizda birinchi bo'lib "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etilganligining o'ziyoq mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi. Chunki aholisi sog'lom mamlakatning taraqqiyoti ham rivojlanishi ham sog'lom bo'ladi.

Sport harakati bilan birlashgan turli mamlakatlardan kelgan kishilarning tinchlik uchun kurashchilar ekanliklarini tarix juda yaxshi biladi. Chunki sport o'z tabiatiga ko'ra jahon miqyosida tinchlik etchisi vazifasini o'tab kelmoqda.

Xalqaro sport aloqalari rivojlangan sari davlatlar va xalqlar o'rtaсидаги о'заро ishonch, do'stona munosabatlar ham mustahkamlanib boradi.

Jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama taraqqiy ettirish bevosita iqtisodiy sharoitlarga bog'liq.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz uchun aqliy yetuk, jismonan sog'lom va baquvvat yigit va qizlar zarur. Mamlakatimiz ilk bor mustaqil qadam tashlay boshlagan dastlabki kezlardanoq bu muhim ishga alohida e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Jamoat, guruh va shaxsdagi jismoniy komillik tarbiya sub'ekti bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu sub'ektning jismoniy kamolotga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Har tomonlama rivojlangan jismonan barkamol, jismoniy kuch va jismoniy sifatlarning namoyon bo'lishi talabaning shaxsiy ehtiyoji hisoblanadi.

Jamoatchilik ehtiyoji O'zbekiston Respublikasining har tomonlama yetuk, jismonan sog'lom avlodini tarbiyalab, voyaga yetkazishdek ulug' vazifaga qaratilgandir.

Hozirgi kunda bu ehtiyojlar mahkama va idoralarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rejalarida ko'zda tutilmoxda. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, jismoniy tarbiya vositalariga bo'lgan shaxsiy ehtiyoj asosiy hisoblanib, uning negizida jismoniy kamolotning taraqqiy etishi hamma ishlab chiqarish tarmoqlarida shakllangan.

Sport inson organizmiga foydali ta'siri bilan bir qatorda "mushaklar quvonchi hissiyotini" ro'yobga chiqaradi, Sog'lom dam olishni tashkil etishda muhim o'rinnegi egallaydi, shaxsning o'zligini anglashda qadratli vosita vazifasini bajaradi.

Sport har doim o'zining ommaviyligi bilan odamlar e'tiborini jalb qilib kelgan. Sport tadbirlariga tomoshabinlarni jalb etishda hozirgi zamон axborot vositalarining xizmati katta. Shuning uchun ham yuqori ko'rsatkichli sport ommaviy sportning yuqori pog'onasi bo'lib, hamistagi ijtimoiy hodisalardan hisoblanib kelgan. Tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra, respublikamiz aholisining 10 %dan ortig'i sport musobaqalarini tomosha qilish uchun bevosita sport mashg'ulotlari o'tkaziladigan sport inshootlariga boradilar, 80 %ga yaqini esa sport ko'rsatuviularini televizorda tomosha qilishadi. Xillas sport faqat jismoniy kamolot vositasi bo'libgina qolmay, balki u ma'lum darajada o'ziga xos san'at vazifasini ham o'taydi.

### Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishda jismoniy tarbiyaning o'rni

#### Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish tizimida jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab hozirgi zamон iqtisodiyotiga o'tish davrida korxona, zavod va tashkilotlarni birin-ketin kompyuter bilan jihozlab kelayotgan bir paytda ishchilar, olimlar, idora xodimlarida jismoniy tarbiya va sportga, uning elementlariga ehtiyoj o'sib boryapti. Taraqqiy etgan mamlakatlar

(AQSh, Xitoy, Yaponiya) ning sotsiologlari to'plagan ma'lumotlarga binoan ishlab chiqarish gymnastikasi muntazam o'tkazilib turiladigan, sport inshootlari zamонавиј asbob-uskunalar bilan jihozlangan muassasa, zavod, korxona, firmalarda ishlab chiqarish unumдорлиgi boshqa korxona-firmalarga nisbatan 12–17 % yuqori, ishchilarning xodimlarning kasallikka chalinishi va kasallik varaqasi 15 – 22 % ham kam.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish MIAT muntazam ravishda ishlab chiqarishga tafbiq qilinadigan zamонавиј fan yutuqlariga va ilg'or tajribaga asoslanadi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish zamонаний texnikani va odamlarni yagona ishlab chiqarish jarayonida birlashtirishga imkoniyat tug'diradi.

Moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlab chiqarish unumдорлигини doimiy ravishda oshirishni va shu vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini tushirishni ta'minlaydi.

Afsuski, amalda ko'pgina ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tadbirlari sust tashkil qilinadi va mehnatkashlarning mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlari kengaytirilmaydi.

MIAT tarmog'idagi jismoniy tarbiya ikki nuqtai nazarii o'z ichiga oladi:

Birinchidan: MIAT tizimidagi jismoniy tarbiya mehnatrii ilmiy asosda uyuşdırish jarayonida odamlarning har tomonlama, ya'ni ham jismonan, ham aqliy rivojlanishiiga qaratilgan bo'jadi. Yetarli va kerakli tayyorgarlik, shu bilan birga mehnatga muntazam tayyorgarlikni saqlash, ishlab chiqarish jamoasida mehnatkashlarni tarbiyalash va mehnat unumдорлигини oshirish maqsad qilib olinadi.

Ikkinchidan: MIAT o'zining moddiy-texnika manbaiga, nazariy dasturiga ega bo'lib, maxsus tibbiy-biologik xizmat imkoniyatlari ni ham ishlab chiqarishni rivojlantirishga, uning barcha tarmog'idagi ishlarni yana ham yaxshilashga qaratadi. Jismoniy tarbiya vositalarining ishlab chiqarishga va mehnatrii ilmiy asosda tashkil qilish shakllariga unumiy ta'siri kattadir. Jismoniy tarbiya vositalari ish jarayonida, dam olijsha oqilona qo'llansa, odam organizmini zo'r g'ayrat qilib ishlashga tayyorlaydi, uning zo'riqishga chidamliligini oshirib, shu bilan birga ishchanlik va mehnat unumдорлигining tiklanishini tezlashtiradi,

toliqishning oldini oladi, umumiy ish qobiliyatini o'stiradi, ijtimoiy va mehnat faoliyatining o'sishiga yordam beradi.

Mehnat va dam olish sharoitlarining yaxshi tashkil qilinishi jismoniy tarbiya vositalarini ishga solish imkonini beradi.

Bunda jismoniy tarbiya vositalari odamga ikki xil gimnastika mashg'ulotlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

Birinchisi – shiddatli, tez, asosan ishlab chiqarish gimnastikasi vositalari tufayli, yuqori darajali ish unumдорligini kun bo'yи saqlab qolish, toliqishni yengish omilidir.

Ikkinchisi – odam organizmiga tiklanish davomida paydo bo'ladigan jismoniy va rubiy kuchlarning rivojlanishi va takomillashtishi bo'lib, u surf qilingan kuchni faol dam olish orqali tiklaydi va mashg'ulotlarni odam organizmiga jismoniy tarbiya vositalari orqali ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Ushbu yo'nalishning amalga oshirilishi psixik-asab qisqarishini o'z ichiga oladi, boshlangan harakatlarning davom etishini, uning sonini oshirib, ayrim mehnat turlariga sarflanadigan kuchni tejab borishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya odamning ish jarayonida to'g'ri fikr yuritishini, harakatlarini ongli ravishda boshqarishini ta'minlaydi. Jismoniy mashqlar bir me'yorda bajarilganda odamning harakat faoliyatiga sarflanadigan kuch-quvvatini tejaydi.

### **Kadrlarni tayyorlash, ishchi-xodimlarning madaniy-texnik tayyorgarligi va uni yuqori darajaga ko'tarish**

Jismoniy madaniyatning mehnatni ilmiy asosda tashkil etish bilan o'zaro aloqasini ikki tomonlama, ya'ni odamning mehnat faoliyatiga tayyorligi nospesifik (o'ziga xos bo'lman) va spesifik (o'ziga xos bo'lgan) yo'nalishlarda amalga oshiradi.

Nospesifik omil sifatidagi tayyorgarlik jismoniy tarbiyaga quyidagicha faol va samarali yordam beradi:

- odamni shaxs sifatida har tomonlama va uyg'un rivojlanishiga, shakllanishiga, tarbiyasiga, kerakli ruhiy va jismoniy sifat va xususiyatlarini rivojlantirishga va takomillashtirishga;

- sog'liqni mustahkamlashga, umuman og'ir va tez-tez o'zgarib turadigan sharoitda shu faoliyatni o'ziga xos bo'lman ish qobiliyatining o'sishiga, chidamlilikka, biologik jarayon va mexanizmlarni boshqarishni takomillashtirishga;

- umumiy va maxsus ta'limni o'rgatishda samaraliroq jismoniy tarbiya tadbirlari orqali amaliy-kasbiy maqsadlar amalga oshiriladi.

Mehnat manbalaridan to'g'ri foydalanish orqali spesifik yo'naliш maqsadlari amalga oshiriladi. Bunda MIAT ijobiyl roл o'ynaydi:

- odamning ijtimoiy safarbarligini, yangi mehnat topshiriqlarini bajarishga tayyorligini va uning ijtimoiy faolligini, yangi kasb egallashiga, har xil kasblarni birga qo'shib olib borishga, mehnat sharoitini o'zgartirishga tayyorgarligini o'stiradi. Har bir kishining ish bajarish qobiliyatini va uning o'z kasbiga qizqishini oshiradi, kasbiga oid faoliyatga puxta tayyorlanishiga ko'maklashadi;

- omillardan biri sifatida mehnat imkoniyatlarini o'zgartirishni boshqaradi, ishlab chiqarish xodimlari ishining unumdarligini ko'paytiradi hamda ularning sanoat va boshqa xalq xo'jaligi ishlarida faol qatnashishiga ko'maklashadi;

- jismoniy tarbiya va sport, jamoadagi tashkiliy mashg'ulotlar ishlab chiqarishning rivojlanishiga, odamlar bir-birlarini tushunishiga va do'stlikka, axloqiy va ijtimoiy-ruhiy sharoitga o'rganishiga hamda birgalikda ijodiy faoliyat ko'rsatib, jamoada mehnat unumdarligining o'sishiga ko'maklashadi.

### **Mehnatni bir me'yorda tashkil qilish**

Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan kishilar boshqalarga qaraganda chidamliroq, intizomliroq bo'lib, kun davomida ko'p va sifatli muahsulot ishlab chiqaradi.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishda va unumdarligini oshirishda jismoniy tarbiya vositalaridan to'g'ri va muntazam foydalanilsa, korxona va muassasalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifati va miqdori ortadi, ishchi-xizmatchilarning ish faoliyati samaradorliroq bo'ladi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning bu elementiga jismoniy tarbiyaning ta'siri insonni ijobiyl o'zgarishlarga olib keladi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishda jismoniy tarbiya jihozlaridan foydalanish ish unumiga sezilarli darajada ijobiyl ta'sir ko'rsatadi; ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qisqa dam olish davrlari, ish joylarida ishni to'g'ri tashkil qilish ham katta rol o'ynaydi. Bu ko'proq, sport anjomlaridan qanday foydalanish bilan bog'liqdir.

## **Ishlab chiqarishda jismoniy madaniyat, uning maqsadi va vazifalari**

Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya vositalari samarali tanlangan va amalga oshiriladigan jismoniy mashqlar majmuasi bo'lib, insonning mehnat qilish qobiliyatini o'stirishga va uni ma'lum doirada saqlab qolishga yo'naltirilgandir.

Ishchi-xizmatchilarning salomatligini mustahkamlash va ularning mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi jismoniy tarbiyaning maqsadidir. U asosan korxona, tashkilotlar, uyushma hududida ish paytida va ishdan tashqari vaqtida o'tkaziladi. Shaklan u uyushgan va mustaqil, guruhlarga bo'lingan va ikkala aralash holda o'tkazilishi mumkin, Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya va umum salomatlik mashg'ulotlarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar korxona rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan yaratib berilishi shart. Ishlab chiqarish jismoniy tarbiyasi umumiyoq sog'lomlashtirishdan tashqari maxsus masalalarni: insanni mehnatga tayyorlash, ish vaqtida va undan so'ng ishchanlik qobiliyatini tiklash, faol mehnat qilish va boshqa masalalarni hal qilishga qaratilgandir.

### **Ishlab chiqarish gimnastikasi**

1. Ishlab chiqarish gimnastikasining asosiy vazifikasi charchoqni chiqarish hisobiga ishchanlik qobiliyatini oshirish, kuchquvvatni tiklash jarayonlarini jadallashtirish.
2. Ish kuni tugashi bilanoq tiklanish jarayonlarini jadallashtiruvchi, mehnat faoliyatini tugatgandan keyingi tiklanish.
3. Odam organizmining mehnat jarayonidagi nomaqbul omillarga qarshilik ko'rsatishi (profilaktikasi).
4. Jismoniy va ruhiy ko'nikma, qobiliyatlarini ma'lum darajada saqlashga yoki o'stirishga qaratilgan kasbiy amaliy tayyorgarlik.

Agar ishchilarning faoliyatida jismoniy yuksalish sezilarli darajada katta bo'lsa, ish kunidan keyingi tiklash tadbirlariga kiritiladigan gimnastik mashqlar to'plami mushaklarni bo'shashtirishga yo'naltirilishi kerak. Bu mashqlar tez va to'la dam olishga, charchoqning tiklanishiga imkon beradi.

Agar mehnat katta jismoniy yuklanishni talab qilmasa, unda jismoniy mashqlar katta mushaklar guruhini nafas olish va qon aylanish tarmog'i faoliyatini faollashtirishga qaratiladi. Ishlab chiqarish gimnastikasining shakli va mazmunini tanlashda mehnatning aqliy

yuksalishi ham hisobga olinadi, bu oliv asab faoliyatini va ruhiy jarayonlarni ishga kirishish pog'onasini ifodalaydi.

Bu vazifani hal qilishda jismoniy mashg'ulotlarni nomiga o'tkazish ham foyda keltiradi. Uni jonli, ko'tarinki ruhda o'tkazilsa, natija juda yaxshi bo'ladi. Jismoniy mashg'ulotlarda boshqa ma'lum usullardan suv bilan davolash, musiqa jo'r bo'lishidan foydalanish katta natija beradi. Ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlarining shakl va mazmunini tuzishda ishchi-xizmatchining ish paytidagi gavda vaziyatini ko'proq to'g'ri tutishini e'tiborga olish kerak. Ishchi tik turib ishlasa, tiklanish hamda charchoqning oldini olish mashg'ulotlarini o'tirgan holda bajarish tavsiya qilinadi. O'tirib ishlaydigan ishchilar uchun faol dam olish, mehnat jarayonida va ishdan keyin hamda toliqishning oldini olish mashg'ulotlari turgan holda bajarilsa yaxshi bo'ladi. Majburan noqulay vaziyatda bajariladigan ishdan so'ng mashg'ulotlar o'tirib yoki turli holda bajariladi. Bunda mashqlarni shunday tanlash kerakki, ular ish holatida yuklanishda bo'lgan mushaklarni iloji boricha bo'shashtirib turishi kerak.

Ish jarayonida jismoniy yuklanish ta'siri mushaklarga bir me'yorda taqsimlanmaydi. Ayrim mushaklarga asosiy og'irlik tushsa, boshqalariga kamroq va ayrimlariga umuman og'irlik tushmaydi. Jismoniy tarbiya mashqlarini tanlashda bularni e'tiborga olish zarur. Ish kuni davomida uzluksiz jismoniy yuklanish jismoniy harakatga sarflanganda jismoniy tarbiya mashqlariga chuqur nafas olish bilan badanni bo'shashtirish mashqlarini kiritish tavsiya etiladi.

Mehnat sharoiti va uning tashkil etilishi ko'pincha toliqishning tasnifi va darajasini belgilab beradi. Toligish turli xilda namoyon bo'lishi mumkin. Dastlab loqaydlik, mudroq bosish hollari, ishni davom ettirishni xohlamaslik bo'lsa, keyinchalik odam hayajonlangan holda va serjaht holda harakat qilishi mumkin. Shuning uchun tiklanish mashqlari ham turli xil bo'lishi kerak. Birinchi bo'lib charchoqning oldini olishda o'rta va yuqori tezlikda bajariladigan badanni bo'shashtiruvchi mashqlar bilan keng amplitudali harakatlari dinamik mashqlar yordam beradi.

Jismoniy tarbiya mashqlarini tanlashda ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ular turli xildagi ishlab chiqarish gimnastikasi va maxsus mashqlar ta'siriga berilish mezonlarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish korxonalari uchun jismoniy tarbiya mashqlari ro'yxatini tuzishda shugullanuvchilarning jismoniy holati va

rivojlanishiga ham e'tibor berish kerak, bunda jismoniy mashqlarni shunday tanlash kerakki, ularni hamma shug'ullanuvchilar ham bajara oladigan bo'lsinlar.

Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy mashg'ulotlarni rejalashtirishda shug'ullanuvchilarning jinsiga e'tibor berish kerak. Bu shak-shubhasiz mashg'ulot o'tkazish uslubini yanada to'g'ri tanlashga yordam beradi. Ayollar uchun ba'zi bir raqs elementlari kiritilgan harakatlar maqsadga muvofiqdir. Erkaklarga esa kuchli, keskin harakatli mashqlarni tavsiya etish afzalroqdir. Bundan tashqari, shug'ullanuvchilarning yoshlariga ham alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Katta yoshdagi odamlarga nisbatan yosh ishchi xizmatchilarga birmuncha ko'proq jismoniy kuch sarflanadigan mashqlar tanlanishi kerak.

### **Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy tarbiya vositalarining turlari va tadbir o'tkazish usullari**

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya mashqlarining bajarilishi mehnatni ilmiy tashkil etishning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Yuqori malakali mehnat layoqatini saqlash shartlaridan biri, ish faoliyatining bir turidan boshqa turiga o'tish mezonlarini hosil qilishdir. Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi – gimnastikadir. Uning ilmiy asosi – I.M.Sechenov tomonidan ochilgan – faol dam olish natijasi va I.Pavlov tomonidan ta'rif etilgan mehnat layoqatining eng muvofiq sharoitlarini saqlovchi markaziy asab tomirlaridagi qo'zgalish va tormozlanishning muntazam almashinuv jarayonidir.

Bir ish kuni davomida ishchi bir xil harakatlarni bir necha bor takrorlaydi. Bu ish faoliyati bosh miya qo'zg'aluvchanligini va mushaklar harakatini avtomat holatiga olib keladi. Bu bosh miya katta yarim pallasi pustlog'idagi asab markazlarining davomiy ko'zg'alishidir.

Kun bo'yи insonning ishchanlik qobiliyati bir xil bo'lmaydi. Kun boshida organizmning hamma tarmog'i va faoliyati mehnat maromiga moslasha boshlaydi, natijada asta-sekin ishchanlik qobiliyati oshib boradi (kunduzi soat 12gacha). Yuksak darajaga yetib, u ancha vaqtgacha yuqori bo'ladi (soat 14gacha), so'ngra toliqish natijasida pasayib boradi. Kun davomida ishchanlik ikki marta o'zgaradi.

Charchab qolish bilan kurashish va yuqori ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish maqsadida mufassal ravishda ma'lum vaqtidan so'ng ishni to'xtatib, maxsus tanlangan gimnastika mashqlarini bajarish lozim. Ish paytidagi gimnastika bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, ularni ish paytidagi jismoniy tarbiya vositalarini tanlashga katta e'tibor berish kerak.

Bu xususiyatlar quyidagilar: vaqtning cheklanganligi, mashqlar bevosita ish joyida bajarilishi, ish kiyimida bajarilishi.

Ish vaqtidagi gimnastika uslubini ikkiga bo'lish mumkin: tuzish uslubi va o'tkazish uslubi.

Agar jismoniy mashqlar to'plami to'g'ri tuzilgan bo'lib, o'z vaqtida bajarilmasa, uning foydasi kam bo'ladi. Ishlab chiqarish gimnastikasi 4 shaklga ega.

**Kirish gimnastikasi.** Odam tanasidagi biologik jarayonlarni jadallashtiradi. Maxsus tanlangan gimnastika mashqlarini bajarish natijasida ishga kirishish davri ikki marta qisqaradi. Kirish gimnastikasi ishchanlik qobiliyati davrini ham uzaytiradi. Kirish gimnastikasi majmuasi ish kuni boshida 5–7 daqiqa davomida bajariladigan, mashqdan iborat bo'ladi. Kirish gimnastikasi majmuasi turli ishlab chiqarish korxonalarida maxsus mashqlar majmuasi va mashq'ulot jarayonida kuchlanishning taqsimlanishi bilan farqlanadi. Kirish gimnastikasining odatdagisi tartibi quyidagicha:

1. Yuushtiruvchi mashqlar.
2. Badan, qo'l va oyoq mushaklari uchun mashqlar.
3. Umumiy hamma mushaklarga ta'sir qiluvchi mashqlar.
4. Badan (tana), qo'l va oyoq mushaklari uchun mashqlar.
- 6 – 8 ta maxsus mashqlar.

5. Og'ir jismoniy ish bilan shug'ullanuvchi odamlar uchun bajarilishi oson bo'lgan kirish gimnastikasi.

Ular har xil mushaklarning faol harakatlarini birin-ketin qizdirishga yordam beradi. Jismoniy harakat faoliyati mashqlar majmuasining oxirgi choragiga borib ko'payadi.

O'rtacha og'irlilikdagi mehnat bilan shug'ullanuvchilar (masalan, turli xil stanoklarda ishlovchilar uchun mashqlar) kirish gimnastikasi sifatida ish vaqtida band bo'lmaydigan bir guruh mushaklarga dinamik amplitudali mashqlar kiritiladi. Eng og'ir mashqlar to'plamning o'rtasiga, ya'ni 4-mashqqa to'g'ri kelishi kerak. Zo'riqish talab qilmaydigan, ko'proq qulqoq, ko'z va hokazo a'zolar ishlaydigan kasb

egalarining kirish gimnastikasiga har xil mushaklar guruhi uchun maxsus harakatli mashqlar tanlanadi. Eng ko'proq mashq, jismoniy og'irlik to'plamning birinchi qismiga to'g'ri kelishi mo'ljallanadi. Mehnatni tashkil qilishda ish sharoiti organizmga salbiy ta'sir qiladigan bo'lsa, shu ish tufayli kelib chiqadigan kasallikning oldini olish mashqlarini tanlash tavsiya qilinadi. Masalan, ip yigiruvchilar, stanokda ishlovchilar va hokazo – kun bo'yli oyoqda turib ishlaydiganlar yassi oyoqlik, umurtqa pog'onaning qiyshiq rivojlanishi kasalliklariga duecher bo'ladilar. Shuning uchun kirish gimnastikasi mashqlari to'plami ana shu kasalliklarning oldini olishga qaratilgan bo'lishi kerak. Kirish gimnastika to'plamining oxirida ish jarayoniga yaxshi tayyorlanish uchun maxsus mashqlar bajariladi. Ular o'z turkumi va maqomi bilan ish harakatlari o'xhashi, ba'zida esa shu harakatni aynan takrorlashi mumkin. Maxsus mashqlar ishchinining ish vaqtida asosiy og'irlik tushadigan mushaklari uchun tanlanadi. Masalan, to'qimachilar, yigiruvchilar uchun suyak mushaklari mashqlari qo'llaniladi. Bu mashqlar barmoqlarning ip bog'lash unumdotligini oshiradigan bo'lishi kerak. Tikuvchilar, mayda detallarni yig'uvchilar, chizmakashlar va boshqa shu kabi kasb egalarining ishlari etiborni, diqqatni bir nuqtaga to'plashimi talab qitadi, bu vaziyatda ishchilar kayfiyatini ko'tarish uchun maxsus mashqlar yordam beradi.

Jismoniy tarbiya mashqlari ish jarayonida paydo bo'lган toliqishni yo'qotish uchun qo'llanilib, 5-7 mashqlardan tashkil topib, toliqish davrida 5-7 daqiqa davomida bajariladi.

Gimnastik mashqlar to'plamini o'tkazish vaqtি ish kunining rejasiga, uning faoliyati turiga, mutaxassis qobiliyatiga bog'liq. Og'ir jismoniy mehnat qiladiganlarga jismoniy tarbiya lahzasi ish boshlanganidan 1,5 soatdan so'ng, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun ish boshlanganidan 3 soatdan so'ng o'tkazish mumkin. Jismoniy tarbiya lahzasi gimnastika mashqlari mehnat jarayonining turiga qarab tanlanadi. Jismoniy og'irlik, aqliy mehnat yuklanishni e'tiborga olib, ishlab chiqarish gimnastikasining tasnifi belgilangan. Mehnat faoliyati turlari 4 guruuhga bo'linib, har qaysi guruuh uchun sakkiztadan jismoniy mashqlar namunasi tuzilgan, ular jismoniy gimnastika mashqlari to'plamini ishlab chiqishda katta yordam beradi, har xil kasb guruhlari uchun tuzilgan gimnastika mashqlar to'plami bir necha umumiylukka ega. Qaysi bir mehnat faoliyatining turi bo'lmasin, toliqishning birinchi alomati paydo bo'lishi bilan organizmning tabiiy

talabi: chuqur nafas olish, kerilish, yelkani orqaga tashlab, qo'llarni yuqoriga ko'tarish va hokazo mashqlarni bajarishdir. Biz jismoniy tarbiya lahzasida o'tkazadigan gimnastika mashqlarining boshida va oxiridagi mashqlarni sekin va chuqur nafas olish bilan bajarilishini tavsiya qilamiz. Jismoniy tarbiya lahzasidan so'ng ish jarayoni davom etadi, shuning uchun jismoniy mashqlarni bajarish, mehnat unumdorligini oshirishga, uni yuqori kayfiyat bilan davom ettirishga sharoit yaratib berishi kerak. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, yuqorida aytib o'tilgan holatga diqqatni bir joyga to'playdigan mashqlar yordamida erishish mumkin ekan. Hamma guruhlar uchun (og'ir jismoniy mehnat guruhidan tashqari) umumiysi shuki, to'planning o'rtaсидаги mashqlar organizmga eng kuchli ta'sir qilishi kerak.

**Birinchi guruhdagи kasb** mehnatkashlariga juda og'ir bo'limgan jismoniy yuklanish bilan bog'liq mehnat bilan shug'ullanuvchilar kiradi (bir me'yordagi bir xil ish qonveyerda ishslash, diqqatni talab qiladigan ishlar, tikuvchilar, saralovchilar, mayda detallarni qoliplovchilar va boshqalar).

Bu guruh ishchilari uchun jismoniy tarbiya lahzasida hamma guruh mushaklari faoliyatini o'z ichiga oladigan gimnastika mashqlari, harakatchan mashqlar tanlanadi. Mashqlar gavdani to'g'ri tutishga, yurak-tomir va nafas olish tarmoqlari faoliyatiga, modda almashinuviga ko'maklashadi, eng muhimini tos va qo'l-oyoqlarda qon aylanishini kuchaytiradi. Buning uchun o'tirib-turishning har xil usullari tavsiya qilinadi, organizmga katta zo'tiqish bermaslik uchun sakrash va yugurish mashqlari tavsiya qilinmaydi.

Bu kasb guruhlari uchun o'tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalari quyidagicha:

1. Qo'llar kuchi bilan tortilish mashqlari.
2. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun (burilish, engashish) mashqlari.
3. Tana, qo'l, oyoq mushaklari uchun tez sur'at va katta amplituda bilan bajariladigan mashqlar.
4. Umumiyligi ta'sir ko'rsatuvchi mashqlar (o'tirib-turish tez yurish, o'tirib-turish bilan engashish, biriktirilgan qo'l-oyoq harakatlari).
5. Tana, qo'l, oyoq mushaklari uchun silkinish (siltash) mashqlari.
6. Qo'l mushaklarini bo'shashtiruvchi mashqlar.

7. Harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va aniqlik mashqlari.

**Ikkinci guruhdagi kasb** mehnatkashlariga aqliy va jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar kiradi. Ishlab chiqarish korxonalarida bu guruhga tokarlar, frezerchilar, tikuvchilar, yigiruvchilar, gilarn to'quvchilar kiradi.

Bu guruhdagilar uchun jismoniy tarbiya laxzasidagi mashqlar to'plami bo'shashtirish belgilari bo'lgan xilma-xil dinamik mashqlarni o'z ichiga olishi kerak Ushbu guruhga tegishli kasbiy ishlarning asosiy qismi ishchilar turgan holda bajargani uchun mashqlar bajarish paytida oyoq mushaklarini dam oldirish kerak.

Jismoniy tarbiya daqiqasida bu guruh kasbi uchun tanlangan mashqlar har xil guruh mushaklarini zo'riqishini kamaytirishga, nafas olish va qon aylanish faoliyatini yaxshilashga, tovon mushaklarini mustahkamlashga imkon tug'dirishi kerak.

Bu guruh uchun namunali jismoniy tarbiya daqiqasidagi mashqlar to'plami quyidagilar:

1. Qo'llar kuchi bilan tortilish mashqlari.

2. Tana mushaklari uchun mo'ljallangan bo'shashtirish belgilari bo'lgan mashqlar.

3. Qo'l va oyoq mushaklari uchun mashqlar.

4. Umumiy ta'sir etish mashqlari – yugurish, sakrash, o'tirib-turish.

5. Siltash turidagi mashqlar.

6. Bo'shashtirish mashqlari.

7. Diqqatni muvofiqlashtirish mashqlari.

**Uchinchi guruh kasb egalari** og'ir jismoniy zo'riqish ishi bilan shugullanuvchilardir. Bular qoliplovchilar, metall quyuvchilar, quruvchilar, temirchilar, shaxtada ishlovchilar va boshqalar. Bu guruh uchun jismoniy tarbiya lahzasidagi gimnastika mashqlari to'plami asosan chuqur nafas olish va nafasni bo'shashtirish mashqlaridan iborat bo'lishi lozim. Ular qon aylanishini yaxshilaydi, organizmda tiklanish jarayonini tezlashtirishga imkon yaratadi. Gimnastika mashqlari odadta o'rtacha va sekin tezlikda bajariladi. Jismoniy tarbiya mashqlari sust faol dam olish bilan birgalikda olib boriladi.

Jismoniy tarbiya lahzasidagi mashqlarni bir guruh kishiilar o'tirgan holda bajarganlari afzalroqdir, agar maxsus xonalar bo'lsa, ayrim mashqlarni yetgan holda bajarish mumkin.

Bu guruh uchun bajariladigan mashqlar organizmdagi zo'riqishni pasaytiradi, ishlab to'rgan mushaklarda qon aylanishini, nafas olishni yaxshilaydi, umurtqa va tovon suyaklarini mustahkamlaydi.

Og'ir mehnat qiluvchilar uchun jismoniy tarbiya tanaffusida quyidagi mashqlar bajarish tavsiya qilinadi:

1. Chuqur nafas olib, qo'l va yelka mushaklarini bo'shashtirish.
2. Chuqur nafas olib, har xil mushaklarni bo'shashtirish mashqlari.
3. Chuqur nafas olib, qo'l, oyoq va gavda mushaklari uchun o'tirib yoki yotib mashqlar bajarish.
4. Mushaklarni bo'shashtirish va harakatni yengillashtirish mashqlari.
5. Gavda, qo'l va oyoq mushaklarini bo'shashtirish mashqlarini harakatni yengillashtirish mashqlari bilan birgalikda olib borish.

**To'rtinchi guruh aqliy mehnat** bilan shug'ullanuvchilar, harakat qilish asab tarmog'iga ko'p og'irlilik beruvchi kasb egalari kiradi. Ularga muhandis, kotib, o'qituvchilar, operatorlar, hisobchilar, ilmiy xodimlar, tarjimonlar va boshqalar kiradi.

Bu guruhdagilar uchun gimnastika mashqlarida har xil jismoniy harakatlar keng ko'lamda foydalilanadi, jismoniy tarbiya vositalari ularning harakatlarini yengillashtirish, ish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda organizmni chiniqtirish, baquvvatlashtirish va qon aylanishini yaxshilashga qaratiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tanaffusida oyoq mushaklari uchun bajariladigan mashqlarni albatta qo'shish kerak. Bu organizmdagi hujayralardan tomirlar orqali butun tanaga qon yurishini ta'minlaydi, bosh miya qon tomirlarida qon yurishini tezlashtiradi, pastki va kichik tos suyaklarida qon qotib qolishining oldini oladi. Jismoniy tarbiya tanaffusidagi mashqlarni yaxshisi tik turib bajarish ma'qul. Bu guruhdagilarga quyidagi tartibda mashq bajarish tavsiya qilinadi:

1. Tortilish mashqi.
2. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun mashqlar.
3. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun yuk bilan tez harakat qilish mashqlari.
4. Umumiy ta'sir qilish mashqlari: o'tirib-turish,yugurish - sakrash.

5. Oyoq, qo'1 va gavda mushaklari uchun mashqlar, ko'proq oyoq harakatlari bilan birga olib boriladi.

6. Qo'1 mushaklarini bo'shashtirish mashqlari.

7. Diqqatni harakatga moslab olib borish mashqi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari vaqtida 1, 2, 3-nchi guruhdagilar o'z harakatlarini sekin-asta tezlashtirib borib, mashqlarning o'rtasida, ya'ni yarmida esa harakatlarni sekinlashtirib, mashqlarning oxirida o'rtacha harakat bilan bajarish tavsiya qilinadi.

3-nchi guruhga kiradiganlarga harakat tezligini bir xilda oshirish teskari ta'sir ko'rsatadi, chunki ish jarayonida jismoniy harakatning organizmiga ta'siri katta, mashqlar to'plamining o'rtasiga kelib mashqlarning ta'siri kamayadi. Mashqlarning oxiriga kelib og'irlik ko'payadi. Bu esa mehnatni davom etirishga yangi kuch bagishlaydi.

Umumiy jismoniy kuchlanish dam olish vaqtida ish vaqtidagi nisbatan oshib ketmasligi kerak. Ish vaqtida kam harakat qiluvchilarga korxonalardagi jismoniy tarbiya tanaffusini bir necha marta takrorlashi, ish vaqtidan keyin ko'proq mashq qilishlari tavsiya etiladi.

3-nchi gurubdagilar uchun jismoniy mashqlar 35 – 40% qisqartirilishi kerak.

Odam organizmiga ta'siri katta bo'ladigan mashqlarni o'zgartirish yo'li bilan ularning samarasini yanada oshirish mumkin. Mashq bajarish tezligini oshirib, sonini kamaytirib, uning ta'sirini ko'paytirish mumkin. Masalan, tortilish doim sekin-asta harakat orqali bajariladi, sakrash mashqi esa tez harakatga bog'liq. Engashish, burilish va quloch yozishni har xil tezlikda bajarish kerak. Bu o'z navbatida gimnastika mashqlarining bajarilishi qiyinligini ko'paytirishi va kamaytirishi mumkin.

Jismoniy tarbiya daqiqalariga faol dam olish ham kiradi. Bu mashqlar 1-2 lahzada 2-3 xil harakatlarni tashkil qiladi. Bu lahzalar umumiy yoki alohida mashqlardan foydalangan holda bir ish kunida 5 martagacha qo'llanilishi mumkin. Jismoniy tarbiya lahzalarida umumiy harakatlarga **Birinchi gimnastika** mashqi alohida ta'sir ko'rsatadi, odatda gavdani to'g'ri tutish va yelkaterni orqaga burish asosiy harakat hisoblanadi. Bu hamma vaqt chuqur nafas olish bilan birga olib borilmaydi, chunki xonalar ta'siri, uy harorati va tibbiy-tozalik, gigiena hamisha ham talabga javob beravermaydi.

**Ikkinchı mashq** – engashish va gavda bilan burilish, qo'l va oyoqlar tana atrofida birga aylanishdan iborat bo'ladi. Buni doim, istagan paytda bajarish mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tanaffuslari va lahzalari ish vaqtida atrof-muhit holatlardan qat'i nazar, foyda keltiradi. Ba'zi bir joylarda tozalik-gigiena holatlari yomonligi tufayli jismoniy tarbiya tanaffuslarini o'tkazishga sharoit bo'lmaydi. Bunday sharoitda ham 4–5 gimnastika mashqlaridan iborat jismoniy tarbiya lahzasi o'tkazilsa, charchoq tarqaladi va mushaklarda quvvat paydo bo'ladi.

Jismoniy tarbiya lahzalari jismoniy tarbiya tanaffuslari yoki umumiylarni olish imkoniyati bo'lmasdan vaqtida katta foyda keltiradi. Bunday joylarda stanoklarni o'chirmasdan, ishlayotganlarni ishdan qoldirmasdan alohida tartibda jismoniy tarbiya lahzalaridan foydalinishda 4–6 gimnastika mashqlarini bajarish ko'proq foyda keltiradi. Bunda mehnat qilayotgan odam, o'z imkoniyatlaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya lahzalaridan unumli foydalinishi maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya lahzalaridan unumli foydalinishi ko'pchilik ishchilarga charchoqni tarqatish va o'z jismoniy holatini yaxshilashda katta yordam bera oladi. Lahzalik tanaffusning maqsadi bosh miya, asab tarmog'i qo'zg'aluvchanligini ko'tarish yoki pasaytirish orqali toliqishni susaytirish, bosh miya va boshqa a'zolarda qon aylanishi, ayrim sezgi tarmog'idagi toliqishni susaytirishdir. Lahzalik tanaffusda ko'proq harakatsiz, mushaklarni bo'sh qo'yish, ko'zlar, bosh bilan harakat qilish, nafas olish mashqlari, o'z-o'zini uqalash usullari, binoda yurish kabi mashqlar bajariladi.

Ish kuni davomida bunday mashqlar ko'p marta qo'llanishi mumkin, lekin albatta, jismoniy tarbiya tanaffuslarida ishlab chiqarish gimnastika mashqlari bilan birga qushib olib borilishi kerak.

Jismoniy tarbiya mashqlari mehnatni tashkil qilish va ish vaqtiga qarab tanlanishi lozim. Umumiylarni olish mashqlari ish vaqtining uzoqligiga qarab tanlanadi. Shuningdek, mashqlarni ish kuni vaqtiga (ertalabki, kunduzgi yoki kechki) qarab tanlash tavsiya qilinadi. Ertalabki ish kuni dagilarga gimnastik mashqlar, kechkilarga tez-tez umumiylarni olish mashqlari tavsiya qilinadi. Ish vaqtida yoki dam olish paytidagi mashqlar to'g'ri taqsimlanishi katta muvaffaqiyat keltiradi. Avvalo ish vaqtida umumiylarni olish gimnastika mashqlarini to'g'ri taqsimlash kerak. Odam organizmida charchoqning boshlanishi bilan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish ijobiy ta'sir qilishi isbotlangan. Agar og'ir

mehnat qiladiganlarda dam olishga ehtiyoj 1,5 soatdan so'ng tug'ilsa, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarda toliqish belgisi 3,5 soatdan so'ng boshlanadi.

Bundan kelib chiqadiki, har xil kasb egalari uchun dam olish vaqtini bir vaqtda belgilash noto'g'ridir. Jismoniy tarbiya mashg'ulotida mashqlarning erta bajarilishi ham zarar keltirishi mumkin. Mashqlarning bajarilishi oldin tushuntirilib, keyin bajariladi. U jismoniy mashg'ulotlar o'tkazishda tajribasi bo'limgan shaxslar uchun juda qulaydir.

Ishlab chiqarish gimnastikasi to'plamini 4 – 5 haftada o'zgartirib turish kerak. Bir xil mashqlarni uzliksiz uzoq vaqt bajarganda mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish pasayib, uning foydasi kamayadi, ammo mashqlar to'plamini tez-tez o'zgartirib turish ham notug'ri bo'ladi. Chunki shug'ullanuvchilar ularni (mashqlarni) o'zlashtirishga ulgurmaydilar.

Agar gimnastika to'plami va jismoniy tanaffus radio orqali amalga oshirilsa, jamoatchi yo'riqchi yoki mashg'ulotlarni tashkil qiluvchi mashqlarning bajarilishini ko'rsatish va ularning bajarilishi davomida kamchiliklarni to'g'rilash vazifasini o'taydi, Agar ishiab chiqarish gimnastikasiga musiqa jo'r bo'lmasa, jamoatchi yo'riqchi yoki uslubchining vazifasi mashg'ulotlarni tashkil qilish, mashqlarning bajarilishini to'g'ri tushuntirish, topshiriq berib turish, mashqlarning bajarilishi davomida tanbeh berib turish va hokazo bo'ladi. Eng muhim, mashqlarning bajarilishini to'g'ri ko'rsatish va vaqt cheklangani uchun qisqa hamda aniq qilib tushuntirishdir.

Gimnastika atamasidan to'g'ri foydalanish shart, lekin shug'ullanuvchilarning ko'pi ularni bilmagani uchun yangi atamalarini asta-sekin kiritish kerak. Odatda gimnastika mashqlarini to'g'ri bajarish uchun bir vaqting o'zida ham ko'rsatish, ham tushuntirish kerak bo'ladi. Bu ikki usul bir-birini to'ldiradi.

Jamoatchi - yo'riqchi yoki uslubiyatchi shug'ullanuvchilarga yaxshi ko'rindigan joyda turib, mashqlarning bajarilishini to'g'ri ko'rsatishi lozim.

## 1-ilova

### Mashqlar namunasi.

Kam harakat qiladigan kasb egalari uchun kirish gimnastikasining namunasi:

1-mashq. Dastlabki holat. Turgan joyida yurib oldinga va orqaga qarsak urish (30-40 marta).

2-mashq. D.h. – a.v. 1–2 deganda o'tirib, qo'llar har tomonda, 3-4 deb sanaganda tez turish, chap oyoqni orqaga siltash, qo'l yuqorida; shu holatning o'zini o'ng oyoqni orqaga siltab 4-6 marta takrorlash.

3-mashq. D.h. – a.v. 1–2 qo'llar bukilgan holda joyda yugurish 30-40 soniya, so'ng joyida yurishga o'tish 20-30 soniya.

4-mashq. D.h. – a.v. 1-o'ng oyoq bilan bir qadam oldinga yurish, qo'llar bosh ustida, 2- oldinga engashish, qo'llar oldinda, 3-oldinga engashish, D.h. Shuning o'zini chap oyoqni bir qadam orqaga qo'yib, bu mashqlarini 3–4 marta takrorlash.

5-mashq. D.h. – a.v. 1-o'ng oyoqni oldinga qo'yish, qo'llar yuqorida; 2–3- ketma-ket o'ng qo'lni orqaga, chap qo'lni esa oldinga, biroz oldinga engashib aylantirish, D.h. yelka va qo'llar mushaklarini bo'shashtirish. Shuning o'zini chap oyoqni oldinga qo'yib, 2 - 3 marta takrorlash kerak.

6-mashq. D.h.– a.v. Qo'llar oldinga cho'zilgan holda har tomonga 1- chap oyoqni ko'tarib, o'ng qo'lga tekkizish. 2-4 D.h. 3 – 4 o'ng oyoqni ko'tarib, chap qo'l uchiga tekkizish. 3 - 4 marta takrorlash.

7-mashq. D. h.– a. i. Oyoqlar keng ochilgan holda qo'llar orqada. 1-deganda engashish, qo'llar har tomonga, 2-D. h. 3 – 4 marta takrorlash kerak.

8-mashq. D. h.– a.a. 1- chap qo'lni oldinga, o'ng qo'lni yuqoriga, 2- qo'llar bosh orqasida,3- o'ng qo'l oldinga, chap qo'l yuqoriga, 4-D.o'ng qo'l yuqorida 6–8 marta takrorlab, asta-sekin tezlashtirish.

## 2- ilova.

Bir xil harakatlar qilish bilan bog'liq kasbdagi kishilar uchun jismoniy mashqlar namunasi:

1-mashq. D.h-a.v. Bir deganda-qo'llarni sekin oldinga ko'tarish. ikki-uch qo'llarni yonga cho'zib kaftni ochish, biroz qomatni tiklash, oyoq uchida turish, qo'llar yuqorida bo'lib turib, to'liq nafas olish, qo'llarni yuqoriga ko'tarish, to'rt –yelka va qo'l mushaklarini bo'shashtirib nafas chiqarish 4-marta takrorlash.

2-mashq. D.h.-a.v. 1 – chap oyoq bilan chap yonga qadam qo'yiladi. Qo'llar bosh orqasida(1), 2 – qo'llar har tomonda, unga burilish. 3 – 4 D.h. Shuni o'zini boshqa tomonga 6–8 marta takrorlash.

3-mashq. D.h.-a.v. 1 – o'ng oyoqni chap tomonga oyoq uchiga qo'yish, qo'llar yelka ustida, 2 – gavdani chapga burish, orqaga engashish, qo'llar har tomonda. 3 – gavdani burish va D.h. qo'llar yelkada, 4 – D.h. - o'shaning o'zini boshqa tomonga 6-8 marta takrorlash.

4-mashq. D.h.a.v.1 – qo'llar boshning orqasida, 2-3 marta o'tirib turish, 2 – D.h. 8-10 marta takrorlash.

5-mashq. D.h.-a.v. 1 – 1 o'ng oyoqda o'tirib turish, chap oyoqni oldinga, uchiga qo'yish. Qo'llar ikki tomonga, 2-3 marta chap tomonga engashish. O'ng qo'lni chap tomonga uzatish. Mashqni chap oyoqda o'tirib 8-10 marta takrorlash.

6-mashq. D.h.a.v. oyoqlar orasi keng ochilgan, 1 – oldinga engashish, qo'llar oldinda bo'lsin, 2 – qo'llarning og'irligin sezing va chap qo'lni to'g'rilab, shuni o'zini 3 – o'ng qo'l bilan bajarish bilan birga gavda mushaklarini bo'shashtirish kerak, oldinga chuquroq engashish kerak. 4 – D.h 6-8 marta takrorlash shart.

7-mashq. D.h.a.v. 1 – chap oyoqni uchi bilan oldinga qo'ying. Qo'llar yuqorida, 2 – o'ng oyoqni oldinga uzatib, uchi bilan yerga qo'ying, o'ng qo'l chap tomonga uzatiladi. 3 – D.h. mashqni (12-14 marta takrorlash kerak).

### 3-ilova

Hamma kasbdagilar uchun umumiy tarzdagi jismoniy tarbiya daqiqasi:

1-mashq. D.h.a.v. 1 – o'ng tomonga oyoq qo'yib, gavdani o'ngga buring. 2 – chap qo'lni oldinga, o'ng qo'lni orqa tomonga yozib, kerishing D.h., shuni o'zini boshqa tomonga qiling, 4-6 marta takrorlang.

2-mashq. D.h.a.v.o'ng qo'l bilan biror joyga tayaniib;1 – o'ng oyoqda biroz o'tirib turing, o'ng oyoqni oldinga qo'yib, buking. 2 – chap oyoqni to'g'rilab, orqaga siltash, chap qo'l yuqoriga ko'tarilgan, 3 – o'ng oyoqda turib, chap oyoqni oldinga siltash, 4-6 marta takrorlang. Boshqa oyoqda ham shuncha, siltanish mashqlarini bajargan paytda oyoqlarni bo'sh tutish shart.

3-mashq. D.h.a.v. oyoqlar orasini keng ochib, qo'llar belda 1-4 boshni chap tomonga ikki marta aylantiring, keyin boshqa tomonga (6-8 marta takrorlash kerak).

### **Sinov savollari**

1. MIAT tarmog‘idagi jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifasi nima?
2. Mehnatni me’yorlashtirish (bir tartibga solish) nima?
3. Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya qanday tashkil etiladi?
4. Ishlab chiqarish gimnastikasining qanday shakllari mavjud?
5. Kirish gimnastikasi qanday bo‘ladi?
6. Jismoniy tarbiya lahzasi nima?
7. Jismoniy tarbiya daqiqasining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
8. Ishlab chiqarish gimnastikasining biror kasb egalariga oid gimnastik mashqlar to‘plamini o‘zingiz tuza olasizmi?

## **X BOB. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi**

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi va hayot muammolari bo'lajak mutaxassislarga katta talablar qo'ymoqda. Mutaxassislar tayyorlashning umumiyligi tizimida oliy o'quv muassasalarida jismoniy-tashkiliy ishlarni uyuşdırish muhim rol o'yndaydi. Mutaxassislar tayyorlashni to'g'ri tashkil qilish ularning kasbiy layoqatliligini ta'minlaydi. Bugungi va bo'lajak - ziyolilarning jismoniy tayyorgarligi bir qator masalalarni hal qiladi.

Yosh avlod hozirgi zamondan bozor iqtisodiyoti talablariga tayyor bo'lishi va muammolarni hal qilishga to'g'ri yo'lni tanlashi uchun sog'lom, baquvvat bo'lishi kerak.

Bu masalani ta'minlovchi jismoniy tayyorgarlik tizimi mutaxassislarning "Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi" (KAJT) deyiladi.

Mutaxassislarning KAJT bir-biriga bog'liq ikki yo'nalishda - oliy o'quv muassasalarida va ishlab chiqarishda olib boriladi.

Talabalar KAJT jarayonida ularning barcha kasb sifatlarini shakllanadi. Bu esa KAJTning ishlab chiqarish bosqichida muhim o'rinnegallaydi.

### **Ishlab chiqarishdagi kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi (KAJT) haqida tushuncha.**

#### **Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik (KAJT)ning ma'nosi va tuzilishi**

Professiografik izlanishlarning ko'rsatishicha, sharqshunoslarning ruhiy, siyosiy, madaniy va jismoniy tayyorgarligiga qo'ilgan talab shifokor, muxandis, pedagog va boshqa kasb egalariga qo'yilgan talablardan farq qiladi. Bu talab filolog, muhandis, tarjimon, kimyogar, iqtisodchi va tarixchilar uchun o'ziga xosdir.

Jismoniy madaniyat malakalari doirasidagi har tomonlama keng miqyosdagi jismoniy tayyorgarlik mehnati faoliyatiga bo'lgan tayyorgarlikni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish xodimlarida KAJT g'oyasi keng emas. Yaqin vaqtgacha ishchi va mutaxassislarning KAJT muhim kasbiy sifatlari amaliy malakanini shakllantirishga qaratilgan deb hisoblanardi. Keyingi vaqlardagi ilmiy izlanishlarning natijalari KAJT haqidagi quyidagi tushunchani kengaytirdi. KAJT yordamida ishchi-

xodimning ruhiy, madaniy va jismoniy sifatlari shakllanadi, jismoniy madaniyat va ishlab chiqarish sohasidagi bilim va malakasi ortadi, turli xil tashkiliy va pedagogik malakalari rivojlanadi, inson organizmining asosiy a'zolari, tizimlari, ruhiy jarayonlarning ishonchligi ta'minlanadi.

KAJT salomatlikni mustahkamlashga, kasalliklarga va toliqishga chidamli bo'lishga, jarohatlanishning kamayishiga yordam beradi. KAJT bilan shug'ullanqlarning mehnati boshqalar nikiga qaraganda ancha samarali kechadi. Ular ish vaqtida kamroq charchaydilar. Barcha oliy o'quv muassasalari talabalarining jismoniy tarbiya amaliyotida KAJTni joriy qilish mas'uliyatli davlat ishidir. Gumanitar va iqtisodiy fanlar bilan band bo'lgan xodimlar uchun mehnat faoliyatlari davomida KAJT bilan shug'ullanish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlar kasbiy layoqatilik darajasini takomillashtirishga yordam beradi. KAJT mehnatni tashkil qilishning yangi shakllaridan foydalanishni tavsiya qiladi. KAJTga mutaxassisning oliy o'quv muassasida jismoniy rivojlanishning tashkiliy bir qismi deb qarash kerak. KAJTni joriy qilish tajribasi shuni ko'rsatdiki, bunday yondashish bu murabbiylit pedagogik jarayonning texnologiyasini chuqurroq o'rganishga hamda undan foydalanishga yordam beradi.

KAJT o'zining tarbiyaviy va tashkiliy asoslariga va aniq yo'nalishiga ega. KAJT faoliyati ilmiy bazaga, maxsus adabiyotlar, ilmiy izlanishlarni o'tkazish, tashviqot-targ'ibot ishlari olib borish, KAJT rahbariyatining maxsus nazariy va uslubiy tayyorgarligini ta'minlaydi.

Oliy o'quv muassasalarida KAJTni rejalashtirishda uning tashkiliy bosqichlari hisobga olinadi.

KAJT jismoniy tarbiya jarayonda olib boriladigan tarbiyaviy va sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar bilan bog'liq.

### **Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik mohiyatini belgilovchi omillar**

Turli oliy o'quv muassasalari talabalarining KAJT mohiyati bir qator omillar bilan belgilanadi.

Turli kasb vakillari KAJTning muhimligini bu kasbning xalq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati bilan, mutaxassis ishlayotgan tarmoqda rivojlanish jadalligi bilan, mehnat unumtdorligini ortishi va boshqalar bilan bog'liq. Oliy o'quv muassasi talabalari KAJT mohiyatining asosiy

omillari faoliyat doirasi, mehnat sharoiti va tartibi, mutaxassislarining psixofizik xususiyatlaridan iborat.

KAJT mohiyatini belgilovchi muhim omil mehnat sharoitidir. Turli kasb egalarining mehnat sharoiti turlicha bo'ldi. Masalan, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi muassasa xodimlari ko'proq xonalarda o'tirgan holda ishlaydi. Kompyuterlashtirish majmuasi va ishlab chiqarish operatsiyalarini avtomatlashtirish, bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti raqobatlarini yengib chiqish, ishlab chiqarish jarayonining uzuksizsizligini ta'minlash, mehnat va darn olish tartibini takomillashtirish va boshqalar KAJTning asosiy yo'nalishidir. Kasbiy faoliyatning psixofiziologik tayyorgarligi ham KAJTning yo'nalishini belgilaydi.

Mehnat faoliyati davomida uchrab turadigan qiyinchiliklarga bardosh berish va ularni o'z foydasiga hal qilish, tavakkalchilikni kuchaytirish, jur'at va mardlik sifatlarini oshiradi.

### **Psixik-jismoni yaxshiyligiga qo'yiladigan talablar**

Muhandis – ishlab chiqarish tashkilotchilaridan biri bo'lib, asosiy iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilish uning faoliyatiga bog'liqdir.

Ishlab chiqarishning xom ashyo va texnik asoslari rivojlanmagan bo'lsa, kadrlarning tayyorgarlik jarayoni past bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo'lmaydi. Ilmiy-texnik taraqqiyot davrida muhandis-texnik xodimlarning roli ortadi, hozirgi kunda kuchli mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan tarmoqlarning malakali mutaxassislariga ehtiyojini qondirish uchun 60% dan ortiq o'rta va oliv ma'lumotli kishilar kerak. Menedjerning vazifasiga, jamoadagi umumiyy rahbarlik, ishlab chiqarish vositalarini taxmin qilish va ularni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, ularni tuzish va takomillashtirish, idorada ish joyini va mehnatni tashkil qilish hamda himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash kiradi. Menedjerlar, tashkilot uchun kadrlar tanlash, ularni tayyorlash va tarbiyalash, xom ashyo, texnika bilan ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonini boshqarish, mahsulot sifatini nazorat qilish bilan shug'ullanadi.

Muhandislari o'z ish joylarini asbob-uskuna 6ilan ta'minlash, ta'mirlash, energetik va transport ta'minoti, ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va boshqarish, tushgan axborotni mexanik ishlab chiqishga ma'suldirlar.

**Umumiy talablar.** Ziyolilar faoliyatini har tomonlama o'rganish shuni ko'rsatadiki, har bir soha mutaxassislari singari ularda ham o'ziga xos ruhiy-jismoniy sifatlar to'plami mavjud. Ko'nikma va malakalar – KAJT jarayonida qo'llanilib, kasbiy tayyorgarlik uchun kerak bo'lgan ana shunday komponentlarga kiradi. Har bir ziyolidan ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradigan murakkab vaziyatlarni tez hal qilish, ortiqcha emotsiyonal zo'riqishlarni yo'qotish talab qilinadi. Hozirgi kundagi ishlab chiqarishning iqtisodiy faolligini oshirish va mehnat jamoalarining ijtimoiy rivojlanishida jismoniy tarbiya va sport asosiy omil hisoblanadi. Bugungi kundagi ziyolilar ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish uchun jismoniy tarbiya va sport vositalarini qo'llash haqidagi aniq bilimga, ko'nikma va malakaga ega bo'lislari lozim. Ular ishchi va xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini bilish uchun ishlab chiqarish jismoniy tarbiyasining hamma turlari va shakllarini yaxshi bilishi kerak. Bugungi kunda oliy o'quv muassasini tamomlagan mutaxassisning o'zi sport bilan shug'ullanishi kamlik qiladi. Ular ish vaqtida va undan keyin jamoada jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil qilishi, xizmatchilarning mehnat qilishlari va dam ofishlarini to'g'ri tashkil qilabilishi shart. Ziyolining mehnat faoliyati yaxshilanishi uning o'ziga xos xususiyatga, aqliy va jismoniy ishchanligiga, organizmining (tanasining) chidamkorligi va uni og'ir mehnatdan tez tiklanishi, ya'ni ish bajarish qobiliyatiga bog'liq. Ziyolining kasbiy faoliyatida undagi bir qator jismoniy sifatlar bilan birga texnik sifatlar ham asosiy rol o'ynaydi.

### **O'quv muassasalari talabalari uchun kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik (KAJT)ning maqsadi, vazifasi va mezonlari**

Sanoat korxonalari rahbarlariga siyosat va iqtisodni boshqarishni har tomonlama o'rganishar ekanlar, katta ruhiy-jismoniy xususiyat va sifatlarga ega bo'lislari talab etiladi, ular har bir murakkab vaziyatda o'zini yo'qotmaslikka, ortiqcha vahimaga tushmaslikka o'rgatiladi. Jismoniy tarbiya va sport ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omilidir. Shuning uchun hozirgi zamon ziyolilari jismoniy tarbiya tizimining asosiy holatlarini va kasbga bo'lgan amaliy-jismoniy tayyorgarlikni bilishlari shart. Oliy o'quv muassasalaridagi talabalar KAJTning maqsadi – yuqori malakali kash egallashlariga ko'maklashishdir. Institut talabalar KAJTning asosiy vazifasi –

jismoniy tarbiya va sportning turli vositalari yordamida talabalarida yuqori saviyali mutaxassis sifatlarini tarbiyalash.

Oliy ma'lumotli mutaxassisni jismonan tarbiyalash jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Kasbga qiziqish, vijdonan ishlash, haqiqatparvarlik, odamlarga hurmat, ular bilan yaxshi muomalada bo'lish, mehnatga muhabbatni tarbiyalash, suhbatni, uchrashuvni qiziqarli va ravon olib borish.

2. Tez yodlab qolish, ifodali nutq, tashkilotchilikning malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

3. Kasbga oid ish unumini, aqliy ish bajarish qobiliyatini ta'minlash, markaziy asab, yurak-qon aylanish, nafas olish tizimlari ishini yaxshilash; ko'rish, eshitish, vestibulyar analizatorlarni takomillashtirish.

4. Sog'liqni mustahkamlash, yurak-qon aylanish va asab tizimlari xastalanishining oldini olish.

5. Oddiy ruhiy barqarorlik sifatlarini shakllantirish: biroz jismoniy zo'riqishlar, tana, bel va qo'l mushaklarining umumiyligi va statik chidamlilik, turli murakkab harakatlarni tez va aniq bajarish, chaqonlik, chidamlilikni o'stirish; gipodinamiyaning oldini olish, kuzatuvchilikni takomillashtirish, diqqat, tez fikr yuritish, iroda sifatlari – maqsadga intilish, intizomlilik, tashabbuskorlik, qat'iylik, o'zini tuta bitish kabi xususiyatlarni rivojlanтирish.

Talabalar uchun KAJTni rejalashtirish va amalga oshirishda uning samaradorlik mezonlarini bilishi shart.

Ular quyidagilar:

1. KAJTning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini belgilaydigan mezonlar.

2. KAJTning aqliy mehnatga ta'sirini belgilaydigan mezonlar.

3. KAJTni tashkil qilish va uning uslublarini belgilaydigan mezonlar.

4. KAJTning iqtisodiy maqbulligini belgilovchi mezonlar.

Biz tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar o'quv muassasasi talabalarida kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarliklarni oshirishning quyidagi yo'llarini ko'rsatdi:

1. Jismoniy tarbiya va sport bilan ko'proq shug'ullanish talabaning mehnatga ishtiyoyqini oshiradi. Talabalar oliy gohda

o'qiyotgan paytlarida jismoniy tarbiya bilan haftasiga 3 – 4 marta shug'ullanishlari kerak.

2. Jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug'ullanish jarayonida talabalarning bo'lajak kasbi bo'yicha kasbiy sifatlarni shakllantirib berish.

Bulardan birinchisini qo'llash maqsadga muvofiq. Ayrim mutaxassislikni o'rganayotgan talabalar KAJTini amalga oshirish, KAJTning umumiy va maxsus vazifalarini hal qilishga qaratiladi. Shunga e'tibor berish kerakki, ayrim sohalar bo'yicha KAJT ning maxsus vazifalaridan biri – muhandis mutaxassisligi uchun kerak bo'lgan sifatlarni rivojlantirishdir. Masalan, mashinasozlik texnologiyasi, metall kesuvchi asbob va uskunalar mutaxassisligidagi talablar KAJTning qo'shimcha vazifalariga ko'z bilan yaxshi ko'rish, ko'z bilan to'g'ri o'lchash, yaxshi eshitish, yuqori sezuvchanlikni rivojlantirish tadbirlari kiradi.

KAJTning vositalari va uslublari, ularni tanlash. Bo'lajak, mutaxassislar uchun kerakli kasbiy sifatlarni maqsadga yo'naltirib shakllantirishda KAJT vositalari alohida o'rin egallaydi.

KAJTning asosiy vositasi jismoniy mashqlardir. KAJT egallash maqsadida shug'ullaniladigan jismoniy mashqlar bir necha guruhlarga bo'linadi. Ya'ni mashqlarning yo'naltirilganligi, organizmning a'zo tarmoqlarga ta'siri, yurak-qon, nafas olish tizimlari, vestibulyar apparatning rivojlanganligi va takomillashganligi. Jismoniy mashqlar ruhiy-jismoniy sifatlar: kuch, tezlik, harakat, umumiy va statik chidamkorlik, egiluvchanlik, chaqqonlik, diqqat, emotsiyal turg'unlikni rivojlantiruvchi mashqlarga bo'linadi.

Tirmashib chiqish, baland joyda ishlash, yukni bir joydan ikkinchi joyga tashish, rasional yurish kabi malakalarni shakllantiruvchi mashqlarga ajratiladi.

Ular sport turlari (alpinizm, tog'da yurish, gimnastika, og'ir atletika, turizm va yengil atletika) ning asosiy va maxsus mashqlaridan olinadi.

Jismoniy mashqlar bilan bирgalikda tabiat omillari – quyosh, havo, suvdan ham foydalaniлади. Agar ular to'g'ri qo'llanilsa, jismoniy mashqlarni qo'llash samaradorligi oshib, KAJTning alohida vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 30 – 40 kun tog'li joylarda yashagan kishining jismoniy va aqliy ish bajarish qobiliyati yaxshilanib, tashqi muhitning turli xil omillariga chidamliligi ortadi.

Kasbiy faoliyatning ayrim belgilari KAJTning vositalari sifatida ham qo'llaniladi, masalan, zinaga tirmashib va yugurib chiqish (energetik-muhandislar uchun), avtomobil haydovchilariga avtomobil va avtomobil xo'jaligi mutaxassisligidagi talabalar uchun tavsiya etiladi.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy sifatlarini maqsadga yo'naltirib, shakllantiruvchi vositalarni tanlab olish zarur. Vositalar tanlab olishda quyidagi tamoiylarga rivoja qilish kerak:

- KAJT vazifalarini maksimal amalga oshirish – ko'nikma va malakalar hosil qilish;

- Jismoniy tarbiya vositalari orqali bajariladigan vazifalarini har tomonlama hal qilinishini ta'minlash.

Jismoniy tarbiya vositalari yordamida paydo bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ishlab chiqarish jarayoni uch bosqichda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

**Birinchi bosqich** maxsus nazariy, uslubiy va amaliy darslarda oliy o'quv yurti va ishlab chiqarish sharoitlari bilan tanishib, jismoniy tarbiya va sportning aniq vositalarini qo'llash o'r ganib chiqiladi. Talaba bilan yakama-yakka ishlash uslubini qo'llash mumkin, texnik vositalarni qo'llab o'r ganish va nazorat qilish harn yaxshi natija beradi.

**Ikkinci bosqichda** jismoniy tarbiya va sport qismlarga ajratilib o'r ganiladi. Bu vazifa yo'riqchilik amaliyoti jarayonida va uy vazifalarini bajarishda hal qilinadi (mashqlar kompleksini tuzish, gimnastikaning kirish qismi, jismoniy tarbiya tanaffuslari va hokazo). Bu bosqichda o'r ganiladigan mashqlar, o'tkaziladigan tadbirlar hal qilinishi lozim.

**Uchinchi bosqichda** o'r ganuvchilarning ishlab chiqarish faoliyati hisobga olinib, ko'nikma va malakalar yanada takomillashtiriladi. Jamoada jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil qilish va har kim o'z kun tartibiga jismoniy tarbiya tadbirlarini kiritishi asosiy uslub hisoblanadi.

Yuqori toifali mutaxassislarning kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan harakat ko'nikma va malakalarini KAJT tarmog'i ichida maqsadga yo'naltirilib shakllantirilganda, o'r gatish jarayonining quyidagi turkumini qo'llash tavsiya etiladi:

- harakatlarni qismlarga bo'lib o'r ganish (o'r ganilgan harakat texnikasini yaxshi o'zlashtirib, ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish va kasbiy malaka hosil qilish).

Harakat malakalarini shakllantirishning asosiy uslubi mashq bo'lib, takomillashtirish maqsadida u bir necha marta takrorlanishi kerak. Bu bosqichda so'z va sensor uslublari keng qo'llaniladi, eshitish va ko'rish qobiliyatiga asosiy e'tibor beriladi. Yangi harakatlarni o'rganish jarayonida asab tarmog'i tez charchaydi. Harakatlarni bo'lib o'rganish bosqichida mashqni butunligicha o'rganish uslubi yetakchi hisoblanadi, shu bilan birga so'z uslubi ham qo'llaniladi: tahvil, kinofilm; slayd va boshqa usularni ham qo'llash mumkin. Texnika vositalari (trenajyor) yordamida o'rgatishni ham keng qo'llash mumkin.

### **Oliy o'quv muassasalarida kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgartlik (KAJT)ni tashkil qilish shakllari**

Hamma oliy o'quv muassasalarida qabul qilingan jismoniy tarbiya shakllari ichida KAJT vazifalarini qo'llash afzal hisoblanadi.

**Jismoniy tarbiya darslarida KAJT.** Bo'lajak mutaxassislarning jismoniy tayyorgarligi jismoniy tarbiya darslarida amalga oshiriladi. Dasturda asosan bu darslar to'rt guruhga bo'lib o'tiladi: asosiy, tayyorlov, maxsus tibbiy va sport guruhlari. Oliygochlarning dasturiga yengil atletika, gymnastika, suzish, sayyoqlik, sport o'yinlari, otish bo'yicha nazariy va amaliy bo'limlar kiritilgan. Talaba amaliy darslar jarayonida KAJT vazifalari jismoniy tarbiya va sport turlarining qaysi amaliy qismlari bilan hal qilinishini bilishi kerak. U hamma mashqlarni sinab ko'rishi lozim.

**Gymnastika darslari** talabalarning harakat koordinatsiyasi, qo'llarning chaqqonligi, bel, qorin, tana mushakllarining statik chidamliligi, diqqat, emotsiyonal turg'unlik, tez fiki yuritish, mardlik kabi sifatlarni tarbiyalash uchun qo'llaniladi. Qo'llar epchilligi va koordinatsiyasi sport jihozlari; o'rtacha va kichik koptokchalar yordamida erkin mashqlar bajarish bilan rivojlantiriladi. Statik chidamlilik, kuch, statik va dinamik mashqlar bajarish yordamida rivojlantiriladi. Maxsus kuchni tarbiyalash uchun trenajyorlarida mashq bajarish maqsadiga muvofiq bo'ladi,

Emotsional turg'unlik, mardlikni shakllantirish uchun yugurib kelib, tayangan holda "yog'och ot"dan sakrash, pastlikka va balandlikka sakrash, "brusya", "xalqalar" va yakka cho'pdan sakrab tushish, batutda sakrash mashqlaridan foydalilanadi.

Yengil atletika darslarida bo'lajak mutaxassislarning ruhiy va jismoniy sifatlari shakllantiriladi. Buning uchun quyidagi vositalardan

foydalaniadi: yilning issiq va sovuq paytlarida o'yingoh yo'taklarida va joylarda uzoq to'xtamasdan yugurishga erishish, (yurak urishi, qon aylanishi, nafas olish, issiqlik almashinuvি rivojlanib, tabiat omillariga bardosh beradigan bo'ladi), qisqa masofaga yugurish, estafetada yugurish (tezkorlik reaksiyasi, qisqa muddat ichida o'ylash, tez fikr yuritish, emotsiyal turg'unliklar rivojlanadi), balandlikka va pastlikka sakrash (dovyuraklikni tarbiyalaydi) va yengil atletikaning boshqa asosiy tayyorgarlik mashqlaridan foydalaniadi.

Suzish darslarida yurak-qon, nafas olish, issiqlik almashinuvি faoliyati yaxshilanadi, umumiy chidamlilik shakllanadi. 30 daqiqagacha suzish, 50 – 100 mqa qayta-qayta suzish, uzoqqa va chuqurlikka sho'ng'ish, 3 – 5metrlik tramplindan turli usulda sakrash chaqqonlik va dovyuraklikni tarbiyalaydi.

**Sayyoqlik** maxsus jismoniy tayyorgarlikni talab qiladigan mashg'ulot hisoblanadi: yuk bilan uzoq yurish va yugurish, gorizontal va vertikal arqonga tirmashib chiqish, maxsus to'siqlardan oshib o'tish lozim bo'ladi.

**Sport o'yinlari.** Asab va yurak-qon tomir, mushak tarmoqlarining mustahkamshiga ko'maklashadi, ko'rish va eshitish analizatorlarining ishi yaxshilanadi, umumiy chidamlilik, chaqqonlik, harakat koordinatsiyasi, chakqonlik, reaksiya tezligi, diqqatni taqsimlash, tez fikr yuritish, emotsiyal turg'unlik kabi sifatlarni ham shakllantiradi.

**Merganlik.** Otish bo'yicha darslarda bo'lajak mutaxassislar uchun kerak bo'lgan ruhiy va jismoniy sifatlar: ko'z bilan chamaafash, diqqat, emotsiyal turg'unlik, sabr-toqat tarbiyalanadi.

**Amaliy darslarda KAJT** maqsadida maxsus to'siqlardan oshib o'tish jismoniy mashqlardan tuzilgan doiraviy mashg'ulotlar, trenajyorlarda maxsus tayyorgarlik vaqtida keng qo'llaniladi. KAJT bo'yicha o'quv qo'llanma har bir o'quv bo'limi mutaxassisligi, sog'liqning holati, talabalarning jinsi, umumiy jismoniy tayyorgarligini hisobga olib tarbiyalaydi. KAJT bo'yicha mashqlar hamma mashg'ulotlar tarkibiga kiritiladi.

### **Darsdan tashqari kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik**

Darsdan tashqi jismoniy tayyorgarlik butun o'qish jarayonida olib boriladi va u KAJTni to'ldirish uchun xizmat qiladi. KAJT darsdan tashqari o'qituvchi topshirig'iga asosan shaxsiy reja asosida bajariladi.

Darsdan tashqari KAJTni o'tkazishning asosiy vazifasi kelajak kasbiy faoliyat uchun muhim bo'lgan ruhiy-jismoniy sifatlar va harakat malakalarini takomillashtirishdan iborat. Shu bilan birga KAJT o'quv muassasalarida, o'qish mobaynida, har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, sog'liqni mustahkamlash, jismoniy va aqliy ish bajarish qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Darsdan tashqari KAJT bilan shug'ullananganda talabalarini jismoniy tarbiyalashning quyidagi shakilari qo'llaniladi: ertalabki gigienik badantarbiya, yil davomida har xil mashqlar bajarish, KAJT dasturi bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni mustaqil ravishda bajarish.

Oliy o'quv muassasalarini talabalariga quyidagi kundalik jismoniy tarbiya mashqlar to'plami tavsiya qilinadi:

1. Ochiq havoda ertalabki badantarbiya.
2. Suvda o'tkaziladigan tadbirlar.
3. 1,5–2 km masofaga o'rtacha tezlikda yugurish va yurish.
4. Yurak-qon, nafas olish tizimlari, ko'rish, qo'l barmoqlar harakatining aniq bo'lishi.
5. 1–2 daqiqa davomida nafas olish va yaxshi ko'rishni rivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajarish.
6. 1,5 – 2 km yurib, chuqur nafas olish, ko'rish, qiziquvchanlik, fikrlash mashqlarini bajarish.
7. Dush.
8. Uyqudan oldin 2 km yurib, sayr qilish.

KAJT dasturi bo'yicha maxsus mustaqil mashg'ulotlar bir kishi yoki 4–5 kishidan iborat tuzilgan guruh bilan o'tkaziladi (iloji bo'lsa, bir soha mutaxassislari bilan). Bu mashg'ulotlar 30 – 90 daqiqa davom etib, o'qishdan keyin, dam olish kunlari, amaliyot paytida, ta'tillarda o'tkaziladi.

Turli mutaxassis talabalarining mustaqil shug'ullanishi uchun quyidagi KAJT mashqlari tavsiya qilinadi:

**1–4 kurs talabalarini uchun KAJT majmuasi.** Majmuuning yo'naliishi: jismoniy ish bajarish qobiliyatini ta'minlash, umumiy chidamkorlikni rivojlantirish, tana, bel, qo'l, barmoqlarni dinamik va statik chidamligini, chakqonlik va egiluvchanlik, tez fikr yuritish hamda emotsiyonal turg'unlikni tarbiyalash.

#### **Majmuuning mazmuni:**

1. Usti yopiq joyda 2 – 3 km gacha yurish va yugurish.

2. Yakka cho'pda osilgan holatda, 10 – 15 marta tortilish.
3. 10 – 15 marta yuqoriga sakrash.
4. Qo'l va barmoqlarga yuk tushgan holda bilan devordan 10 – 15 marta itarilish.
5. Turli chayqalishlarda oldinga va orqaga egilish yoki xoda (brevno) ga o'tirib, gavdani 10 – 15 marta oldinga va orqaga tashlash.
6. Bir yo'naliishda sportcha yurish.
7. 4 – 6 marta 50 m lik tepalikka yugurib chiqish.
8. Nafasni rostlab olish uchun nafas olish va nafas chiqarish mashqlarini bajarish.

**Bo'lajak tarjimon, iqtisodchi, menedjment mutaxassislari uchun KAJT majmuasi.** To'plamning yo'naliishi: yurak-qon tarmog'ining yuqori darajada shakilanishini ta'minlash, ichki va tashqi nafas olish mexanizmi, issiqlik almashinuv tarmog'i; vestibulyar apparat, harakatlarning tezligi va to'g'ri bajarilishini rivojlantirish, balandlikka sakrash, yuqoridan pastga (suv xavzalarida tramplindan) sakrash mashqlari ustida ishlash, nafasni ushlab turishni mashq qilish va takomillashtirish.

Majmuuning mazmuni:

1. Tekis joyda, yopiq(manej) past-baland(kross) joylarda 3 km gacha yugurish.
2. Chuqur nafas olib, nafas chiqarish (10 – 15 marta).
3. Gimnastika tayoqchasi yordamida egiluvchanlik, qo'l chakqonligi mashqlarini bajarish.
4. Gimnastika tayoqchasini bir necha bor tepaga otib, ushlab olish.
5. Bosh va tanani chap yoki o'ngga aylantirish, tanani oldinga va yonga tez bukish.
6. Past o'tirgan holatda joyida sakrash.
7. Oyoqlarni almashtirib, yuqoriga sakrash.
8. Barmoqlarga tayangan holatda qo'llarni bukib yozish.
9. Vertikal va gorizontal zinaga tirmashib chiqish.
10. Zinapoya yoki tepalikka yurib yoki yugurib chiqish.
11. Labirint yoki yopiq yo'lakdan yugurib, aylanib chiqish.
12. Nafas olmay 2 – 4 marta 50 – 60 m balandlikka yugurib chiqish.
13. Qumlik joyda 200 m gacha yugurish va sakrash.

14. 200 – 400 m sekin (bir me'yorda) yurish va yugurish.
15. Tanani bo'shashtiruvchi mashqlar.
16. Kontrastli (issiq – sovuq) dush.
17. Sochiq bilan artinish, sovuq suvda chumilish va kontrastli dushta cho'milish.

**Avtomatika va telemekhanika, EVM va kompyuterlar bilan ishllovchi mutaxassislar uchun KAJT mashqlar to'plami.** Mashqlar yo'nalishi gipodinomiyaga qarshi chidamlilikni rivojlantirish, qo'l va tana mushaklarini statik chidamkorligi, qo'l, barmoqlar bo'g'imlarining harakatchanligi, diqqat ziyrakligi, oyoqlar va tanada qon aylanishi uchun yaxshi fiziologik sharoit yaratish bilish.

Mashqlarning mazmuni:

1. Bir xil yo'nalishda 1–2 km gacha sekin yugurish
2. Turli joylarda; yerda, pol, zinapoya, devorda tayanib tirsak bo'g'imlarini bukish va to'g'rilash (30 sek);
3. Tik to'rgan holatdan qo'l va barmoqlar bilan devordan itarilish.
4. Har bir oyoqda yuqoriga 10 – 16 marta sakrash.
5. Bir oyoqda turgan holda tik holatdan gorizontal holatga, muvozanatga o'tish ("qaldirg'och" o'yini), chap va o'ng oyoqda 15–20 marta takrorlash.
6. Qo'llarni boshning orqasida "zanjur" qilib ushlab, sportcha yurish (4 – 5, marta 150 – 200 metrdan).
7. Tennis koptogini qo'lda 30 marta ezish.
8. Tennis koptogini uzoqqa 10 – 16 marta otish.
9. Maysada(o'tda) qoringa yotgan holda tennis koptogini o'ynash
10. Tennis koptogini otib va uni ushlab olgan holda yurish, yopiq joyda yugurish (3 marta 30 sek).
11. Qirrali xoda ustida to'pni otib, uni ushlab olgan holda yurish va yugurish.
12. Yakkacho'pda osilgan holda oyoqlarni ko'tarish.
13. 200 – 300 metr masofaga 5-10 marta yugurish.
14. 2000 metrga qo'llarni bo'shashtirib (sportcha) yurish.

## **Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarliklarini rejalashtirish, tekshirish va baholash**

Oliy o‘quv muassasi talabalari uchun KAJTni to‘g‘ri rejalashtirib, nazorat qilib borilganda, u unumli natija beradi.

KAJTni rivojlantirish rejasi “Jismoniy tarbiya” fanining o‘quv uslubiy to‘plami doirasida amalga oshiriladi. Uni jismoniy tarbiya kafedrasi tuzadi. Bu hujjatlarda KAJTning yo‘nalishi, maqsadi, vazifasi, vositasi, uslubi va shakli aniq ko‘rsatiladi. KAJT har bir talabaning bo‘lajak mutaxassisligi va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olingan holda rejalashtirilsa, u yuqori samara beradi. Bunda uchta reja tuziladi: bir kunlik, bir oylik va bir yillik. Bir kunlik, yillik reja butun o‘qish jarayoniga tuziladi. Bunda jismoniy tarbiya va KAJTning yo‘nalishi, maqsadi, vazifasi uslubi va shakli belgilanadi. Asosiy maqsad – talaba oliy o‘quv yurtni tugatgandan so‘ng kasbiy ishga layoqatli bo‘lishini ta‘minlashdir.

Bir yillik reja ko‘p yillik rejaga o‘xshash, lekin uning mazmuni aniq va to‘liqdir. KAJT rejasi o‘quv jarayonining xususiyatlari hisobga olgan holda tuziladi.

Oylik reja yillik reja asosida tuziladi. Talabalar KAJTni tekshirish va baholash, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini tekshirishdan maqsad, ular tanlagan mutaxassisliklariga yordam berishdir. Tekshirish natijalarining xolisona bo‘lishi jismoniy tarbiyaning u yoki bu vositalari odam organizmiga qanday ta’sir qilishini aniqlashga imkon beradi. Salomatlikni va jismoniy tayyorlikni nazorat qilish va baholash jismoniy tarbiya darslari jarayonida har bir semestrning boshi va oxirida o‘tkaziladi. Tekshirishlar jarayonida talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatlarini uchun kerak bo‘lgan amaliy bilimlari, malakalari va ko‘nikmalari baholanadi.

## **Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni tekshirish va baholash usullari**

KAJT sohasidagi bilimlar kompyuterlar yordamida maxsus savollarga javob berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Shug‘ullanuvchini har xil mashqlar bajarishdagi natijasini baholash eng to‘g‘ri baholashdir.

Kasbiy jismoniy tayyorgarlikni tekshirish va baholashda test usullaridan foydalanish ham mumkin.

Baholash uchun shunday usul taklif qilinadi:

“5” – rivojlangan darajasining kasb talablariga to‘la mos kelishi;

“4” – rivojlanish darajasining ko‘p miqdorda kasb talablariga mos kelishi;

“3” – rivojlanish darajasining kasb talablariga qisman mos kelishi;

“2” – rivojlanish darajasining kasb talablariga umuman mos kelmasligi.

### **KAJTni sinovdan o‘tkazish**

KAJT bo‘yicha sinov o‘tkazishdan maqsad olingan bilim, malaka hajmini, jismoniy va ruhiy sifatlarni baholash va tekshirishdan iborat.

Bu turli xil usullar yordamida amalga oshiriladi.

Hamma institutlar talabalari uchun bir qator talablar umumiy hisoblanadi.

Bular quyidagilar:

– muassasalar, tashkilotlar, idoralar ishchi - xodimlar jismoniy tarbiyaning nazariy asoslarini bilishi;

– oly o‘quv muassasi talabalari KAJTning umumiy vazifalarini bilishi;

– bo‘lajak mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirishni bilish;

– kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik darajasini tekshirish va baholashni bilih;

– KAJT to‘plami bo‘yicha ertalabki gigienik gimnastika, jismoniy tarbiya va sportga taalluqli reja- ma’ruza-matinini tuzish;

– yurak-qon tomiri tarmog‘i, sensomotor almashinuvlariniig rivojlanish miqdori, diqqatni tekshirish va baholash;

– qo‘llar chaqqonligi, harakat tezligi, tez fikrlash;

– hissiy qat‘iylikni belgilovchi nazorat mashqini bajarish.

### **Sinov savollari**

1. KAJT haqida tushuncha, uning mazmuni va tuzilisi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. KAJT tarkibini belgilovchi omillarni aytib bering.
3. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun KAJTning vazifalarini nimalardan iborat?
4. Bo'lajak mutaxassislar uchun KAJTning xususiyatlari nimalardan iborat?
5. KAJT vositalari va usullari qanday tanlanadi?
6. Oliy o'quv muassasalarida KAJT shakllari qanday tashkil qilinadi?
7. KAJT darsdan tashqari paytda qanday tashkil qilinadi?
8. KAJT qanday tekshiriladi va baholanadi?

## XI BOB. O'zbekiston sportchilarining Osiyo o'yinlari musobaqalarida ishtiroki

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng Osiyo va Jahon sport tashkilotlari, XOQ va sport federatsiyalari O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan olishdi va respublikamiz sportchilarini xalqaro musobaqalarga taklif qila boshlashdi. Ana shunday musobaqalardan biri XII-Osiyo o'yinlari bo'ldi.

XII-Osiyo o'yinlari 1994-yil 2-16 oktyabrda Yaponiyaning Xirosima shahrida o'tkazildi. Bu O'zbekiston sportchilarining birinchi bor xalqaro musobaqalarda mustaqil ravishda qatnashishi bo'lib katta siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega edi. Xirosima shahridagi markaziy o'yingohga O'zbekiston vakillarining o'z bayrog'i ostida kirib kelishi mamlakatimiz mustaqilligining yana bir dalili bo'ldi.

Osiyo o'yinlarida 51 davlatdan 8000 dan ziyod sportchi qatnashdi, 340 oltin, 340 kumush va 340 bronza medallari uchun kurash keskin o'tdi.

148-betdagи 15-16 jadvallarda birinchi o'nlikka kirgan davlat vakillari o'rtasidagi bellashuvlar ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining sport vakillari 159 kishidan iborat bo'lib, sportning 21 turida ishtirok etib, 10 ta oltin, 11 ta kumush va 19 ta bronza medaliga sazovor bo'ldilar. 121 sportchidan 38 nafari sovrindor bo'ldi. O'zbekiston terma jamoasida birinchi medal sovrindori – grek-yunon kurashchisi G.Pulyaev bo'ldi.

Osiyo o'yinlari qahramoni baydarkachi I.Kireyev 3 oltin va 1 kumush medalni qo'lga kiritdi. Charm to'p o'yinchilarimizning ko'rsatgan mahorati raqib va tomoshabinlarni lol qoldirdi. Futbol jamoamiz ustozlari R.Akromov va B.Abduraimovlar 1994 - yil Osiyo qit'asida eng kuchli futbol ustozlari deb tan olindi. Yengil atletikachilarimizning 11 ishtirokchisidan 8 nafari medal bilan qaytdi. Baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilardan 12 nafari 3 ta oltin, 6 ta kumush va 3 ta bronza medaliga sazovor bo'lishdi. O'zbekistonlik 10 nafar bokschi 2 oltin va 2 bronza medaliga sazovor bo'ldilar.

O'zbekiston sportchilari sportda eng nufuzli bo'lган turlardan futbol, boksning eng og'ir vazni, kanoe, og'ir atletikaning eng og'ir vazni turlarida zafar quchdilar, respublikamiz obro'yini yuqoriga ko'tardilar. Xirosima shahri sport maydonlarida 40 marta O'zbekiston bayrog'i ko'tarilib, 10 marta madhiyamiz yangradi.

XII-Osiyo o'yinlarining yopilish marosimi 16-oktyabrda bo'lib o'tdi. 80000 tomoshabin O'zbekiston futbolchilarining Janubiy Koreya jamoasi ustidan g'alaba qozonganiniq guvohi bo'lishdi. Osyo o'yinlari yopilish marosimi oldidan yana bir marta O'zbekiston futbolchilarini sha'niga bayrog'imiz o'yingoh ustida ko'tarilib, madhiyamiz yangradi.

Quyida XII-Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan ba'zi jamoalarining egallagan o'rirlari va olgan medallari soni ko'rsatilgan. Keyingi jadvalda MDH dan ishtirok etgan jamoalar olgan medallar miqdori haqidagi ma'lumot berildi.

15-jadval

#### XII - Osyo o'yinlari (Xirosima, Yaponiya)dagi jamoalar bellashuv natijasining yakuniy jadvali

Egal-lagan o'rni	Mamlakatlar	Qatnashuvchilar soni	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
1	Xitoy	773	137	82	60	178
2	Quriya	720	63	53	63	654
3	Yaponiya	809	59	68	80	102
4	Qozog'iston	356	25	26	26	139
5	O'zbekiston	159	10	11	19	78
6	Eron	232	9	9	8	51
7	Tayvan	386	7	12	24	101
8	Hindiston	207	4	3	15	62
9	Malayziya	157	4	2	13	36
10	Qatar	93	4	1	5	21

16-jadval

#### MDH dan ishtirok etgan terma jamoalar

Egal-lagan o'rni	Mamlakatlar	Qatnashuvchilar soni	1	2	3	Jami
1	Qozog'iston	356	25	26	26	139
2	O'zbekiston	159	10	11	19	78
3	Turkmaniston	64	1	3	3	18
4	Qirg'iziston	81	-	4	5	33
5	Tojikiston	31	-	-	2	6

17-jadval

**XIII - Osiyo o'yinlari (Tailand, Bangkok)ga jamoalar bellashuvi  
natijasining yakuniy jadvali**

Egallagan o'rni	Mamlakatlar	Qatna-shuvechilar soni	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
1	Xitoy	822	129	77	68	274
2	Quriya	755	65	47	52	164
3	Yaponiya	964	52	61	68	181
4	Tayland	1058	24	26	40	90
5	Qozog'iston	449	24	24	30	78
6	Tayvan	579	19	17	41	77
7	Eron	309	10	11	13	34
8	Quriya XDR	319	7	14	12	33
9	Hindiston	339	7	11	17	35
10	O'zbekiston	256	6	22	12	40

18-jadval

**MDH dan ishtirok etgan terma jamoalar**

Egallagan o'rni	Mamlakatlar	Qatnashuvchilar soni	1	2	3	Jami
5	Qozog'iston	449	24	24	30	78
10	O'zbekiston	256	6	22	12	40
23	Turkmaniston	77	1	-	1	2
24	Qirg'iziston	142	-	3	3	6
34	Tojikiston	130	-	-	-	.

XIII-Osiyo o'yinlarida (1998 - yil) 41 mamlakatdan 9750 nafar vakil ishtirok etgan. Birinchi uchlikda hech qanaqa o'zgarishlar bo'lмаган. Qozog'iston, Eron, Hindiston terma jamoalari bir pog'ona past o'rinni egallaganlar. Qatar, Malayziya terma jamoalari kuchli o'nlikka kira olmadilar. Mamlakatimiz sportchilari beshinchi o'rindan o'ninchini o'ringa tushib ketganlar. Medallar soni 11 taga kamaygan. Tojikiston sportchilar bu gal medalsiz qolganlar (17-18 - jadval)

19-jadval

**XIV - Osiyo o'yinlari (Koreya, Pusan) da jamoalar bellashuvi  
natijasining yakuniy jadvali**

T/r	Mamlakatlar	Sportchilar soni	Oltin	Kumush	Bronza	Jami	Egallagan o'rni
1	Xitoy	885	150	84	74	308	1
2	Koreya	946	96	80	84	250	2
3	Yaponiya	890	44	73	72	189	3

4	Qozog'iston	339	20	26	30	76	4
5	O'zbekiston	287	15	12	24	51	5
6	Tayland	385	14	19	10	43	6
7	Hindiston	445	11	12	13	36	7
8	Tayvan	466	10	17	23	52	8
9	Koreya XDR	262	9	11	13	33	9
10	Eron	240	8	14	14	36	10

20-jadval

### MDH dan ishtirok etgan jamoalar

T/r	Mamlakatlar	Sport-chilar soni	Oltin	Kumush	Bronza	Jami	Egal-lagan o'rni
1	Qozog'iston	339	20	26	30	76	4
2	O'zbekiston	287	15	12	24	51	5
3	Qirg'iziston	93	1	5	6	12	23
4	Turkmaniston	55	1	2	1	4	25
5	Tojikiston	83	-	2	4	6	28

**XIV-Osiyo o'yinlari 2002 yilda Janubiy Koreyaning Pusan shahrida bo'lib o'tgan, unda 44 mamlakatdan 8950 vakil, 6572 sportchi ishtirok etgan. Bangkokda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlariga nisbatan kuchli uchlik tartibi o'zgarmagan. Qozog'iston sportchilari 5-o'rindar to'rtinchchi o'ringa ko'tarilganlar, medallar soni oltitaga ko'paygan. Hamyurtlarimiz esa 10-o'rindan beshinchi o'ringa ko'tarilganlar, medallar soni 11taga ko'p.**

**2006 - yilning 1-15 dekabrida Qatar poytaxti Doha shahrida XV-yozgi Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Ushbu o'yinlarda Osiyo qit'asining 45 mamlakatidan 8473 sportchi sportning 47 turidan bellashuvlarda ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasidan 238 sportchi sportning 31 turidan ishtirok etdi.**

O'zbek milliy kurashi Osiyo o'yinlarida birinchi marta musobaqa dasturiga kiritildi.

2006-yil XV-Osiyo o'yinlari championlari: V.Chernenko va Naurzaliev, opa-singil S.G'aniyeva va Z.G'aniyevalar (hammasi akademik eshkak eshish), G.Xubbiyeva (yengil atletika, 100mga yugurish); V.Menkov, Yu.Borzova (baydarka, kanoe); S.Kaspulatova (karate); B.Sultonov, E.Rasulov va R.Saidov (boks), D.Mansurov va A.Taymazov (erkin kurash); D.Mansurov va A.Taymazovlar ikki marta Osiyo o'yinlari championi unvoniga sazovor bo'ldilar.

O'zbekiston vakillari XV-Osiyo o'yinlarida 11 oltin, 14 kumush va 14 bronza medallariga sazovor bo'ldilar. Quyida(21-22 - jadvallarda) Doha shahrida o'tgan Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan eng kuchli o'nlikka kirgan jamoalarni keltiramiz. XII-Osiyo o'yinlarida terma jamoamiz vakillari 159 sportchi 40 medalni qo'liga kiritgan bo'lsalar, XV-Osiyo o'yinlarida 239 sportchi 39 medal olgan. Jadvaldan ko'rinish to'ribdiki, mamlakatimiz sportchilarining soni 80 kishiga ko'payib, ularning olgan medallari bittaga kamaygan.

21-jadval

**XV- Osiyo o'yinlari (Qatar, Doha)da jamoalar bellashuvu  
natijasining yakuniy jadvali**

T/r	Mamlakatlar	Sport-chilar soni	Oltin	Kumush	Bronza	Jami	Egal-lagan o'rni
1	Xitoy	714	165	88	63	316	1
2	Koreya	668	58	53	82	193	2
3	Yaponiya	631	50	71	77	198	3
4	Qozog'iston	335	23	19	43	85	4
5	Tailand	377	13	15	26	54	5
6	Eron	249	11	15	22	48	6
7	O'zbekiston	239	11	14	14	39	7
8	Hindiston	419	10	18	26	54	8
9	Qatar	358	9	12	11	32	9
10	Tayvan	389	9	10	27	46	10

22-jadval

**MDH dan ishtirok etgan jamoalar**

T/r	Mamlakatlar	Sport-chilar soni	Oltin	Kumush	Bronza	Jami	Egal-lagan o'rni
1	Qozog'iston	335	23	19	43	85	4
2	O'zbekiston	239	11	14	14	39	7
3	Tojikiston	98	2		2	4	24
4	Qirg'iziston	131		2	6	8	28
5	Turkmaniston	84		1		1	33

Biz shu kunlarda buyuk bir davrni, ya'ni 80 yildan ko'proq vaqt davom etib kelgan kommunistik imperiya siyosatidan qutulib, ozodlik, mustaqililik, "erkin bozor iqtisodiyoti" bosqichiga o'tish davrini boshdan kechirayapmiz. Yoki boshqacha qilib aytganda, sobiq Ittifoq deb atalmish imperiya changalidan ajralib chiqib, o'zimiz mustaqil hayotga

qadam qo'ya boshiadik. Endi taqdirimiz ham, kelajagimiz ham o'z qo'limizga, bundan keyingi xatti-harakatimizga bog'liq. Hamma narsani o'z qo'limiz bilan, aql-zakovatimiz va halol mehnatimiz bilan yaratishimiz kerak.

Sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish - davlatini siyosatining ustuvor yo'nalishidan biridir.

Jonajon davlatimiz fuqarolarini sog'lomlashtirish tadbirlarini uzoq davrga rejalashtirish va unga amal qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz shart.

Bugungi kunda sport - hayotiy zaruriyatdir. Kundalik turmushda uning o'rni va ahamiyati beqiyos katta. Mamlakatimiz rahbariyati o'z oldiga O'zbekistonni chinakam gullab-yashnagan o'lkaga aylantirishdek buyuk maqsadni qo'yar ekan, fuqarolar salomatligini ta'minlamay turib iqtisodiyotda, sanoatda, madaniyatda, qishloq xo'jaligida, ijtimoiy sohada yuksak natijalarga erishib bo'imasligini yaxshi tushunadi. Salomatlik avvalo, faol hayat tarziga bog'liqdir. Faollik esa jismoniy tarbiya va sportdan boshlanib, har bir fuqaroning kundalik hayotida o'z o'mini egallashi lozim.

Sog'lom avlodni voyaga yetkazmasdan turib, kelajagi buyuk davlatni qurib bo'lmaydi. Shuning uchun mamlakatimizda onalik va bolalikni himoya qilish, urumana, respublikamizda sog'liqni saqlash bo'yicha ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda."Sog'lom avlod uchun" va "Ekosan" kabi nodavlat tashkilotlarning samarali ishlayotganligi, sog'liqni saqlash bo'yicha bir qancha xalqaro dasturlar amalga oshirilayotganligi - buning yaqqol dalilidir.

Sport kishilar o'rtasida hamjihatlikni, do'stlikni mustahkamlovchi vositadir. Ayniqsa, sportning o'yin turlari bunga yaxshi misol bo'ladidi.

Sport insonga jismoniy bardamlik, ruhiy tetiklik baxsh etishi hech kimga sir etmas.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, respublikada sport berasini jadal rivojlanishiga katta ahamiyat berib kelmoqda. Viloyat tumani, shahar va qishloqlarda sport saroylari, majmualari, o'yingohilar, kortlar qurilayotir. Vatanimizda jahon andozalariga javob beradigan eng yangi texnika va anjomlarga ega bo'lgan sport institutining turpo etilishi O'zbekiston sportining kelajagiga katta undan o'yg'atadi. Chunki sport muxlislari safi kengayadi. sog'lomlashtirish guruhlari ko'payadi. Ertaga bizning o'nimizni

egallaydigan yoshlarning sport sho'balarida, ixtisoslashgan maktablarda shug'ullanib, chiniqish va jismoniy baquvvat bo'lib o'sish imkoniyatiga ega bo'layotganligi quvonarli holdir.

Iqtisodiy sohadagi yutuqlar, shu zaminda yetishib chiqqan ilm-fan va madaniyat arboblari, sport namoyandalari har qanday mamlakatning salohiyatini ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Vatanimiz sportchilari tarixda birinchi marta mustaqil jamoa bo'lib, 1996- yilgi AQShning Atlanta shahrida o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishdi, qishkisida esa 1994- yil Lillexammer (Norvegiya)da qatnashib, frestayl sporti bo'yicha oltin medalni mamlakatimiz vakili L.Cheryazova qo'liga kiritdi. Ushbu o'yinlarda qanday natija ko'rsatishdan qat'i nazar, Olimpiada o'yinlarida qatnashishning o'zi har bir sportchi uchun eng katta baxtdir. Istiqlol sharofati ila yurtimizning baxtiyor farzandlari Atlantada O'zbekistonning kelajak avlodlari uchun Olimpiada eshiklarini ochib berdi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Olimpiada qatnashchilari bilan uchrashuvda, ularni qutlar ekan, sportchilarimizning mustaqil davlat vakillari sifatida Olimpiada o'yinlarida qatnashishi muhim voqeа ekanligini ta'kidladi. Zero sport sohasidagi har bir g'alaba mamlakatning jahon miqyosida nufuzi oshishiga xizmat qiladi, yoshlar o'rtaida sportning ommalashuviga, buyuk davlat asosi bo'lgan sog'om avlodni tarbiyalashga ko'maklashadi.

"Insonlar uchun eng muhammi bu Olimpiadada qatnashish" – Xalqaro Olimpiya qo'mitasining bu shiori yildan-yilga yangicha mazmun kashf etmoqda. Endi kuchlilarning kuchlisi qatnashadigan Olimpiya o'yintariga qizg'in sport musobaqalarida yo'llanumalarni qo'iga kiritish tobora qiyinlashmoqda. Shu bois hozirning o'zidayoq ozod Vatanimiz sportchilari dastlabki katta g'alabaga erishdi deyishimiz mumkin. Ular Jahon, qit'a sport maydonlarida o'tgan musobaqalardan so'ng barcha sportchilarning orzusi bo'lgan Olimpiya o'yinlarida qatnashish huquqini beruvchi 76 ta yullanma bilan taqdirlandiilar. Atlanta Olimpiadasida shuncha sportchining O'zbekiston sharafini himoya qilishi ulkan yutuqdir.

Qaysi jabhadaligidan qat'i nazar, yer kurrasida birinchi bo'lish baxti har kimga nasib etavermaydigan ne'matdir. 1996-yil shunday baxtga 76 nafar o'g'on-qizimiz sazovor bo'ldi. Ular birinchilardan bo'lib, mustaqil O'zbekistonimiz nomidan Olimpiya o'yinlarida

maydonga tushdilar. Bu sportchilar o‘z ismlarini sport tariximiz zarvaraqlariga mangu muhrlab qo‘yishdi.

1996 - yil 19 - iyul kuni Amerika Qo‘shma Shtatlarining Atlanta shahrida (Jorjiya shtati) XXVI- yozgi Olimpiada o‘yinlarining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda jahonning 197 mamlakatidan kelgan vakillar qatnashdi. Mustaqil mamlakatlar sportchilari qatorida O‘zbekiston terma jamoamizni ko‘rish baxti bizga nasib qildi.

Atlanta Olimpiadasi, oldingilariga nisbatan eng ko‘p mamlakat va sportchilar (10700 kishi) qatnashgan Olimpiya o‘yini sifatida tarixga kirdi. Bu Olimpiada bizning sport tariximizga ham zarhal harflar bilan yoziladi. Chunki shu Olimpiadada O‘zbekiston sportchilari birinchi bor mustaqil jamoa sifatida ishtiroy etdilar.

**O, sport Sen—quvonch, sen—fayz, shodiyona!  
Kim kutsa kurashdan rohat-farog‘at,  
Zavqu shavq, hayajon, istasa g‘oyat –  
Sen qurasan davra, bayram, tantana!..**

2000-yil Avstraliyaning Sidney shahrida XXVII-Olimpiada o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. 199 mamlakatdan 11141 vakil ishtiroy etdi. O‘zbekistondan 77 sportchi ishtiroy etib, bitta oltin (M.Abdullaev - boks), bitta kumush (A.Taymazov - erkin kurash) va ikkita bronza (S.Mixaylov va R.Saidov - boks) medaliga sazovor bo‘ldi.

XXVIII- Olimpiada o‘yinlari yana Yevropaga qaytdi. Olimpiada vatani bo‘lmish Afina (Gresiya) shahrida 2004 yilning 13-29 avgustida bo‘lib o‘tdi. Afinada 202 mamlakatdan 10882 vakil ishtiroy etdi. O‘zbekiston bu bellashuvlarga 70 nafar sportchilari bilan ishtiroy etib, ikkita oltin (A.Dokturashvili - yunon-rum kurashi, A.Taymazov - erkin kurash), bitta kumsh (M.Ibragimov - erkin kurash) va birta bronza (O’.Haydarov - boks) medallariga sazovor bo‘ldi.

XXIX- Olimpiada o‘yinlari Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti Pekin shahrida 2008- yilning 8-24 - avgustida bo‘lib o‘tdi. Pekinda 204 mamlakatdan 10550 sportchi ishtiroy qildi. O‘zbekistonlik sportchilar 58 nafarni tashkil etib bitta oltin (A.Taymazov - erkin kurash), ikkita kumush (S.Tigiev - erkin kurash, A.Tangriev - dzyu-do) va uchta bronza (R.Sobirov - dzyu-do, A.Fokin - gimnastika, E.Xilko - trampolinda sakrash), medalga sazovor bo‘dilar.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonuni, 1992 - yil. Yangi tahriri – 2000 - yil.
2. "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent – 1997 - yil.
3. "O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Toshkent – 1997 - yil.
4. "Respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi O'zR VM 1999 - yil 271 sonli qarori. Yangi tahriri – 2005 - yil.
5. "Jismoniy tarbiya" fanidan namunaviy dastur, Toshkent – 2005 - yil.
6. И.Азимов "Физиология человека", Ташкент – 1991 - yil.
7. I.Azimov "Sport fiziologiyasi", Toshkent – 1993 - yil.
8. Брехман И.И. Валеология наука о здоровье, Москва – 1990.
9. Вилкин Я. "Организация работы по массовой физической культуре и спорта" Москва – 1995.
10. Efemenko A. "Ginnastika" Toshkent – 1980 - yil.
11. Ibn Sino «Tib qonunlari» Toshkent – 1999 - yil.
12. Кун Л. "Всеобщая история физической культуры и спорта" Москва – 1992.
13. Маркосян А. "Физиология", Москва – 1996.
14. Маслякова В. "Массовая физическая культура в ВУЗе"- Москва – 2001.
15. A.Normuradov "Milliy va harakatli o'yinlar" Toshkent – 2005 - yil.
16. A.Normuradov "Engil atletika" Toshkent – 2005 - yil.
17. Павлов С. "Олимпийская энциклопедия" Москва – 1980.
18. Прозоренко Р. "Физическое воспитание" Ташкент – 1996.
19. O.Rixsiyev "Ibn Sino o roli fizicheskikh upravleniyakh" Tashkent – 1999.
20. Родиченко В. "Твой олимпийский учебник" Москва – 2004.
21. Смоленский В. "Гимнастика и методика преподавания" Москва – 1997.
22. D.Safarova "Valeologiya asoslari" Toshkent – 2006 - yil.
23. T. Usmonxo'jaev "1001 milliy o'yin" Toshkent – 2005 - yil.
24. Хавин Б. "Всё об олимпийских играх" Москва – 1980.
25. Хедман Р. «Спортивная физиология» Москва – 1980.
26. Шатерников Э. "Узбекистан олимпийский" Ташкент – 2001.

## MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
Kirish.....	5
<b>I BOB. O'zbekistonda jismoniy tarbiya tarixi.....</b>	<b>7</b>
<b>II BOB. Olimpiada o'yinlari .....</b>	<b>20</b>
<b>III BOB. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya.....</b>	<b>30</b>
Semestr davrida talabalarning aqliy ish faoliyatini o'zlashtirishda jismoniy tarbiya tadbirlarining ahamiyati.....	32
Jismoniy tarbiyaning asosiy tushunchalari.....	34
Jismoniy tarbiya fanining maqsad va vazifasi.....	35
Jismoniy tarbiya fanining shakllari.....	36
O'quv materiallari nazariyasining mavzulari.....	37
Jismoniy tarbiya mashqqlari bilan mustaqil shug'ullanish.....	39
Oliy ta'lim muassasalarida sport klub faoliyati.....	43
Sog'lomlashtirish xonasini tashkil qilish.....	49
<b>IV BOB. O'zbek milliy o'yinlari.....</b>	<b>54</b>
<b>V BOB. Jismoniy tarbiya fanining ilmiy-tabiyy asoslari.....</b>	<b>67</b>
Tana haroratini boshqarilishi.....	69
Energiya sarflanishi.....	71
Mushaklar fiziologiyasi.....	72
Mushaklarda energiya almashinuvi.....	74
Qon.....	78
Qon aylanish doirasi.....	80
Nafas olish organlari.....	81
Oliy asab tarmog'ini ish faoliyati.....	82

<b>VI BOB. Sog'lom avlod – davlatimiz boyligi.....</b>	<b>84</b>
Sog'lom turmush tarzi va uning mazmuni.....	85
Ovqatlanish va ovqat hazm qilish organlari.....	86
Vitaminlar.....	90
Chiniqish.....	94
Yosh avlodga sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	95
Talabalarning ish faoliyatini tiklash va mehnat unumdorligini oshirishning qo'shimcha vositalari.....	102
<b>VII BOB. Odam organizmiga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining ta'siri.....</b>	<b>106</b>
Jismoniy harakat faoliigi.....	106
Yurak faoliyati.....	109
Shifokor nazoratining maqsadi vazifasi va shakllari.....	111
Talabalarni tibbiy tekshirishdan o'tkazish.....	112
Jismoniy rivojlanishni baholash.....	114
Tashqi kuzatish.....	114
Antropometriya.....	117
Sportda shikastlanish va kasalliklarning oldini olish.....	120
Jismoniy tarbiya jaroyonida o'z-o'zini nazorat qilish.....	121
Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida fiziologik holatlar.....	122
Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida kasallik holati va birinchi yordam ko'rsatish.....	123
<b>VIII BOB. Jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligi asoslari.....</b>	<b>126</b>
Jismoniy sifatlar.....	129
Sport tayyorgarligini rejalashtirish.....	136
Sport tayyorgarligi mashg'ulotlarini pedagogik jarayon sifatida olib borish.....	140
Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlerining ahamiyati.....	142
Talabalar turar joylarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini	

yo‘lga qo‘yish.....	143
<b>IX BOB. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish.....</b>	<b>146</b>
Jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati....	146
Kadrlarni, ishchi xodimlarni tayyorlashda mehnat, madaniy texnik tayyorgarligi va uni yuqori darajaga ko‘tarish...	149
Mehnatni bir me’yorda tashkil qilish.....	150
Ishlab chiqarish gimnastikasi.....	151
Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy tarbiya vositalarining turlari va tadbir o‘tkazish usullari.....	153
<b>X BOB. Bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy amaliy</b>	
<b>jismoniy tayyorgarligi.....</b>	<b>165</b>
Kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligi mohiyatini belgilovchi omillar.....	166
O‘quv muassasi talabalari uchun kasbiy amaliy jismoniy tayyorgartligining maqsad va vazifalari.....	168
Darsdan tashqari kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligi.....	173
Kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarliklarni rejalashtirish, tekshirish va baholash.....	177
<b>XI BOB. O‘zbekiston sporchilarining xalqaro</b>	
<b>musobaqalarda ishtiroki. Osiyo o‘yinlari.....</b>	<b>180</b>
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	188

Ashur Nazarovich Normurodov

## JISMONIY TARBIYA

Bosh muharrir: M.Saparov

Muharrir: M.Ahmedov

Musahhih: F.Safaralieva

Rassom: D.O'rinoval

«TAFAKKUR-BO'STONI» nashriyoti

Toshkent sh. Yunusobod 9-13.

Litsenziya № AI 190. 10.05.2011 y.

Bosishga ruxsat etildi: 15.07.2011 y. Bichitni 60x84<sup>1/16</sup>.  
"Times New Roman" garniturasi. Sharli bosma tabog'i 12.  
Adadi 500 dona. Buyurtma № 10/05.

«TAFAKKUR» NASHRIYOTI bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh. Chilonzor 1.